

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

**IBODULLA MIRZAYEV,
MARDONQUL BOLTAYEV**

O‘ZBEK TILI

**SamDU o‘quv-uslubiy kengashi
tomonidan nashrga tavsiya
etilgan**

SAMARQAND - 2004

Mirzayev I., Boltayev M. O‘zbek tili. Darslik. Rus guruhlar talabalari uchun. -Samarqand: SamDU, 2004-yil, 306 bet.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” talablari asosida tuzilgan ushbu darslik o‘zaro chambarchas bog‘langan shartli uch qismdan iborat. Birinchi qismda o‘zbek tilining tovushlar tizimi, ikkinchi, asosiy qismda matnlar, faol so‘z va iboralar, matn bo‘yicha savollar, dialoglar, ko‘plab turli mazmundagi mashqlar, uchinchi qismda esa o‘zbek tilining leksik va grammatik qurilishiga doir muxtasar nazariy ma‘lumotlar hamda qisqacha o‘zbekcha-ruscha lingvistik atamalar lug‘ati berildi.

Darslikni tuzishda asosiy e‘tibor til materiallari ustida talabalarning o‘zlarini ko‘proq ishlatishga qaratildiki, bu til o‘qitishning respublikamizda shakllanayotgan kommunikativ metod talablariga tamomila mosdir.

Ushbu darslik nafaqat o‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘rganayotgan talabalarga, shuningdek, tilimizni chuqur o‘rganishga bel bog‘lagan boshqa til vakillariga ham xizmat qiladi.

Mas‘ul muharrir: filologiya fanlari doktori,
professor **Ne‘matov H.G‘.**

Taqrizchilar: filologiya fanlari doktorlari,
professorlar **Karimov S.A.,**
Turniyozov N.Q.

SO‘Z BOSHI

Respublikamizning mustaqil davlat sifatida dunyo hamjamiyatida o‘zining munosib o‘rniga ega bo‘lishi bilan ko‘pgina mamlakatlarda o‘zbek tili o‘rganila boshladi. Buning ustiga, dunyo madaniyati, adabiyoti, ilm-faniga ajdodlarimizning qo‘shgan ulkan merosini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish ham juda katta. Shuning uchun bo‘lsa kerak, birgina Amerika Qo‘shma Shtatlarining Texas-Ostin, Pensilvaniya, Indiana, Kolumbiya, Vashington, Viskonsin, Kaliforniya, Yuta kabi universitetlarining talabalari o‘zbek tilini ilmiy va amaliy jihatdan o‘rganmoqdalar. Bu esa, o‘z navbatida, o‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘rgatishning yangi-yangi usul va yo‘llarini izlab topishni taqozo etadi.

Respublikamizning oliy o‘quv yurtlarida rus, tojik va boshqa tillarda ta‘lim olayotgan talabalar uchun hozirgi davr talablariga javob bera oladigan maxsus o‘quv qo‘llanmalari, darsliklar yaratilmagan hisobi. Borlari ham talabalarda so‘zlashish malakasini shakllantirishdan ko‘ra, ko‘proq grammatik qonun-qoidalarini o‘rgatishga qaratilgan.

Mavjud ehtiyoj va talablarni hisobga olgan holda, oliy o‘quv yurtlarining boshqa tillarda ta‘lim olayotgan talabalarining o‘zbek tilini o‘rganishlariga yaqindan ko‘maklashish maqsadida mazkur darslik yaratildi. Uni tuzishda ingliz, fransuz, nemis va rus tillarini o‘qitish-o‘rgatish bo‘yicha to‘plangan tajribalar hamda o‘zbek tilshunosligida keyingi yillarda yaratilgan ishlarga tayanildi.

Ma‘lumki, o‘zbek xalqi o‘zining tarixiy taraqqiyoti davomida ko‘plab yozuvlardan foydalangan. Bunday yozuvlar sirasiga oromiy, yunon, karoshta, sug‘d, xorazm, kushon, eftalit, pahlaviy, suriya, hind, turk-run, moniy, braxma, uyg‘ur, arab, lotin va kirill yozuvlari kiradi.

Urxun-Enasoy yodgorliklari yozib qoldirilgan alifboda (dulbarjin yoki shartli ravishda turk-run yozuvi deb ham ataladi) 41 ta harf

bo‘lib, ulardan beshtasi unli tovushlarni, qolganlari undosh tovushlarni ifodalash uchun xizmat qilgan. Bu alifbodagi matnlar yuqoridan pastga yoki o‘ngdan chapga qarab yozilgan va shunday o‘qilgan. Yuqoridan pastga qarab yozilganda harflar chap yoniga yotqizilgan holda bitilgan va satrlar ham o‘ngdan boshlangan.

Uyg‘ur alifbosida tovushlarni ifodalovchi 18 ta harf bo‘lib, ularning uchtagina unli tovushlarni ifodalagan. Bu yozuv eng qadimgi davrlarda kashf qilinganligi bilangina emas, balki qariyb XV asrgacha arab yozuvi bilan yonma-yon qo‘llanib kelganligi bilan ham diqqatga sazovor. U ham o‘ngdan chapga yozilib, harflar ikki yoki faqat bir tomonidan tutashtirilgan.

Arab yozuviga asoslangan eski o‘zbek alifbosida 32 ta harf mavjud. Shulardan to‘rttasi unli tovushlarni, yigirma sakkiztasi esa undosh tovushlarni ifodalaydi. Harflar alifbo tartibida, so‘z boshida, so‘z o‘rtasida va so‘z oxirida alohida ko‘rinishlarga ega. Bu yozuvdagi matn ham o‘ngdan chapga qarab yoziladi va o‘qiladi, bosh harflar qo‘llanilmaydi, tinish belgilari ishlatilmaydi, so‘zlar bo‘g‘inlab satrdan-satrga ko‘chirilmaydi. Arab yozuvi yurtimizda XX asrning 30-yillarigacha asosiy alifbo sifatida qo‘llanilgan.

1940-yilgacha foydalanilgan lotin yozuviga asoslangan alifboda 30 ta harf bo‘lib, ularning oltitasi unli, qolganlari undosh tovushlarni ifodalash uchun xizmat qilgan. Bu alifboga tovush ifodalamaydigan belgilar kiritilmagan (1-ilovaga qarang).

1940-yil 8-mayda kirill yozuviga o‘tish to‘g‘risida qonun qabul qilindi. Bu alifboda 33 ta harf va 2 ta belgi bor. Ularning o‘ntasi unli tovush va tovush birikmalarini, qolganlari undosh tovushlarni ifodalash uchun xizmat qilib keldi. Kirill yozuvi 2005-yil 1-sentabrgacha qo‘llanishda bo‘ladi (2-ilovaga qarang).

1993-yil 2-sentabrda «Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida» qonun qabul qilinib, yangi alifbo tasdiqlandi (3-ilovaga qarang). Bu alifbo 31 harf va bir tutuq belgisi - apostrofdan iborat etib belgilandi. Yangi alifbodagi ba‘zi harflarning jahon kommunikatsiya tizimiga kirishimizga ma‘lum qiyinchiliklar tug‘dirishi mumkinligi hisobga olinib, 1995-yil

6-mayda unga tuzatish va qo'shimchalar kiritildi (4-ilovaga qarang). Davr talablariga mos keluvchi yangi alifbomizda 26 harf va uchta harflar birikmasi bor.

Hozir o'zbek tilini o'rganuvchilarga kirill va lotin yozuviga asoslangan ikki alifbo xizmat qilmoqda. Darslikning fonetika qismida o'zbek tili tovushlari har ikki alifboda qiyosan berildi. Bu esa adabiyotlardan imkon qadar unumli foydalanishga yordam beradi, deb o'ylaymiz.

Mazkur darslik bu borada amalga oshirilayotgan dastlabki tajribalardan bo'lganligi tufayli ayrim kamchiliklardan xoli bo'lmasligi mumkin. Shuning uchun ham unga taalluqli fikrlar, taklif va mulohazalar mamnuniyat bilan qabul qilinadi. Manzilimiz: 703004, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy, Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti, o'zbek filologiyasi fakultetining amaliy tilshunoslik, o'zbek tili va adabiyoti o'qitish metodikasi kafedrasini.

Mualliflar.

1 - MASHG'ULOT

FONETIKA. UNLI TOVUSHLAR VA ULARNING YOZUVDAGI IFODASI.

Fonetika (yunoncha «tovush») tilshunoslikning nutq tovushlarini didaktik nuqtai nazardan o'rganadigan sohasidir.

Harflarning ma'lum tartibda joylashtirilgan yig'indisiga alfavit (yoki alifbo) deyiladi. Kirill yozuviga asoslangan amaldagi alifboda 33 harf va 2 ta tovush bildirmaydigan belgi mavjud bo'lib, ular quyidagi tartibda joylashgan: Аа, Бб, Вв, Гг, Дд, Ее, Ёё, Жж, Зз, Ии, Йй, Кк, Лл, Мм, Нн, Оо, Пп, Рр, Сс, Тт, Уу, Фф, Хх, Цц, Чч, Шш, Ъъ, Ьь, Ээ, Юю, Яя, ʃ , ^{ao}, ʒ /₄, ²³.

Bu alifboda rus tiliga xos Щщ, Ъъ harflari o'z ifodasini topmagan. Shunday harf bilan yoziladigan so'zlar imlo qoidalarimizga ko'ra *и ч* harflar birikmasi va *i* harfi bilan yozilaveradi: *борщ* - *borshch*, *щ* - *shchi*, *мещан* - *meshchan*, *Тында* - *Tinda*, *Сычёвка* - *Sichyovka* kabi.

Lotin yozuviga asoslanuvchi yangi o'zbek alifbosida 26 harf va 3 ta harflar birikmasi mavjud. Ularning joylashish tartibi quyidagicha:

Aa, Bb, Dd, Ee, Ff, Gg, Hh, Ii, Jj, Kk, Ll, Mm, Nn, Oo, Pp, Qq, Rr, Ss, Tt, Uu, Vv, Xx, Yy, Zz, O'o', G'g', Sh sh, Ch ch, Ng ng.

Har bir madaniyatli, ma'lumotli, mutaxassis-xodim davlat tilida to'g'ri va xatosiz, ta'sirchan va ma'noli, barchaga manzur uslubda yoza olishi va yoza bilishi lozim. Buning uchun esa o'zbek tilining qonun-qoidalari hamda talaffuz me'yorlarini yetarli darajada bilishi, ularga o'zining og'zaki va yozma nutqida amal qila olishi kerak.

UNLI TOVUSHLAR

Hozirgi o'zbek adabiy tilida oltita unli tovush mavjud deb e'tirof etilgan bo'lib, ular kirill alifbosida o'nta harf bilan yozib kelinmoqda. Ular quyidagilar: a, o, y, ъ, и, э, е, ё, ю, я. Yangi alifboda esa unli tovushlar uchun oltita harf qabul qilingan: a, o, u, o', i, e.

1. Aa harfi orqali til oldi, lablashmagan, keng unli tovush ifodalanadi. Kirill va lotin yozuviga asoslangan har ikki alifboda bosma shakli ham, yozma shakli ham bir xil. Bu tovush **q, g', x** chuqur til orqa undoshlari bilan yonma-yon kelgan hollarda til orqa unlidek talaffuz qilinishi mumkin: *qarg'a, g'alaba, qalin, xalq, xamir, g'azab* kabi. Qolgan hollarda til oldida talaffuz etiladi: *mana, ona, aka, ota* kabi.

Topshiriq. Quyidagi so'zlarni to'g'ri talaffuz qiling .

Adib, adir, adolat, albatta, alla, amal, ammo, anor, aqlli, arava, ariza, arxar, asbob, atama, axir, axloq, baxt, baqa, buqa, taqa, chaqa, hammom, aholi, mahalla.

2. Oo harfi til orqa, lablashgan, keng unli tovushni yozish uchun xizmat qiladi. Uning ko'rinishi ham har ikki alifboda bir xil. Masalan: *olim, opa, olma, bola, xola, chol, navo, davo, ibo* kabi. Faqat o'zlashma baynalmilal so'zlarda [o'], [a], [i] tovushlariga yaqin talaffuz etiladi: *opera, rol, traktor, direktor, okean* kabi.

Topshiriq. Quyida berilgan so'zlarni to'g'ri talaffuz qiling.

Obod, odat, odim, oila, oktabr, olim, omonat, oqim, operator, orol, oson, ozod, ochiq, og'ir, ochko, ocherk, podshoh, poema, qassob, qor, qozon, sochiq, toza, bozor.

3. Uu harfi lablashgan, til orqa, tor unli tovushning yozuvdagi ifodasidir. Kirill alifbosida V y ko'rinishiga ega edi. Rus tilidagi [y] tovushiga nisbatan qisqaroq talaffuz etiladi: *kuz, uz, buz, uzun* kabi.

Topshiriq. Quyidagi so'zlarni to'g'ri talaffuz qiling.

Ukki, ulug', umid, umuman, urush, uslub, ustoz, uyqu, uzoq, uzum, ushoq, uch, uchqun, mushuk, muchal, quduq, quvur, qum, quruq, buzoq, burun, buyrak, tugun, kukun.

4. O'o' harfi lablashgan, til orqa, o'rta keng unli tovushni ifodalaydi. Kirill yozuviga asoslangan alifboda ъ ko'rinishiga ega edi. Rus tilida bunday tovush yo'q. Shunga ko'ra bu tovushni [o] va [y] unli tovushlari o'rtalig'idagi tovush deb hisoblash mumkin. Asosan so'zning boshida ko'proq uchraydi, o'zlashma so'zlar oxirida ham uchraydi: *o'n, o'lka, o'rtoq, qo'rq, to'rt, bo'g'in, cho'qqi, qo'pol, navro'z, obro'* kabi.

Topshiriq. Quyidagi so'zlarni to'g'ri talaffuz qiling.

O'jar, o'lan, o'pka, o'rdak, o'roq, o'tkir, o'zak, o'g'il, o'choq, g'o'ra, g'o'za, sho'r, sho'rva, cho'mich, cho'qqi, to'rt, to'siq, to'qay, to'g'ri, ro'yxat, ro'zg'or, so'ri, so'z, no'xat, mo'yna.

5. Ii harfi orqali o'zbek tilidagi til oldi, lablashmagan, tor unli tovush ifodalanadi. Kirill alifbosida *Ii* u shakliga ega edi. Bu tovush ham chuqur til orqa [q], [g'], [x] undosh tovushlari bilan yonma-yon kelganda rus tilidagi [ы] unli tovushiga yaqin talaffuz etiladi: *tiqin, biqin, chaqin, og'iz, bo'g'iz, qiziq, taxir, oxir* kabi. Qolgan hollarda qisqa unli tovush tarzida talaffuz etiladi: *bil, til, biz, siz, bilak, bilan, tilak, tish, ish* kabi.

Topshiriq. Quyidagi so'zlarni to'g'ri talaffuz qiling.

Idish, idora, ijod, ilon, imlo, imzo, igna, inson, iroda, imkon, ixtiro, ixcham, ixtiyor, iqtisod, iqlim, himoya, ahil, ruhiy, hikoya, og'ir, bag'ir, qo'ng'ir.

6. E e harfi til oldi, lablashmagan, o'rta keng unli tovushni yozuvda berish uchun xizmat qiladi. Kirill alifbosida Э э shakliga ega edi. Asosan so'zning boshida uchraydi: *el, eshik, ekin, ertak, erkak, elak* kabi. Yangi alifboga o'tilgandan so'ng har ikkala holatda ham bir harf qo'llanadigan bo'ladi. Shuningdek, o'zlashma so'zlar o'rtasi va oxirida ham uchraydi: *poeziya, poema, duet, duel, karate* kabi.

Topshiriq. Quyidagi so'zlarni to'g'ri talaffuz qiling.

Egri, ellik, endi, eski, echki, etik, e'tibor, e'tiqod, e'lon, etak, eshak, esdalik, erkin, epchil, enaga, egov, eshkak, e'tiroz, eman.

Kirill yozuvi asosidagi alifboda yana e, ё, ю, я harflari ham mavjudki, ular [y] lashgan tovushlarni yozuvda ifodalashga xizmat qiladi. E harfi [y] undosh tovushi bilan [e] unli tovushining birikuvidan, ё harfi [y] undosh tovushi bilan [o] unli tovushining birikuvidan, ю harfi [y] undosh tovushi bilan [u] unli tovushining birikuvidan, я harfi esa [y] undosh tovushi bilan [a] unli tovushining birikuvidan hosil bo'lgan tovush birikmalarini yozuvda ifodalaydi. Masalan: етти - yetti, елка - yelka, ер - yer, емоль - yemoq, ёлҳон - yolg'on, ёоҳ - yog', ёмҳур - yomg'ir, ёстий - yosti, юлдуз - yulduz, юмиоль - yumshoq, юммоь - yummoq, ютмоь - yutmoq, яшил - yashil, яьин - yaqin, янтоь - yantoq, ярим - yarim kabi. Yangi alifboga o'tilishi bilan so'zlarni bunday turli-tuman yozishlarga barham beriladi.

TOPSHIRIQ. Quyidagi olmoshlarni eslab qoling.

men	я	biz	мы
sen	ты	siz	вы
u	он (она)	ular	они
meniki		мой	(моя, моё)
seniki		твой	(твоя, твоё)
uniki		его	(её)
bizniki		наш	(наша)
sizniki		ваш	(ваша)
ularniki		их	
o'ziniki		свой	(своя, своё)
u, o'sha		тот	(та, то, те)
shunday		такой	(-ая, -ое, ие)
shuncha		столько	
hamma, barcha		весь	(вся, всё, все)
har qanday		всякий	
har kim		каждый	

har bir	любой
O'zi (o'zlari)	сам (сама, само, сами)
kim?	кто?
nima?	что?
qaysi?	какой?
kimniki?	чей? (чья? чьё?)
qaysi?	который?
qancha?	сколько?
qayerda?	где?
qayerdan?	откуда?
qachon?	когда?
nega?	почему?
nimaga? nima uchun?	почему?
nega? nima maqsadda?	зачем?
hech kim	никто
hech nima (narsa)	ничто
hech qanday	никакой
hech kimniki emas	ничей
aslo, mutlaqo	никак
hech qayerda(n)	нигде
hech qayoqqa, hech yoqqa	никуда
hech qayoqdan	ниоткуда
hech qachon	никогда
hech ham	нисколько
keragi yo'q, hojati yo'q	незачем, не стоит
u holda, unday bo'lsa	тогда
shunga ko'ra, shuning uchun	потому

1-mashq. Quyidagi so'zlarni tarjima qiling.

O'ngga, chapga, o'ngdan, chapdan, oldda, orqada, olddan, orqadan, olg'a, orqaga, yuqorida, pastda, yuqoriga, pastga, ichkarida, tashqarida, keyin, so'ng, har yerda, hamma joyda, bu yerda, shu yerda, bunda, bu yerdan, u yerdan, juda, g'oyat,

nihoyatda, ko‘p, oz, kam, bir oz, ozgina, andak, sal-pal, ozroq, deyarli, yetarli, yetarli emas.

2-mashq. Nuqtalar o‘rniga **o** yoki **a** harflaridan mosini qo‘yib, so‘zlarni ko‘chiring.

avv...l	b...shoq	b...dan	b...g‘cha	v...raq
gavh...r	j...mg‘arma	bog‘b...n	b...tqoq	b...la
bolg‘...	alb...tta	d...no	b...rvaqt	varr...k
...shqozon	d...vlat	janj...l	d...ira	jodug...r
...mal	j...nivor	b...xt	v...tan	j...nli
d...ngasa	jann...t	k...sa	...rang	b...hona
v...hima	d...raxt	j...rima	l...la	mot...m
...rcha	b...hor	v...‘da	d...g‘al	m...hir
j...sur	nod...n	vaf...	nord...n	..maki
darv...za	t...g‘ora	...lti	...dam	t...maki
...bod	j...hl	...voz	od...t	osm...n
ost...na	oqs...qol	och...fat	k...sofat	som...n

3-mashq. Nuqtalar o‘rniga **u** yoki **o‘** harflaridan mosini qo‘yib, so‘zlarni ko‘chiring va tarjima qiling.

...zak	k...z	...pka	...simlik	b...zoq
...o‘zbek	k...z	q...shtkir	d...st
...zoq	s...z	q...sh	...loq	...ch
...zuk	s...z	...rmon	b...taloq	...ch
...zum	...ng	...lug‘	t...rt	t...rmush
...yin	...n	...mid	t...rt	q...ruq
...yinchoq	...n	...nvon	...g‘il	q...m
...y	...roq	t...n	t...g‘ri	...g‘ri
...y	...rtoq	t...n	m...shuk	q...shiq
...yqu	k...l	...nli	q...l	...zun
...lka	k...l	..rg‘u	q...l	...tin
s...r	k...r	z...r	t...r	q...r

4-mashq. Lug‘at yordamida quyidagi so‘zlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri yozilganligini aniqlang.

bugun	buyoq	gulxan	bo‘y	kumush
buyin	mo‘mkin	nuqson	bulut	buri
gumbur	bug‘in	kunduz	bug‘ton	musobaqa
no‘qta	bultur	guzal	guruch	gusht
kuchuk	duzax	mushkul	dustlik	pul
juja	burgut	jumrak	dubulg‘a	kuza
muallim	kuylak	mushak	kuklam	pufak
kurshapalak	burun	muylov	juft	nuxat
muddat	pulat	muqaddas	ruyxat	suyak
rumol	butun	mo‘dir	suroq	mug‘ambir

5-mashq. Nuqtalar o‘rniga **i** yoki **u** harflaridan mosini qo‘yib ko‘chiring.

tuz...m	yoq...sh	bul...t	ko‘r...k	..t
kum...sh	to‘q...v	bo‘y...n	o‘r...k	ur...g‘
mud...r	yoq...v	to‘lq...n	ko‘ng...l	o‘r...n
mumk...n	to‘q...moq	uchq...n	huq...q	qosh...q
o‘r...n	bo‘l...m	bur...n	ho‘k...z	but...n

6-mashq. Nuqtalar o‘rniga **ye, yo, yu, ya** harf birikmalaridan mosini qo‘yib ko‘chiring va tarjima qiling.

...gona	...l	...vinmoq	...v
...lim	...yov	...gurdak	...vvoyi
...dlamoq	...lka	...kun	...lang‘och
...lduz	...z	...ng	...gurmoq
...lla	...z	...zuv	...ngil
...maloq	...r	...r	...zuvchi
...lmog‘iz	...lvormoq	...ngi	...mshoq
...pqa	b...t	...lg‘iz	b...hayo
...proq	...rak	v...rgul	...lg‘on
...rmoq	...sanmoq	d...vor	...xlamoq
...shamoq	...toqxona	bu...m	qu...n

k...lin	bu...k	...shin	s...vinch
ba...n	nih...t	su...k	xa...l
tu...q	t...r	hiko...	sh...r
a...l	su.....q	bo'.....q	madani...t
imkoni...t	sa...hat	s...zgir	faoli...t
...kshanba	...qumli	...rqiroq	...mon

Topshiriq. Quyidagi topishmoqlarni ifodali o'qing va toping.

Tili yo'q, oyog'i yo'q, Hisoblaydi, yuradi. Kecha-kunduz yursa ham, U bir joyda turadi. (soat)	Yerda asta unadi, Oftob chiqsa kuladi. U bahorning elchisi Buni hamma biladi. (boychechak)
--	--

DARS JARAYONI BILAN BOG'LIQ SO'Z VA JUMLALARNI YODDA TUTING

turing - встаньте
o'tiring – сядьте
yozing – пишите
o'qing – читайте
so'rang – спросите
eshiting (tinglang, quloq soling) – слушайте
tushunarlimi? – понятно?
diqqat qiling – обратите внимание
gapirmang, gaplashmang – не разговаривайте
qaytaring, takrorlang – повторите
doskaga chiqing – выйдите к доске
jim o'tiring – тихо сидите
Kirsam maylimi? Kirish (ga) mumkinmi? – Можно войти?
Kiring. Yo'q, kirmang! – Войдите. Нет, не входите!

Nega kech qoldingiz? – Почему опаздали?
Transport bo'lmadi. Uxlab qolibman. – Транспора не было.
Проспал.
Bugun kim navbatchi? – Сегодня кто дежурный?
Bugun men navbatchiman – Сегодня я дежурный.
Bugun qaysi kun? – Сегодня какой день (недели)?
Bugun seshanba – Сегодня вторник.
Bugun nechanchi? – Сегодня какое число?
Bugun... noyabr – Сегодня... ноября.
Navbatchi, latta va bo'r keltiring! – Дежурный, тряпки и мель принесите.
Navbatchi, bugun darsga kim kelmagan? – Дежурный, кто отсутствует?
Hamma darsga tayuormi? – Готовы ли все к занятию?
Hamma darsga tayyor – Все готовы к занятию.
Men darsga tayyor emasman – Я не готов к занятию.
O'tgan darsda biz qaysi mavzuni o'tgan edik? – Какую тему проходили на прошлом уроке?
Biz o'tgan darsda ... mavzusini (matnini) o'tgan edik – Мы на прошлом уроке прошли ... (текст...).
Mavzuni o'qidingizmi? – Тему усвоили?
Matnni tarjima qildingizmi? – Текст переводили?
Matn bo'yicha savollar tuzdingizmi? – Составили вопрос по тексту?
Savollarga javob berdingizmi? – Ответили на вопросы?
Vazifani (mashqni) bajardingizmi? – Домашнее задание (упражнение) выполнили?
Mavzuni (matnni) aytib bering – Тему (текст) расскажите.
Daftaringizni keltiring – Принесите тетрадь.
Savol bering – Задавайте вопросы.
Javob bering – Отвечайте.

Kechirasiz, bir daqiqaga chiqsam maylimi? –
Извените, можно выйти на минуту?

Chiqing. Tez qayting (keling). Yo‘q, mumkin emas –

Выйдите. Быстрее вернитесь. Нет, нельзя выйти.

So‘rasam maylimi? Savol bersam maylimi? – Можно спросить?

Shovqin qilmang! – Не шумите!

Qattiqroq (balandroq, sekinroq) gapiring – Говорите погромче
(потиху).

Eshitilmayapti – Не слышно.

Daftar, kitoblarni tayyorlang. Yangi mavzu(matn) o‘tamiz –
Приготовьте тетради, книги. Новую тему (текст) будем
проходить.

TOPSHIRIQ. O‘zbek tilining unli tovushlari va ularni
ifodalovchi harflar haqida o‘rganganlaringizni yozma bayon eting.

2 - MASHG‘ULOT

UNDOSH TOVUSHLAR VA ULARNING YOZUVDAGI IFODASI. BO‘G‘IN. URG‘U.

Undosh tovushlar faqat shovqindan yoki ovoz va shovqinning qo‘shiluidan hosil bo‘ladi. O‘zbek tilidagi undosh tovushlar kirill alifbosida 23 ta harf bilan ifodalanadi. Ular quyidagilar: **б, в, г, д, ж, з, й, к, л, м, н, п, р, с, т, ф, х, ц, ч, ш, љ, ђ, ќ.** Yangi alifboda undosh tovushlar 20 harf va 3 harflar birikmasi bilan ifodalanadi. Ular: **b, d, f, g, h, j, k, l, m, n, p, q, r, s, t, v, x, y, z, g‘, sh, ch, ng.**

1. **Бб** harfi lab-lab, portlovchi, jarangli undosh tovushni ifodalaydi. Yangi alifboda **Bb** shakliga ega. So‘z oxirida jarangsizlangan holda talaffuz etiladi. Qiyoslang: *bola, bobo, obida, maktab, kitob, oftob* kabi.

2. **Vv** lab-lab, sirg‘aluvchi, jarangli, o‘zlashgan so‘zlarda esa lab-tish, portlovchi undosh tovushni ifodalash uchun xizmat qiladi. Yangi alifboda **Vv** ko‘rinishiga ega. Misollar: *qovun, sovun, suv, quvon, ov, vint, vagon, vino, vaxta, valent* kabi.

3. **Гг** harfi til orqa, portlovchi, jarangli undosh tovushni ifodalaydi. Yangi alifbodagi ko‘rinishi: Gg. So‘z oxirida, asosan, o‘zlashma birliklarda uchraydi. Misollar: *gala, gap, go‘sh, bugun, tugun, lagan, enaga, geolog, biolog, xirurg, filolog, monolog* kabi.

4. **Дд** harfi til oldi, portlovchi, jarangli undosh tovushni ifodalaydi. Yangi alifboda **Dd** ko‘rinishiga ega.

So‘z oxirida jarangsizlashadi. Qiyoslang: *dala, doston, badan, odat, saodat, obod, ozod, avlod, daromad, shogird* kabi.

5. **Жж** harfi o‘zbek tilida ikki undosh tovushni yozuvda ifodalash uchun xizmat qilib kelyapti. Ulardan biri - fors-tojik, rus tillaridan o‘zlashgan so‘zlarda uchrovchi til oldi, sirg‘aluvchi, jarangli undosh tovush bo‘lsa, ikkinchisi - til oldi, qorishiq, portlovchi, jarangli undosh tovushdir. Yangi alifbodagi ko‘rinishi - **Jj**. Misollar: *anjuman, ijara, injil, jannat, jajji, ajdar, sajda, tarjima, majnuntol, abajur, jirafa, jyuri* kabi.

6. **Зз** harfi til oldi, sirg‘aluvchi, jarangli undosh tovushni ifodalaydi. Yangi alifboda **Zz** shakliga ega. Misollar: *zarur, aziz, so‘z, buzoq, qiziq, oziq, zamon, zo‘r, bazo‘r, uzuk, bezak* kabi.

7. **Йй** harfi til o‘rta, sirg‘aluvchi, jarangli undosh tovushni ifodalaydi. Yangi alifboda **Yy** shaklida. Misollar: *yigit, yil, yo‘l, uy, to‘y, choy, chiroy, o‘yin, bo‘yin, qiyin, tanglay, manglay* kabi.

8. **Кк** harfi yaqin til orqa, portlovchi, jarangsiz undosh tovushni ifodalash uchun xizmat qiladi. Yangi alifbodagi shakli ham amaldagi alifbodagi shakliga o‘xshash: Rr Faqat kichik bosma va yozma shaklida ozgina farqi bor: **Kk**. Misollar: *eshik, kurash, kurka, ko‘kat, ko‘ylak, ko‘z, ko‘mir, ko‘p* kabi.

9. **Лл** harfi til oldi, sirg‘aluvchi, jarangli undosh tovushni ifodalaydi. Yangi alifboda **Ll** ko‘rinishiga ega. Rus tilidagi shu tovushga nisbatan yumshoq talaffuz etiladi. Misollar: *lab, tol, bol, lola, xola, lo‘li, quloq, lotin, oltin, kul, hazil* kabi.

10. **Mm** harfi lab-lab, burun, sonor, portlovchi, jarangli undosh tovushni yozuvda ifodalaydi. Yangi alifboda kichik bosma va yozma shakli bir oz farqli: **Mm**. Misollar: *malika, mumkin, bo'lim, madaniyat, mamnun, sanam* kabi.

11. **Hh** til oldi, portlovchi, burun, jarangli undosh tovushni ifodalaydi. Yangi alifbodagi ko'rinishi – **Nn**. Misollar: *non, obuna, dona, nodir, nazar, necha, namuna, nishon, imkon, tana* kabi.

12. **Pp** lab-lab, portlovchi, jarangsiz undosh tovushni ifodalaydi. Yangi alifboda **Pp** shakliga ega. Misollar: *ko'pik, poliz, opa, pul, parranda, sepkil, ko'p, to'p, qop, sergap, hasip, poytaxt* kabi. P

13. **Pp** harfi til oldi, titroq, jarangli undosh tovushni yozuvda ifodalaydi. Yangi alifboda **Rr** ko'rinishiga ega. Misollar: *randa, arra, ari, bo'ri, ruxsat, taxir, temir, ko'r, tarona, orzu* kabi.

14. **Cc** harfi til oldi, sirg'aluvchi, jarangsiz undosh tovushni ifodalash uchun xizmat qiladi. Yangi alifboda **Ss** shakliga ega. Misollar: *sim, mis, sumalak, asosan, havaskor, nafas, olmos, simob, sakkiz* kabi.

15. **Tt** harfi til oldi, portlovchi, jarangsiz undosh tovushni ifodalaydi. Yangi alifboda kichik bosma va yozma shaklida farqi bor: **Tt**. Misollar: *tandir, tomir, tegirmon, ota, katta, tut, ruxsat, rohat* kabi.

16. **Ff** harfi orqali lab-tish, sirg'aluvchi, jarangsiz undosh tovush yozuvda ifodalanib kelinmoqda. Yangi alifbodagi ko'rinishi - **Ff**. Asosan o'zlashma so'zlarda uchraydi. Shuning uchun ham [p] undosh tovushiga yaqin talaffuz etiladi. Misollar: *afandi, fasl, folbin, ofarin, harf, safar, nafar, fil, fikr, naf, saf* kabi.

17. **Xx** harfi chuqur til orqa, sirg'aluvchi, jarangsiz undosh tovushni ifodalaydi. Yangi alifboda ham shunday shaklga ega. Misollar: *xabar, xatar, xotin, taxta, paxta, tarix, mix, sho'x* kabi.

18. **Uu** harfi til oldi, qorishiq, jarangsiz undosh tovushni ifodalaydi. Faqat o'zlashma so'zlardagina uchraganligi tufayli yangi alifboga kiritilmagan. Imlo qoidalari doirasida shunday

tovushli so'zlar **s** harfi, **ts** harflar birikmasi bilan yoziladi. Misollar: *sex, konsert, sirk, sement, sirkul, marganes* kabi.

19. **Чч** harfi til oldi, qorishiq, portlovchi, jarangsiz undosh tovushni yozuvda ifodalaydi. Yangi alifboda quyidagi harflar birikmasi bilan berilgan: **Ch ch**. Misollar: *chuchvara, chaqaloq, chumoli, soch, guruch, ishonch, achchiq, chuchuk, chilangar, cho'chqa* kabi.

20. **Шш** harfi til oldi, sirg'aluvchi, jarangsiz undosh tovushni yozuvda ifodalaydi. Yangi alifboda **Shsh** harflar birikmasi bilan beriladi. Misollar: *shamol, shimol, insho, kishi, pashsha, osh, tosh, kumush, tush* kabi.

21. ^{ao} harfi o'zbek tilining o'ziga xos chuqur til orqa, portlovchi, jarangsiz undosh tovushini ifodalash uchun xizmat qiladi. Shakl jihatidan **κ** harfiga yaqin bo'lganligi uchun ba'zi talabalar talaffuz va yozuvda ularni adashtiradilar. Yangi alifbodagi shakli - **Qq**. Misollar: *qishloq, qoshiq, qarmoq, so'qmoq, ariq, qo'riq, cho'qqi, botqoq, chaqqon, chaqin* kabi.

22. **ḡḡ** harfi orqali til orqa, sirg'aluvchi, jarangli undosh tovush yozuvda ifodalanadi. Yangi alifboda quyidagi ko'rinishga ega: **G'g'**. Misollar: *g'alaba, g'arb, tog'ora, tog'a, bog', qarg'a, to'g'nag'ich, to'g'ri* kabi.

23.²³ harfi bo'g'iz, sirg'aluvchi, jarangsiz undosh tovushini ifodalaydi. Yangi alifboda **Hh** ko'rinishiga ega. Shaklan **x** harfiga o'xshash va talaffuzda ham yaqin bo'lganligi uchun bu tovush hamda harflarni chalkashtirish hollari ko'p uchraydi. Yangi alifboga o'tilgandan so'ng ular o'rtasidagi o'xshashlik yo'qolib, xatoliklarga yo'l qo'yish ham barham topadi. Misollar: *halqa, hamma, hosil, ohu, baho, zahar, muhandis, olloh, shoh, guvoh, guruh, siyoh, ahamiyat, suhbat* kabi.

24. O'zbek tilida **hr** harflar birikmasi bilan yozib kelinayotgan til orqa, portlovchi, jarangli undosh tovush mavjud bo'lib, unga alifboda alohida harf ajratilmagan. Yangi alifboda **ng** harflar birikmasi o'z ifodasini topgan: **Ng ng**. Bu tovush so'z boshida uchramaydi. Rus tilida yo'q. Asosan, so'z oxirida, ayrim

hollarda soʻz oʻrtasida ham keladi. Misollar: *tong, ming, bodring, shudring, koʻngil, singil, yeng, oʻng, durang, keng, rang, chang, kulangi, lungi, garang, ong* kabi.

Ayirish Ъь va yumshatish Ъь belgilari. Bu har ikkala belgi ham oʻzlashma soʻzlarda qoʻllanadi. Ayirish belgisi *объект, субъект, подъезд, разъезд* kabi rus tilidan, *санъат, суръат, љалъа, даъво, шеър, меъмор* kabi arab tilidan oʻzlashgan soʻzlarda ishlatiladi. Yangi alifboga tovush bildirmaydigan belgilar kiritilmagan. Unga kiritilgan ayirish (tutuq ') belgisi faqat arab tilidan oʻzlashgan soʻzlardagina ishlatiladi. Ruscha-baynalmilal soʻzlar tutuq belgisiz qoʻllanadi. Yumshatish belgisi rus tilidan kirib kelgan *январь, модель, мебель* kabi soʻzlarda qoʻllanadi. Agar bu soʻzlarga qoʻshimcha qoʻshilsa, yumshatish belgisi tushib qoladi: *январда, моделнинг, мебеллар* kabi. Yangi alifboda esa yumshatish belgisi mutlaqo ishlatilmaydi.

BOʻGʻIN. Bir havo zarbi bilan talaffuz etiladigan birgina tovush yoki bir necha tovush yigʻindisiga boʻgʻin deyiladi. Soʻzda boʻgʻinlar miqdori uning tarkibidagi unli tovushlar soniga bogʻliq. Soʻzda nechta unli tovush ishtirok etayotgan boʻlsa, boʻgʻinlar soni ham shuncha boʻladi. Boʻgʻinlar unli tovush bilan tugagan boʻlsa (*o-na, a-ka, mu-sho-i-ra*) ochiq boʻgʻin hisoblanadi, undosh tovush bilan tugagan boʻlsa (*mak-tab, meh-nat, qat-tiq*) yopiq boʻgʻin sanaladi. Oʻzbek tilida soʻzlarga qoʻshimchalar qoʻshilishi bilan ularning boʻgʻinlarga ajralishida oʻzgarish yuz berishi mumkin: *qish-loq, qish-lo-gʻi-miz, o-na, o-nam-ga* kabi. Oʻzbek tilida soʻzlar ikkita unli yoki undosh tovush bilan boshlanmaydi, soʻz oxirida esa ikkitadan ortiq undosh tovush yonma-yon kelmaydi, qoʻsh undoshlarning ham oxirgisi talaffuzda tushib qoladi: *past, baland, Samarqand, Toshkent* kabi.

URGʻU. Gapda biror bir soʻzning, soʻz tarkibidagi biror boʻgʻinning boshqalariga nisbatan kuchliroq ohang bilan talaffuz etilishiga urgʻu deyiladi. Boʻgʻinga tushgan urgʻu - soʻz urgʻusi, gap tarkibidagi soʻzga tushgan urgʻu - mantiq urgʻusi deb yuritiladi.

Oʻzbek tilida soʻz urgʻusi, asosan, soʻzning oxirgi boʻgʻiniga tushadi va soʻzga qoʻshimchalar qoʻshilishi bilan urgʻu har safar oxirgi boʻgʻinga koʻchaveradi. Masalan: *paxtaʻ, paxtakoʻr, paxtakorlaʻr, paxtakorlardaʻn* kabi. Urgʻu boshqa boʻgʻinlarga ham tushishi mumkin. Birinchi boʻgʻinga urgʻu tushadigan soʻzlar: *baʻrcha, haʻmma, kiʻmdir, doʻim, hoʻzir, aʻslo, haʻtto, gaʻrchi, aʻmmo, leʻkin* kabi. Ikkinchi boʻgʻiniga urgʻu tushadigan soʻzlar: *hamiʻsha, albaʻtta, afsuʻski, negaʻki, tabaʻssum* kabi.

Oʻzbek tilida quyidagi qoʻshimchalar soʻz oxiriga qoʻshilib kelganda urgʻu olmaydi: *-ku, -u, -yu, -da, -mi, -chi, -cha, -dek, -dir, -man, -san, -miz, -siz, -ma*. Mantiq urgʻusini olgan soʻz odatda kesimdan oldin joylashadi: *Bugun men sen bilan kinoga boraman. Bugun sen bilan kinoga men boraman. Men sen bilan kinoga bugun boraman. Bugun men kinoga sen bilan boraman.*

Soʻz urgʻusi maʼno farqlash uchun ham xizmat qiladi: *oʻlma – olmaʻ, hoʻzir – hoziʻr, aʻtlas – atlaʻs, qoʻllar – qoʻllaʻr, boʻgʻlar – bogʻlaʻr* kabi.

BUNI ESDA TUTING: oʻzbek tilida urgʻu nisbatan turgʻun boʻlib, asosan soʻzning oxirgi boʻgʻiniga tushadi. Qoʻshimcha yuklamalar, shaxs-son qoʻshimchalari urgʻu olmaydi.

TOPSHIRIQ. Oila va qarindoshlikka doir quyidagi soʻzlarni eslab qoling.

ota - отец

она - мать

bobo - дедушка

buvi - бабушка

aka - старший брат

uka - младший брат

ora - старшая сестра

singil - младшая сестра

bola - ребёнок

qarindosh - родственник

togʻa - дядя (брат матери)

amaki - дядя(брат отца)

xola - тётя (сестра матери)

amma (сестра отца)

jiyan - племянник

qiz - девушка

oʻgʻil - сын

er - муж

xotin - жена

boʻla - двоюродный брат

7-mashq. Quyidagi soʻzlarni tarjima qiling, ular ishtirokida birikmalar yasang.

Til, soʻz, gap, lugʻat, gapirmoq, tinglamoq, yozmoq, oʻqimoq, tushunmoq, tushuntirmoq, takrorlamoq, soʻramoq, javob bermoq, soʻzlamoq, suhbatlashmoq, aytib bermoq, bajarmoq, yodlamoq, turlamoq, tushlamoq, soʻzlashmoq.

8-mashq. Nuqtalar oʻrniga **q** yoki **k** harflaridan mosini qoʻyib koʻchiring.

Yangi yil bayrami turli mamla...atlarda, turli xal... va elatlarda turli paytlarda turlicha ...utib olinadi. Jumladan, Yaponiyada yangi yil bayramiga tayyorgarli... bir necha ...un avvalroq boshlanib ...etadi. Barcha hovli-joy, uy eshi...lari oldiga bambu... va yosh ...ayin daraxtining shox-shabballari osib ...oʻyiladi. Yangi yil ...uni tun yarmida ul...an ...oʻngʻiro...qlar 108 marta zang urib yangi yilning ...irib ...elayotganligidan xabar beradi.

9-mashq. Nuqtalar oʻrniga **d** yoki **t** harflaridan mosini qoʻyib koʻchiring.

daroma...	xushoma...	ta...qiqot	marvari...
...utor	daf...ar	tanqi...	do...
taraddu...	taʻki...	di...li	tas...iq
...utun	diyona...	dar...	darax...
davla...	ta...bir	tobu...	ozo...
tin...uv	maqsa...	tan...ir	...elpak
oma...	...abassum	umi...	...abriknoma

10-mashq. Quyidagi soʻzlarni toʻgʻri talaffuz qiling:

vijdon	jazo	ajdar	joʻja
javobgar	gijda	jannat	jarima
mujda	jajji	jayron	janr
javohir	jadval	abajur	abjir

jallod	ajdod	jamiyat	jamoat
jahongir	jasur	jasorat	juma
janjal	majlis	natija	jang
tajriba	tarjima	marjon	jinoyat
ajoyib	ijtimoiy	daraja	ijod

11-mashq. Nuqtalar oʻrniga **p** yoki **f** harflaridan mosini qoʻyib soʻzlarni koʻchiring va talaffuz kiling:

na...is	...alokat	...aypoq	...eʻl
...atir	...an	...akana	...il
...axta	...azanda	...armon	...ul
...ichoq	...oyda	...asl	...iribgar
...aydo	...arzand	...aranji	...archa
...ikr	...arishta	...arvarda	...arhez
...ursat	...ast	ka...alak	ka...t
na...aqa	qa...as	...oʻstin	...uqaro

12-mashq. Nuqtalar oʻrniga **h** yoki **x** harflaridan mosini qoʻyib koʻchiring va hosil boʻlgan soʻzlarni ovoz chiqarib oʻqing:

a...moq	a...loq	ba...o	za...ar	mu...im
nu...at	a...oli	ba...or	sa...ar	ni...ol
ma...alla	ba...mal	va...shiy	tu...mat	...alol
...azina	ba...t	guno...	ta...ir	ollo...
...osil	a...vol	ja...on	...ozir	...alq
...at	...asis	podsho...	...ursand	...arf
doʻza...	mi...	tari...	nar...	shoʻ...
qada...	jarro...	guru...	sul...	siyo...
To...ir	Zu...ra	So...iba	Mo...ira	Ma...mud
Qa...hor	A...mad	Mu...ammad	Bu...oro	Qo...ira

13-mashq. Qoʻsh undoshli soʻzlarni toʻgʻri talaffuz qilishni oʻrganing.

mitti	yetti	bitta	attang	katta
alla	achchiq	gijja	jinni	chinni

balli	ashaddiy	dakki	ziddiyat	ukki
amma	ammo	arra	kalla	malla
diqqat	izzat	millat	barra	hakka
yo‘llanma	battar	qirra	do‘ppi	issiq
illat	oppoq	qattiq	pashsha	marra
g‘ijjak	tizza	g‘alla	tilla	yalla

14-mashq. Quyidagi [ng] diftongini to‘g‘ri talaffuz qilishni o‘rganing, ular mavjud bo‘lgan so‘zlarni o‘qing, tarjima qiling va 10 ta gap tuzing.

Rang, keng, bodring, dong, ming, teng, tong, tang, mung, jang, ohang, lang, zang, ong, chang, arang, tarang, garang, bang, o‘ng, durang, yeng, yeng, attang, farang, gung, go‘ng, gurung, nahang, so‘ng, piching, ko‘ndalang, tajang, ko‘ngil, singil, dongdor, tanga, jangnoma, tangri, mingdevona, kulangi, yalang, nayrang, bashang, lapashang, shudring, yiring, yung, do‘ng, jiring.

15-mashq. Quyidagi so‘zlarni tarjima qiling, ularning yozilishi va talaffuziga e‘tibor bering. Bunday so‘zlar tilshunoslikda qanday nomalanadi?

ayon – a‘yon	alam - a‘lam	bad - ba‘d
davo - da‘vo	zafaron - za‘faron	matal - ma‘tal
nasha - nash‘a	sanat - san‘at	surat - sur‘at
tana - ta‘na	eti bor-e‘tibor	tarif - ta‘rif
taqib - ta‘qib	tasir-tusur - ta‘sir	sher - she‘r
sava - sa‘va	qala - qal‘a	qada - qa‘da
shuba - shu‘ba	davosiz – da‘vosiz	talat - tal‘at
devon – divan	ong – o‘ng	asl - asil
zar – zor	qayd – qayt	to‘rt - turt
shox – shoh	ko‘rk – qo‘rq	sur - so‘r

16-mashq. Shaklan bir-biriga yaqin bo‘lgan quyidagi paronim so‘zlarni o‘qing, to‘g‘ri talaffuz qiling, o‘z tilingizga o‘giring. Rus tilidan paronimlarga misollar keltiring.

qoloq - quloq	qo‘riq – ko‘rik	o‘zim - uzum
qattiq - qatiq	xabar - xatar	xato - hatto
qo‘ra - g‘o‘ra	pakana - chakana	chevar - sevar
kuchuk - chuchuk	shavkat - shafqat	shamol - shimol
shoir - shior	shohid - shahid	kiyik - kuyik
muhr - mehr	sehr - sigir	qayiq - qiyiq
mayna - mo‘yna	asir - asr	qasr - kasr
qars - qarz	cho‘qqi - cho‘qi	qozi - qazi
oyna - o‘yna	osmon - somon	ona - ana
oriq - ariq	o‘g‘il - og‘il	ohu - og‘u

17-mashq. Quyidagi so‘zlarda **x** yoki **h** harfining noto‘g‘ri qo‘llangan holatlarini aniqlang va tuzatib ko‘chiring.

Xo‘randa, hakka, haqiqat, xadik, hamisha, xalokat, hasharot, ho‘tik, xalokat, hammom, xamon, ho‘rak, xotira, ho‘jalik, xamirturush, hurofot, xandalak, maxorat, xarom, halim, homtok, honaqoh, homtama, hoin, xarorat, xasad, xijrat, tuxum, ximmat, hontaxta, xisobot, hodimgar, honanda, xukmdor, muhabbat, xuquq, xujra, xurmoq, xudud, tahdid, xo‘plamoq, hoxlamoq, hokim, hokisor, xilma-hil, xat-habar, ohista, hatar, hamsa, ximoya, halta, hushhavo, haloskor.

TOPSHIRIQ. Quyidagi matndan so‘zlarni bo‘g‘inlarga ajratib ko‘chiring.

YETTI XAZINA NIMA?

O‘tmishda xalqimiz dunyoda odamni boqadigan va boy qiladigan yetti xazina bor deb bilgan. Ular quyidagilar: sigir, asalari, ipak qurti, objuvoz, tegirmon, o‘rmon va tovuq.

Xo‘sh bularning nimasi xazina? Qadim zamonlardan beri kishilar shunga e‘tibor berishganki, kundalik turmushda ayrim mahsulotlardan qanchalik ko‘p foydalanilmasin, ularning o‘rni yana muntazam to‘lib turaveradi. Masalan, sigir har kuni sut beraveradi, tovuq har kuni tuxum qilaveradi. Objuvoz bilan

tegirmonga don solib turilsa, to'xtamay moy va un chiqaraveradi. Asalarining boli-yu, o'rmondagi dov-daraxt ham nisbatan tuganmasdir. Avvallari ipak mato bozorda kambag'allarning qurbi yetmaydigan darajada qimmat turgan. Shu sababli ham xonadonlarda, ayniqsa, qizlari bor bo'lgan uylarda ipak qurti boqilgan. Keyin pillani ipakchilardan matoga ayribosh qilishgan.

Endi nima sababdan yetti xazinaga aynan shu narsalar kiritilganiga kelaylik. Gap shundaki, yetti raqamiga avvaldan alohida e'tibor berilgani sababli bu o'rinda ham xazinalar soni o'sha yetti soniga bog'liq holda yettita deb belgilangan. Odamlar mavjud xazinalardan o'zlariga ma'qullarini tanlab olib, yetti xazina deyishgan.

TOPSHIRIQ. «Yetti xazina nima?» matnini ifodali o'qing. Ko'p bo'g'inli so'zlarning qaysi bo'g'iniga urg'u tushayotganligiga ahamiyat bering. Avval oxirgi bo'g'iniga urg'u tushgan so'zlarni, keyin birinchi va keyingi bo'g'iniga urg'u tushgan so'zlarni yozib oling.

NAMUNA. Oxirgi bo'g'ini urg'uli so'zlar: *o'tmishda*, *xalqimi*z... . Birinchi bo'g'ini urg'uli so'zlar: *ye'tti*, *qa'nchalik*

Ikkinchi va undan keyingi bo'g'iniga urg'u tushgan so'zlar: *dunyo*da, *asa*lari, *ko*ndala'ng,...

TIL O'RGANISHGA DOIR QUYIDAGI SO'Z VA BIRIKMALARNI ESLAB QOLING

ona tili	родной	язык
chet tili	иностранный	язык
til o'rganmoq	изучать	язык
til bilmoq	владеть	языком
so'z	слово	
gap	предложение	
lug'at	словарь	
so'zlashuv kitobi	разговорник	

gapirmoq(aytmoq, demoq)	говорить
tinglamoq(eshitmoq)	слушать
yozmog	писать
o'qimoq	читать
tushunmoq	понять
takrorlamoq	повторить
so'ramoq	спросить
javob bermoq	ответить
so'zlashmoq	разговаривать
suhbat	разговор, беседа
talaffuz	произношение
talaffuz qilmoq	произнести
yodlamoq	выучить наизусть
aytib bermoq	рассказать
tarjima qilmoq	переводить
tushuntirmoq	объяснить
unutmoq	забывать
eslab qolmoq	запомнить

TOPSHIRIQ. Quyidagi she'rni ifodali o'qing va yod oling.

Ko'klam

Beg'ubor olam

Bunchalar ko'rkam!

Musaffo, tiniq

Osmon juda ham.

Nurga ko'milib,

Yashnaydi o'lkam.

Chunki elimda

Kezmoqda ko'klam!

(Zokir Mo'minjon)

TOPSHIRIQ. O'zbek tilining undosh tovushlari, ularni ifodalovchi harflar, bo'g'in, urg'uga doir nazariy fikrlaringizni yozma bayon eting.

3-MASHG‘ULOT

Matn: O‘zbekiston.

1.Grammatika: 1.Kishilik
olmoshlari.

2.Hozirgi zamon fe’li.

O‘ZBEKISTON

O‘zbekiston Respublikasi O‘rta Osiyoning markaziy qismida joylashganligini hammamiz bilamiz. U 447, 4 ming kv.km. maydondan iborat. O‘zbekistonning poytaxti Toshkent shahri bo‘lib, davlat tili o‘zbek tilidir. Dunyo xalqlari O‘zbekistonni 1991-yil 1-sentabrdan mustaqil davlat sifatida biladi. O‘zbekistonning o‘z bayrog‘i, gerbi, madhiyasi, pul birligi, qurolli kuchlari bor. 1992-yil 8-dekabrda O‘zbekistonning yangi Konstitutsiyasi qabul qilindi va bu kun har yili bayram sifatida nishonlanib kelinyapti.

Mustaqil O‘zbekiston Respublikasini dunyoning qariyb barcha davlatlari tan oldi va ular bilan o‘zaro elchixonalar ochilib, mustahkam aloqalar o‘rnatilmoqda. O‘zbekistonning xalqaro obro‘yi kundan kunga ortib boryapti.

O‘zbekiston yoshlari yangi ochilayotgan universitetlar, institutlar, kollejlari, litseylarda ta’lim olayotirlar. Yoshlar bilim olish, malaka oshirish, tajriba almashish uchun chet ellarga borib kelmoqdalar.

Respublikamizda o‘zbeklar bilan bir qatorda qoraqalpoqlar, qozoqlar, turkmanlar, qirg‘izlar, tojiklar, tatarlar, uyg‘urlar, ruslar, koreyslar, yahudiylar kabi o‘nlab boshqa millat va elat vakillari bir oila farzandlaridek yashaydi. O‘zbeklar ham Tojikiston, Qozog‘iston, Turkmaniston, Qirg‘izistondan tashqari, Afg‘oniston, Saudiya Arabistoni, Turkiya, Xitoy, Suriya, Iordaniya, Eron, Iroq, Birlashgan Arab Amirligi, Misr, Germaniya, Gollandiya, Fransiya,

Italiya, Angliya, AQSH, Hindiston, Pokiston, Yaponiya, Tayvan kabi mamlakatlarda yashaydilar.

O‘zbekiston qadimiy va boy tarixga ega. Har yili Samarqand, Toshkent, Buxoro, Xiva, Shahrisabz kabi shaharlardagi tarixiy obidalarni ko‘rish uchun ko‘plab sayyohlar tashrif buyurishadi.

Bu yurtdan yetishib chiqqan Beruniy, Ibn Sino, Forobiy, Muso Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Ismoil Buxoriy, Zamaxshariy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Bobur, Mirzo Ulug‘bek Jaloliddin Rumi, Xoja Samandar Termiziy kabi yuzlab qomusiy allomalarning ilmiy, ijodiy meroslari faqat O‘zbekistonda emas, butun dunyo ilm maskanlarida o‘rganilyapti.

Respublikamizda 12 viloyat, bir suveren respublika, 130 ga yaqin shahar, minglab qo‘rg‘on va qishloqlar mavjud. Vatanimiz tuprog‘i bebaho konlarga boy, tabiati go‘zal, xalqi mehmondo‘st. Neft, gaz, ko‘mir, oltingugurt, ozokerit, osh tuzi, rux, qo‘rg‘oshin, mis, volfram, oltin konlari muntazam ishlab turibdi.

O‘zbekistonning asosiy ekini paxta va g‘alladir. Shuningdek, makkajo‘xori, meva, uzum, tamaki va poliz mahsulotlari ham ko‘plab yetishtiriladi. Keng yaylovlarda zotdor qo‘y va echkilar, qoramol, yilqi, tuya podalari boqiladi. Pillachilik va polizchilik ham rivojlangan sohalardir.

O‘zbekiston sanoati rivojlangan mamlakatga aylanmoqda. Elektr quvvati ishlab chiqarish, paxta tozalash, ip, ipak va jun gazlamalar tayyorlash, meva-sabzavotlarni qayta ishlash, yog‘- moy kombinatlari, madaniy o‘g‘itlar ishlab chiqarish, turli xil traktorlar, mashinalar, samolyot, mebel, neftni qayta ishlash, ro‘zg‘or buyumlari ishlab chiqarish korxonalari mavjud.

FAOL SO‘Z VA BIRIKMALAR

joylashganligini	bilamiz
davlat tili	mustaqil davlat
bayrog‘i	madhiyasi
pul birligi	qurolli kuchlari

qabul qilindi	bayram sifatida
nishonlanib kelinmoqda	tan oldi
makkajo‘xori	poliz mahsulotlari
yetishtiriladi	boqiladi
rivojlangan sohalardir	aylanmoqda
ishlab chiqarish	qayta ishlash
meva-sabzavotlar	paxta tozalash
yaylovlarda	qoramol
muntazam	oltingugurt
qo‘rg‘on va qishloqlar	ijodiy meroslari
malaka oshirish	tajriba almashish

MATNNI TARJIMA QILING VA SAVOLLARGA JAVOB BERING

1. O‘zbekiston Respublikasi qayerda joylashgan?
2. O‘zbekistonning poytaxti qayer?
3. O‘zbekistonning qanday davlat belgilari bor?
4. O‘zbekistonning yangi Konstitutsiyasi qachon qabul qilingan?
5. O‘zbekiston yoshlari qayerlarda ta’lim olayotirlar?
6. Yoshlar chet ellarga nima uchun borishadi?
7. O‘zbekistonda yana qanday elat va millat vakillari yashaydi?
8. O‘zbeklar yana qaysi mamlakatlarda yashashadi?
9. O‘zbekistonda qanday tarixiy shaharlar bor?
10. Sayyohlar nima uchun tashrif buyurishadi?
11. O‘zbekistonlik qanday qomusiy allomalarni bilasiz?
12. Ularning ilmiy-ijodiy meroslari qayerlarda o‘rganilyapti?
13. O‘zbekistonda nechta viloyat, shahar, qo‘rg‘on va qishloq mavjud?
14. Qanday yer osti boyliklari qazib olinadi?
15. O‘zbekistonda qanday ekinlar ekiladi?

16. Yana nimalar yetishtiriladi?
17. O‘zbekistonda qanday chorva mollari boqiladi?
18. O‘zbekiston qanday mamlakatga aylanmoqda?
19. O‘zbekistonda qanday sanoat korxonolari mavjud?
20. O‘zbekistonning tabiati qanday?
21. O‘zbekiston haqida yana nimalar bilasiz?
22. O‘zbekiston qaysi davlatlar bilan chegaradosh?

NAZARIY BILIMLARNI MUSTAHKAMLASH UCHUN MASHQLAR

18-mashq. Nuqtalar o‘rniga tegishli kishilik olmoshlarini qo‘yib gaplarni ko‘chiring, tarjima qiling.

1.kitob o‘qiyapman. 2. ...xat yozyapti. 3. ...dam olyapsanmi? 4. ...maktabga boryaptilar. 5. ...bozordan kelyapsizmi? 6.non sotib olyapmiz. 7. ...avtobus kutyapsan. 8..... do‘stimni kutib olyapman. 9. ...hozir kutubxonada o‘tiribmiz. 10. ...quyon boqadi. 11. ...telefonda kim bilan so‘zlashyapsiz? 12.kechqurun biznikiga keladilarmi?

19-mashq. Nuqtalar o‘rniga mos keluvchi zamon va shaxs-son qo‘shimchalarini qo‘yib ko‘chiring hamda gaplarni tarjima qiling.

1. Siz huquqshunoslik fakultetining nechanchi kursida o‘qi... ? 2. U Samarqand shahrining qaysi ko‘chasida yasha... ? 3. Men o‘zbek tilini yaxshi bil... . 4. Biz o‘z Vatanimizni sev.... 5. Ular radiodan musiqa tingla... 6. Siz Qozog‘istondagi do‘stingizga xat yoz...? 7. Biz qushlarga in qur... 8. Ular bog‘da olma ter... 9. Qaldirg‘ochlar qishda janubga uchib ket.... 10. Siz qaysi faslni ko‘proq yoqtir....? 11. U o‘qituvchidan uyga vazifani so‘ra.... 12. Men chekuvchilarni yomon ko‘r.... 13. Sen ertalab jismoniy tarbiya bilan shug‘ullan.... ?

20-mashq. Qavs ichidagi fe'llarni zamon va shaxs-son qo'shimchalari bilan tuslang.

1. Biz tinchliksevar xalqlarni (qo'llab-quvvatlash). 2. Sen nega bu yerda (o'tirmoq)? 3. Siz Alisher Navoiy g'azallarini (o'qimoq). 4. U har kuni onasiga (yordam bermoq). 5. Ular Toshkentdan ertalab (yetib kelmoq). 6. Men darslarimni o'z vaqtida (tayyorlash). 7. Osmonda oppoq bulutlar (suzib yurmoq). 8. Odobli kishi hech qachon birovni (xafa qilmoq).

21-mashq. Nuqtalar o'rniga qavs ichidagi so'zlardan mosini qo'yib, ko'chiring.

1. Xonadonimizda har xil gullar... . 2. Quruvchilar katta va chiroyli bino... . 3. Talabalar o'qituvchining savollariga to'g'ri... . 4. Davlatimiz ko'p bolali oilalar va nogironlarga katta... . 5. Darsdan so'ng o'rtoqlarimiz bilan istirohat bog'ida... . 6. Hovlimizdagi rang-barang atirgullar... . 7. Siz qaysi gazeta va jurnallarni...? 8. U Zarafshon daryosidan baliq... . 9. Sen uyga berilgan vazifalarni qachon... . 10. O'qib bo'lgan kitoblarimni ertaga kutubxonaga...

(Ochilib turibdi, topshiraman, qurayotirlar, bajarasan, tutyapti, o'stiramiz, yordam beradi, o'qib berasiz, dam olamiz, javob beryaptilar).

22-mashq. Quyidagi fe'llardan hozirgi zamon fe'lining tasdiq, inkor va so'roq shakllarini hosil qiling.

Aytmoq, aniqlamoq, bajarmoq, boshlamoq, boshqarmoq, bog'lamoq, gaplashmoq, yemoq, javob bermoq, zerikmoq, kelmoq, ketmoq, kuzatmoq, ochmoq, pishirmoq, savol bermoq, tabriklamoq, unutmok, xayrlashmoq.

23-mashq. So'zlarni tartib bilan qo'yib, gaplar tuzing.

1. Boramiz, biz, har kuni, piyoda, ishga.
2. Karim, o'qiyapti, kitob, xonasida, hozir.
3. Dugonasiga, Madina, yozyapti, xat, hozir.

4. Markazida, Samarqandning, yashaymiz, biz.
5. Keladi, akam, soat 16 da, bugun, ishdan.
6. O'zbek tilini, o'rganmoqdamiz, biz, ikki yildan beri.
7. O'rtoqlarimizni, kutib turibmiz, biz.
8. Rus tilidan, men, matnni, tarjima qilyapman.
9. O'rganyapsan, qachondan beri, sen, o'zbek tilini.
10. To'ldirib, uchyapti, kabutarlar, osmonni.
11. Ishlayapti, xonada, u, bilan, Farrux, Gulbahor.

24-mashq. Gaplarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Мой старший брат в университете изучает английский язык. 2. После летней сессии вы куда поедете отдыхать? 3. Преподаватель проверяет контрольную работу студентов по узбекскому языку. 4. В сентябре у нас начинается сбор хлопка. 5. Каждый вечер я повторяю грамматику и выполняю упражнения по узбекскому языку. 6. В каком курсе учится твоя старшая сестра? 7. Её мать работает хирургом в областной больнице. 8. Ты где будешь после занятий? 9. Студенты нашей группы поедут в воскресенье на экскурсию. 10. Мой отец систематически занимается спортом.

25-mashq. Nuqtalar o'rniga kishilik olmoshlarini qo'yib gaplarni ko'chiring va tarjima qiling.

1. o'zbek tili bayrami kuni Alisher Navoiy haykali poyiga gullar qo'yamiz. 2. ... darsga o'z vaqtida keladilar. 3. ... iqtisodiyot fakultetining nechanchi kursida o'qiydi? 4. Bugun yangi gazeta va jurnallarni ... olib kelasiz. 5. ... har kuni darsdan so'ng bo'shmisan? 7. ... Rossiya tsirki tomoshalarini ko'rgani borasizmi? 8. ... talabalar anjumaniga ma'ruza tayyorlayapman. 9.... non sotib olgani har kuni shu do'konga keladi. 10. ... kechqurun dars tayyorlash uchun sizlarnikiga boraman.

26-mashq. Quyidagi matnni tarjima qiling. Undan foydalanib o'zingizning oilangiz haqida qisqacha matn tuzing.

BIZNING OILAMIZ

Biz qadimiy va navqiron Samarqand shahrida yashaymiz. Hovlimiz Mustaqillik ko'chasida joylashgan. Ko'chamiz juda keng va uning har ikki chetiga manzarali daraxtlar, gullar ekilgan. Bu ko'chada ko'proq do'konlar, ma'muriy binolar joylashgan.

Oilamiz ancha katta. Oilamiz to'qqiz kishidan iborat: bobom, buvim, otam, onam, akam, opam, men, singlim va ukam. Bobom bilan buvim ko'p yillar Samarqand davlat universitetining fizika fakultetida dars berishgan. Hozir ular pensiyada.

Otam-hisobchi. U «Samkochavto» mikroavtobuslar ishlab chiqarish zavodida bosh muhandis bo'lib ishlaydi. Onam-tarbiyachi. U shahrimiz markazidagi bolalar bog'chasida ishlaydi. Akam chet tillari institutida o'qituvchi. U ingliz tili mutaxassisi. Akam tez-tez chet mamlakatlarga xizmat safariga borib turadi. Opam – bolalar vrachi. U shahar bolalar shifoxonasida ishlaydi. Men Samarqand davlat universitetining pedagogika-psixologiya fakultetida o'qiyman. Ukam ham talaba. U biologiya fakultetida o'qiydi. Unga turli-tuman o'simliklar, har xil hasharotlar, jonivorlar hayotini o'rganish juda yoqadi. Shuning uchun ham ikkalamiz hovlimizda tovuq, quyon, kaptar, kaklik, bedana boqamiz. Hovlimizdagi mevali va manzarali daraxtlarni parvarish qilamiz, ularga shakl beramiz. Singlim bu yil o'rta maktabni tugatadi. U iqtisodchi bo'lmoqchi.

Oilamizda hamma mehnatni sevadi. Biz bir-birimizni hurmat qilamiz. Ro'zg'or ishlarini ham bahamjihat bajaramiz. Oilamiz a'zolari inoq va bir-birlariga juda mehribon.

BUNI ESDA TUTING: o'zbek tilida hozirgi zamon fe'lining ikki shakli bo'lib, ular fe'l o'zagiga –moqda, -yap, -yotib, -yotir, -a, -y hamda shaxs-son qo'shimchalaridan mosini qo'shish orqali hosil qilinadi.

TOPSHIRIQ. She'rni ifodali o'qing va mazmunini so'zlab bering.

Shudring

Bog'imizga bir qarang,	Bog'dan nari poliz bor,
Gul ochildi rang-barang.	Unda qovun, tarvuz bor,
Tongda shudring tushibdi,	Qovunlar katta-katta,
Gulga chiroy qo'shibdi.	Yozda keling albatta.

(Muhammad Ali)

TOPSHIRIQ. Kishilik olmoshlari, hozirgi zamon fe'li va uning shakllari bo'yicha o'rganganlaringizni yozma bayon eting.

4-MASHG'ULOT

Matn: Toshkent.

Grammatika: 1. Egalik qo'shimchalari.

2. O'tgan zamon fe'li.

TOSHKENT

Toshkent shahri qadimda "Choch", "Shosh" nomlari bilan atalgan. XI asrdan Toshkent deb yuritila boshlagan. Toshkent geografik jihatdan qulay yerda joylashgan, iqlim sharoiti ham mo'tadil bo'lganligi uchun dehqonchilik va chorvachilik rivojlangan. Qadimgi Toshkentning atrofi baland va qalin devorli qo'rg'on bilan o'ralgan bo'lgan. Shaharning bo'yi ham, eni ham 6-7 kilometr uzunlikka teng bo'lgan. Yozma manbalar va arxeologik tadqiqotlar shaharning yoshi 2000 yildan ortiqligini tasdiqlaydi.

Shahar devoridan tashqarida eng sersuv yerlar o'zlashtirilib, obod etilgan. Aholi meva, sabzavot va g'allaga zoriqmagan.

Toshkent o'zaro urushlar, qo'zg'olonlar, ko'chmanchi qabilalar hujumlari natijasida bir necha marta vayron qilindi va qayta tiklandi. XIII asrgacha Toshkent qal'a, ichki va tashqi

shahardan iborat bo‘lib, atrofi bir necha qator mudofaa devori bilan o‘rab olindi. Shaharda kulolchilik, o‘q-yoy, gazlama, charm mahsulotlari ishlab chiqarish rivojlanadi. XV-XVI asrlarda Toshkentda yirik tarixiy ansambllar qad ko‘taradi. XVIII-XIX asrlarga kelib, yanada kengaydi va hududi 15 ming gektarga yetdi. Shahar to‘rt daha va yuzlab mahallalarga bo‘lingan. Shaharga 12 darvoza orqali kirilgan.

Toshkent 1930-yildan O‘zbekistonning poytaxti deb e‘lon qilindi. Shu yillar ichida Toshkentning qiyofasi tubdan o‘zgardi. Tor, qing‘ir ko‘chalar o‘rniga keng va elektrlashtirilgan yorug‘ xiyobonlar barpo etildi, ko‘p qavatli binolar qurildi. Ayniqsa, 1966-yilgi zilziladan so‘ng Toshkent tanib bo‘lmas darajada o‘zgardi. Shahar maydoni kengaydi, uning chegarasidan 67 kilometrli aylanma yo‘l o‘tkazildi. 1977-yili O‘rta Osiyoda yagona bo‘lgan Toshkent metrosi ishga tushdi. 1985-yili bo‘yi 375 metrli ulkan teleminora qurildi. 18 qavatli Ma‘muriy bino, Matbuot uyi, “Paxtakor” stadioni, “O‘zbekiston”, “Chorsu” kabi mehmonxonalar, Navoiy, Muqimiy, Hamza teatrlari, Xalqlar do‘stligi saroyi, Rassomlar uyi, Oliy Majlis, Milliy bank binolari, Adabiyot, A.Temur muzeylari Toshkentni yanada ulug‘vor ko‘rsatadi.

Yirik ilmiy va ma‘rifat markazi hisoblangan poytaxtimizda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi, o‘nlab ilmiy tekshirish institutlari, 30 ga yaqin oliy o‘quv yurtlari, 20 ga yaqin muzey, 700 ga yaqin kutubxona, o‘ndan ortiq teatr, o‘nlab madaniyat saroylari, yuzlab kinoteatrlar mavjud.

Toshkent mamlakatimizning ulkan sanoat markazi bo‘lib, bu yerda 300 dan ortiq yirik zavod va fabrikalar muntazam ishlab turibdi. Toshkentda mashinasozlik, yengil va oziq-ovqat sanoati tez rivojlanmoqda. Toshkent to‘qimachilik, trikotaj kombinatlari, traktor, samolyotsozlik zavodlari, boshqa davlatlar bilan hamkorlikda ochilayotgan qo‘shma korxonalar ishlab chiqarayotgan mahsulotlar jahon bozorida o‘z xaridorini topmoqda.

Toshkent Sharqda rivojlangan shaharlardan biri bo‘lib, bu yerda har yili ijtimoiy taraqqiyot, tinchlik, ekologiya, fan va texnika, madaniyat, san‘at va boshqa sohalarga bag‘ishlangan o‘nlab xalqaro anjumanlar, sport musobaqalari o‘tkaziladi. Toshkent ko‘p millatli ulkan shahar bo‘lib, hozir unda 2,5 millionga yaqin aholi yashaydi. Uning chiroyi kundan kunga ortib boryapti.

FAOL SO‘Z VA BIRIKMALAR

mo‘tadil	yuritilgan
iqlim sharoiti	qo‘rg‘on
teng bo‘lgan	yoza manbalar
tasdiqlaydi	o‘zlashtirilib
zoriqmagan	qo‘zg‘olonlar
vayron qilindi	qayta tiklandi
iborat bo‘lib	mudofaa devori
o‘rab olindi	kulolchilik
charm mahsulotlari	qad ko‘tardi
hudud	darvoza
qiyofa	tubdan o‘zgardi
xiyobon	ko‘cha
zilzila	tanib bo‘lmas darajada
aylanma yo‘l	ishga tushirildi
ma‘muriy bino	Matbuot uyi
mehmonxona	Xalqlar do‘stligi saroyi
ulug‘vor ko‘rsatadi	ilmiy markazi
xaridorini topmoqda	ijtimoiy taraqqiyot
xalqaro anjumanlar	musobaqalar
ko‘pmillatli	chiroyi
sanoat	ortib boryapti
to‘qimachilik	hamkorlik
hudud	qiyofa

MATNNI TARJIMA QILING VA SAVOLLARGA JAVOB BERING

1. Qadimgi Toshkentni qanday ataganlar?
2. Qachondan boshlab poytaxtimiz Toshkent deb yuritilyapti?
3. Qadimgi Toshkentning atrofi nima bilan o'ralgan edi?
4. Shaharning bo'yi va eni qancha uzunlikda edi?
5. Toshkentning yoshi nechada?
6. Aholi shahar tashqarisida nima bilan shug'ullangan?
7. Nima sababdan qadimgi Toshkent vayron etilgan?
8. XIII asrgacha Toshkent qanday holatda edi?
9. XV-XIX asrlarga kelib Toshkentning maydoni qancha edi?
10. Shu davrda Toshkentda qancha daha va darvoza bor edi?
11. Toshkent qachondan O'zbekistonning poytaxti bo'ldi?
12. Toshkentning avvalgi ko'chalari qanday edi?
13. 1966-yili Toshkentda nima yuz berdi?
14. Toshkent chegarasidan qanday yo'l o'tkazildi?
15. Toshkent metrosi qachon ishga tushdi?
16. Toshkentning chiroyi bo'lgan qanday me'moriy binolar va joylarni bilasiz?
17. Teleminora qachon ishga tushirildi va uning bo'yi necha metr?
18. Toshkentda qanday sanoatlar rivojlangan?
19. Toshkent sanoati mahsulotlari qayerga eksport qilinmoqda?
20. Toshkentda qanday anjumanlar bo'lib turadi?
21. Toshkentda qancha aholi yashaydi?

NAZARIY BILIMLARNI MUSTAHKAMLASH UCHUN MASHQLAR

27-mashq. Quyidagi so'zlarga egalik qo'shimchalarini qo'shib, ularni shaxslar bo'yicha turlang.

Kitob, daftar, ona, vatan, qishloq, shahar, maktab, bobo, o'rtoq, telpak, istak, o'g'il, singil, barmoq, amaki, oyoq, huquq.

28-mashq. Nuqtalar o'rniga tegishli shaxsga oid egalik qo'shimchalarini qo'shib ko'chiring.

1. Sizning oila kattami? 2. Bizning oila ...da yetti kishi bor. 3. Ularning hovli.... qaysi ko'chada joylashgan? 4. Men do'stlar....ni tug'ilgan kun ... ga taklif qildim. 5. Sening aka.... Toshkentda o'qiydimi? 6. Ahmadning tog'a ... Indiana universitetida dars beradi. 7. Men kitob....ni ozoda saqlayman. 8. Sizning kitob.... ko'p ekan. 9. Bizning qishloq...da sartaroshxona, hammom, maishiy xizmat uyi va bir nechta do'kon bor. 10. Ularning guruh....da nechta talaba o'qiydi?. 11. U qarmoq...ga ilingan laqqa baliqni tortib oldi. 12. Sen uka...ni bolalar bog'chasiga olib boryapsanmi?

29-mashq. Quyidagi so'zlardan so'z birikmalari hosil qiling va ular ishtirokida gaplar tuzing.

men – aka	siz – uy	u - qalam
biz – maktab	sen – singil	ular - ko'cha
ular – shahar	men – amaki	biz - sinf
sen – uzuk	u – qo'shni	sen - xona
u – sochiq	biz – o'rik	men - orzu
siz – o'g'il	ular – buvi	siz - ko'ylak

NAMUNA: *Mening akam, bizning maktabimiz kabi. Mening akam Jahon tillari universitetida o'qigan. Bizning maktabimiz barcha ko'rsatkichlar bo'yicha ilg'or.*

34-mashq. So'zlarni tartib bilan qo'yib, gaplar tuzing.

1. Talabalar, jo'nab ketishdi, bugun, yordam berishga, paxtakorlarga.
2. Singlisiga, Asror, sotib oldi, bir quti qalam, bir rasm daftar.
3. Bo'lmadi, o'tgan yil, qishda, sovuq, qattiq.
4. Cho'mildik, yozda, suv omborida, Kattaqo'rg'on.
5. Olindi, bu yil, paxtadan, mo'l hosil.
6. Ikkita gilam, biz, sotib oldik, chiroyli.
7. Singlisi, Javohirning, Madina, qiz, aqlli va kamtarin.

8. O‘tadi, oqib, O‘zbekistondan, daryo, ikkita, katta.
9. Ertalab, turasiz, har kuni, siz, soat nechada, uyqudan?
10. Universitetni, bitirgani, akam, yo‘q, hali.

35-mashq. Quyidagi gaplarni tarjima qiling.

1. Мы прошли мимо кинотеатра имени Алишера Навои.
2. Мой товарищ сегодня купил себе новые книги.
3. Вокруг города Самарканда много садов и хлопковых полей.
4. Нашему университету в этом году выделили два новых общежития.
5. Наша группа в прошлом году выпускала стенную газету один раз в месяц.
6. Мои родители раньше жили в городе Гулистане.
7. Он сегодня не смог прийти на занятия.
8. До начала собрания мы сидели во втором ряду и беседовали.
9. Произведения Алишера Навои переведены на многих языков мира.
10. После уроков мы однокурсниками пошли в студенческую столовую.

TOPSHIRIQ. Egalik qo‘shimchalari, o‘tgan zamon fe‘li, uning tasdiq, inkor, so‘roq shakllarini hosil qiluvchi qo‘shimchalar haqida bilganlaringizni yozma bayon eting.

5 – MASHG‘ULOT

Matn: Samarqand.
Grammatika: 1. Kelishik kategoriyasi.
 2. Kelasi zamon fe‘li.

S A M A R Q A N D

Samarqand ham dunyoga mashhur Bobil, Afina, Rim shaharlari kabi boy tarixga ega. Uning yoshi 2500 yildan ortiq.

Samarqand dastlab Siyob daryosi sohilida qad ko‘targan. U o‘n yarim kilometrli mudofaa devori bilan o‘ralgan bo‘lib, shaharga

uchta darvoza orqali kirilgan. Samarqandni miloddan avval 329-yili Aleksandr Makedonskiy, VIII asrda Qutayba, XIII asrda Chingizxon qo‘shinlari bosib olib, vayron qilishgan. Qadimgi Samarqand shahri xarobalari hozir Afrosiyob nomi bilan yuritiladi.

XV asrlarga kelib Samarqand Afrosiyob xarobalaridan janubroqda qayta tiklandi. Tez orada yana dunyoga dong‘i ketgan go‘zal shaharga aylandi. Ayniqsa, sohibqiron Amir Temur saltanatining poytaxtiga aylangandan so‘ng shaharda ma‘muriy binolar, masjidlar, madrasalar, hammomlar, savdo markazlari, karvonsaroylar ko‘plab qurildi. Shahar atrofi olti darvozali mudofaa devori bilan o‘rab olindi. Registon maydoni, Go‘ri Amir maqbarasi, Shohizinda ansamblarining qurilishi shaharni yanada go‘zallashtiradi. Shahar atrofida Bog‘ishamol, Bog‘idilkusho, Bog‘ibaland, Bog‘imaydon, Bog‘ibehisht, Bog‘izag‘on kabi 12 ta ko‘rkam bog‘ barpo etildi.

Amir Temurdan so‘ng Mirzo Ulug‘bek hukmronligi davrida Samarqandni obodonlashtirish ishlari davom ettirildi. Ulug‘bek rasadxonasi, Ulug‘bek, Sherdor, Tillakori madrasalari qurildi. O‘sha davrda qurilgan Ko‘ksaroy va Bo‘stonsaroyga davlat idoralari, qurol-yarog‘ ustaxonalari, xazina, zarbxona va qamoqxona joylashtirildi.

XVI asrda Buxoro xonligi tashkil topgandan so‘ng poytaxt Buxoroga ko‘chirildi. XVII-XVIII asrlarda Samarqand yana turli bosqinchilar tomonidan talanib, vayron etilgan. Mehnatkash shahar aholisi uni yana va yana qayta tiklayvergan.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Samarqandda zamonaviy binolar qurila boshladi. 1924-1930-yillarda u O‘zbekiston Respublikasining poytaxti bo‘ldi. Hozirgi paytda Samarqand shahri aholi soni va sanoat korxonalari ko‘pligi jihatidan respublikamizda ikkinchi o‘rinda turadi. Samarqand kengayib, yanada obodonlashib bormoqda. Turar joylar ko‘paydi, yangi jamoat binolari, maishiy xizmat ko‘rsatish, savdo-sotiq majmualari, keng va ko‘rkam istirohat bog‘lari, xiyobonlar, maydonlar, ko‘chalar, ko‘p qavatli uylar qurilgan mikrorayonlar

barpo etildi. Tarixiy yodgorliklarni ta'mirlash, yangilarini qurishga e'tibor berilmoqda. Shaharda Amir Temur, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Abdurahmon Jomiy, Abulqosim Rudakiy, Akmal Ikromov, Y.A.Gagarin, Fozil Yo'ldosh, Ergash Jumanbulbul, Po'ltan, Islom shoirlarga mahobatli haykallar o'rnatilgan.

Samarqand rivojlangan sanoat shahri. Bu yerda yuzga yaqin xolodilnik, liftsozlik, avtomobilsozlik, chinni buyumlar, kino asbob-uskunalari, burg'ulash asboblari, motor qismlari ishlab chiqaruvchi yirik zavodlar, poyabzal, shohi va baxmal to'qish, trikotaj, galanteriya fabrikalari va o'nlab milliy hunarmandchilik korxonalari mavjud.

Samarqand respublikamizning yirik ilm-fan markazlaridan biri. Universitet, qishloq xo'jalik, savdo, tibbiyot, chet tillari, me'morchilik-qurilish institutlari, o'nlab, kollej va litseylarda yoshlar fan sirlarini o'rganmoqdalar.

Samarqand shahri va viloyat hududida joylashgan Doniyol payg'ambar, Imom Ismoil Buxoriy, Mahdumi A'zam, Xo'ja Ahrori Vali, Qusam ibn Abbos, Amir Temur maqbaralarini ziyorat qilish uchun har yili millionlab sayyohlar kelishadi.

FAOL SO'Z VA BIRIKMALAR

sohilida	xarobalari
janubroqda	tez orada
dong'i ketgan	saltanatining
maqbara	shahar atrofida
hukmronligi davrida	davom ettirildi
rasadxona	zarbxona
qamoqxona	ko'chirildi
bosqinchilar tomonidan	jamoat binolari
maishiy xizmat ko'rsatish	istirohat bog'i
ta'mirlash	mahobatli haykallar
milliy hunarmandchilik	me'morchilik-qurilish
payg'ambar	ziyosat qilish
tarixiy obida	sayyohlar

MATNNI TARJIMA QILING VA SAVOLLARGA JAVOB BERING

1. Samarqand qanday tarixiy shaharlar qatorida turadi?
2. Samarqand necha yillik tarixga ega?
3. Samarqand shahri dastlab qayerda bo'lgan?
4. Mudofaa devorlarining uzunligi qancha edi?
5. Samarqandni kimlarning qo'shinlari vayron qilgan?
6. Qadimgi Samarqand xarobalari qanday nomlanadi?
7. Samarqand qayerda yana qayta tiklandi?
8. Samarqand qachon Amir Temur saltanatining poytaxti bo'ldi?
9. Bu davrda Samarqandda qanday inshootlar qurildi?
10. Shahar atrofida qanday bog'lar barpo etildi?
11. Mirzo Ulug'bek hukmronligi davrida nimalar qurildi?
12. Ko'ksaroy va Bo'stonsaroyda nimalar joylashgan edi?
13. Buxoro xonligi tashkil topgandan so'ng poytaxt qayerga ko'chirildi?
14. Samarqand nechanchi yillarda O'zbekiston Respublikasining poytaxti bo'lgan?
15. Samarqand aholi va sanoat korxonalari ko'pligiga ko'ra nechanchi o'rinda turadi?
16. Hozirgi Samarqandning ko'rinishi qanday?
17. Bu yerda kimlarga haykallar o'rnatilgan?
18. Samarqandda qanday sanoat korxonalari mavjud?
19. Bu yerda qanday oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari bor?
20. Samarqandga nima uchun ko'plab sayyoh va ziyoratchilar keladi?

BUNI ESDA TUTING: o'zbek tilida rus tilidagi egalik olmoshlari vazifasini bajaruvchi egalik kategoriyasi mavjud. Bu kategoriya biror narsaning tegishli shaxsga yoki boshqa bir narsaga qarashli ekanligini ko'rsatib, otlarga –m, -im, -ng, ing, -si, -i, -miz, -imiz, -ngiz, -ingiz, -lari qo'shimchalaridan mosini qo'shish orqali hosil qilinadi.

NAZARIY BILIMLARNI MUSTAHKALASH UCHUN MASHQLAR

36-mashq. Nuqtalar o'rniga tegishli qo'shimchalarni qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. Men bu badiiy kitoblar... do'stim... oldim. 2. Dugonam... hovlisi oldi... vositachilik, xo'jalik mollari va oziq-ovqat do'konlari bor. 3. Biz dushanba kuni avtobus... Toshkent... jo'naymiz. 4. U o'rtog'i bilan kutubxona... chiqdi. 5. Siz hovlingiz... qanday mevali va manzarali daraxtlar ekkansiz? 6. Biz dars... so'ng stadion... futbol ko'rgani boramiz. 7. Siz bu matn... lug'at yordami... tarjima qildingizmi? 8. Siz qanday asarlar... yoqtirasiz? 9. Nafisa bo'sh vaqti... ota-onasi... yordam beradi. 10. SHahrimiz... dunyo... barcha mamlakatlari... ko'plab sayyohlar kelishadi. 11. Tomoshabinlar taniqli san'atkor... olqishladilar.

37-mashq. Nuqtalar o'rniga jo'nalish va o'rin-payt kelishigi qo'shimchalaridan mosini qo'yib ko'chiring.

1. Guruhimiz... sakkizta a'lochi talaba bor. 2. Fakultetimiz... taniqli shoir va yozuvchilar, rassom va san'atkorlar kelib turishadi. 3. Xotin-qizlar bayrami... bag'ishlangan tantanali yig'ilish bo'ldi. 4. Samarqand bozorlari... yil bo'yi sabzavot va mevalar uzilmaydi. 5. Respublikamizning ayrim viloyatlari... ingichka tolali paxta ham ekiladi. 6. Ko'p kitob o'qigan kishi o'z kuchi... ishonadi.

38-mashq. Nuqtalar o'rniga qaratqich va tushum kelishigi qo'shimchalaridan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. Yakshanba kunlari, bayramlarda shahrimiz... barcha istirohat bog'lari odamlarga to'ladi. 2. Hozir ko'pgina dala ishlari... traktorlar bajaradi. 3. Biz mehmonlar bilan shahar... tarixiy yodgorliklari... tomosha qildik. 4. Siz... kutubxona oldida o'rtoqlaringiz kutib turishibdi. 5. Siz... o'g'lingiz qaysi maktab... tugatgan? 6. Sen qushlar haqida mana bu maqola... o'qidingmi? 7. Men shahrimiz ko'chalari... yaxshi bilaman. 8. Registon maydoni Samarqand shahri... markazi hisoblanadi.

39-mashq. Nuqtalar o'rniga o'rin-payt va chiqish kelishigi qo'shimchalaridan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. Buxoro shahri... ham o'rta asr yodgorliklari ko'p. 2. Hozirgina Buxoro shahri... poyezd yetib keldi. 3. Cho'l taraf... issiq shamol esdi. 4. Ko'chaning chap tarafi... do'konlar, o'ng tarafi... katta hammom joylashgan. 5. Osmon... son-sanoqsiz yulduzlar porlaydi. 6. Qadimda somon... yuqori sifatli qog'oz olishgan. 7. U ko'cha... xursand holda kirib keldi. 8. Men sinfdoshim bilan ko'cha... uchrashib qoldim.

40-mashq. Quyidagi birikmalarining bir-biridan farqini aniqlang va izohlang.

Ko'chada bor	- ko'chadan bor	- ko'chaga bor
Ish chiqar	- ishdan chiqar	- ishga chiqar
Yo'lda chiqar	- yo'ldan chiqar	- yo'lga chiqar
Kim aytsin	- kimga aytsin	- kimni aytsin
Kim keldi	- kimdan keldi	- kimga keldi
To'rt bo'ldi	- to'rtga bo'ldi	- to'rtni bo'ldi
Nima keldi	- nimaga keldi	- nimada keldi
Pul oldi	- pulga oldi	- puldan oldi
Ko'zga tutdi	- ko'zda tutdi	- ko'z tutdi
Qo'l oldi	- qo'lga oldi	- qo'ldan oldi
Uyni oldi	- uyni oldi	- uyga oldi
Til oldi	- tilni oldi	- tilga oldi

Uyga keldi – uydan keldi	qo'y yedi – qo'yni yedi
To'yga ketdi – to'ydan ketdi	ukam aytdi – ukamga aytdi
Boshqa ayt – boshqaga ayt	Tuladan keldi – to'ladan kelgan
U yoqmaydi – unga yoqmaydi	kim chaqirdi – kimni chaqirdi
To'yga aytdi – to'yda aytdi	o'zi oldi – o'ziga oldi
Ot yiqildi – otidan yiqildi	tush bo'ldi – tushda bo'ldi
Suv oqdi – suvga oqdi	yuz aytdi – yuziga aytdi

41-mashq. Quyidagi fe'llarni kelasi zamon maqsad shaklida tuslang.

Himoya qilmoq, haydamoq, qo'riqlamoq, o'stirmoq, o'zlashtirmoq, sharhlamoq, chiqmoq, chizmoq, xayrlashmoq, foydalanmoq, uchrashmoq.

42-mashq. Quyidagi fe'llarni kelasi zamon gumon shaklida tuslang va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Aytib bermoq, amalga oshirmoq, bajarmoq, borib kelmoq, boshlamoq, gaplashmoq, davolanmoq, yechmoq, yodlab olmoq, yozmoq, javob bermoq.

43-mashq. Quyidagi gaplarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Очевидно, на этот раз победит наша команда. 2. Вероятно, сегодня будет ясная погода. 3. Возможно, завтра будет дождь. 4. Возможно, на этой неделе не будет контрольной работы по узбекскому языку. 5. Наверное, сегодня к нам придут гости. 6. Возможно, сегодня мы с однокурсниками пойдём в театр. 7. Возможно, моя старшая сестра в этом году поедит в дом отдыха. 8. Ваш друг, наверное, пойдёт в областную библиотеку. 9. На спортивных соревнованиях, вероятно, будет участвовать и наша команда по волейболу? 10. Вероятно, завтра мы будем собираться в актовом зале университета.

44-mashq. Quyidagi gaplarni tarjima qiling.

1. Мой дядя хочет работать в научно-исследовательском институте. 2. Мы собираемся сдать зимнюю сессию только на «хорошо» и «отлично». 3. Я хочу рассказать вам о хорошем враче городской больницы. 4. Он хочет завтра поехать с нами в город Ангрэн. 5. Студенты нашего университета хотят помочь труженникам села. 6. Мы хотим провести выходной день в Агалыке. 7. Вы когда намерены ехать в Бухару? 8. Я намерен прочитать сборник стихов Эркина Вахидова. 9. Студенты исторического факультета нашего университета хотят изучить

китайский язык. 10. Ты не хочешь рассказывать о своих успехах?

45-mashq. Nuqtalar o'rniga kelasi zamon fe'li hamda shaxs-son qo'shimchalaridan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. Siz ertaga ertalab universitet kutubxonasiga bor...? 2. Biz kechqurin Hamid Olimjon teatrida yangi spektakl tomosha qil... . 3. U og'ir atletika to'garagiga qatnash... . 4. Men kelgusi yil «Chortoq» sanatoriyasida dam ol... . 5. Sen menga asalarilar to'g'risida gapirib ber... ? 6. Biz o'zbek dramaturglarining asarlaridan parcha qo'y... . 7. Opam yozgi ta'tilni Toshkentda o'tkaz... . 8. Siz o'qishni tugatib, Samarqandda qol... ? 9. Men bu yil «Fan va turmush» jurnaliga obuna bo'l... . 10. Sen yangi yilni qayerda kutib ol... ?

46-mashq. Quyidagi matnni ifodali o'qing. Fe'l zamonlari va kelishik qo'shimchalarini aniqlang. Matnni tarjima qiling.

YOZ FASLIDA

Yoz – ajoyib fasl. Yozda havo ochiq va kun juda issiq bo'ladi. Quyosh hamma yoqqa nurini sochib turadi. O'zbekistonda may oyidan boshlab mevalar pisha boshlaydi. Iyun oyida o'rik, olma, shaftoli, gilos, olcha, nok, qulupnoy pishadi. Bog'bonlar mevalarni terib, do'konlarga, qayta ishlash uchun zavodlarga yuboradilar.

O'quvchilar va talabalar iyul-avgust oylarida yozgi ta'tilga chiqishadi. O'qituvchilar ham bu vaqtda mehnat ta'tilida bo'lishadi. Ko'pchilik dam olish uchun ko'llarga, daryo va anhor bo'ylariga boradi. Hatto ariqlar ham bolalar bilan to'lib ketadi.

Dehqonlarning ishi bir daqiqa ham to'xtamaydi. Bu vaqtda g'o'zalar hosil to'playdi. Polizlarda qovun-tarvuzlar yetila boshlaydi. Ertangi sabzavotlarni yig'ishtirish boshlanadi. Biz yoz oylarning oxirida qishga g'amlash uchun mevalardan murabbolar,

shinni va sharbatlar, sabzavotlardan turli marinad va salatlar tayyorlaymiz.

TOPSHIRIQ. Quyida berilgan matndagi gaplar bo'yicha savollar tuzing va ularga og'zaki javob bering.

YOZGI TA'TILDA

Biz – bir guruh o'quvchilar yozgi ta'tilda Buxoro shahriga sayyohatga bormoqchi bo'ldik. Biz Buxorodagi tarixiy yodgorliklar bilan tanishmoqchimiz, muzeylarda bo'lmoqchimiz. Xalqimizning o'tmishdagi hayoti bilan tanishmoqchimiz. Bizga sinf rahbarimiz hamroh bo'ladi. Sinf rahbarimiz universitetning tarix fakultetini tugatgan. U kishi bizga ko'plab tarixiy voqealarni hikoya qilib beradilar.

Keyin biz Samarqand shahriga ham bormoqchimiz. U yerda biz barcha tarixiy yodgorliklar bilan tanishmoqchimiz. Biz ularning suratlarini ko'rganmiz. Buyuk munajjim Ulug'bekning rasadxonasi, madrasasi, ulug' sarkarda Amir Temurning maqbarasi, Tillakori, Sherdor madrasalari, Bibixonim masjidi, Shohizinda ansanbillarini ko'rmoqchimiz. Yozgi ta'tilda «Ona yurtim shaharlari» mavzuida insho yozishga tayyorlanamiz.

TOPSHIRIQ. Quyidagi qiziqarli ma'lumotlarni tarjima qiling.

Yer ostida juda ko'p suv zahiralari bor. Jumladan, 800 metr yer qatlamida to'rt million kub kilometr suv bo'ladi. Bu – butun dunyodagi daryolarning suvidan uch ming marta yoki ko'l va dengizlarning suvidan 20 marta ko'p demakdir.

TOPSHIRIQ. Kelishiklarning turlarini tartib bilan yozing va kelasi zamon fe'li, uning tasdiq, inkor, so'roq shakllari haqida o'rganganlaringizni yozma bayon eting.

6-MASHG'ULOT

Matn: Tarjimayi hol.

Leksikologiya: So'zlarning shakl va ma'no munosabatlariga ko'ra turlari: sinonimlar, omonimlar.

Grammatika: Darak gap.

TARJIMAYI HOL

Men, Salimov Karim Olimovich, 1955-yil 15-sentabrda Toshkent shahrida, xizmatchi oilasida tug'ildim.

Otam – Salimov Olim Oripovich, Toshkent pedagogika bilim yurtida o'qituvchi, onam – Rahimova Gulnora Azimovna, 122-bolalar bog'chasida bosh tarbiyachi bo'lib ishlaydilar.

1962-yildan 1972-yilgacha Toshkent shahridagi 1-o'rta maktabda o'qidim. 1972-yilda Toshkent Politexnika institutining qurilish fakultetiga o'qishga kirdim. 1973-1975-yillarda armiya safida haqiqiy xizmatni o'tab qaytgach, o'qishni davom ettirdim va 1979-yilda shu institutni imtiyozli diplom bilan tugatib, quruvchi-muhandis mutaxassisligiga ega bo'ldim. Yo'llanma bilan Toshkentdagi 166-qurilish trestining 94-mexanizatsiyalashgan ko'chma korxonasiga ishga yuborildim. Dastlab muhandis lavozimida, 1984-yildan buyon bosh muhandis lavozimida ishlayapman.

1986-yilda rejadagi topshiriqlarni muvaffaqiyatli bajarganimiz va erishilgan natijalar uchun Respublika Qurilish vazirligining faxriy yorlig'i bilan taqdirlandim.

Bir necha jamoat ishlarida ham qatnashaman, jumladan, 166-qurilish tresti kasaba uyushmasi qo'mitasining a'zosiman.

1995-ildan XDP a'zosiman.

Uylanganman. Xotinim – Rasulova Muhabbat, 1959-yilda tug'ilgan. 2-shahar kasalxonasida hamshira bo'lib ishlaydi. O'g'lim

- Salimov Nodir, 1980-yilda tugʻilgan, OʻzMU talabasi. Qizim – Salimova Lola, 1985-yilda tugʻilgan, 261-maktabda oʻqiydi.

Mening turar joyim: 700210, Toshkent, Usmon Nosir koʻchasi, 5-uy, 27-xonadon. Tel.: 72-28-61.

SALIMOV K.O. (imzo)

2000.14.01.

(M.Aminov va boshq. Ish yuritish.- T.: Oʻz ME, 2000, 241-b.)

FAOL SOʻZ VA BIRIKMALAR

xizmatchi oilasida	tugʻildim
pedagogika bilim yurti	oʻqituvchi
bolalar bogʻchasi	tarbiyachi
oʻqishga kirdim	xizmatni oʻtab qaytgach
oʻqishni davom ettirdim	quruvchi-muhandis
imtiyozli	mutaxassislik
yoʻllanma	ishga yuborildim
lavozim	rejadagi topshiriq
bosh muhandis	muvaffaqiyatli bajarmoq
erishilgan natijalar	faxriy yorliq
qurilish vazirligi	taqdirlandim
jamoat ishlari	qatnashaman
kasaba uyushmasi	aʼzoman
uylanganman	jumladan
dastlab	hamshira
turar joy	imzo

TARJIMAYI HOL BOʻYICHA MATN TUZISH UCHUN SAVOLLAR

1. Familiyangiz, ismingiz va otangizning ismi nima?
2. Siz qachon tugʻilgansiz?
3. Siz qayerda tugʻilgansiz?
4. Siz qanday oilada tugʻilgansiz?
5. Otangiz va onangizning familiyasi va ismi nima?
6. Ular qayerda va kim boʻlib ishlaydilar?

7. Siz qachon, qayerdagi va nechanchi maktabga oʻqishga bordingiz?
8. Siz maktabda qanday oʻqidingiz?
9. Siz oʻrta maktabni qachon tugatdingiz?
10. Siz oʻrta maktabni tugatgandan soʻng nima bilan shugʻullandingiz?
11. Siz qaysi oliy oʻquv yurtining qaysi fakultetiga oʻqishga kirdingiz?
12. Siz hozir nechanchi kursda oʻqiyapsiz?
13. Siz oilalimisiz? (uylanganmisiz, turmushga chiqqanmisiz)
14. Oilangizda yana kimlar bor?
15. Qanday chet tillarni bilasiz?
16. Oliy oʻquv yurtida qanday jamoat topshiriqlarini bajarasiz?
17. Siz qanday sport turlari bilan shugʻullanasiz?
18. Hayotingiz va ijtimoiy faoliyatingiz haqida yana qanday maʼlumotlarni qoʻshasiz?
19. Hozir qayerda yashayapsiz?(manzilingiz).

QUYIDAGI HADISLARNI TARJIMA QILING VA ESLAB QOLING

Nonni eʼzozlang.

Avvalo onangga, yana onangga va yana onangga, soʻng otangga yaxshilik qil.

Barcha balo tildandir.

Bir-birlaringiz bilan salomlashib yuringlar. Shunda oʻrtalaringda mehru muhabbat uygʻonur.

Ayollarga erkaklar oʻz tugʻishgan opa-singillari kabi munosabatda boʻlishlari kerak.

Uyiga mehmon qoʻnmaydiganlar yomon odamlardir.

Chaqirilgan joygagina boring.

Garchi Xitoyda boʻlsa ham ilmga intilinglar, chunki ilm olishga harakat qilish har bir moʻminga farzdir.

Aroqdan saqlanilar, chunki u barcha yomonliklarning kalitidir.

Pora beruvchi ham, uni oluvchi ham do'zaxga mahkumdur.

NAZARIY BILIMLARNI MUSTAHKAMLASH UCHUN MASHQLAR

47-mashq. Gaplarni tarjima qiling. Ularda qo'llangan ko'p ma'noli so'zlarni aniqlang va ma'nolarini izohlang.

1. Rahbar har doim ishning ko'zini bilishi lozim. 2. Sotib olingan uzukning ko'zi qimmatbaho toshdan edi. 3. Derazaning pastki ko'zi qarsillab sindi. 4. Bahor kelib, eski buloqlarning ko'zlari ochildi. 5. Taxtaning o'rtasida ikkita ko'zi bor ekan. 6. Ko'z – qo'rqqoq, qo'l – botir. 7. Onaning ko'zlari erta-yu kech yo'lda. 8. Oppoq ochilgan paxtazorlar ko'zingni oladi. 9. Ko'z ochib yumguncha umr o'tib ketadi. 10. U xatga tezgina ko'z yugurtirdi.

48-mashq. O'ng tomondagi so'zlardan chap tomondagi so'zlarning sinonimlarini toping va har bir sinonimik qatorni alohida-alohida ko'chirib yozing.

Yuz		Iljaydi, bet, qidirdi, aft, jilmaydi, bashara, axtardi,
kuldi		chehra, betob, jamol, diydor, oldin, oraz, xoholadi,
avval		uzor, quvonmoq, ruxsor, qadim, bemor,
izladi		kulimsiradi, tirjaydi, suyunmoq, quvnamoq, burun,
sevinmoq		shodlanmoq.

NAMUNA: *Yuz, bet, aft, bashara, chehra, jamol, diydor, oraz, uzor, ruxsor.*

49-mashq. Quyidagi iboralarning ma'nosini aniqlang va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Ko'ngli joyiga tushdi –
Tepa sochi tikka bo'ldi –

Xamirdan qil sug'urganday –
Tekkanga tegib, tegmaganga kesak otadi –
Tutgan yeridan kesadi –
Quruq aravani olib qochadi –
Eti suyagiga yopishgan –
Yerga ursa, ko'kka sakraydi –
Qo'y og'zidan cho'p olmagan –
Tilidan bol tomadi –
Tegirmonga tushsa butun chiqadi –
Bir yoqadan bosh chiqarishdi –

50-mashq. Quyidagi ertakni tarjima qiling.

ХИТРАЯ КУРИЦА

Однажды голодный шакал бежал мимо кишлака и увидел под деревом жирную курицу. Курица испугалась шакала и взлетела на дерево. Шакал подошел к дереву и ласково заговорил с курицей.

- Слышала новость? Между зверями и птицами объявлен мир. Слетай с дерева. Забудем вражду и побеседуем, как друзья.

«Ах обманщик!» - подумала курица.

- Чего ты испугалась? – спросил шакал у курицы.

- Сюда бегут собаки. Вот я и испугалась, - сказала курица.

Шакал услышал это, забыл о курице и побежал.

- Куда же ты бежишь! Ведь объявлен мир! – крикнула курица.

- А вдруг собаки ничего не знают о мире! – крикнул шакал и убежал без оглядки.

51-mashq. Quyidagi gaplar mazmunini izohlang. Ularda qoʻllangan omonimlarni toping.

1. Bir yil tut ekkan kishi yuz yil gavhar teradi. 2. Sen Zarafshon daryosiga borib baliq tut. 3. Yosh kelsa ishga, qari kelsa oshga. 4. Ogʻriq zoʻrligi tufayli uning koʻzlaridan yosh oqardi. 5. Oʻt ishi – qovurmoq. 6. Bu yil paxta dalalarida bitta ham yovvoyi oʻt qoldirilmadi. 7. Yoʻlchiroq yashil yonganda ehtiyotlik bilan yoʻldan oʻt. 8. Bu yil qishloq xoʻjalik mahsulotlari yetishtirish rejasi yuz foiz bajarildi. 9. U tezgina yuz-qoʻlini yuvib, oʻrtoqlari bilan chiqib ketdi. 10. Uyning toʻriga katta qizil gilam osilgan edi. 11. Cholning toʻriga bu safar oltin baliqcha ilindi. 12. Dilbar toʻrxaltasini toʻldirib bozordan qaytdi.

52-mashq. Quyida berilgan sinonimlar qatorini davom ettiring.

Ayyor, mugʻombir, ...
Aniq, yaqqol, ...
Balli, barakalla, ...
Bitirmoq, tugatmoq, ...
Darrov, darhol, ...
Juda, gʻoyat, ...
Kabi, singari, ...
Katta, ulugʻ, ...
Mazali, lazzatli, ...
Ozgina, oz-moz, ...
Puxta, pishiq, ...
Toʻsatdan, qoʻqqisdan, ...

53-mashq. Quyida berilgan soʻzlardan avval biologiyaga, keyin matematikaga va oxirida oʻzbek tilshunosligiga oid atamalarni alohida-alohida ajratib yozing, maʼnolarini izohlang.

Til, qoʻshuv, gul, tovush, barg, oluv, ega, urugʻ, boʻluv, kesim, kasr, hujayra, koʻpaytiruv, son, qon, irsiyat, toʻldiruvchi, tenglama, hol, koʻpaytma, aniqlovchi, toʻqima, natija, poya,

gulband, gap, changlagich, soʻz, qoʻshimcha, oʻzak, omonim, taqriban, sinonim, boʻlinma, antonim, teorema, oʻpka, aksioma, ichak, maxraj, yurak, manfiy, buyrak, musbat, izohlovchi.

54-mashq. Quyidagi soʻzlarning omonim maʼnolarini aniqlang.

1. Ot:	1.	2.	3.
2. Oq:	1.	2.	3.
3. Sir:	1.	2.	3.
4. Burun:	1.	2.	3.
5. Yoz:	1.	2.	3.
6. Yoq:	1.	2.	3.
7. Kech:	1.	2.	3.
8. Toy:	1.	2.	3.
9. Tom:	1.	2.	3.
10. Tuman:	1.	2.	3.
11. Uch:	1.	2.	3.

NAMUNA: Ot: 1. Ism (Raʼno). 2. Hayvon (saman ot). 3. Soʻz turkumi (turdosh otlar). 4. Feʼl (kamondan otmoq, tosh otmoq).

55-mashq. Nuqtalar oʻrniga tegishli zamon va shaxs-son qoʻshimchalarini qoʻyib, gaplarni koʻchiring.

1. Men aʻlochi talabalar haqidagi maqolani yozib boʻl...
2. Biz har kuni televizordan dunyoda boʻlayotgan yangiliklarni koʻrib bor... . 3. Siz yozgi imtihon va sinovlarga qanday tayyorgarlik koʻr...? 4. Nigora bu yil madaniyat uyida ochilgan bichuvchi-tikuvchilar toʻgaragiga qatnash... . 5. Sen chet tilidan qancha yangi soʻzni oʻrganib ol...? 6. Ular uchuvchilar haqidagi yangi hikoyani oʻqi... . 7. Siz Oʻzbekiston haqidagi matnning mazmunini oʻzbekcha aytib ber... . 8. Men yozgi taʼtil paytida mashina haydashni oʻrganib ol... . 9. Televizor birinchi boʻlib 1928-

yil 26-iyulda Toshkent shahrida kashf etil... . 10. Muborak Narpay tumanidagi 12-maktabda o'qituvchi bo'lib ishla... .

56-mashq. Quyidagi gaplarni tarjima qiling.

1. В ботаническом саду выращивают разные сорта яблонь, груш, вишен, слив и винограда. 2. Из книг можно узнать о народах разных стран мира. 3. В нашем факультете часто проводятся вечера самодеятельности. 4. До рассвета осталось два часа двадцать минут. 5. Труд – основа нашей жизни. 6. Выполнение домашних заданий не оставляйте на завтра. 7. В центре сада построен красивое здание. 8. Днём люди работают, а вечером отдыхают, веселятся и танцуют. 9. Вы собираетесь на экскурсию в горы? 10. Человек всегда должен стремиться к цели.

57-mashq. Quyida berilgan so'zlar ishtirokida darak gaplar tuzing.

Bahor, yoz, kuz, qish, qovun, tarvuz, olma, anor, piyoz, sholg'om, ertalab, bugun, kechqurun, ertaga, tushda.

58-mashq. Quyidagi so'roq gaplarni tasdiq yoki inkor mazmunli darak gaplarga aylantiring.

1. Dasturxonga har galgidek olma, anor, uzum kabi mevalar ham tortildimi? 2. O'zbekiston Respublikasi hududida hozir yo'lbars, timsoh, fil, begimot va boshqa yirik yovvoyi hayvonlar yashaydimi? 3. Bu badiiy asarlar va o'quv qo'llanmalarini qayerdan sotib oldingiz? 4. Bu avtobus bilan markaziy bozorgacha borish mumkinmi? 5. O'rtog'ingizning ukasi O'zbekiston Milliy universitetining qaysi fakultetini tugatdi? 6. Qishdan so'ng qaysi fasl keladi? 7. Bir hafta yetti kundan iborat emasmi? 8. Hech qachon arzimagan narsa uchun o'rtog'ingizni xafa qilmaysizmi? 9. Sizning eng sevimli mashg'ulotingiz nima? 10. O'zbekistonda eng ko'p yetishtiriladigan mevalar qaysi? 11. Bo'sh vaqtlaringizda

musiq tinglash yoki badiiy kitob o'qishni yoqtirasizmi? 12. Siz har oyda necha marta kino yoki teatrga borasiz?

OG'ZAKI NUQTNI O'STIRISH BO'YICHA MATERIALLAR

Salomlashish

Assalomu alaykum!
Salom!
Sizni ko'rganimdan juda xursandman

Uchrashganimiz yaxshi bo'ldi.
v
Sizni ko'rganimga ko'p bo'ldi.

Ahvolingiz qanday (qalay)?
Ishlaringiz qanday?
Rahmat, yaxshi. Juda yaxshi. A'lo darajada. Joyida. O'rtacha.

Sog'lig'ingiz qalay? Tuzukmisiz?
y
Yomon emas, rahmat.
Uy ichingiz tinchmi? Uydagilar yaxshimi? Tashakkur. Hammasi yaxshi.

Qanday ajoyib uchrashuv! Xush kelibsiz!

Nima yangiliklar bor?
Arzigulik gap yo'q.
Hammasi eskicha.

Privetstviye

Здравствуйте!
Привет!
Очень рад Вас видеть
Хорошо, что мы встретились.
Давно я Вас не видела.
Как живёте?
Как у вас дела?
Спасибо, хорошо.
Очень хорошо.
Отлично.
Нормально. Так себе.
Как вы себя чувствуете?
Нечего, спасибо.
Как поживает семья? Спасибо.
Все хорошо.
Какая приятная встреча!
Добро пожаловать!
Что нового?
Ничего особенного.
Всё по-старому.

Hech gap yo‘q.
Uydagilarga salom ayting!

Ko‘rushguncha xayr!

Хайрлашish

Men siz bilan xayrlashmoqchiman.

Hammasi uchun rahmat!

Yaxshi qoling.

Yaxshi boring. Oq yo‘l!

Yo‘lingiz bexatar bo‘lsin!

Bizni unutmang(esdan chiqarmang)!

Yozib turing.

Telefon (qo‘ng‘iroq) qilib turing.

Yana keling.

Kirib turing.

Ota-onangizga salom ayting!

д

Hammaga mendan salom ayting!

Ko‘rishguncha xayr!

Yaqin kunlarda ko‘rishguncha.

Ertagacha.

Yakshanbagacha.

Xayrli tun! Tuningiz xayrli bo‘lsin!

Yaxshi qoling! Yaxshi boring!

Sog‘ bo‘ling!

Hozircha!

Xo‘p, hozircha.

Ko‘risharmiz.

Ничего нового.

Передайте привет
к своим!

До свидания!

Прощание

Я хочу попрощаться
с вами.

Спасибо за все!

Счастливо оставаться!

Счастливого пути!

Всего хорошего!

Доброго пути!

Не забывайте нас!

Пишите.

Звоните.

Приезжайте ещё.

Заходите.

Передайте привет
родителям!

Передайте всем от
меня привет!

До свидания! До встречи!

До скорой встречи.

До завтра.

До воскресенья.

Спокойной ночи!

Всего хорошего!

Всего доброго!

Будьте здоровы!

Пока!

Ну, пока.

Увидимся.

TOPISHMOQLARNI IFODALI O‘QING VA TOPING

O‘zi kichik bir narsa,
Kerak bo‘lar har darsda
Chizib qo‘ysang noto‘g‘ri,
Yo‘q qiladi birpasda.
(o‘chirgich)

Yum-yumaloq tosh edi,
Ko‘z-quloqsiz bosh edi.
Ko‘ring, ajab ish bo‘ldi,
Bir yumalab qush bo‘ldi.
(tuxum)

Bir uychada yashaydi
O‘ttiz ikki pahlavon
Birdek kiygan oq libos,
Juda ahil, bir tan-jon.
(tishlar)

Uchib borar po‘lat qush,
Eshitilar ovozi.
Qoqmasa ham qanot u,
Juda yuksak parvozi.
(samolyot)

MULOQOTNI OG‘ZAKI TARJIMA QILING

- Когда ты встаёшь?
- Я встаю в семь часов утра.
- Что ты делаешь потом?
- Потом я делаю зарядку, умываюсь и одеваюсь.
- Когда ты завтракаешь?
- Я завтракаю в семь часов тридцать минут.
- Когда ты пойдешь в университет?
- Я хожу в университет без десяти минут восемь.
- Когда ты приходишь из университета?
- Я прихожу из университета в четыре часа.
- Где ты обедаешь?
- Я обедаю в студенческом столовое.
- Что ты делаешь дома?
- Переодеваюсь, час отдыхаю и после этого помогаю маме.
- Когда ты готовишь уроки?
- Я готовлю уроки вечером.
- Что ты ещё делаешь вечером?

- Ужинаю. Потом я читаю книги, смотрю передачи по телевизору, с братишкой играю в шахматы.
- Когда ты ложишься спать?
- Спать я ложусь в одиннадцать часов.

MAQOLLARNI TARJIMA QILING VA YOD OLING

Bulbul chamanni sevar,
Odam – Vatanni.

Vatanning tinch – sen tinch.

O‘zga yurtning gulidan

O‘z yurtningning cho‘li yaxshi.

Ko‘pdan quyon qutulmas.

Xalq aytgani – haq aytgani.

Dindan chiqsang ham, eldan chiqma.

El sog‘ligi – yurt boyligi.

Boylik boylik emas, birlik boylik.

Kemaga tushganning joni bir.

Yaxshi otga bir qamchi, yomon otga ming qamchi.

BUNI ESDA TUTING: o‘zbek tilida gapning odatdagi tartibida avval ega, gap oxirida kesim, ular bilan bog‘langan ikkinchi darajali bo‘laklar ulardan oldin keladi.

TOPSHIRIQLAR

1. «Tarjimayi hol» matnini rus tiliga tarjima qiling.
2. «Tarjimayi hol» matnining mazmunini qisqacha hikoya qiling.
3. Tarjimayi hol bo‘yicha berilgan savollardan foydalanib, o‘z tarjimayi holingizni yozing.
4. O‘z tarjimai holingizni og‘zaki hikoya qiling.
5. O‘zbek tilining lug‘at tarkibi, so‘zlarning shakl va ma‘no munosabatiga ko‘ra turlari bo‘yicha o‘rgangan nazariy bilimlaringizni yozma bayon eting.

7-MASHG‘ULOT

Matn: Dam olish kuni.

Leksikologiya: Antonimlar,
paronimlar.

Grammatika: So‘roq gap.

DAM OLIISH KUNI

Bir yil o‘n ikki oyga bo‘lingan. Yangi yil yanvar oyidan boshlanadi. Dekabr yilning so‘nggi oyi hisoblanadi. Bir oy esa 30 yoki 31 kundan iborat bo‘ladi. Har bir oy to‘rt haftadan tashkil topadi. Hafta esa yetti kundan iborat. Biz dushanba, seshanba, chorshanba, payshanba, juma va shanba kunlari o‘qiymiz yoki ishlaymiz. Bu kunlar ish kunlari hisoblanadi. Yakshanba – dam olish kuni. Biz yakshanba kunida bajariladigan ishlarimizni oldindan rejalashtirib qo‘yamiz. Dam olish kunini har kim har xil o‘tkazadi.

Mening ismim Alisher. Men dam olish kunini oilamiz a‘zolari bilan uyda o‘tkazaman. Bahor va kuz paytlari toqqa chiqamiz. Bahorda qirlar va tog‘ etaklari yam-yashil maysalar, qip-qizil lolalar bilan bezanadi. Kuzda soy bo‘ylaridagi o‘tlar sarg‘ayib, mevalar pishadi. Biz kechgacha sayr etib uyga qaytamiz. Boshqa paytlari hovlida turli ishlar bilan band bo‘lamiz.

Odatda dam olish kunlari uyqudan kechroq turamiz. Nonushta qilib bo‘lgach, bajariladigan ishlarni bo‘lib olamiz. Men hovlidagi ariqlarni tozalayman, daraxtlar va gullarni butayman, ularni sug‘oraman. Singlim onamga yordam beradi. Singlimning ismi Nigora. U ertalab turib hovlini supuradi, eshik va deraza oynalarini artadi. Dadam bilan ukam bozordan oziq-ovqat mahsulotlari, sabzavot va mevalar sotib olib kelishadi. Onam chang yutqich bilan xonalarni, gilamlarni tozalaydi, kir yuvish mashinasida kiyimlarni yuvadi, ularni dazmollaydi. Singlim pollarni yuvadi, kitob va kiyim javonlari, stol, televizor, deraza

tokchalarining changlarini artadi. Keyin biz birgalashib tushlikka ovqat pishiramiz. Tushlik tayyor bo'lguncha televizordan qiziqarli ko'rsatuvlarni tomosha qilamiz. Tushlikdan so'ng dadam va onam buvimlarnikiga borishadi. Biz – men, ukam va singlim birgalikda dars tayyorlashga o'tiramiz.

Kechqurun barchamiz kechki ovqat oldidan dasturxon atrofida yig'ilamiz. Kechki ovqatdan so'ng men do'stlarim bilan uchrashaman. Ular bilan suhbatlashamiz, shaxmat, shashka, bilyard o'ynaymiz. Ukam va singlim badiiy asar o'qishni yoqtiradi. Otam va onam televizor tomosha qiladilar, gazeta va jurnal o'qiydilar, ertangi ishlar haqida suhbatlashadilar. Biz dam olish kunini juda maroqli o'tkazamiz.

FAOL SO'Z VA BIRIKMALAR

yilning so'nggi oyi	hafta
tashkil topadi	ish kunlari
dam olish kuni	bajariladigan ish
rejalashtirib qo'yamiz	har xil o'tkazadi
oilamiz a'zolari	toqqa chiqamiz
mevalar pishadi	kechgacha sayr etib
turli ishlar	band bo'lamiz
kechroq turamiz	ishlarni bo'lib olamiz
ariq	gullarni butayman
sug'oraman	supuradi
sotib olib kelishadi	gilam
tozalaydi	yuvadi
dazmollaydi	kitob javonlari
deraza tokchalari	ovqat pishiramiz
qiziqarli ko'rsatuv	tomosha qilamiz
buvimlarnikiga boramiz	birgalikda dars tayyorlash
dasturxon atrofida	yig'ilamiz
uchrashaman	badiiy asar
maroqli	o'tkazamiz

«DAM OLIISH KUNI» MATNI BO'YICHA SAVOLLAR

1. Bir yil necha oyga bo'lingan?
2. Bir yilda necha fasl bor?
3. Har bir oy necha haftadan iborat?
4. Hafta necha kundan iborat?
5. Hafta kunlari qanday nomlanadi?
6. Qaysi kun dam olish kuni hisoblanadi?
7. Alisher dam olish kunini qayerda o'tkazadi?
8. U bahor va kuz fasllarida dam olish kunini qanday o'tkazadi?
9. U yakshanba kuni uyqudan qachon turadi?
10. Alisher hovlida qanday ishlar bilan mashg'ul bo'ladi?
11. Alisherning singlisi Nigora nima ish bilan band bo'ladi?
12. Alisherning dadasi va ukasi qayerga borishadi?
13. Ular nimalar sotib olib kelishadi?
14. Alisherning onasi qanday ishlarni bajaradi?
15. Nigora xonalarda qanday ishlarni bajaradi?
16. Ularga tushlikni kim pishiradi?
17. Tushlikdan so'ng Alisherning ota-onasi qayerga borishadi?
18. Tushlikdan so'ng Alisher ukalari bilan nima ish qiladi?
19. Ular qachon kechki ovqat uchun yig'iladilar?
20. Alisher kechki ovqatdan so'ng kimlar bilan uchrashadi?
21. Uning ukasi va singlisi kechqurun nima bilan band bo'lishadi?
22. Ular dam olish kunini qanday o'tkazadilar?

QUYIDAGI MAQOLLARNI TARJIMA QILING VA ESLAB QOLING

Yaxshi bilan yursang,
Yetarsan murodga.
Yomon bilan yursang,
Qolarsan uyatga.

Hasad qilma, havas qil.

Til – dil kaliti.

Tig‘ jarohati bitar,

Til jarohati bitmas.

Aybsiz do‘st izlagan do‘stsiz qolar.

Do‘st yig‘latar, dushman kuldirar.

Yaxshi odam yurt tuzar,

Yomon odam yurt buzar.

Do‘stini yomonlagandan qoch.

Do‘st ming bo‘lsa ham oz,

Dushman bir bo‘lsa ham ko‘p.

QUYIDAGI HADISLARNI TARJIMA QILING VA ESDA TUTING

Tonggi uyqu rizqni qisqartiradi.

Tilini tuzatgan kishiga Tangrining rahmati bo‘lsin.

Xola ham hurmat bobida ona bilan barobardir.

Qabristonni ziyorat qilib turinglar, zero u sizlarga oxiratni eslatadi.

Qarzini uzmay dunyodan o‘tgan odam, to o‘sha qarzi uzilmaguncha qabrida kishanlangan holda yotadi.

Pashsha kallasichalik narsa berib bo‘lsa-da, gadoyni quruq qaytarmanglar.

Yirtqich hayvonlarning go‘shiti haromdir.

NAZARIY BILIMLARNI MUSTAHKAMLASH UCHUN MASHQLAR

58-mashq. Quyida berilgan so‘zlarning antonimlarini toping va tarjima qiling.

aqlli -

baland-

bemaza-

dangasa-

gunoh-

yengil-

yopiq-

yotmoq-

yig‘i-

kalta-

katta-

kech-

kovlamoq-

la‘nat-

mag‘lubiyat-

muzlamoq-

oriq-

oson-

59-mashq. Quyidagi paronimlarni tarjima qiling va izohlang.

abad – obod

yod - yot

buyuk - buyuq

adil - adl

ahil - ahl

ganj - ganch

amir - amr

banda - bandi

darz - dars

anqo - anqov

bazo‘r - bahuzur

daha - daho

ariq - oriq

burj - burch

demak - demoq

yoriq - yorug‘

yonilg‘i - yoqilg‘i

jayron – jiyron

zamon - zomin

zirak - ziyrak

ijobiy-jodiy

ilik - ilk

yo‘qlamoq-yoqlamoq

kurak - ko‘rak

may - moy

kumush - ko‘mish

moda - modda

marhum-mahrum

mashoq-mashshoq

milk - mulk

60-mashq. Quyida berilgan so‘zlarning antonim juftini toping va ular ishtirokida gaplar tuzing.

arzon-

botir-

do‘zax-

yig‘lamoq-

tor-

mezbon-

sayoz-

qattiq-

achchiq-

boy-

dushman-

ijobiy-

kam-

sekin-

ochmoq-

xasis-

suyuq-

to‘g‘ri-

61-mashq. Quyida berilgan so‘zlarning ma‘nosini aniqlang, ular orasida paronimlikni vujudga keltirgan holatni izohlang.

suz – so‘z

qara – qora

sog‘liq – sovliq

borlik -borliq

uzum - o‘zim

bob – bop

oxir – oxur

juda - judo

suymoq –so‘ymoq

uchmoq – o'chmoq	davo - da'vo	qullik – qulluq
qiymat-qimmat	hol – xol	shohi – shoxi
ham – xam	to'r – tur	tariq – tarix
hush – xush	ko'pik – ko'ppak	shimol – shamol
qo'riq – ko'rik	qo'l – qul	ko'l – kul
murabba–murabbo	nav – nov	sayil – sayr
murvat – muruvvat	palak – falak	sarob – sarrof

62-mashq. Berilgan gaplarni tarjima qiling. Unda qo'llangan paronimlarning ma'nosini tushuntiring.

1. Turg'un Alimatov tanburda yoqimli kuy ijro etdi. 2. Shu payt vagon tamburida ikkita ayol paydo bo'ldi. 3. Eski shaharda hali ham tang ko'chalar bor. 4. Qarmoqlarni olib tongda yo'lga tushdik. 5. Yozda Zarafshon daryosida cho'milib, oftobda toblanamiz. 6. Bahorda qir-adirlardagi maysalar, gul-lolalar tovlanib, ko'zni oladi. 7. Suv loyqalanib oqayotganligi tufayli daryoning tubi ko'rinmas edi. 8. Bir tup tok eksang, bir tup tol ek. 9. Yarim soat o'tmay u qishloqdan xiyla uzoqlashdi. 10. Tulki bu safar ham hiyla bilan bo'ridan qutilib ketdi.

63-mashq. Quyidagi matnni o'zbek tiliga tarjima qiling.

НАВРУЗ – «НОВЫЙ ДЕНЬ»

В Средней Азии Новый год по древней традиции отмечается в марте. К Наврузу начинают готовиться заранее: чистят и моют дома, украшают их стены рисунками. В праздник люди надевают новую одежду. Люди по традиции посадить деревья и цветы. Праздник в каждом доме, на каждой улице, где поют и танцуют, где прохожих ждут большие казаны с угошением. В чайханах искусные повара просить гостей попробовать национальные блюда. А под открытым небом на зеленой поляне соревнуются силачи. Рядом острословы и поэты. Всюду накрывают дастархан, на котором обязательны семь предметов. Готовят плов, шурпу, блины,

огромные лепешки – угошение должно быть богатым, тогда урожай осенью будет на славу, а молоко у коров и овец – жирным и обильным. Состязаются танцоры, борцы, конники и поэты. Считаются, чем веселее пройдет Навруз, тем щедрее будет природа. Праздник продолжается месяц.

64-mashq. Gaplarni tarjima qiling. Ularda qo'llangan antonimlarni topib qiyoslang.

1. Qish kunlari kechalar uzun, kunduz esa qisqa bo'ladi. 2. Sport bilan muntazam shug'ullangan kishi kuchli bo'ladi. 3. Kuchsiz kishi mushukdan ham qo'rqadi. 4. Mehmonlar ertalab soat 9 da Registon maydonida kutib olinadi. 5. To'y tugagach, mezbonlar kelganlarni hurmat bilan ko'chagacha kuzatib qo'yadilar. 6. Qishning qattiq sovug'ida muzlab qolgan daryolar mart oyida iliq havodan eriydi. 7. Semiz qo'yning go'shti ori qo'yning go'shtidan yog'liligi va to'yimliligi bilan farq qiladi. 8. Mehnat qilganda qattiq non ham yumshoq va shirin tuyuladi. 9. Sun'iy tolalardan olinadigan matolar ham tabiiy tolalardan to'qilgan matolardan qolishmaydi. 10. L.N.Tolstoyning «Urush va tinchlik» romanini A.Qahhor mahorat bilan o'zbek tiliga tarjima qilgan.

65-mashq. Quyida berilgan maqollardan antonim so'zlarni toping. Ularning ma'nosini izohlang.

Yaxshi bola – to'rga tortar, Yomon bola – go'rga.
 Qobil bola rohat keltirar, Noqobil o'g'il – mehnat.
 Kelish mehmondan, ketish mezbondan.
 Mehmon oz o'tirar, ko'p ko'rar.
 Baxil topsa, bosib yer, Saxiy topsa, barcha yer.
 Bor bo'lsa, ko'rolmaydi, Yo'q bo'lsa, berolmaydi.
 Ol, desang, suyunar, Ber, desang, kuyunar.
 Uying tor bo'lsa ham, Ko'ngling keng bo'lsin.
 Kamtar yetar murodga, Manman qolar uyatga.
 Bemor tuzalgisi kelsa, Tabib o'z oyog'i bilan kelar.

66-mashq. Quyida berilgan gaplarni so‘roq gaplarga aylantiring.

1. Ariq yoqalarida bahor elchilari bo‘lgan o‘t-o‘lanlar paydo bo‘ldi. 2. Alisher Navoiy o‘z g‘azallarida do‘stlik, vafo, muhabbat, yaxshilikni madh etgan. 3. Kul rang qoyalar bilan o‘rmonzor orasida sharqirab soy oqar edi. 4. Bu ilg‘or xo‘jalik paxtadan yuqori hosil yetishtirish bilan dong taratgan. 5. Paxtazor dalalar qishda qor tagida dam oladi. 6. Poyezd vagonlarini ergashtirib asta joyidan qo‘zg‘aldi. 7. Yer yuzidagi barcha yaxshi niyatli kishilar tinchlik istaydi. 8. U har yakshanba ov miltig‘i va qarmoqlarini ko‘tarib ko‘l tomon ketardi. 9. Eshigimiz oldida bir tup nok, ikki tup olma bor edi. 10. Urgut shahri baland tog‘lar bilan o‘ralgan. 11. Men sinfdosh do‘stimni o‘tgan yili kuzda Toshkentda uchratgan edim. 12. Daraxtlarning orqasida qizil, ko‘k, pushti, sariq va zangori chiziqlar bilan tovlanib turgan kamalak ko‘rindi.

67-mashq. Quyidagi so‘roq olmoshlari yordamida so‘roq gaplar tuzing.

Kim, kimlar, nima, nimalar, qayer, qayerga, qayerda, qayerdan, qanday, qaysi, qanaqa, qancha, necha, nechta, nechanchi, qanday qilib, nega, nima uchun, nima sababdan, nima qildi, nima bo‘ldi, nima maqsadda.

68-mashq. Quyida berilgan so‘roq gaplarni darak gaplarga aylantiring.

1. Kuz fasli qaysi oydan boshlanadi? 2. Samarqand davlat chet tillar instituti Universitet xiyobonida joylashganmi? 3. Futbol bo‘yicha jahon chempionati qayerda bo‘lib o‘tadi? 4. Mana shu kitobingizni menga berib turasizmi? 5. Qancha tanbeh eshitib ham yana kech qolding-a? 6. Men sening kitoblaringni ertaga keltiraman demaganmidim? 7. Har qanday holatda ham sen o‘zingni himoya qila olasanmi? 8. U o‘ziga yuklangan vazifani bu safar to‘liq bajarib kelarmikan? 9. Biz e‘lon qilingan tanlovda ishtirok eta olamizmi? 10. Ular el oldida bergan tantanali va‘dalarini

unutmasmikanlar? 11. Siz hind kuy va qo‘shiqlarini yoqtirasizmi? 12. Registon ansamblida nechta minora bor?

69-mashq. Gaplarni o‘zbek tiliga tarjima qiling va so‘roq gaplarga aylantiring.

1. Мы живём в Ташкенте на улице Мирзо Улугбек. 2. Сегодня вечером мы пойдём в театр или в кино. 3. Весной прилетели ласточки и свили гнездо. 4. Наступила осень и начался сбор хлопка. 5. В нашем саду поспели яблоки, груши и инжир. 6. В нашем городе очень много высоких и красивых зданий. 7. По обеим сторонам нашей улицы много деревьев и цветов. 8. Узбекистан посылает хлопок, фрукты и овощи во многих стран мира. 9. Лариса много читает, потому что хочет знать узбекский язык. 10. Летом я буду купаться в реке и играть с товарищами. 11. Когда я вырасту стану преподавателем родного языка. 12. Вчера мы собрались в клубе девять часов вечера.

OG‘ZAKI NUTQNI O‘STIRISH UCHUN MATERIALLAR

Tanishuv

Tanishishga ruxsat eting.

Keling, tanishaylik.

Siz bilan tanishsak bo‘ladimi?

po

Keling, tanishib olaylik.

Mening ismim...

Kechirasiz, ismingiz nima?

Sizni...

Do‘stim bilan...

Akam (ukam) bilan...

Opam (singlim) bilan...

Dugonam bilan...

.... tanishtirmoqchiman.

Sizni ... bilan tanishtirishga

Знакомство

Разрешите с Вами

познакомиться.

Давайте познакомиться.

Можно с Вами

познакоиться

Давайте познакомиться.

Меня зовут...

Простите, как Вас зовут ?

Я хочу Вас познакомиться...

с моим другом.

с моим братом.

с моей сестрой.

с моей подругой.

Разрешите Вас познакомить с...

ruxsat eting.	
Marhamat, ... bilan tanishing.	Познакомьтесь, пожалуйста, с...
Juda xursandman! Juda yaxshi!	Очень приятно!
Siz bilan tanishganimdan xursandman.	Рад с Вами познакомиться.
Biz endi tanishmiz.	Мы уже знакомы.
Biz ilgari uchrashganmiz.	Мы раньше встречались
Sizni ilgari qayerdadir ko'rganman.	Я Вас раньше где-то видел.
Sizni ilgari qayerdadir uchratganman.	Я Вас раньше где-то встречал.
Siz haqingizda (ko'p) eshitganman.	Я о Вас (много) слышал.

Rozilik bildirish, ma'qullash

Marhamat.	Согласие, одобрение
(Men) roziman.	Пожалуйста.
(Men) qarshi emasman, e'tirozim yo'q.	(Я) согласен.
(Men) tayyorman.	(Я) не возражаю.
Bajonidil, jonim bilan.	Я готов.
Mamnuniyat bilan.	С удовольствием.
Ha, albatta, mumkun.	С большой радостью.
So'zsiz, shubhasiz.	Конечно, можно (разумеется).
Mayli, ma'qul.	Безусловно.
Yaxshi!	Ладно.
Juda soz!	Хорошо!
Juda yaxshi! A'lo!	Прекрасно!
Mana, kelishib ham oldik!	Отлично!
Kelishdik! Bo'пти!	Вот и договорились!
Siz (mutlaqo) haqsiz.	Решено!
Gapingiz to'g'ri	Вы (совершенно) правы
Men ham shu fikrdaman.	Я тоже так думаю.
(Men) juda xursandman.	Я очень рад.

SHE'RNII YOD OLING

SPORT BILAN CHINIQSANG

Yoshingga yosh qo'shadi
 Bilakka kuch qo'shadi,
 Chehrang yog'du sochadi,
 Sport bilan chiniqsang!

Aslo tolmas bo'lasan,
 Kasal bo'lmas bo'lasan.
 Doim quvnoq yurasan,
 Sport bilan chiniqsang!

Epchil bo'lib o'sasan,
 Kuchga to'lib o'sasan.
 Sinovlardan o'tasan,
 Sport bilan chiniqsang! (H.Safarov)

TOPISHMOQLARNI IFODALI O'QING VA TOPING

Osmonda bor, yerda yo'q,
 Samarqandda bor,
 Toshkentda yo'q,
 Menda bor-u, senda yo'q.

(«m» harfi)

Oq yerga qora urug',
 Qo'l bilan ekiladi.
 Ko'z bilan tutib turib
 Og'iz bilan o'riladi.
 (yozuv)

O'zi oddiy bir karnay,
 Tili yo'q, so'zlar, hay-hay.
 Dunyoning to'rt burchidan
 Xabar beradi tinmay.
 (radio)

TOPSHIRIQ. Muloqotni o'qing va tarjima qiling.

- Расскажи, пожалуйста, о своей семье. Какая у вас семья?
- У нас семья большая и дружная.
- Сколько человек в вашей семье?
- В нашей семье восемь человек.
- Где работает твой отец?
- Мой отец работает на заводе «Кинап».
- Что он делает?
- Он готовит кинофотоаппаратуры.
- А твоя мама работает?
- Да, мама работает детсаде воспитательницей.
- Сколько у тебя братьев?
- У меня один старший брат.
- Он учиться?
- Да, он учиться в институте.
- Кем будет твой брат?
- Имой брат будет инженером.
- Сколько у тебя сестёр?
- У меня одна старшая и одна младшая сестра.
- Где работает твоя старшая сестра?
- Старшая сестра работает швейной фабрике. Она швея.
- Что выпускает фабрика?
- Фабрика выпускает верхнюю одежду: пальто, костюм, платья и др.
- У тебя есть дедушка и бабушка?
- У меня есть дедушка и бабушка.
- Они работают?
- Нет, они пенсионеры.
- Где раньше работали дедушка и бабушка?
- Дедушка работал строительстве. Бабушка работала в торговле, бухгалтером.
- Ты любишь свою семью?
- Да. Я очень люблю свою семью.

TOPSHIRIQLAR

1. «Dam olish kuni» matnini tarjima qiling.
2. «Dam olish kuni» matni mazmunini ogʻzaki hikoya qiling.
3. Matndan foydalanib dam olish kunidagi faoliyatingiz haqida qisqacha matn tuzing.
4. Tuzgan matningizni ogʻzaki hikoya qiling.
5. Matn boʻyicha soʻroq gaplar tuzing, ularning yasalish usullarini tushuntiring.
6. Oʻzbek tilining lugʻat tarkibi, soʻz va atama, ibora, omonimlar, sinonimlar, antonimlar, paronimlar, darak gap va soʻroq gaplar boʻyicha oʻrgangan nazariy bilimlaringizni yozma bayon eting.
7. Soʻz va atamani farqlaysizmi? Fikringizni misollar bilan tushuntiring.

BUNI ESDA TUTING: oʻzbek tilida soʻroq gaplar soʻroq olmoshlari hamda –mi soʻroq yuklamsi yordamida hosil qilinadi.

8- MASHGʻULOT

Matn: Mening ish kunim.

Grammatika: 1.Ot soʻz turkumi.

2.Buyruq va undov gaplar.

MENING ISH KUNIM

Men Aziz Roʻzimurodovman. Shu yil Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universitetining iqtisodiyot fakultetiga oʻqishga kirdim. Men hafta davomida qiladigan ishlarimni oldindan rejalashtirib olaman. Ana shunday qilganligim uchun rejalashtirilgan ishlarim qolib ham ketmaydi yoki rejadan tashqari ishlar boʻlganda ham shoshib qolmayman.

Men har kuni ertalab soat 6 dan 30 daqiqa o'tganda turaman. 20 daqiqa davomida badan tarbiya bilan shug'ullanaman, turli mashqlar bajaraman. Ipda sakrayman, yuguraman, turnikda tortilaman, tosh ko'taraman. Soat 7 da nonushta qilishga o'tiraman. Men nonushtaga sut, murabbo, sariyog', non, qahva yoki choy ichishni yoqtiraman. Nonushtadan so'ng soat 7 dan 30 daqiqa o'tganda uydan chiqaman. Darsga o'rtoqlarim bilan ertalabki toza havoda piyoda boraman. Universitetda darslar soat 8 da boshlanadi. Har kuni 3-4 fandan dars o'tamiz. Darslarimiz soat 2 dan 20 daqiqa o'tganda tugaydi. Uchinchi va to'rtinchi darslar oralig'ida tushlik uchun 40 daqiqalik katta tanaffus bo'ladi. Bu vaqtda biz universitet talabalar oshxonasida tushlik qilib olamiz. Oshxonamiz ikki qavatli. Birinchi qavatda o'qituvchilar ovqatlanishadi. Biz ikkinchi qavatda tushlik qilamiz. Oshxonada milliy va boshqa taomlarni juda lazizatli tayyorlashadi. Tushlikdan so'ng yana bir fandan dars o'tib, uyga qaytamiz.

Uyga kelib bir soat dam olaman. Keyin universitet ilmiy kutubxonasiga borib, amaliy va ma'ruza mashg'ulotlariga tayyorlanaman. Adabiyotlarni o'qib, kerakli joylarini yozib olaman. Kechqurun soat oltalarda yana uyga qaytaman. Haftada ikki kun – chorshanba va shanba kunlari darsdan so'ng voleybol bo'yicha to'garak mashg'ulotlariga qatnashaman. Darslardan bo'sh vaqtimda onamga uy ishlarida ko'maklashaman. Kechki ovqatga soat 7 dan 30 daqiqa o'tganda o'tiramiz. Onam juda pazanda, ajoyib, shirin taomlar pishiradi. Kechki ovqatdan so'ng men idish-tovoqlarni, piyolalar, qoshiq va sanchqilarni issiq suvda yuvib, tozalayman, joy-joyiga terib qo'yaman. So'ng birgalashib televizor tomosha qilamiz. Kechqurun men ko'proq badiiy asar, gazeta va jurnallar o'qish bilan band bo'laman. Kechki mutolaadan so'ng toza havoda sayr qilaman. O'rtoqlarim bilan telefonda suhbatlashaman. Soat 11 da yotib uxlayman.

FAOL SO'Z VA IBORALAR

iqtisodiyot

o'qishga kirdim

hafta davomida
rejalashtirib olaman
badan tarbiya
yuguraman
yuvinaman
nonushta qilaman
yoqtiraman
piyoda boraman
dars o'tamiz
darslar oralig'ida
tushlik qilamiz
dam olaman
tayyorlanaman
amaliy
to'garak
ko'maklashaman
pishiradi
idish-tovoqlar
ajoyib
yuvib, tozalayman
badiiy asar

qolib ketmaydi
shoshib qolmayman
sakrayman
tortilaman
ajrataman
murabbo
uydan chiqaman
boshlanadi
tugaydi
tanaffus bo'ladi
ovqatlanishadi
mashg'ulotlarga
ma'ruza
qaytaman
qatnashaman
shirin taom
kechki ovqat
qoshiq va pichoqlar
sanchqilar
tomosha qilamiz
band bo'laman

MATN BO'YICHA SAVOLLAR

1. Aziz Ro'zimurodov kim?
2. U qayerda o'qiydi?
3. U kunlik ishlarini nima asosida bajaradi?
4. Aziz ertalab soat nechada turadi?
5. U badan tarbiya bilan qancha vaqt shug'ullanadi?
6. U qanday mashqlar bajaradi?
7. Yuvinish uchun necha daqiqa ajratadi?
8. Aziz nonushtaga nimalar iste'mol qilishni yoqtiradi?
9. U darsga qanday boradi?
10. Universitetda darslar soat nechada boshlanadi?

11. Ular har kuni necha fandan dars o‘tishadi?
12. Qachon 40 daqiqalik katta tanaffus bo‘ladi?
13. Talabalar katta tanaffusda nima qilishadi?
14. Talabalar oshxonasi necha qavatli?
15. Universitetda darslar soat nechada tugaydi?
16. Aziz darsdan so‘ng qancha vaqt dam oladi?
17. Universitet ilmiy kutubxonasida nima bilan shug‘ullanadi?
18. U qaysi kunlari voleybol to‘garagi mashg‘ulotlariga qatnashadi?
19. U bo‘sh vaqtlarida nima bilan band bo‘ladi?
20. Ular kechki ovqatga soat nechada o‘tirishadi?
21. Kechki ovqatni kim pishiradi?
22. Kechki ovqatdan so‘ng idish-tovoqlarni kim yuvadi?
23. U soat nechada uxlaydi?

QUYIDAGI HADISLARNI TARJIMA QILING VA ESDA TUTING

Tangri nazdida eng yaxshi gap – rost gapdir.

O‘zingga yoqqan narsani boshqalarga ham ravo ko‘r!

Do‘stingni yengilroq sevginki, kuni kelib dushman bo‘lib qolishi ham mumkin. Dushmaningga ham yengilroq adovat qilginki, kuni kelib do‘st bo‘lib qolishi mumkin.

Dunyoda o‘tib ketganlarning faqat yaxshi sifatlarini yod etinglar. Yomon sifatlaridan tilingizni tiyinglar.

O‘lim kelmasidan burun tayyorgarchiligingizni ko‘rib qo‘ying.

Ahmoqdan uzoqlashing.

Inson xatoni ko‘proq o‘z tili bilan sodir qiladi.

Tangri go‘zaldir, go‘zallikni yaxshi ko‘radi.

ALISHER NAVOIYNING HIKMATLI SO‘ZLARINI YOD OLING

Yaxshilik qilolmasang, yomonlik ham qilma.

Yaxshilik istasang, yaxshilarga qo‘shil.
 Bilmaganni so‘rab o‘rgangan – olim,
 Orlanib so‘ramagan – o‘ziga zolim.
 Oz-oz o‘rganib, dono bo‘lur,
 Qatra-qatra yig‘ilib, daryo bo‘lur.
 Befoyda so‘zni ko‘p aytma,
 Foydali so‘zni ko‘p eshituvdan qaytma.
 Tiling bilan ko‘nglingni bir tut.
 Tilga ixtiyorsiz, elga e‘tiborsiz.
 Yomonlik qilgan kishi o‘zi ham yomonlik ko‘radi.
 Kishining muhim burchlaridan biri ota-onaning hurmatidir.
 Eslik kishi o‘ylamay ish qilmaydi.
 Har bir qiyinchilikdan so‘ng bir rohat bor.
 Qiyinchiliksiz rohat bo‘lmaydi.
 Har kim bilan do‘st bo‘lmoqchi bo‘lsang, oldin u kishining oshnosini tekshir.
 Ko‘ngil xazinasining qulfi tildir va ul xazinaning kaliti so‘zdir.

NAZARIY BILIMLARNI MUSTAHKAMLASH UCHUN MASHQLAR

70-mashq. Badiiy asarlardan olingan quyidagi parchalarni diqqat bilan o‘qing. Ularda qo‘llangan jamlovchi otlarni toping va gaplarni tarjima qiling.

1. Xalq dengizdir, xalq to‘lqindir, xalq kuchdir, xalq isyondir, xalq olovdir, xalq o‘chdir... (Cho‘lpon). 2. Ammo tag‘in bir manzildan o‘tar bo‘ldi ikkovlon. Ne kulfatki, bu joyda ham Tinch qo‘ymadi olomon... (A.Oripov). 3. Xonga urush ochmoqni U xayol qilar edi, El buni bilar edi.(H.O.). 4. U doim boqib poda, yurar edi sahroda. (H.O.). 5. Bolam, endi yurt tinchib qoldi, Elu xalq ham erkin tin oldi. (H.O.). Mamalakatning sardoriga peshvoz bo‘ldi fuqaro. (Sh.Rustaveli.) 7. Lashkar degan axir

Bexatar bo'lmis. (G'.G'.) 8. Qo'shin borar, orqasidan borar edi yuk karvon. (Sh.Rustaveli) 9. Ko'k va yashil kiyimdagi olomon tik turishib, Sevinch yoshini to'kar edi Avtandilni ko'rishib. (Sh.Rustaveli) 10. Botirali sharpaga ortiq parvo qilmay, qushlar galasini zavq bilan tomosha qila boshladi.

71-mashq. Quyidagi so'zlarni turdosh ot holatida va atoqli ot sifatida qo'llab gaplar tuzing.

Lola, temir, po'lat, qilich, arslon, bo'ri, qo'zi, nilufar, ostona, ko'chqor, safar, malika, bozor, oftob, kunduz, yulduz, jamol, sur'at, g'ayrat, anor, asal, shakar, o'roq, tasha, bolta, yashin, bayram, tosh, bo'ron.

NAMUNA: Bahor kelganda tog'lar qip-qizil lolalar bilan bezanadi. Po'lat bilan Lola bir guruhda o'qishadi.

72-mashq. Quyida berilgan sinonim otlar qatorini davom ettiring.

Aldamchi, firibgar...
 Baxt, iqbol...
 Vatan, mamlakat...
 Gulshan, guliston...
 Dunyo, jahon...
 Janjal, to'polon...
 Ovoz, un...
 Odam, bashar...
 Ishq, muhabbat...
 Chiqim, xarj...
 Yuz, oraz, ruxsor...
 O'rtoq, birodar, ulfat...
 Hiyla, firib...
 G'am, anduh, musibat...
 Kuch, majol, darmon...

73-mashq. Antonim otlarni tarjima qiling va ular ishtirokida gaplar tuzing.

azob – rohat	bahor - kuz	gunoh – savob
daromad– xarajat	dushman – do'st	do'zax – jannat
yer – osmon	yoq – qish	javob – savol
jazo – mukofot	ota – ona	yigit – qiz
ayol – erkak	sharq – g'arb	bobo – buvi
afsona – haqiqat	mehr – nafrat	janub – shimol

74-mashq. Quyida berilgan ot so'z turkumiga oid paronimlarning ma'nolarini aniqlang.

qurt – qurut	qobiq – qovoq	uy – o'y
harf – harif	qadah – qadoq	urish – urush
qahr – qa'r	shohid – shahid	ulush – ulish
qarol – qurol	sharaf – sharob	tuzum – to'zim
qari – qori	qazi – qozi	chalg'i – cholg'u
teri – tire	xol – hol	xo'rlik – hurlik
surat – sur'at	taksi – taksa	tabiat – tabiiyot
papiros– papyrus	sektsiya – sessiya	she'r – sher
sudxo'r – sutxo'r	otalik –otaliq	matros– matras
oqim – oqin	kofe – kafe	bank – banka
kompas–kompost	diplomat – diplomant	yoq – yog'

75-mashq. Berilgan gaplarni diqqat bilan o'qing. Ularda qo'llangan yasama otlarni topib, o'zak va qo'shimchalarni izohlang.

1. Biz shiyponga uzumzor va olmazor oralab bordik.
 2. Sog'ligim – boyligim. 3. Men «Sinfidosh» jurnaliga bu yil ham obuna bo'ldim. 4. Ig'vogarning o'zi yomon, o'zidan ham so'zi yomon. 5. O'roqchining yomoni o'roq tanlar. 6. Bu oshxonada juda tajribali oshpazlar ishlaydi. 7. Donolikning cheki yo'q. 8. Go'zallik husnda emas, mehnatda. 9. Yaxshi bilan bo'lsang yo'ldosh, og'ir ishingga bo'lur qo'ldosh. 10. Suv - zar, suvchi – zargar. 11. Paxtakor va chorvadorlar bu yil ham o'z rejalarini bajarishdi.

12. Bog‘ kamoli – bog‘bondan. 13. Dunyodagi barcha xalqlarning eng ulug‘ istagi tinchlikdir. 14. Shoshib qolgan darvozabon to‘pni ushlay olmadi. 15. Bugun Toshkent tsirkida frantsuz masxaraboz va qiziqchilarining chiqishlari bo‘ladi.

76-mashq. Quyida keltirilgan so‘zlarni aniq, mavhum, jamlovchi otlar, shaxs va narsa-buyum nomlari kabi guruhlariga ajratib ko‘chiring.

Go‘zallik, dehqonchilik, anor, bug‘doy, olma, karam, daftar, paxta, kitob, talabalik, oshxona, qatiq, yoshlik, sut, dag‘allik, do‘st, o‘rtoq, o‘qituvchilik, sayohat, bedorlik, kutubxona, paxtakor, ustaxona, bog‘bon, tarjimon, tetiklik, quoldosh, ishchi, kosa, yo‘lovchi, piyola, tuzdor, to‘qimachilik, etikdo‘z, soatsoz, daraxt, pillakor, qo‘shni, to‘da, guruh.

77-mashq. Quyida berilgan hikoyachani tarjima qiling.

ДВА ТОВАРИЩА

Однажды шли по лесу два товарища. Вдруг выскочил на них медведь. Один бросился бежать, влез на дерево и спрятался, а другой остался на дороге. Делать ему было нечего – он упал на землю и притворился мёртвым.

Медведь подошёл к нему и стал нюхать: он и дышать перестал.

Медведь понюхал ему лицо, подумал, что мёртвый. И отошёл.

Когда медведь ушёл, товарищ слез с дерева и смеётся.

- Ну что, - говорит, - медведь тебе на ухо говорил?

- А он сказал мне, что плохие те, которые в опасности от товарищей убегают. (Л.Н.Толстой)

78-mashq. Quyida berilgan juft otlar ishtirokida gaplar tuzing.

Urf-odat, tog‘a-jiyan, mol-mulk, kiyim-kechak, azob-uqubat, dori-darmon, hovli-joy, aka-uka, baxt-saodat, idish-tovoq, opa-singil.

79-mashq. Quyida berilgan qo‘shma otlar ishtirokida gaplar tuzing.

Toshko‘mir, Sirdaryo, ko‘zoynak, toshbaqa, qisqichbaqa, Qiziltepa, Yangiqo‘rg‘on, Kattaqo‘rg‘on, ko‘richak, oshqozon, qo‘lqop, Oqdaryo, qizilishton, kungaboqar, karnaygul, atirgul, ko‘rsichqon, ko‘ksulton.

80-mashq. Quyida berilgan uy-ro‘zg‘or buyumlari nomlarini tarjima qiling.

Окно, дверь, лестница, замок, ключ, ручка, дорожка, ковёр, вешалка, зеркало, скатерт, ваза, люстра, часы, картина, простыня, одеяло, подушка, шкаф, спичка, полотенце, котел, половник, нож, ложка, вилка, мыло, таз, ножница, иголка, нитки, верёвка, корзинка, ведро, векник, топор, молоток, гвозд, солонка, кувшин, зонт.

81-mashq. Quyidagi so‘roq gaplarni o‘zbek tiliga tarjima qiling va savollarga javob qaytaring

1. Сколько человек в вашей семье? 2. Как зовут твоих родителей? 3. У тебя есть братья и сёстры? 4. Сколько у тебя братьев и сестёр? 5. Твой старший брат работает? 6. Он давно работает? 7. Ему нравится его профессия? 8. Он женат? 9. Сколько ему лет? 10. А твоя старшая сестра замужем? 11. Она живёт вместе с родителями? 12. Она обещала тебе написать письмо? 13. Она выполняет своё обещание? 14. Когда ты получил последнее письмо? О чём она пишет? 16. Ты ответил ей? 17. Где живёт ваша семья? 18. Где работают ваши родители? 19. Какие языки знаете? 20. Где вы учитесь?

82-mashq. Quyida berilgan buyruq gaplarni tarjima qiling.

1. Tez borib akangni daladan chaqirib kel. 2. Yuring, birga ishlaydigan xodimlaringiz bilan tanishtiray. 3. Yuring, eshikka chiqaylik, o'zi ham shu yerda, hammasini aytib beradi. 4. Keksalar! Siz ham shu yoshingizni eslang! 5. Yo'lovchi, quduqdan suv olib ichganingda, shu gul tagiga bir piyola suv quy! 6. Aytar so'zni ayt, aytmas so'zdan qayt. 7. Ishni eplolmaganligi uchun har uchala chilangar ham o'z vazifasidan bo'shatilsin! 8. Yuragingizdan chiqarib tashlay qoling. Menga achinmang... 9. Talaba, ushbu qoidalarni doim esingda tut. 10. Hurmatli haydovchilar, uyingizda yaqinlaringiz sizga intizor ekanliklarini unutmang! 11. Barcha ishlaringizni har doim o'z vaqtida bajarib borishga odatlaning. 12. Chaqirilmagan joyga birmang.

83-mashq. Gaplarni ifodali o'qing. Ularni ifoda maqsadiga ko'ra turlarga ajrating.

1. Bu o'lkada kim kuchliroq? (G'.G'). 2. Kim birovga chuqur qazisa, o'zi yiqiladi. 3. O'sha zarb, o'sha kuch hamon barqaror! (Mirmuhsin) 4. Kimdir senga uchqur tulpor egarlar.(A.Oripov) 5. Xalq maorifi xodimlari! Bolalarni o'qitish sifatini yaxshilangiz, maktablarni politexnik yo'nalishda rivojlantirish uchun kurashingiz! 6. Men uni taniyman, biroq u meni tanimaydi. 7. Brigadamizda shunday ham faxriy a'zo edingiz, hurmatli professor! (A.Muxtor) 8. Ey osmon singari bepoyon Vatan! (H.O.) 9. Bu do'konga oziq-ovqat mahsulotlari qachon keltirilgan? 10. Afv etasan, o'rtoq Qurultoy, hozirgi so'z sening borangda... (G'.G'.) 11. Uning aytishicha, institutni bitirganiga o'n yil bo'lgan. 12. Sen mening qonga to'lgan keksa yuragimda bir umr yashaysan, o'g'lim! (Y.) 13. So'yla menga, ey majnuntol, nechun holing parishon? (T.To'la) 14. O'rtoq komandir, sizning shogirdingiz butun umrida o'z vataniga sodiq qoladi. (G'.G'.)

84-mashq. Quyidagi maqollarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

1.Лучше поздно, чем никогда. 2. Волков бояться – в лес не ходить. 3. Сперва подумай, а потом говори. 4. Курить – здоровье вредить. 5. Рыбак рыбака видит из далека. 6. Поспешишь – людей насмешишь. 7. Кто вчера солгал, тому и завтра не поверят. 8. Беригись козла спереди. Лошади сзади, а лихого человека со всех сторон. 9. Любишь кататься – люби и саночки возить. 10. Береги платье снов – в честь – смолоду. 11. Не трудиться – хлеба не добиться. 12. Век живи, век учись. 13. Кончил дело – гуляй смело. 14. Не откладывай на завтра то, что можно сделать сегодня. 15. Семь раз отмерь, один раз отрежь.

85-mashq. Gaplarni tarjima qiling, ularda qo'llangan frazeologizmlarning o'zbek tilidagi muqobillarini topishga harakat qiling.

1. Враг разбит в пух и прах. 2. Умел держать язык за зубами он. Никакая пьянка не могла заставить его проговориться. 3. Мальчик бежал сломя голову. 4. Она попала, не в бровь, а в глаз. 5. Соседи жили душа в душу. 6. Друзья жили бок о бок. 7. Мать вставала каждый день ни свет, ни заря. 8. Весь день дети работали не покладая рук. 9. Виделись мы время от времени. 10. Изо дня в день мы ходили на тренировку. 11. Никто не работал спустя рукава. 12. Все работали засучив рукава.

Quyida berilgan hikmat ma'nosini izohlang:

O'zgalar aybiga tetik nazar sol,
O'z aybing ko'rgandek, undan ibrat ol.
(Nizomiy Ganjaviy)

OG'ZAKI NUTQNI O'STIRISH UCHUN MATERIALLAR

Taklif	Предложение. Приглашение.
Keling...	Давайте...
ishdan keyin uchrashaylik	встретимся после работы
birga ovqatlanaylik	пообедаем вместе
bir oz sayr qilaylik	немного погуляем
raqsga tushaylik	потанцуем
musiqqa eshitaylik	послушаем музыку
kinoga, klubga boraylik	сходим в кино, в клуб
do'stlarimizni borib ko'raylik	навестим наших друзей
magazinga kiraylik	зайдём в магазин
shahar tashqarisiga chiqaylik	поедем за город
tanaffus qilaylik.	сделаем перерыв
Yuring...	Пойдёмте...
kinoga, klubga	в кино, в клуб
stadionga, ko'rgazmaga	на стадион, на выставку
kechaga, tantsaga ...	на вечер, на танцы
Sizni ...ga taklif qilish	Можно пригласить Вас
mumkinmi?	на..., в ...?
Sizni ...	Я хочу пригласить Вас...
kinoga, klubga	в кино, в клуб
teatrqa, muzeyga	в театр, в музей
konsertga, ko'rgazmaga	на концерт, на выставку
sayohatga, sayrga	на экскурсию, на прогулку
shu tantsaga	на этот танец
mehmonga, restoranga	в гости, в ресторан
...taklif qilmoqchiman.	
	Хотите...
Shaharda sayr qilishni	погулять по городу
Qayiqda yurishni	покататься на лодке
Musiqqa eshitishni	послушать музыку
Shaxmat o'ynashni...xohlaysizmi?	поиграть в шахматы
Biznikiga mehmon bo'lib keling.	Приходите к нам в гости.
Marhamat, kiring!	Входите, пожалуйста!

Marhamat, o'ting!
Marhamat, o'tiring!

Приходите, пожалуйста!
Садитесь, пожалуйста!

Rad etish. E'tiroz.**Taqiqlash.**

Yo'q, rahmat.

Yo'q, Sizga tashakkur bildiraman.

Afsuski, mening qo'limdan kelmaydi.

Men juda istayman, ammo

ilojim yo'q.

Yo'q, men xohlamayman.

Men voz kechishga majburman.

Men voz kechishim kerak.

Fikringizga qo'shila olmayman.

Siz unchayam haq emassiz.

Men bunga qarshiman.

Aslo.

Bu mumkin emas.

Yo'q, mumkin emas.

Bu man etiladi.

Tegmang!

Bas! Yetar!

Bas qiling!

Bo'ldi! Bas qiling!

Отказ. Возражение.**Запрещение.**

Нет, спасибо.

Нет, благодарю Вас.

К сожалению, я не могу.

Я очень хочу, но не могу.

Нет, я не хочу.

Я вынужден отказаться.

Я должен отказаться.

Я не согласен с Вами.

Вы не совсем правы.

Я против этого.

Ни в коем случае.

Это невозможно.

Нет, нельзя.

Это запрещается.

Не смейте!

Довольно! Достаточно!

Прикратите!

Перестаньте!

**TOPISHMOQLARNI IFODALI O'QING VA JAVOBLARINI
TOPING**

Bir necha so'zlar birga
Bitta nomni bildirar,
Har yerda, hamma joyda
Nutqimizda qo'llanar,

O'ylab misol ayting-chi,
Ular qanaqa otlar?

(sinonimlar)

Qaramoqda, qarmoqda,
Barmoqda ham barmoqda.
Qaysi soʻz ot, qaysi feʻl?
Kim topsa toʻgʻri javob,
Shu kishi hozirjavob.

(1-, 4-feʻl, 2-, 3-ot)

Qama boʻlar qachon ot,
Boʻya boʻlar qachon ot?
Yama, boʻya, ham tara
Qachon boʻlib qolar ot?

(-q qoʻshilganda)

Oʻrik, bodom va oli,
Qovun, tarvuz, koʻksulton,
Gilos, olcha, doʻlana.
E qishda yongʻoq, asal,
Tandan koʻchadi kasal.
Necha ot, necha feʻl bor?
Toping berib eʻtibor.

(2 feʻl, qolgani ot)

(*R.Sirojiddinov*)

MULOQOTNI OʻQING, OGʻZAKI TARJIMA QILING

- Это фруктовый сад?
- Да, это фруктовый сад.
- Какие деревья растут здесь?
- Здесь растут фруктовые деревья.
- Какие фрукты созревают в вашем саду?
- В нашем саду созревают яблоки, груши, персики, урюк, гранаты, вишни, черешни, виноград и др.
- Какие фрукты уже созрели?
- Уже созрели ранние фрукты?
- Когда созревают другие фрукты?

- Другие фрукты созревают летом и осенью.
- Куда вы будете складывать собранные фрукты?
- Собранные фрукты мы будем складывать сначала в корзины, а потом в ящики.
- Собранные фрукты куда повезут?
- Собранные фрукты повезут в город, в магазины, в консервные заводы.
- Спасибо за хороший рассказ. До свидания.
- Пожалуйста. До свидания.

SHEʻRNI YOD OLING

Qanot

Insonda qanot yoʻq,
Achinmang bunga.
Zotan unga yurak – sabot berilgan.
Qushda-chi, sabot yoʻq, shuning-chun unga
Qochib qolmoq uchun qanot berilgan.

(*A.Oripov*)

TOPSHIRIQLAR

1. «Mening ish kunim» matnini tarjima qiling.
2. «Mening ish kunim» matni mazmunini ogʻzaki hikoya qiling.
3. Shu matndan foydalangan holda oʻzingizning har kungi faoliyatingiz haqida qisqacha matn tuzing.
4. Oʻz ish kuningizni ogʻzaki bayon eting.
5. Ot soʻz turkumi, buyruq va undov gaplar boʻyicha oʻrgangan nazariy bilimlariningizni yozma bayon eting.

9-MASHGʻULOT

Matn: O'zbekistonning
nabotot dunyosi
Grammatika: 1. Sifat. 2. Son.

O'ZBEKISTONNING NABOTOT DUNYOSI

Mamlakatimiz hududida to'rt mingdan ortiq o'simlik turi mavjud. Ularning ko'pchiligi yovvoyi, ayrimlari madaniy holda va ba'zilar madaniy o'simliklar orasida begona o't sifatida o'sadi.

O'zbekiston tabiati nihoyatda xilma-xil va go'zaldir. Baland tog'lar, lalmikor qir-adirlar, qumloq cho'llar, suv omborlari, daryolar, serhosil dalalar, ko'm-ko'k o'rmon va mevazor bog'lar O'zbekistonning ko'rkidir.

Cho'llarda suvsizlikka chidamli tikanli o'simliklar bilan bir qatorda, namni kam bug'lantiruvchi saksovul daraxtlari o'sadi. Yurtimiz tog'larini boqqa qiyos qilish mumkin. Chunki bu yerlarda archa, tol, terak kabi turli manzarali daraxtlar bilan yonma-yon yong'oq, bodom, yovvoyi olma, nok, anor, do'lana, tog'olcha, pista kabi o'nlab turdagi mevali daraxtlar ham o'sadi.

Insoniyat hayoti o'simliklar olami bilan uzviy bog'liq. O'simliklar insonni to'ydiradi, kiyintiradi, havoni tozalaydi, xo'jalik va qurilish materialini bo'ladi, tuproqni eroziyadan saqlaydi, namlikni ushlab turadi, tuproqni oziqlantiradi, qumloq va toshloq yerlarni serunum tuproqli ekin maydonlariga aylantiradi.

O'zbekistonda eng ko'p ekiladigan madaniy o'simliklar sirasiga paxta, makkajo'xori, bug'doy, sholi, mosh, loviya, no'xat, zig'ir, kunjut, arpa, javdar, tariq, qovun, tarvuz, qovoq, oshkadi, kartoshka, pomidor, piyoz, shirin va achchiq qalampir, turp, bodring, sholg'om, sarimsoq va boshqalar kiradi. O'zbekistonlik bog'bonlar har yili olma, nok, o'rik, shaftoli, anor, behi, olcha, gilos, yong'oq, olxo'ri, shotut, xurma, jiyda, chilonjiyda, uzum, anjir, pista, bodom, ko'ksulton kabi mevali daraxtlarning o'nlab navlaridan yuqori hosil yig'ishtirib oladilar.

O'simliklarning eng ajoyib xislatlaridan biri – ularning shifobaxshligidir. Insoniyat qadim zamonlardan beri o'simliklarning shifobaxsh xususiyatlaridan bahramand bo'lib kelgan. O'zbekiston shifobaxsh o'simliklar maskani sifatida ham mashhurdir. Serquyosh dala va bog'larimizda yetishtirilayotgan shirin-sharbat mevalar, darmon dorilar manbai bo'lgan sabzavotlar, poliz mahsulotlari o'zlarining shifobaxshligi bilan boshqa joylarda yetishtirilgan mahsulotlardan ajralib turadi. Qishin-yozin dasturxonidan meva va sabzavotlarning arimasligi salomatligimizning garovidir.

O'zbekiston yovvoyi holda o'sadigan dorivor o'simliklarga ham juda boy. Bunday o'simliklar qatoriga quyidagilar kiradi: arpabodiyon, atirgul, bo'yimodaron, gulxayri, dalachoy, jambil, jag'jag', zira, isiriq, ismaloq, momaqaymoq, nargis, sedana, seldir, semizo't, suvqalampir, tog'rayhon, chayono't, chirqanoq, chuchukmiya, ermon, qora zirk, qo'shtirnoq, yalpiz va boshqalar.

Shuni esda tutish kerakki, ko'pchilik o'simliklarning tarkibida zaharli moddalar bo'ladi. Bunday dorivor o'simliklardan tayyorlangan dorilarda zaharli moddalar bir oz ortiqroq bo'lsa ham kuchli zaharlaydi yoki turli kasalliklarga yo'liqtiradi. Adonis, angishvonagul, bangidevona, belladonna, isiriq, kuchala, marvaridgul, mingbosh, mingdevona kabilar zaharli dorivor o'simliklardir. Bunday o'simliklarni og'izga olmaslik, ularni yig'ib olayotganda qo'lni ko'zga urmaslik va ish tugagach qo'lni yaxshilab yuvish kerak.

O'simliklar bo'lmasa hayotning o'zi ham bo'lmaydi. Shuning uchun o'simliklarni asrab-avaylashimiz, ularning o'sib, ko'payishiga yordam berishimiz lozim. Yashil olam insoniyatning eng yaqin do'sti ekanligini hech qachon unutmaylik.

FAOL SO'Z VA IBORALAR

o‘simlik turi	yovvoyi
madaniy holda	begona o‘t
tabiat	lalmikor qir-adirlar
mevazor bog‘lar	tikanli
namni kam bug‘lantiruvchi	qiyos qilish mumkin
manzarali daraxtlar	uzviy bog‘liq
to‘ydiradi	kiyintiradi
havoni tozalaydi	tuproqni oziqlantiradi
serunum tuproq	ekin maydoni
ko‘p ekiladigan	o‘nlab navlar
yuqori hosil	xislatlaridan biri
shifobaxsh xususiyatlari	bahramand bo‘lmoq
maskan	serquyosh
darmon dori	sabzavotlar
poliz mahsulotlari	ajralib turadi
salomatligimiz garovi	dorivor
esda tutish kerak	tarkibida
zaharli moddalar	zaharlaydi
kasallikka yo‘liqtiradi	og‘izga olmaslik
qo‘lni ko‘zga urmaslik	asrab-avaylash
ko‘payishiga yordam berish	hech qachon unutmaylik

MATN BO‘YICHA SAVOLLAR

1. O‘zbekiston hududida o‘simliklarning qancha turi mavjud?
2. Ular qay holatda o‘sadi?
3. O‘zbekistonning tabiati qanday?
4. O‘zbekistonda tog‘lar, qir-adirlar, daryolar, suv omborlari, o‘rmon va cho‘llar bormi?
5. Cho‘llarda qanday o‘simliklar o‘sadi?
6. Tog‘larda qanday daraxtlar o‘sadi?
7. Inson hayoti uchun o‘simliklarning qanday ahamiyati bor?

8. O‘zbekistonda eng ko‘p ekiladigan qanday o‘simliklarni bilasiz?
9. Qanday mevali daraxtlarni bilasiz?
10. O‘simliklar yana qanday xususiyatlarga ega?
11. Insoniyat o‘simliklarning bu xususiyatidan qachondan beri bahramand bo‘lib kelyapti?
12. Madaniy ekinlar ham shifobaxsh xususiyatlarga ega bo‘ladimi?
13. Doimo sog‘lom bo‘lishning garovi nima?
14. Yovvoyi o‘sadigan dorivor o‘simliklardan qaysilarini bilasiz?
15. Shifobaxsh o‘simliklar tarkibida zaharli moddalar ham bo‘lishi mumkinmi?
16. Agar ulardan tayyorlangan dorilarda zaharli modda ozgina ko‘paysa nima bo‘ladi?
17. Zaharli moddasi bo‘lgan o‘simliklardan qaysilarini bilasi?
18. Ularni yig‘ayotganda qanday ehtiyot choralarini qo‘llash kerak?
19. Hayot manbai bo‘lgan o‘simliklarga qanday munosabatda bo‘lishimiz lozim?
20. Siz o‘zingiz qanday o‘simliklarni ekib, parvarish qilasiz?

QUYIDAGI HADISLARNI TARJIMA QILING VA ESDA TUTING

Baxtli odam fitna-fasodlardan chetlab yuruvchi va musibatga sabr qiluvchi kishidir.

Har bir odamning amakisi izzat-hurmat va munosabatda o‘z otasi kabidir.

So‘zda sehr bor, she‘rda esa hikmat.

Faqat xayrli va savobli ishlar buyurilganda, unga itoat qilish kerak.

Men barcha yaxshi axloqni takomillashtirish uchun yuborilganman.

Ekmoq niyatida qo'lingizda ko'chat turgan paytda, bexosdan qiyomat-qoim bo'lib qolishi aniq bo'lganda ham, ulgursangiz uni ekib qo'yavering.

Men yetimning kafilligini olgan odam bilan jannatda birga bo'laman.

Tangri senga bergan ne'matlarini o'zingga ham sarflagin!

Nikoh to'yida bir qo'y so'yib bo'lsa ham ziyofat ber!

Ro'za, namoz va sadaqa qilishdan ham afzal amaldan xabar beraymi?! U ikki kishini yarashtirib qo'yishdir.

Farovonlik vaqtlaringda Tangrini tanib, unga iltijo qilib yur, toki qiyinchilik vaqtingda u ham seni tanisin.

DEHQONCHILIKKA OID QUYIDAGI MAQOLLARNI TARJIMA QILING VA MAG'ZINI CHAQING

Bug'doy eksang, kuzda ek,

Yaxshi haydab, bo'zga ek.

Dehqon bo'lsang, shudgor qil,

Mulla bo'lsang, takror qil.

Yer to'ymaguncha, el to'ymas.

Yer – xazina, suv – gavhar.

Yerga mehr – elga mehr.

Yerga sochsang, yer beradi,

Elga sochsang – el.

Sen yerni yer qilsang,

Yer seni sher qiladi.

Yerini aldagan och qolar.

Tol eksang, tagini ho'l qil,

Uzum eksang tagini cho'l qil.

Erta ekkan xirmon qilur,

Kech ekkan armon qilur.

Chumchuqdan qo'rqqan tariq ekmas.

Ekin ekkan tekin yer.

Hosilning otasi – suv, Onasi – yer.

NAZARIY BILIMLARNI MUSTAHKAMLASH UCHUN MASHQLAR

86-mashq. Quyidagi sifatlar ishtirokida gaplar tuzing.

Oq, qora, sariq, ko'k, yashil, pushti, ola, jigar rang, nafarmon, moviy, zangori, achchik, chuchchuk, sho'r, shirin, nordon, taxir, mazali, bemaza, sassiq, xushbo'y.

87-mashq. Quyida berilgan sifatga doir antonimlarning juftlarini toping va ular ishtirokida gaplar tuzing.

ayyor - anqov - badbo'y -

dag'al - yomon - yorug' -

issiq - ingichka - yirik -

keng - loyqa - manfiy -

sodda - qora - yuqori -

qalin - soxta - tabiiy -

egri - xunuk - g'ayratli -

eski - o'jar - o'tkir -

quruq - harom - xom -

88-mashq. Quyida berilgan sinonim sifatlar qatorini davom ettiring.

Anqov, merov, ovsar ...

Aqlli, oqil, miyali ...

Balo, usta, bilag'on ...

Beg'ubor, sof ...

Botir, shijoatli, yovqur...

Dangasa, soyaparvar, tanbal ...

Ishchan, harakatchan, urinchoq ...

Rost, haqqoniy, ochiq ...
 Xasis, ziqna, qattiq ...
 Chiroyli, latofatli, sohibjamol...
 Yaxshi, soz, ajabtovur ...
 Qiziq, antiqa, allambalo ...

89-mashq. Quyida berilgan paronimlarning sifatga oidlarini aniqlang, ularni tarjima qiling va gaplar tuzing.

harom – haram	quruq – qo‘riq	yaroqsiz – yarog‘siz
ertangi – ertagi	chirik – churuk	halol – xalal
sodda – soda	kuzgi – ko‘zgu	ijobiy – ijodiy
ziyrak – zirak	yorug‘ – yoriq	buyuk – buyuq
anqov – anqo	oriq – ariq	azim – azm

90-mashq. Quyidagi matnni tarjima qiling va uni nomlang.

В субботу у нас в гостях был Анвар. Он учиться в Америке. Когда Анвар пришёл к нам, мы попросили его рассказать о том, как он изучал английский язык.

- Я считаю, что кто хочет изучить язык должен заниматься регулярно. Это самое главное, когда вы изучаете язык. Когда я изучал английский язык, я всегда выполнял домашнее задание во время и исправлял все свои ошибки. Сначала я повторял материал, который мы изучали на занятиях. Потом я читал текст и писал упражнение. А вечером я смотрел телевизор и записывал слова, которые я не понимал. На следующий день я спрашивал преподавателя, что значит эти слова. Я часто смотрел фильмы, потому что фильмы помогают узнавать уже знакомые слова и запоминать новые. А также, ежедневно покупал новые газеты и следил за новостями дня. Помогли друзья правильно и красиво говорить.

91-mashq. Quyidagi maqollarni tarjima qiling. Ularda qo‘llangan sifatlarning ma‘nosi va vazifasini izohlang.

1. Yaxshi bola nom keltirar, yomon bola g‘am keltirar.
2. Yaxshi qand yedirar, yomon pand yedirar.
3. Kelining yaxshi bo‘lsa, o‘g‘lingdan ko‘r; o‘g‘ling yomon bo‘lsa, keliningdan ko‘r.
4. Aqlli odam qish g‘amini yozda yeydi.
5. Yaxshini maqtasang yarashur, yomonni maqtagan adashur.
6. Farzandsiz kishi – mevasiz daraxt.
7. Qizli uy – bo‘ston, qizsiz uy – go‘riston.
8. Qo‘ng‘iz bolasini oppog‘im der, kirpi bolasini yumshog‘im der.
9. Kengashganga – keng dunyo, talashganga- tor dunyo.
10. Yog‘och kessang, uzun kes, kessa bo‘lar; temir kessang, qisqa kes, cho‘zsa bo‘lar.
11. Qorinni to‘yg‘azish oson, ko‘zni to‘yg‘azish qiyin.
12. To‘qayga o‘t tushsa, ho‘l-quruq baravar yonar.

92-mashq. Quyida berilgan so‘zlarga -li, -siz, -chan, -iy, -viy, be-, -simon, no-, ser-, ba- qo‘shimchalaridan mosini qo‘shib, sifatlar yasang.

Aql, bola, tarbiya, bilim, kulgi, odob, ko‘ngil, ish, suv, shira, uyat, sinov, o‘y, bo‘y, xayol, tarix, ilm, oila, omma, g‘arb, asab, kitob, an‘ana, zamona, kimyo, markaz, doim, sabr, foyda, xabar, zarar, tuxum, to‘lqin, odam, shar, gaz, qalqon, tinch, ma‘lum, o‘rin, to‘g‘ri, mard, qobil, tanish, hosil, g‘ayrat, sut, quvvat, ma‘ni, davlat, savlat, tartib, maza, hamjihat.

93-mashq. Gaplarni tarjima qiling. Ularda qo‘llangan sodda, yasama, qo‘shma va juft sifatlarni izohlang.

1. Shu payt ko‘chadan kul rang mashina o‘qday uchib o‘tdi.
2. Qadr bilmas qarindoshdan, qadring bilgan yot yaxshi.
3. Qo‘lida chiroyli tor ushlagan xushovoz xonanda sahna o‘rtasiga chiqdi.
4. O‘zbek xalqi – juda mehmondo‘st xalq.
5. Urgut tog‘lari shifobaxsh va dorivor yovvoyi o‘simliklar makonidir.
6. To‘g‘ri bo‘lsang, o‘sib borib gul bo‘lasan; egri bo‘lsang, kul bo‘lasan.
7. Buning ko‘ngli yosh bolaning ko‘ngliday beg‘ubor, yuragi sezgir, o‘zi mehribon hamda rahmdil.(T.G‘oyibov).
8. Bola akulaning qanday ochko‘z, yirtqich ekanini o‘qituvchisidan

eshitgan ekan. (T.G‘oyibov). 9. Uzoq-yaqin qarindoshlar kelib- ketib turibdi. Katta –kichik garmiselga qarshi o‘tlanibdi. (T.G‘oyibov). 10. Yosh-qari cho‘lni obod qilishga astoydil kirishgan ekan.(T.G‘oyibov). 11. Xon turli-tuman taomlar bilan Umarxonning ko‘nglini olmoqchi bo‘libdi. (T.G‘oyibov). 12. Musaffo osmon, yaltiroq yulduzlar, qop-qora tun kishiga sehrli tuyuladi.

94-mashq. Gaplarni tarjima qiling. Ularda qo‘llangan sifatning darajasi, modal shaklini izohlang.

1. Texnika kashf etilmasdan oldin dehqonlarning ishi nihoyatda og‘ir edi. 2. Hulkar onasiga oq, qizil, pushti chinnigullar sovg‘a qildi. 3. Charosning boshidagi qalampirusxa do‘ppisi juda nozik ipaklar bilan g‘oyatda chiroyli tikilgan edi. 4. Anvar mehmon oldiga oltinday sarg‘ish tovlanayotgan uzum va qirmizi olmalar keltirdi. 5. Hademay qishloq etagidan quyosh o‘zining qizg‘ish nurlarini sochib chiqib keladi. 6. Uyning kichikroq bir xonasini talabalarga ijaraga berdi. 7. Nodiraning dugonasi nihoyatda go‘zal, iboli va maftunkor edi. 8. O‘rta yoshroq bir ayol uzun bo‘yli yigitni boshlab kirdi. 9. Dunyoda oqibatli do‘stlikdan mustahkamroq, qimmatliroq narsa yo‘q. 10. Toshkent oqshomi manzarasi menga nihoyatda go‘zal, yanada yaqinroq tuyuldi. 11. Farzand uchun otanadan bebaho, ulardan ulug‘roq boylik dunyoda yo‘q. 12. Dunyoning eng sovuq shimoliy va janubiy qutblarida ham hayvonlar yashaydi. 13. Guruhimiz talabalari qishki va yozgi imtihonlar sissiyasini «yaxshi» va «a’lo» baholarga topshirishdi. 14. Maqtanchoq va qizg‘anchiq bolalarning fe’l-atvori ham murakkab bo‘ladi. 15. Zarafshon daryosi qirg‘oqlari bahorda ko‘m-ko‘k maysalar, qip-qizil lola-qizg‘aldoqlar bilan qoplanadi.

95-mashq. Quyidagi sonlarni so‘z bilan yozing.

1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 15, 26, 34, 47, 53, 61, 72, 89, 98, 117, 123, 137, 245, 354, 469, 574, 681, 792, 888, 999, 1567, 1991, 2345, 16780, 136971, 996997, 1385938.

96-mashq. Son bilan ifodalangan quyidagi maqollarni tarjima qiling.

1. Yoridan ayrilgan yetti yil yig‘lar. Elidan ayrilgan o‘lguncha yig‘lar. 2. Ellik yilda el yangi. 3. Yurti dedim, yuzga kirdim. 4. Bir kishi ming kishi uchun, ming kishi bir kishi uchun. 5. Birdan ikki yaxshi, ikkidan uch yaxshi. 6. Ko‘pchilik bir mushtdan ura, o‘ldirar; bir burdadan bersa, to‘ydirar. 7. Qirq uydan etak to‘lar. 8. Bir qo‘llab eksang, ikki qo‘llab yig‘asan. 9. Ming so‘zdan bir ish yaxshi. 10. Oltmishingda olma eksang, yetmishingda yemishin yersan. 11. To‘rt xotin bir bo‘lsa, kasbi o‘lan aytish. 12. Poraxo‘rning ko‘zi beshta, qo‘li-to‘rtta. 13. Sanamay sakkiz dema. 14. O‘nta bo‘lsa o‘rni boshqa, qirqta bo‘lsa – qilg‘i.

97-mashq. Son bilan ifodalangan quyidagi frazeologizmlarni tarjima qiling.

Bir gapirib o‘n kuladigan	-	Yetti yot begona-
Bir yostiqa bosh qo‘ymoq	-	Yetti pushtiga yetadi –
Ikki oyoqni bir etikka		Yetti uxlab tushiga
tiqmoq-		kirmagan-
Bir yoqadan bosh chiqarmoq	-	Bir qoshiq qonidan o‘tmoq-
Bir pulga qimmat	-	Qo‘yi mingga yetdi-
Ikki ko‘zi to‘rt bo‘lmoq	-	O‘nni birga olmoq-
Yuz o‘ylab, bir so‘ylamoq-		Ko‘zi to‘rt bo‘lmoq -
Ikki tomchi suvdek	-	Qilni qirqqa yoradigan-
Ikki qo‘lini burniga		O‘ttiz ikki tishini
tiqib qolmoq	-	qoqib olmoq-
To‘rt muchasi sog‘	-	Qirqi ketib, biri qolmoq-
To‘rt tomoni qibla	-	Besh qo‘ldek ayon -
Besh barmog‘ini og‘ziga		Oyog‘i olti, qo‘li yetti
solmoq	-	bo‘lmoq-

O'ttizga kirib o'tin bo'lmoq-

Birni o'nga urmoq-

98-mashq. Quyidagi gaplarni tarjima qiling.

1. В субботу к 11 часам ваш заказ будет готов. 2. Сейчас 12 часов 32 минуты, на конечную остановку мы приедем в 12 часов 55 минуты. 3. Научная библиотека университета пополнилась в этом году 2570 новыми книгами. 4. Атлет поднял штангу весом 149,5 килограмма. 5. Если прибавить 311, то получается ровно 600. 6. Путешественники сделали остановку 23-м километре. 7. Городской стадион вмещает более 100 тысяч зрителей. 8. А.С.Пушкин родился в Москве 6 июня 1799 года. 9. Олимпийские игры проводились до 394 года нашей эры, но потом император Феодосий I запретил их. 10. На выполнение этой работы понадобится пять-семь месяцев. 11. Ваш друг вернётся через 10-12 дней. 12. Четверть часа спустя они встретились возле хозмага.

99-mashq. Quyidagi matnni ifodali o'qing va tarjima qiling.

TO'RT «JINNISI»

«Muqaddas Rim imperiyasi»ning imperatori Karl IV ga to'rt raqami juda ham yoqib qolgan ekan.

Karl IV imperiyasining to'rt poytaxti bo'lgan, ularning har qaysisini to'rt buyuk knyazdan biri idora qilgan. O'zi to'rtta saroyda yashab, har qaysi saroyda to'rttadan uyni ishg'ol qilgan. Har bir uyda esa to'rttadan deraza, to'rttadan eshik, to'rttadan stol, to'rttadan qandil bo'lgan.

Tantanali marosim paytlarida imperator to'rt xil qimmatbaho metallardan quyilgan to'rt qirrali toj kiyar ekan.

U o'z imperiyasini to'rt qismga, armiyasini esa to'rt korpusga bo'lgan ekan. Imperator to'rt nafar ot qo'shilgan faytunda yurardi, kiyimining rangi to'rt xil bo'lardi, to'rt tilda so'zlashardi. U kuniga to'rt mahal ovqatlanardi, to'rt xil sharob ichardi. Har galgi ovqat to'rt xil taomdan iborat bo'ladi.

To'rt raqamining «jinnisi» bo'lgan imperator umrida to'rt marta uylangan, ulardan to'rt o'g'il ko'rgan. O'limi oldida uning yonida to'rt vrach va to'rt din peshvosi turgan, ularning har qaysisi imperatorning to'rt vasiyatini to'rt tilda yozib borgan. O'zi ham 1378-yilning 29-noyabrida roppa-rosa soat to'rtida dunyodan o'tgan.

100-mashq. Gaplarni tarjima qiling.

1. Ахмеду шеснадцать лет, его младшему брату – одиннадцать, а старше сестре – восемнадцать. 2. Марс вращается вокруг своей оси за двадцать четыре часа тридцать семь минут две секунды. 3. Глубина озера Байкал – семьсот сорок два метра, а длина – шестьсот тридцать шесть километров. 4. В вазе лежат пять апельсинов, семь яблок и восемь груш. 5. В узбекской группе 5 курса заочного отделения юридического факультета учатся тридцать семь студентов, из них двадцать две девушек и пятнадцать парней. 6. Я для младшей сестре купил десять тетрадей, шесть карандашей, девять ручек. 7. У слона всего четыре коренных зуба. Каждый зуб достагает двадцати шести сантиметров в длину. 8. Большой Ферганский канал был прорыт в 1939 году за сорок пять дней. Этот канал длиной в сто шестьдесят километров, построили его шестьдесят тысяч человек. 9. В Африке растёт дерево баобаб, которому боле пяти тысяч лет. Высота его равна восьмидесяти двум метрам, окружность ствола – сорока семи метрам, а окружность кроны – ста сорока семи метрам. 10. Земля находится от Солнца на расстоянии ста пятидесяти миллионов километров. 11. В древнем мире было известно всего 450 видов животных, а теперь известно только насекомых больше восьмисот тысяч. 12. Орёл за один час пролетает сто двадцать пять километров. 13. Мы живём в XXI веке. 14. В 1012-году Ибн Сина переехал в Иран, жил в Хорасане и Хамадане, где придворным врачом и везером.

101-mashq. Quyida berilgan sonlar ishtirokida gaplar tuzing.

Birinchi, yettinchi, bir yuz o‘ttiz oltinchi, uchta, beshta, bir yuz yigirmata, o‘ttiztacha, elliktacha, yuztacha, o‘nlarcha, yuzlarcha, minglarcha, yuzlab, minglab, millionlab, ikkovi, beshovi, oltovi, uchovlon, to‘rtovlon, beshovlon, o‘ntadan, beshtadan, yetmishtadan, to‘rt-beshta, besh-oltita, o‘n besh-yigirma.

OG‘ZAKI NUTQNI O‘STIRISH UCHUN MATERIALLAR

Murojaat. Diqqatni jalb qilish.

Обращение. Привлечение внимания.

Janob!	Господин!
Janoblar!	Господа!
Xonim!	Госпожа!
Do‘stlar!	Друзья!
Yaxshi qiz! Qizim!	Девушка! Дочка!
Yaxshi yigit! Yigitcha!	Молодой человек!
Hoy qizcha! Yaxshi qiz!	Девочка!
Hoy bola! Bolakay!	Мальчик!
Bolalar!	Ребята!
Kechirasiz! UZR!	Простите!Извините!
Ha, eshitaman (Sizni).	Да, слушаю Вас.
Sizni eshitaman.	Я Вас слушаю.
Ha, marhamat.	Да, пожалуйста.
Nima yordam beray?//	Чем я могк помочь?
Mendan yordam kerakmi?	Что Вы хотите?
Nima xohlaysiz?	Я не так хорошо
Men o‘zbek tilini u qadar	знаю узбекский.
yaxshi bilmayman.	

Men o‘zbek tilida yaxshi gapira olmayman.

Men sizni tushunaman, biroq

gapirishga qiynalaman.

Men hammasini tushundim.

Men sizni tushunmayapman.

Men Sizni u qadar tushuna

olmayapman.

Marhamat,

sekinroq

qattiqroq ... gapiring.

Itimos, yana bir marta

takrorlang.

Bu so‘z nimani anglatadi?

Buning o‘zbekcha nomi nima?

Bu so‘z qanday yoziladi?

Marhamat, buni o‘zbek

tilida yozing.

Bu so‘zning to‘g‘ri talaffuzi

qanday bo‘ladi?

Itimos, bu yerda nima

yozilganini tushuntirib bering.

Я плохо говорю по узбекски

Я Вас понимаю, но
мне трудно говорить.

Я всё понял.

Я Вас не понимаю.

Я Вас не совсем понимаю.

Говорите, пожалуйста. . .

помедленнее, по тише. . .

погромче.

Повторите, пожалуйста,
ещё раз.

Что означает это слово?

Как называется это
по-узбекски?

Как пишется это слово?

Напишите, пожалуйста,
это слово по-узбекски.

Как правильно

Произносить это слово?

Объясните, пожалуйста,
что здесь написано.

MULOQOTNI O‘QING, OG‘ZAKI TARJIMA QILING

- Здравствуйте, Зокир ака. Вы с какого года работаете фермером в этом хозяйстве?

- Здравствуйте, дети. Я в этом хозяйстве работаю фермером с 1995 года.

- Что выращивает ваша ферма?

- Наша ферма выращивает в основном хлопок, фрукты и овощи.

- Зокир ака, расскажите нам, пожалуйста, о хлопке.

- Хорошо. Весной мы посеяли хлопок. Летом поливали его и окучивали. Теперь наступила осень. Хлопок созрел. Члены нашей фермы собирают богатый урожай.

- Сколько уже собрали?

- Более половины урожая.

- Как собираете хлопок.

- Машинами. Часть собирается членами нашей фермы и учениками-старшеклассниками.

- Зокир ака, какие деревья растут в саду?

- В нашем саду растут яблони, груши, орехи, гранат, черешни, сливы, персики, инжир и вишни.

- У вас есть виноградники?

- У нас есть более 10 сортов винограда.

- Когда поспевают виноград?

- Виноград начинает поспевать с июля месяца до конца октября.

- У вас в ферме большой огород? Что там растёт?

- Наш огород очень большой и растут там овощи, бахчевые культуры.

- Какие овощи растут в огороде?

- В огороде растут капуста, огурцы, помидоры, картошка, морковь, редька, редиска, репа, лук, чеснок, красный перец, болгарский перец, горох и свекла. Ребята, вы любите арбузы и дыня?

- Мы очень любим арбузы и дыни. И они выращиваются у вас?

- Да. Они выращиваются в другом поле. Помогите нам собрать урожай.

- С удовольствием.

SHE'RLARNI IFODALI O'QING VA MAZMUNINI SO'ZLAB BERING

Daraxtlar suhbatlari

Qarag'ay

Bo'yin cho'zib

Qarag'ay

Yon-atrofga

Qaragay

Der u:

Barcha daraxtdan

Baland akang -

Qarag'ay.

Terak

Men terakman

Terakman.

Men hammaga kerakman.

Osmon mening.

Yekamda.

Men olamga

Tirgakman.

Archa

Men archaman.

Archaman.

Men xursandman

Barchadan.

Atrofimda

Aylanib

Hech charchamang,

Charchamang!

Gilos

Men gilosman,

Quloq sol.

Rangim olu

Totim bol.

Majnuntol

Boshim egik

Majnunhol,

Majnuntolman

Majnuntol.

Dam olsangiz

Soyamda,

Men sizlardan

Mamnun tol.

Olma

Men sizlarning

Olmangiz.

Xomligimda

Olmangiz.

Nortojiga

O'xshab so'ng

Voy qornim, deb qolmangiz!

O'rik

Qantak o'rik

Otim bor.

Xo'p mazali

Totim bor.

Mag'izimga berkitgan

Qontim bor.

Novvotim bor.

Shaftoli

Sariq, oq shaftoliman,

Zarg'aldoq

Shaftoliman.

Maqtanib o'ltirmayman,

Topsang qo‘shalog‘imni
Qulog‘ingga
Taqib ol.

Manandoq
Shaftoliman.

Yong‘oq
Miya kabi
Shaklim bor.
Boshim to‘la
Aqlim bor.
Meni yegan
Donishmand
Bo‘lur degan
Naqlim bor.

Nashvati
Meni derlar
Nashvati.
Sharbatlarning
Sharbati.
Mazalarning
Mazasi,
Lazzatlarning
Lazzati.

(E.Vohidov)

TOPSHIRIQLAR

1. «O‘zbekistonning nabotot dunyosi» matnini tarjima qiling.
2. Matn mazmunini og‘zaki hikoya qiling.
3. Matn bo‘yicha savollarga yozma javob bering.
4. O‘zingizga tanish bo‘lgan o‘simliklar haqida so‘zlab bering.
5. Sifat, son so‘z turkumlari bo‘yicha o‘rgangan nazariy bilimlaringizni yozma bayon eting.

10-MASHG‘ULOT

Matn: Kutubxon.

Grammatika: 1.Gapda so‘z tartibi.
2. Fe‘l, uning xoslangan shakli – sifatdosh.

KUTUBXONA

Hozirgi paytda hayotimizni kitoblarsiz va kutubxonalarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Maktab o‘quvchisi ham, dehqonu chorvador ham, ishchiyu xizmatchi ham, talabalar va barcha

ziyolilar o‘zlari qiziqqan sohalariga oid kitoblarni o‘qib turadilar. Sharqda kitobni nondek e‘zozlaydilar.

Kutubxonalar – bu bir kishi yoki ko‘pchilik tomonidan yig‘ilib, saqlanadigan kitoblar to‘plami hamda barcha savodxon va ijodkorlar uchun ilm-ma‘rifat maskanidir.

Kutubxonalar bir necha ming yillardan beri mavjud. Mamlakatimizda ham dastlabki kutubxonalar bir necha ming yillar avval paydo bo‘lgan. Qomusiy bilimlar egasi bo‘lgan Muso Xorazmiyning 20 dan ortiq, Ahmad Farg‘oniyning 10 dan ortiq, Ismoil Buxoriyning 20 dan ortiq, Abu Nosir Forobiyning 160 dan ortiq, Ibn Sinoning 450 dan ortiq, Beruniyning 160 dan ortiq, Zamaxshariyning 50 dan ortiq turli fanlarga oid asarlar yaratganliklari ham yurtimizda kitob, kutubxonalar, ilm-ma‘rifatga qiziqish qadimdan katta bo‘lganligidan dalolat beradi. Sohibqiron Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Husayn Boyqaro, Bobur hukmronlik qilgan paytlarda kutubxonalar madrasalar qoshida, saroylarda bo‘lgan. Kutubxonalardan ko‘proq mudarrislar, talabalar, shoirlar olimlar foydalanishgan.

Bugungi kunda esa har bir korxonaning, har bir maktab, litsey, kollej va oliy o‘quv yurtining o‘z kutubxonasi bor. Tuman, shahar, viloyat miqyosida aholiga xizmat ko‘rsatadigan katta-katta kutubxonalar mavjud. Hatto ayrim kishilarning ham boy shaxsiy kutubxonalari bor.

Respublikamizdagi eng katta kutubxonalar – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Davlat kutubxonasidir. Bu kutubxonalar 1870-yilda tashkil etilgan. Bu kutubxonada dunyoning ko‘pgina tillaridagi 5 milliondan ortiq kitoblar mavjud. Bundan tashqari, bu kutubxonada O‘zbekiston, O‘rta Osiyo tarixi, ilm-fani, adabiyoti, madaniyatiga oid necha minglab noyob qo‘lyozmalar saqlanmoqda.

Samarqand shahri ham qadimiy ilm-fan markazlaridan hisoblanadi. Bu yerda ham kutubxonalar ko‘p. Samarqand shahridagi eng katta va boy kutubxonalar Samarqand ilmiy kutubxonasidir. Bu kutubxonalar 1927-yili tashkil topgan. Hozir bu kutubxonada qariyb 3 millionga yaqin ilmiy, badiiy va ilmiy-

ommabop kitoblar mavjud. Bu kitoblar o‘zbek, rus, ingliz, fransuz, nemis, arab, fors-tojik kabi 50 dan ortiq tillardadir. Ilmiy kutubxona ikki qavatli binoda joylashgan. Birinchi qavatda kitoblarni saqlash, ma’lumotlar va kartotekalar bo‘limlari joylashgan. Ikkinchi qavatda katta va yorug‘ o‘quv xonasi, chet tillardagi adabiyotlar, sharq qo‘lyozmalari, gazeta va jurnallar, badiiy va ilmiy asarlar saqlanadigan bo‘limlar hamda professor-o‘qituvchilar uchun alohida qiroatxona joylashgan. Ilmiy kutubxonaning ikkita katta filiali ham bor. Ularda talabalar ko‘proq o‘quv adabiyotlarini o‘rganish bilan mashg‘ul bo‘ladilar.

Ilmiy kutubxona har kuni ertalab soat 8 dan kech soat 20 gacha ishlaydi. Kutubxonaning o‘quv xonasi ertalabdan kechgacha ilmiy xodimlar, professor-o‘qituvchilar va talabalar bilan gavjum bo‘ladi. Kutubxona xodimlari kitobxonlarga kitoblarni izlab topish va tanlashda yordam beradilar.

FAOL SO‘Z VA IBORALAR

hozirgi paytda	tasavvur etib bo‘lmaydi
dehqon	chorvador
ziyoli	xizmatchi
nondek e‘zozlaydilar	paydo bo‘lgan
qomusiy	kitoblar yaratganliklari
ilm-ma‘rifat	dalolat beradi
madrasalar qoshida	tuman
viloyat miqyosida	xizmat ko‘rsatadigan
qiroatxona	shaxsiy kutubxona
tashkil etilgan	dunyoning ko‘p tillaridagi
madaniyat	noyob qo‘lyozmalar
ilm-fan markazi	ilmiy-ommabop
ikki qavatli binoda	kitoblarni saqlash
ma‘lumotlar	tanlash
sharq qo‘lyozmalari	o‘quv adabiyotlari
talabalar bilan gavjum	izlab topish

MATN BO‘YICHA SAVOLLAR

1. Hozirgi paytda hayotimizni nimalarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi?
2. Kimlar o‘z sohasiga oid kitoblarni o‘qib turadilar?
3. Sharqda kitobga qanday munosabatda bo‘lishgan?
4. Kutubxona nima va u qanaqa joy?
5. Dastlabki kutubxonalar qachondan beri mavjud?
6. Mamlakatimizda kutubxonalar qachon paydo bo‘lgan?
7. Yurtimizdan o‘nlab buyuk olimlarning yetishib chiqqanligi va ularning boy merosi nimadan dalolat beradi?
8. Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Husayn Boyqaro va Bobur hukmronligi davrida kutubxonalar qayerlarda bo‘lgan?
9. Bu kutubxonalardan ko‘proq kimlar foydalanishgan?
10. Hozirgi paytda kutubxonalar qayerlarda tashkil etilgan?
11. Shaxsiy kutubxonalar ham mavjud bo‘lishi mumkinmi?
12. Respublikamizdagi eng katta kutubxona qaysi?
13. Bu kutubxonaning yoshi nechada?
14. Bu kutubxonada qancha kitob saqlanadi?
15. Bu kutubxonada qo‘lyozmalar ham saqlanadimi?
16. Samarqand qanday markazlardan biri hisoblanadi?
17. Samarqanddagi eng katta kutubxona qaysi?
18. SamDU ilmiy kutubxonasi qachon tashkil etilgan?
19. Bu kutubxonaga qancha kitob jamlangan?
20. Bu kitobxonada necha tildagi kitoblar mavjud?
21. Ilmiy kutubxona necha qavatdan iborat?
22. Birinchi qavatda qanday bo‘limlar joylashgan?
23. Ikkinchi qavatda-chi?
24. Kutubxonaning filiallarida talabalar nima bilan shug‘ullanadilar?
25. Kutubxona qaysi paytlarda ochiq bo‘ladi?
26. Kutubxona xodimlari kitobxonlarga qanday yordam berishadi?

ILM-FAN, KASB-HUNARGA DOIR MAQOLLARNI TARJIMA QILING VA ESDA TUTING

Bilim-baxt keltirar.

Bir yigitga yetmish ikki hunar oz.

Boylikning kaliti ilm.

Ilm-aql chirog'i.

Otalar so'zi - aqlning ko'zi.

Ko'p o'qigan olim bo'lsa,

Ko'pni ko'rgan dono bo'lur.

Avval bil, keyin qil.

Bilmas tabib jon olar.

Tikansiz gul bo'lmas,

Mashaqqatsiz –hunar.

Yuz hunarni chala bilguncha

Bir hunarni to'la bil.

Hunar bo'lsa qo'lingda,

Non topilar yo'lingda.

Dono o'ylab aytar,

Nodon – o'ynab.

Aql bilan obod – egizak.

Bilagi zo'r birni yiqar,

Bilimi zo'r – mingni.

Ilmsiz bir yashar,

Ilmli ming yashar.

QUYIDAGI HADISLARNI TARJIMA QILING

Ishni puxta va chiroyli bajaruvchi odamni Tangri do'st tutadi.

Uch kundan ortiq arazlashib yurish islomda yo'q.

O'lib ketganlarni yomonlab haqorat qilmanglar, chunki ular qilmishlariga yarasha mukofot yoki jazo oladigan joyga ketganlar.

Uylaringizdagi yonib turgan o'tni o'chirmasdan uyquga ketmanglar!

O'q otish mashqida jonli narsani nishon qilib qo'ymanlar!

Kimki birovga yomonlik qilsa, shu dunyoning o'zidayoq jazosini ko'radi.

Rahm qilmaganga rahm qilinmaydi, kechirmaganni kechirilmaydi va birovning uzrini qabul qilmaganning tavbasi ham qabul qilinmaydi.

Biror kasbu hunar orqasidan rizqu nasibaga ega bo'lib yashayotgan odam, shu kasbni beuzr o'zgartirmasin!

Kimki ota-onasining roziligini olgan bo'lsa, unga qanday yaxshi! Tangri uning umrini uzaytiradi.

Kimki birovning yozayotgan yoki kelgan xatini beruxsat o'qishga intilsa, go'yoki u do'zaxga intilgan bo'ladi.

NAZARIY BILIMLARNI MUSTAHKAMLASH UCHUN MASHQLAR

102-mashq. Quyida berilgan so'zlarni tartib bilan qo'yib, gaplar tuzing.

1. Buvimlarnikiga, kuzda, boraman, dadam bilan, har yili, qishloqqa, men.
2. Tushadi, mushuk, tomdan, oyog'i bilan, tashlasang ham.
3. Osmonda, chaqnay boshladi, yulduzlar, birin-ketin, qoramtir.
4. Kuni, shanbalik, yordam berdi, Anvar, kutubxonachisiga, fakultet.
5. Yo'l oldik, tushdan so'ng, bog'bonlarga, olmazor tomon, biz, berish uchun, yordam.
6. Cho'pon, yaylovga, haydab ketdi, ertalab, qo'ylarni, bir suruv, bir o'zi.
7. Tayyorlanadi, viloyatida, Surxondaryo, terisi ham, qorako'l, ko'plab.

8. Andijon, paxta tayyorlash, viloyati, rejasini, bajardi, muddatidan oldin, bu yil ham.
9. Bo'ldi, onam, obuna, gazeta, va, jurnalga, yetti xil, bu yil.
10. Quyilgan, Sirdaryo, va, Amudaryo, Orol, dengiziga, qadimdan.
11. Sochlariga, kirdi, qizlar, taqib olgan, lenta, oppoq, xonaga.
12. Men, Bahodirni, do'stim, tabrikladim, bugun, kuni bilan, tug'ilgan.
13. Darsdan so'ng, biz, vaqtlarimizda, bo'sh, suhbatlashamiz, haqida, kitoblar, yangi.
14. Dugonasi, biladi, opamning, to'qishni, paypoq, va, qalpoq, jundan.
15. Qaytaman, uyga, men, universitetdan, so'ng, har kuni, soat 2 dan.

103-mashq. Nuqtalar o'rniga qavs ichida berilgan sifatdosh hosil qiluvchi qo'shimchalardan mosini qo'shib, gaplarni ko'chiring va tarjima qiling.

1. Sharqdan es... (-gan, -kan, -qan, -r, -ar) yoqimli shabada gullarning xushbo'y hidini olib kelar edi. 2. Oldingdan oq... (-gan, -kan, -qan, -r, -ar) suvning qadri bo'lmas. 3. Erta ek... (-gan, -kan, -qan, -r, -ar) erda o'rar. 4. Kechasi bilan yoq... (-gan, -kan, -qan, -r, -ar) yomg'ir tong otar paytga borib tindi. 5. Pish... (-gan, -kan, -qan, -r, -ar) qovunlar o'z vaqtida uzib olindi. 6. Ayt... (-gan, -kan, -qan, -r, -ar) so'zni boshingga qilich kelsa ham aytishga o'rgan. 7. Samarqandni mo'ljallab yo'lga chiq... (-gan, -kan, -qan, -r, -ar) sayyohlar kechga yaqin shaharga kirib kelishdi. 8. So'rab o'rgan... (-gan, -kan, -qan, -r, -ar) olim, so'rama... (-gan, -kan, -qan, -r, -ar) o'ziga zolim. 9. Mushukdan qo'rq... (-gan, -kan, -qan, -r, -ar) chumchuqlar gurr etib uchib ketdi. 10. Bir quti sigaret chek... (-gan, -kan, -qan, -r, -ar) kishining umri bir soatga qisqaradi.

104-mashq. Sifatdoshlar ishtirok etgan quyidagi maqollarni tarjima qiling. Ulardan sifatdoshlarni topib, qanday hosil bo'lganligini izohlang.

Yugurganniki emas – buyurganniki.
 Kim tekkanini yeydi,
 Kim – suyganini.
 Ter to'kkanga – yer to'kar.
 Qo'rqqanga qo'sha ko'rinar.
 Ko'kka boqqan yiqilar.
 Qo'chqor bo'lar qo'zining
 Peshonasi do'ng bo'lar.
 Berganga bir ham ko'p,
 Olganga o'n ham oz.
 Berarmanga beshov ko'p,
 Olarmanga oltov oz.
 Yoshlikda bergan ko'ngil
 Ayrimas balo bo'lar.

105-mashq. Quyidagi sifatdoshli so'z birikmalari ishtirokida gaplar tuzing.

- o'qilgan kitob, bajarilmagan vazifa, olingan xat, terilgan paxta;
 - ekkani gullar, cho'kkan kemalar, kechikkan talaba;
 - kelayotgan mehmon, so'zlayotgan qiz, ishlayotgan bog'bon, o'ynayotgan bola;
 - tez oqar soy, tez chopar ot, olib sotar ayol;
 - ta'tilga chiqqan ishchi; o'qishga qiziqqan bola, tuqqan onasi;
 - boradigan joy, yozadigan daftar, ekadigan ko'chat;
 - kelajak avlod, bo'lajak muhandis;
 - terilgan mevalar, yig'ishtirilgan hosil;
 - o'z vaqtida bajarilgan ish;
 - yo'l qo'yilgan kamchilik.

106-mashq. Quyidagi sifatdoshli soʻz birikmalarini oʻzbek tiliga tarjima qiling va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Исследованные учёными пустыни, засеянные хлопком поля, улетавшие на юг птицы, не замеченная учителем ошибка, законченное учеником сочинение, не закончившееся ещё собрание, не высипавшийся хорошо ребёнок, не допетая до конца песня, не видимая простым глазом звёзды, не прочитанная щщё книга, не решённая учеником задача, расчищенная дорога, разгаданная загадка, недоставленное письмо, вымытый пол, исправленная ошибка.

107-mashq. Quyidagi gaplarni soʻz tartibi qoidalariga rioya etgan holda oʻzbek tiliga tarjima qiling.

1. Без помощи товарищей я не смог бы хорошо учиться. 2. После окончания университета я хотел бы работат в родном городе. 3. Без совета учителя я не прочитал бы романа П.Кадырова «Звёздные ночи». 4. Путешественник без компоса не нашёл бы дорогу. 5. Всем нам хотелось бы побывать в Ташкенте. 6. Я пошёл библиотеку и прочёл книгу Ходжа Самандара «Наставление царям». 7. Алишер Навои мечтал о прекрасной и счастливой жизни для народа. 8. После объявления независимости Узбекистан стал богатой, высокоразвитой республикой. 9. Соблюдая режим дня, можно приучить себя к порядку. 10. Записывая новые слова в тетрадь, не забудьте проставить знак ударения.

108-mashq. Quyidagi maqollarni oʻzbek tiliga tarjima qiling.

1. Верблюда мучает груз, человека - совесть. 2. Горькая правда лучше сладкой лжи. 3. Жизнь молодца – с народом, жизнь народа – с Родиной. 4. Правда может согнуться, но не сломается. 5. Скромному кланяйся до земли, перед гордецом поднимай голову до неба. 6. Герой рождается для себя, но умирает за людей. 7. Даже когда шутишь, говори обдуманно.

8. Десять раз подумай, один раз скажи. 9. Тело украшай одеждой, голову - знаниями. 10. Не бойся врага умного, бойся друга глупого. 11. С молоком впитанное – с душою выйдет. 12. Хорошему коню достаточно одного удара плетью, умному человеку – одного слова.

109-mashq. Quyidagi matnni tarjima qiling.

MITTI TARJIMON

Tehronlik 3-sinf oʻquvchisi 9 yashar Rizo Muhammadiy Pasonad mashaqqat chekib, ilm olganidan soʻng Qurʼoni karimni 10 tilga – ingliz, fransuz, olmon, fors, italyan, ispan, turk, rus, yapon va urduchaga tarjima qila boshladi. Oʻzining eʼtirof etishicha, bu ishda ota-onasi katta yordam bergan. Bolaning otasi bir necha tillarda bemalol gaplasha oladi. Volidasi esa Qurʼoni karim va islomiy bilimlar muallimasidir. Til bilish ham suyak suradi, deb shunga aytsalar kerak-da.

110-mashq. Quyidagi feʼllardan sifatdoshlar hosil qiling va ular ishtirokida gaplar tuzing.

bormoq	yurmoq	turmoq
koʻrmoq	yashamoq	toʻshamoq
boʻshamoq	qoʻshilmoq	yozilmoq
koʻrishmoq	suzmoq	buzilmoq
taramoq	qaramoq	boʻyalmoq
tuzmoq	qurilmoq	qazilmoq
uralmoq	terilmoq	qizarmoq

111-mashq. Quyidagi kichik matnni tarjima qiling. Unda qoʻllangan feʼllarning shaxsi, soni va zamonini izohlang.

Raqamlarga qadar

Qadimda odamlar barmoqlari yordamida sanashgan, oʻzaro muomalada raqamlarni, hisob-kitoblarni shuning yordamida anglatishgan. Raqamlarni soʻz bilan yozishgan, soʻng barmoqqa oʻxshash shartli belgilar chizib ifodalashgan. Rimliklar bitta

barmoqni bitta, ikkita barmoqni ikkita cho‘p bilan ifodalashgan, besh esa – besh barmoq yoyilib turgan kaft suratiga o‘xshatib chizilgan. Tez yozish uchun rim raqamlari noqulay. Biroq ular hamon badiiy asarlar boblarini belgilashda va boshqa joylarda uchraydi.

OG‘ZAKI NUTQNI O‘STIRISH UCHUN MATERIALLAR

Itimos

Itimos, ayting.	Скажите, пожалуйста.
Itimos, tushuntirib bering.	Объясните, пожалуйста.
Itimos, uzatib yuboring.	Передайте, пожалуйста.
Itimos, yordam bering.	Помогите, пожалуйста.
Itimos, ko‘rsating.	Покажите, пожалуйста.
Itimos, meni kutib turing.	Подождите меня, пожалуйста.
Itimos, to‘xtang.	Остановитесь, пожалуйста.
Marhamat, kiring.	Войдите, пожалуйста.
Marhamat, qo‘ng‘iroq qiling.	Позвоните, пожалуйста.
Itimos, eshikni, derazani Oching.	Откройте, пожалуйста, дверь, окно.
Itimos, chekmang.	Не курите, пожалуйста.
Itimos, shovqin solmang.	Не шумите, пожалуйста.
Itimos, shoshmang.	Не спешите, пожалуйста.
Itimos, xalaqit bermang.	Не мешайте, пожалуйста.
Itimos, menga... ...ni uzating.	Будьте добры (любезны)... передайте мне...
...ni ko‘rsating.	покажите мне...
yana bir marta takrorlang. yordamlashing.	повторите ещё раз помогите мне.
Bilishga, so‘rashga	Разрешите (можно) ... ? узнать, спросить
Olishga, kirishga	взять, войти
Chiqishga, o‘tishga	выйти, пройти
Tutatib olishga, chekishga	прикурить, закурить.

...ruxsat eting.

Sizdan...

...yordam berishingizni

...biznikiga kirib, chaqirishingizni

...meni uyg‘otishingizni

...bu yerda chekmaslikni

...menga xalaqit bermaslikni

...bu yerda shovqin qilmaslikni

...iltimos qilaman.

Meni bir oz

kuta olasizmi?

Biznikiga kira olasizmi?

Menga yordam bera olasizmi?

Menga qo‘ng‘iroq qila olasizmi?

Maslahat. Ogoh qilish.

Sizga...

...bu kitobni o‘qishni

...bu filmni ko‘rishni

...bu spektaklga borishni

...sport bilan shug‘ullanishni

...chekishni tashlashni

...kursga kirishni

...maslahat berardim.

Vrachga borsangiz yaxshi bo‘lardi.

Sport bilan shug‘ullansangiz

ma‘qul bo‘lardi.

Kamroq cheksangiz

yaxshi bo‘lardi.

Kechadan kech qolmang!

Я прошу Вас...

...помочь мне.

...зайти за мной.

...разбудить меня.

...не курить здесь.

...не мешать мне.

...не шуметь здесь.

Не могли бы вы

подождать меня?

Не могли бы вы зайти

ко мне?

Не могли бы вы

помочь мне?

Не могли бы вы

позвонить мне?

Совет. Предостережение.

Я советовал бы вам...

...прочитать эту книгу.

...посмотреть этот фильм.

...сходить на этот спектакль

...заняться спортом.

...бросить курить.

...поступить на курсы.

Хорошо бы вам сходить к
врачу.

Надо бы вам заняться
спортом.

Вам следовало бы

поменьше курить.

Не опаздайте на вечер!

Yiqilib tushmang!
Ertaga uxlab qolmang!

Не упадите!
Не проспите завтра!

MULOQOTNI TARJIMA QILING

- Раъно, ты записалась в библиотеку университета?
- Да, конечно.
- Как ты это сделала?
- Очень просто. Подала библиотекарю свой студенческий билет. И теперь всё, что я беру на дом, указано в формуляре. Кроме того, по своему билету я могу получать литературу для работы в читальном зале. Это тоже удобно. В зале всегда тихо, сама обстановка настраивает на работу.
- А как ты заказываешь нужные книги?
- Для этого нужно заполнить бланк заказа, в котором указывается шифр по каталогу, алфавитному или систематическому.
- Оказывается, это не очень просто. Ты мне покажешь, как это сделать.
- С удовольствием. После занятий мы вместе пойдём в библиотеку.

Topshiriq. She'mni ifodali o'qing va yod oling.

Istak

Orzum shul, o'chmasin yongan chirog'ing,
Yulduzday nur sochsin chashming – qarog'ing.
Magar chinor bo'lsang, chinorday yasha,
Bevaqt uzilmasin biror yaprog'ing.

(A. Oripov)

MATNNI TARJIMA QILIB, MAZMUNINI SO'ZLAB BERING

KISHI FE'LI VA QON

Olimlar fikricha, qon guruhi kishining fe'l-atvori va o'ziga xos xususiyatlarini belgilaydi. Bu fikrni yapon olimi Poshitakening millionlab kishilar hayotini o'rganish xulosalari tasdiqlaydi.

Nomi o'rganilib, xulosa qilgan qon guruhlari bo'yicha kishilarning fe'l-atvorlari quyidagicha:

Birinchi guruh: Siz peshqadamlikka o'chsiz. Oldingizga qo'ygan maqsadga erishmaguncha tinchimaysiz. Olg'a harakat qilishda to'g'ri yo'nalish belgilay olasiz. O'z kuchingizga ishonasiz, lekin ehtiroslardan ham xoli emassiz. Kamchiliklaringiz ham bor. Siz o'ta rashkchi va shoshqaloqsiz. Bundan tashqari, siz juda izzattalabsiz.

Ikkinchi guruh: Siz muvozanat, osoyishtalik va tartib-intizomni yaxshi ko'rasiz. Odamlar bilan yaxshi ishlay olasiz. Bundan tashqari, siz ta'sirchan, madaniyatli va ochiqko'ngilsiz. Sizning kamchiliklaringiz o'jarligingiz va asablaringizni boshqara bilmasligingizda.

Uchinchi guruh: Siz shakllangan shaxsiyatparastsiz, o'z xohishi bo'yicha ish qiluvchisiz. Hamma narsaga tez moslasha olasiz, xayolparastlikdan uzoqsiz. Lekin sizning o'zboshimchalik bilan ish qilishingiz ba'zi vaqtda xalaqit qilishi mumkin.

To'rtinchi guruh: Siz tinch va xotirjamsiz, kishilar sizni sevadilar va siz bilan o'zlarini erkin his qiladilar. Ularning vaqtini choq qilishni bilasiz hamda bir vaqtda atrofda qilargilarga odobli va adolatlisiz. Lekin ayrim vaqtlarda qiziqqonsiz. Ba'zan esa uzoq vaqt ikkilanib, bir qarorga kelishga qiynalasisiz.

SHE'RLARNI IFODALI O'QING VA YOD OLING

XAYRLI KECH

Tilak qadrin bilar odamlar
Yaxshi niyat qilar odamlar.
Do'stga tungi orom oldidan
Xayrli kech tilar odamlar.

Xayrli kech – hikmatli istak,
Bu istakni buyurmish yurak.
Xayrli kech – farahli tuning,
Osoyishta, tinch bo'lsin, demak...
Yer yuzida yashagan inson
Mayliga u qayerda bo'lsin,
Tinch mehnatda kunlari shodon,
Kechalari xayrli bo'lsin.

Asablar

Asablar,
Asablar,
Asablar...
Sababsiz sochilgan g'azablar,
Gunohsiz chekilgan azoblar.
Ko'z yoshlar...
Bariga sabablar
Asablar, asablar, asablar.
Asablar kimlarni qulatmas,
Asablar uyquni yo'latmas,
Qalbni hech shodlikka to'latmas,
Odamzod temirmas, po'latmas!
Asablar kimlarni qulatmas!. .
Asabga so'z bermang, odamlar,
G'azabga yo'l bermang, odamlar.
Umr-ku shunchalar qisqadir,
Shuni ham qilmaymiz biz qadr.

Asabga so'z bermang, odamlar,
Azobga yo'l bermang, odamlar!
(Erkin Vohidov)

TOPSHIRIQLAR

1. «Kutubxona» matnini tarjima qiling.
2. «Kutubxona» matni mazmunini hikoya qiling.
3. O'zingizning shaxsiy kutubxonangiz haqida qisqa matn tuzing va og'zaki hikoya qiling.
4. Gapda so'z tartibi, fe'l va sifat-dosh mavzulari bo'yicha o'rgangan nazariy bilimlaringizni yozma bayon eting.

11-MASHG'ULOT

MATN: O'zbekistonning hayvonot olami.

GRAMMATIKA: 1. Holat, payt, o'rin ravishlari.
2. Fe'l mayllari.

O'ZBEKISTONNING HAYVONOT OLAMI

O'zbekistonning hayvonot dunyosi juda boy va turli-tumandir. Amudaryo, Sirdaryo, Orol dengizi, Zarafshon daryosi, qator suv omborlari va ko'llarda oltmishdan ortiq baliq turlari, yuzlab turdagi suv qushlari yashaydi. Oqqayroq, tovonbaliq, zog'orabaliq, laqqa, ilonbosh, olabug'a, cho'rtan baliqlar ko'plab ovlanadi. Ondatra, qunduz, suvsar, nutra, tulki kabi hayvonlar chiroyli mo'ynasi uchun ov qilinadi.

Bepoyon cho'llarda, ulkan tog' tizmalarida, vohalarda 60 turga yaqin sudralib yuruvchilar, 90 turdan ortiq sut emizuvchilar, 410 dan ortiq turdagi qushlar tarqalgan.

O'zbekiston hayvonot dunyosi juda qadimiydir. Hayvonlarning ayrim turlari faqat shu yerning o'zida paydo bo'lgan. Bunday hayvonlarga orol shipi, katta kurakburun baliq,

turkiston agamasi, turkiston gekkoni, qum bo'g'ma iloni, xo'jasavdogar, qo'shoyoq, ko'k sug'ur, ingichka barmoqli yumronqoziq va boshqalar kiradi. Tekisliklarda sirtlon, bo'ri, chiyabo'ri, tovushqon, asalxo'r, tulki, jayra, tipratikon, jayron, to'ng'iz, bug'u, qulon, toshbaqa, kaltakesak, ilon va echkemarlarni uchratish mumkin. Yaqingacha yo'lbars na'ralarini ham eshitish mumkin bo'lgan.

Tog'lar va uning atroflaridagi o'rmonlar, chakalakzorlarda ayiq, bo'ri, olmaxon, burgut, kalxat, qarchig'ay, qumoy, tasqara, boltayutar, miqqiy, lochin, itolg'i, qarg'a, quzg'un, kaklik, qirg'ovullar yashaydi. Ayrim qushlar odamlar bilan qishloq va shaharlarda yonma-yon yashashga odatlanganlar. Bularga qaldirg'och, chumchuq, musicha, mayna, kaptar, laylak kabilarni kiritish mumkin.

Odamlar eng qadimgi davrlardan boshlab yovvoyi hayvonlarni xonakilashtirganlar. Xonakilashtirilgan hayvonlar sirasiga tuya, ot, sigir, qo'y, echki, cho'chqa, eshak, it, mushuk, quyon, tovuq, kurka, g'oz, o'rdak, kaptarlar kiradi. Asalari, ipak qurti kabi hasharotlar ham xonakilashtirilgan.

Hayvonlar qadimdan har xil xomashyo, go'sht va mo'yna manbai bo'lib kelgan. Hozir ham tirik tabiat mahsulotlaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Har yili yurtimizdagi baliqchilik xo'jaliklarida baliqlar ko'paytiriladi, daryo va ko'llardan ming sentnerlab baliq ovlanadi, minglab mo'ynali hayvonlar terisi tayyorlanadi. Qirg'ovul, kaklik, bedana kabi parrandalar ovlanib, parhez go'sht tayyorlanadi.

O'zbekiston hududida zaharli ilonlarning besh turi yashaydi. Ularning zaharidan qimmatli dori-darmonlar tayyorlanadi. Ilon zahri tayyorlashda O'zbekiston dunyoda yuqori o'rinda turadi.

Har yili respublikamizda eksport uchun bir necha o'n minglab dasht toshbaqalari, tibbiy tajribalar uchun yuz mingdan ortiq ko'l baqalari tutiladi.

Hayvonlar tabiatda va qishloq xo'jaligida juda katta ahamiyatga ega. Hasharotxo'r hayvonlar zararkunanda hasharotlarning ko'payib ketishiga yo'l qo'ymaydi.

Yovvoyi hayvonlardan foydalanish bilan bir qatorda, ularni ayovsiz ov qilish, ba'zi hollarda butunlay yo'q bo'lib ketishdan saqlash lozim. O'zbekistonda yashayotgan sut emizuvchilarning 22 turi, qushlarning 31 turi, sudralib yuruvchilarning 5 turi, baliqlarning 5 turi "Qizil kitob"ga kiritilgan. Ularni muhofaza qilish zarur.

Hayvonot dunyosini muhofaza qilishda qo'riqxonalar muhim o'rin tutadi. Hozir respublikamizda o'ndan ortiq qo'riqxonalar mavjud. Ularda tabiatning mazkur burchagidagi tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosi tabiiy holda saqlanib qolishi kerak.

FAOL SO'Z VA IBORALAR

hayvonot dunyosi	ovlanadi
mo'yna	sudralib yuruvchilar
sut emizuvchilar	tarqalgan
uy hayvonlari	o'rmonlar
chakalakzorlar	tekisliklar
odatlangan	xonakilashtirilgan
hasharotlar	xomashyo
tirik tabiat	baliqchilik xo'jaliklari
parhez go'sht	zaharli ilonlar
dori-darmonlar	tibbiy tajribalar uchun
qishloq xo'jaligi	zararkunanda
yo'l qo'ymaydi	ayovsiz
qizil kitob	muhofaza qilish
qo'riqxonalar	tabiiy holda
yo'q bo'lib ketish	saqlanib qolishi kerak
qunluz	suvsar

MATN BO'YICHA SAVOLLAR

1. O'zbekistonning hayvonot dunyosi qanday?
2. Qaysi suv havzalarida ko'plab baliqlar va suv qushlari yashaydi?
3. Qanday baliq turlarini bilasiz?
4. Qanday mo'ynali hayvonlarni bilasiz?
5. O'zbekistonda sudralib yuruvchilar, sut emizuvchilar va qushlarning qancha turi tarqalgan?
6. O'zbekiston hududida paydo bo'lgan qanday hayvonlarni bilasiz?
7. Tekisliklarda qanday hayvonlar yashaydi?
8. O'zbekiston hududida yo'lbarlar bo'lganmi?
9. Tog'lar, o'rmonlar, to'qaylarda, chakalakzorlarda qanday hayvonlar, qushlarni uchratish mumkin?
10. Odamlar bilan yonma-yon yashaydigan qanday qushlar va hayvonlarni bilasiz?
11. Qadimda qanday hayvonlar xonakilashtirilgan?
12. Xonakilashtirilgan qanday hayvonlarni bilasiz?
13. Hayvonlardan qanday mahsulotlar olish mumkin?
14. O'zbekiston hududida qanday hayvonlar ovlanadi?
15. O'zbekistonda necha turdagi zaharli ilonlar uchraydi?
16. Zaharli ilonlardan nima olinadi?
17. Eksport va tibbiy tajribalar uchun qanday hayvonlar tutiladi?
18. Hayvonlarning tabiat va qishloq xo'jaligi uchun qanday foydali tomonlari bor?
19. O'zbekistonda yashayotgan qanday hayvonlar Qizil kitobga kiritilgan?
20. Qo'riqxonalar qanday vazifani o'taydi?
21. O'zbekistonda nechta qo'riqxonalar mavjud?
22. Ularda tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosi qanday holatda saqlab qolinadi?

QUYIDAGI HADISLARNI TARJIMA QILING

Otaga itoat qilish – Tangriga itoat qilishdir. Uning oldida gunoh qilish Tangri oldida gunohkor bo'lish bilan barobardir.

Qaysi bir ishni odamlar oldida qilish uyat deb bilsang, uni yolg'iz qolganingda ham qilma.

Gunohlar ichida Tangri shirkidan keyin turadigan katta gunoh o'zining jufti halolidan boshqa ayol bilan yotishdir.

Halol kasbdan charchab uxlagan odam gunohlari kechirilgan holda tunaydi.

Kimki musulmon mamlakatida yashovchi boshqa dinga mansub kishini haqorat qilsa, qiyomat kuni o'tdan yasalgan qamchi bilan uriladi.

Birodari bilan bir yil arazlashib yurishlik – uning qonini to'kish bilan barobardir.

Bir-birlaringga Tangrining la'nati, g'azabi yoki do'zaxini tilab so'kinmanglar.

NAZARIY BILIMLARNI MUSTAHKAMLASH UCHUN MASHQLAR

112-mashq. Nuqtalar o'rniga berilgan holat ravishlaridan mosini qo'yib gaplarni ko'chiring, tarjima qiling.

1. Oltinoy g'o'za qatorlari orasidagi begona o'tlarni. ... yulib chiqdi.
2. Shuni esdan chiqarmangki, ulkan muvaffaqiyatlarga ... erishiladi.
3. Ular «Zarafshon» jamoa xo'jaligigacha suhbatlashib ... boradigan bo'lishdi.
4. Ikkinchi jahon urushi yillarida dunyoda tinchlik o'rnatish uchun millionlab askarlar ... halok bo'ldilar.
5. Shu payt eshik ochilib, ... ikkita o'rtog'i sovg'alar bilan kirib keldi.
6. Akam bilan ikkimiz bobomdan ... xabar olib turamiz.
7. Bu xushxabarni eshitdim-u, ... ishlarimni yig'ishtirib siznikiga chopdim.
8. Kechqurun bo'sh bo'lsang, Sobirni ko'rgani kasalxonaga ... boramiz.
9. Men onamning soppa-sog' yurganligini

ko'rib ... quvondim. 10. Ayrim sabzavotlarni qaynatib, qovurib, pishirib iste'mol qilgandan ko'ra ... iste'mol qilish foydalidir.

Tez-tez, xomligicha, bittalab, astoydil, asta-sekin, birga, piyoda, darrov, to'satdan, qahramonlarcha.

113-mashq. Gaplarni tarjima qiling. Ularda qo'llangan payt ravishlarini izohlang.

1. Har kuni kamida o'n kilometr piyoda yurgan kishi sog'ligini mustahkamlab boradi. 2. Kecha universitet anjumanlar zalida Oliy Majlis deputatlari bilan uchrashuv bo'ldi. 3. Guruhimiz talabalari yaqinda biologiya fakultetining zoomuzeyida bo'lishdi. 4. O'zbekistonda eksport qilinadigan sanoat mahsulotlari yildan-yilga ortib bormoqda. 5. O'zbekistondagi tarixiy shaharlar hamisha chet el sayyohlarining diqqat markazida bo'lgan. 6. Bugun ertalabdan havo ochiq, quyosh charaqlab turibdi. 7. Dehqon, chorvador, bog'bonning ishi qishin-yozin to'xtamaydi. 8. Bizning vatanimizda hech kim, hech narsa, hech qachon unutilmaydi. 9. Tog'li tumanlarda yozda ham kechasi juda salqin bo'ladi. 10. Ular allaqachonlar uylariga yetgan bo'lishlari kerak.

114-mashq. Quyida berilgan holat ravishlari ishtirokida gaplar tuzing.

Darhol, birdan, majburan, tasodifan, yonma-yon, mardlarcha, sekin, jim, birma-bir, zo'rg'a, naridan-beri.

115-mashq. Quyida berilgan payt ravishlari ishtirokida gaplar tuzing.

Tunov kuni, endi, ilgari, bultur, har qachon, kunduzi, kuni bilan, hozir, erta-indin, indin, tez orada, kechqurun.

116-mashq. Quyidagi gaplarni tarjima qiling. O'rin ravishlari bilan o'rin ma'nosini bildiruvchi otlarning farqli tomonlarini izohlang.

1. Bolalarni yetaklab olgan ayol hammadan oldinda borar edi. 2. Shu payt uzoqdan eski shahar minoralari elas-elas ko'zga tashlana boshladi. 3. Ichkarida sho'x musiqa sadolari yangrab, bolalarning kulgusi eshitildi. 4. Tashqarida shamol guvullar, daraxtlarning shoxlari bir-biriga urilardi. 5. Ular yukxaltalarini orqalab, so'qmoqlar orqali yuqoriga ko'tarilishdi. 6. O'ngda dengiz kabi chayqalayotgan keng g'allazor paydo bo'ldi. 7. Yuqorida qanot qoqmay uchib yurgan burgut birdan pastga sho'ng'idi. 8. Musiqa chalinishi bilan bir to'da bolalar o'rtaga chiqishdi. 9. Guliston shahri Jizzaxdan narida, Chinozdan berida joylashgan. 10. U har yili yozda allaqayoqlarga sayyohatga borib keladi.

117-mashq. Quyida berilgan o'rin ravishlari ishtirokida gaplar tuzing.

Allaqayerdan, chapdan, chapga, o'rtada, yuqoridan, pastda, unda-bunda, u yoqqa, bu yoqdan, olg'a, uzoqda, ichkariga, tashqaridan, oldinga.

118-mashq. O'ng tomondagi ravishlardan chap tomondagi ravishlarning sinonimlarini toping va har bir sinonimik qatorni alohida-alohida yozing.

Avval	hamisha, kechasi, zo'rg'a, goho, tun, asta,
arang	har doim, ildam, ilgari, oqshom, olg'a,
ba'zan	ohista, sust, ahyonda, oldin, burun,
kecha	qadim, bazo'r, zo'rg'atdan, gohida, ahyon-
doim	ahyonda, doimo, hamma vaqt, jadal.
sekin	
tez	
oldinga	

Namuna: Avval, ilgari, oldin, burun, qadim.

119-mashq. Quyida berilgan ertakni tarjima qiling va mazmunini soʻzlab bering.

ХОЗЯИН И БЕДНЯК

Пришёл в один город бедный крестьянин и увидел там дворец. На улице было жарко, а во дворце прохладно. Крестьянин вошёл во дворец, сел на пол и стал есть.

Увидел его хозяин.

- Ты что здесь делаешь? – закричал он.
- Я хочу поесть, отдохнуть, а потом пойду дальше.
- Хочешь здесь поесть? Разве ты не видишь, что это мой дворец, а не гостиница?

- Твой дворец? – спросил бедняк. – А кто здесь жил раньше?

- Мой отец, - ответил хозяин.
- А ещё раньше?
- Мой дед.
- А ещё раньше?
- Прадед.
- А кто будет жить после тебя?
- Мой сын.
- А потом?
- Мои внуки.
- Вот видишь, - сказал бедняк, - как часто меняются в этом дворце гости.

Подумал хозяин и согласился. Бедняк отдохнул во дворце и пошёл дальше.

120-mashq. Quyida berilgan ravishlardan soʻz birikmalari yasang va tarjima qiling.

Doim, bultur, allaqachon, berida, avval, allaqayerda, allaqayoqqa, botirlarcha, boya, beriga, birdan, birdaniga, batamom, ancha, arang, asta, qishin-yozin, oldin, qisman, ertalab, ertaga, erta, hali, hozir, hozirdan, oʻrtadan, tezdin, toʻsatdan, tezda, tashqaridan,

sekin, picha, pastga, oz, oldinda, moʻl, kam, doʻstona, koʻplab, jinday, koʻp, ilgari, indinga, indin, ichkarida, darrov.

Namuna: *doim - doim xato qiladi* – всегда ошибается.

121-mashq. Quyidagi maqollarni oʻzbek tiliga tarjima qiling va muqobillarini toping.

1. Дерево сначала пускает корни, а потом растёт вверх.
2. Одна пчела не много мёду натаскает. 3. Победа находится впереди, а трус прячется позади. 4. Кто много говорит, тот мало делает. 5. Кто учится прилежно, тот и работает хорошо.
6. Материнский гнев – что весенний снег: и много выпадает, да скоро тает. 7. Не той собаки бойся, которая громко лает, а той, которая тихонько кусает. 8. Готовь сани летом, а телегу - зимой. 9. Кто обманул вчера, тому и сегодня не поверят.
10. Тише едешь – дальше будешь. 11. Меньше будешь говорить – больше услышишь.

122-mashq. Quyidagi gaplarni tarjima qiling. Feʼllarning maylini aniqlang.

1. Bugun bobomni bayram bilan tabriklagani uyiga boramiz. 2. Oʻlkashunoslik muzeyini tomosha qilgani bugun boraylik. 3. Bugun kechqurun soat 18 da biznikiga boring. 4. Akang kechqurun guruh rahbarimizga qoʻngʻiroq qilsin. 5. Mahmud, erta boʻladigan darslar jadvalini aytib yubor. 6. Albomingga yopishtirilgan suratlarini koʻrayin. 7. Kelgusi yili singlim tibbiyot kollejini bitiradi. 8. Talabalar ertalab soat 10 da fakultet anjumanlar zalida toʻplansinlar. 9. Fizika oʻqituvchisi texnika xavfsizligi qoidalarini yana bir bor tushuntirib bersin. 10. Bugun doʻstimning xatiga javob yozay. 11. Muhtaram vatandosh, vatanimiz mustaqilligini mustahkamlash uchun oʻzingning munosib ulushingni qoʻsh! 12. Sening sportda erishgan muvaffaqiyatlaringdan men ham mamnunman.

123-mashq. Avval aniqlik maylidagi, keyin buyruq-istak, shart maylidagi gaplarni ko'chirib yozing hamda tarjima qiling.

1. Bolalar avval yangi yil haqidagi qo'shiqni aytishsin.
2. Osmonda qop-qora bulutlar suza boshladi, yomg'ir yog'sa kerak.
3. Men o'z kun tartibimga qat'iy rioya qilaman.
4. Kursdoshlarimiz bilan Alisher Navoiy muzeyini borib ko'rdik.
5. Bugun mehmonlar kelmasa, bozorga bormoqchimiz.
6. Siz bu yomon odatlaringizni tashlang.
7. Sen qishki ta'tilda mana bu kitoblarni albatta o'qi.
8. Endi xatning tagiga o'z familiyangizni yozib, imzo qo'ying.
9. Nodira darsga qatnashmagan bo'lsa ham, uyga vazifani bajarib kelgan.
10. Agar havo dim bo'lib, qaldirg'ochlar pastlab uchsa, yomg'ir yog'adi.
11. Bizda har bir inson o'z mehnati bilan izzat-hurmatga sazovor bo'ladi.
12. 2002-yil «Qariyalarni qadrlash yili» deb e'lon qilindi, 2003-yil esa «Obod mahalla yili» bo'lib tarixda qolgan bo'lsa, 2004-yil «Mehr va muruvvat» yili sifatida qalblarga muhrlandi.

124-mashq. Nuqtalar o'rniga shart mayli hamda tegishli shaxs-son qo'shimchalarini qo'shib gaplarni ko'chiring.

1. Dam olish kuni kel... , birga dala hovliga borib gullar ekamiz.
2. Kutubxonaga bor..., senga ham o'zbekcha-ruscha lug'at olib kelaman.
3. Bu yil ham imtihonlarni yaxshi topshir..., Buxoroga sayohatga bormoqchiman.
4. Qani endi har yili bahor mana shunday seryog'in bo'l... .
5. Kimki mehnatga chidamli bo'l..., u har doim muvaffaqiyatga erishadi.
6. Bugun ishdan ertaroq kel..., hovlidagi gullarga suv quyaman.
7. Yerga qanchalik ko'p o'g'it solinib, yaxshi ishlov beril..., hosil mo'l bo'ladi.
8. Universitetni imtiyozli diplom bilan tugat... magistraturada o'qishim mumkin.
9. Agar sen Erkinni uchrat..., unga xat borligini ayt.
11. Kamtar bo'l..., obro'ying ortar.
12. Nima ek..., shuni o'ramiz.
13. Kim kompyuter va zamonaviy axborot texnologiyalarini chuqur o'zlashtir..., u davr talabidan orqada qolmaydi.

125-mashq. Quyidagi gaplarni tarjima qiling. Ulardagi fe'l mayllarini izohlang.

1. Одной рукой жни, другой - сей. 2. Без моей помощи ты некогда не перевел бы этот текст. 3. Приехала бы сестра к нам. 4. Если будет время, мы с тобой ходим в театр. 5. Если бы не было птиц, насекомые уничтожили бы все растения. 6. Если мы к тебе поедem, то я тебе позвоню. 7. Без тебя я не добрался бы до своего дома. 8. Без воды цветы погибнут, не забывай. 9. Хоть саман и чужой, а сарай будет мой. 10. Если конь прожорливый – одарил бог. А жена прожорлива – наказал бог.

126-mashq. Quyida berilgan fe'llardan shart mayli hosil qiling va ular ishtirokida gaplar tuzing.

bermoq – давать	tashlab yubormoq - бросить
kulmoq – смеяться	tushunmoq – понимать
so'ramoq – спросить	bo'lmoq – делить
ishlamoq – работать	termoq – собирать
topshirmoq – поручить	bajarmoq – выполнить
o'qimoq – читать	uzymoq – писать

127-mashq. Quyida berilgan matnni tarjima qiling.

PIVOXO'R SHILLIQQURLAR

Chig'anoqli shilliqqurtlar, ayniqsa, yog'in-sochinli kunlarda juda ko'payadi. Ularning sabzavot ekinlariga zarari esa yanada ortadi. Ularga qarshi ishlatiladigan kimyoviy vosita yuqori natija bermaydi. Xo'sh, nima qilish kerak?

Kyoln shahridagi qishloq xo'jaligi ilmiy tekshirish muassasasi xodimi Aksel Papenxagenning aytishicha, shilliqqurtlar pivoxo'r bo'lisharkan. Demak, qishloq xo'jaligida ulardan qutulishning iloji bor, deb xulosa chiqaradi Aksel. Buning uchun agar tomorqangizda shilliqqurt ko'payib, ekinlaringizga zarar yetkazayotgan bo'lsa, tomorqangizning ma'lum joylarini kovlab, o'sha joylarga pivo to'la konserva bankasini qo'yib qo'ying.

Qarabsizki, bir haftada shilliqurtlar pivoga bukib va cho'kib o'ladilar.

OG'ZAKI NUTQNI O'STIRISH UCHUN MATERIALLAR

Tabriklash. Tilak bildirish. Поздравления. Пожелания.

Bayramingiz qutlug' bo'lsin!	
Bayram bilan tabriklayman!	С праздником!
Tug'ilgan kuningiz bilan tabriklayman!	С днём рождения!
Yangi yilingiz qutlug' bo'lsin!	С новым годом!
Sizni bayram bilan...	Поздравляю Вас с...
Tug'ilgan kuningiz bilan...	праздником, с днём
Yangi yil bilan...	рождения, с новым
Muvaffaqiyatlar bilan	годом!
tabriklayman!	
Sizni tabriklashga ijozat bering.	Разрешите мне
	поздравить Вас.
Mening tabrigimni ...ga yetkazing.	Передайте мои
	поздравления ...
Sizga mustahkam sog'liq...	Желаю Вам доброго
- ulkan baxt, katta	здоровья, большого счастья,
muvaffaqiyatlar,	больших успехов,
- uzoq umr tilayman!	долгих лет жизни!
Kasal bo'lmang!	Не болейте!
Sog'ayib keting!	Поправляйтесь!
Yoqimli ishtaha! Osh bo'lsin!	Приятного аппетита!
Yaxshi tushlar ko'ring!	Приятного сна!
Yaxshi yotib turing! Xayrli tun!	Спокойной ночи!

Minnatdorchilik

Rahmat.
Yana bir bor rahmat.
Yordamingiz uchun...

Влагодарность

Спасибо.
Ещё раз спасибо.
Спасибо Вам...

- maslahatingiz uchun...
- e'tiboringiz uchun...
- taklifingiz uchun...
- tabrigingiz uchun...
Sizga rahmat. Sizga tashakkur.
Sizdan juda minnatdorman.
Sizdan juda xursandman.
Sizga tashakkur aytishga
ijozat eting.
Siz juda olijanobsiz!
Siz juda iltifotlisiz!
Oldindan Sizga minnatdorchi-
lik bildiraman.

Minnatdorchilikka javob qaytarish

Marhamat!
Arzimaydi!
Arzimaydi!
Sizga yordam berganimdan
xursandman!
Sizga yordamim tekkanidan juda
xursandman!
Sizga, aksincha, men tashakkur
aytishim kerak!

Благодарю Вас...за помощь,
за совет,
за внимание,
за приглашение,
за поздравление.

Я Вам очень благодарен.
Я Вам очень признателен.
Разрешите поблагодарить
Вас.
Вы очень любезны!
Вы очень внимательны!

Заранее Вам благодарен.

Ответ на благодарности!

Пожалуйста!
Не стоит благодарности!
Не за что!

Род помочь Вам!
Мне было очень приятно
Помочь Вам!
Это я должен Вас
благодарить!

MULOQOTNI TARJIMA QILING

- Как ты думаешь, Рустам, почему исчезают на земле некоторые виды животных и растений?
- Главная причина, по-моему, в хищническом истреблении их человеком.

- А какие-нибудь меры для их сохранения принимаются?

- Конечно. Международный союз охраны природы и природных ресурсов учредил «Красную книгу». Она содержит краткие сведения о распространении, численности, биологии и мерах охраны редких видов животных и растений всего мира.

- А в нашей стране есть такая книга?

- Да. У нас тоже выпущена «Красная книга». В эту книгу включены 22 вида млекопитающих, 31 вид птиц, 5 видов пресмыкающихся и 5 видов рыб, обитающих в нашей стране. Эти животные подлежат полной охране. Многие растения также занесённые в «Красную книгу» не подлежат сбору.

Uy hayvonlari va parrandalar

- Salom, Vali! Yaxshi dam oldingmi?

- Salom Nikolay! O'zingning ishlaring qalay?

- Rahmat! Menga xo'jaligingni ko'rsatmoqchi eding. Bugun senga yordam berish uchun ataylab keldim.

- Zo'r ish bo'ldi-da! Yur xo'jaligimiz bilan tanishtiray. Biznikida qancha vaqt bo'lasan?

- Kechgacha. Kechqurun o'zbek tilidan «Uy hayvonlari» mavzusida uy ishi yozishim kerak.

- Nikolay, xo'jaligimiz uncha katta emas. Bu og'ilda sigir va buzog'imiz bor. Bu tomonda ikki qo'y, ikkita qo'zichoq va bir echkimiz bor.

- Vali, bu hayvonlarni nima bilan boqasan?

- O't, xashak, rozg'ordan chiqadigan sabzavotlarning po'choqlari bilan. Yem ham beramiz.

- Sigiring sut beradimi?

- Ha, sigirimiz sut beradi. Sutdan onam yog', pishloq, chakki, qatiq tayyorlaydi.

- Echki va qo'ylaring ham sut beradimi?

- Ha, echki va qo'ylarimiz ham sut beradi. Ularning sutlari kamroq bo'lsa ham to'yimli va dorivordir.

- Uy hayvonlarini kim parvarish qiladi?

- Ular bilan, asosan, otam shug'ullanadi. Bo'sh paytlarimda men ham ularga qarayman. Yemish beraman, sug'oraman, tagini tozalayman.

- Bu qanaqa uycha?

- Ehtiyot bo'l. Bu uychada kuchugimiz Olapar yashaydi. Oppoq rangli mushugimiz ham bor. U doim tomma-tom sakrab yuradi.

- Vali, parrandalaringiz ham bormi?

- Bo'lmasa-chi? Axir parrandalar yetti xazinaning biri-ku! Ularning katagi hovlining chetida qurilgan.

- Qanday uy parrandalarini boqasizlar?

- Tovuq, g'oz, o'rdak va kurka. Ularning jo'jalarini alohida boqamiz. G'oz va o'rdaklar, ularning bolalari uchun hovuzcha qazganmiz. Ular shu hovuzchada suzishadi.

- Parrandalardan qanday mahsulotlar olinadi?

- Tovuqlar, asosan, tuxum uchun boqiladi. G'oz va o'rdaklar ham tuxum beradi. Ammo biz g'oz, o'rdak va kurkalarni go'sht uchun boqamiz. Bu parrandalar tez semiradi. Kel, ularga don beraylik. Endi, yur, uyga kiramiz. Quymoq pishirib beraman. Qaymoqxo'rlik qilamiz.

SHE'RLARNI IFODALI O'QING VA YOD OLING

XALQ

Xalq dengizdir, xalq to'liqdir, xalq kuchdir,

Xalq isyondir, xalq olovdir, xalq o'chdir...

Xalq qo'zg'alsa kuch yo'qdirkim, to'xtatsin,

Quvvat yo'qkim, xalq istagin yo'q etsin.

Xalq isyoni saltanatni yo'q qildi,

Xalq istagi, toj va taxtlar yiqildi...

Xalq istagi: ozod bo'lsin bu o'lka,

Ketsin uning boshidagi ko'lanka,
Bir qo'zg'alur, bir ko'pirar, bir qaynar,
Bir intilur, bir hovliqur, bir o'ynar,
Yo'qlikni-da, ochlikni-da, yo'q etar...
O'z yurtini har narsaga to'q etar...
Butun kuchni xalq ichidan olaylik,
Quchoq ochib xalq ichiga boraylik!
(Cho'lpon, Buxoro, 1921)

GO'DAKLIK DAN MA'LUM HAR ODAM...

Go'daklikdan ma'lum har odam,
Bola boshdan degan gap to'g'ri.
Mabodo men shoir bo'lmasam,
Bo'lar edim bezori, o'g'ri.
 Jikkakkina shum bola edim,
 Tengdoshlarim ichra «qahramon».
 Qaytar edim ko'chadan doim
 Burnim pachoq, usti boshim qon.
Qo'rqib ketgan onam qoshida
Derdim tutib o'zimni mahkam:
«Hechqisi yo'q. Qoqildim toshga.
Ertagacha qolmas o'rni ham».
 Yillar o'tdi, ketdi bolalik,
 Nihoya yo'q armonlarimga.
 YOshlikdagi sho'xlik, olovlik
 Ko'chdi she'ru dostonlarimga.
Bolaligim ketdi borini –
Satrlarda qoldirib butun.
SHe'rlarimda shum bezorining
Xislatlari aks etar bu kun.
 Mag'rurligim hamon qolmagan,
 Hamon baland o'tli ko'kragim.
 Bolalikda burnim qonagan,

Bugun esa qondir yuragim.
Mendan kulgan to'da qoshida
Deyman tutib o'zimni mahkam:
«Hechqisi yo'q! Qoqildim toshga,
Ertagacha qolmas o'rni ham».
S.Yesenin (E.Vohidov tarjimasini)

TOPSHIRIQ. Matnni tarjima qiling va o'z so'zlaringiz bilan aytib bering.

CHOY O'SIMLIGI

Hozir choy ichmaydigan kishini kamdan-kam holda uchratish mumkin. Ertalab ham, tushda ham, kechqurun ham dasturxonimizda issiq choy bo'ladi. Choyning ajoyib xususiyatlari bor. Sovuq qotganda ichsangiz vujudingizga harorat baxsh etadi. Issiq vaqtlarda esa salqinlik manbai bo'ladi. Charchab ichganda hordig'ingizni chiqaradi. Bemor bo'lib qolsangiz terlatib, tezroq tuzalishingizga yordam beradi. Shifokorlarimiz choy qon bosimini pasaytirish, asabni me'yorga solish, kishining jismoniy va aqliy qobiliyatini tiklash hususiyatiga ega ekanligini isbotlashgan. Bunga esa choy tarkibida mavjud bo'lgan tanin moddasi, turli vitaminlar, alkaloidlar sabab bo'ladi.

TOPSHIRIQLAR

1. «O'zbekistonning hayvonot olami» matnini tarjima qiling.
2. Matn mazmunini hikoya qiling.
3. O'zingizga tanish xonaki va yovvoyi hayvonlar, ularning o'ziga xos tomonlarini hikoya qiling.
4. Holat, o'rin, payt ravishlari, fe'l mayllari to'g'risida o'rgangan nazariy bilimlaringizni yozma bayon eting.

12 – MASHG'ULOT

MATN: Bozorda.
GRAMMATIKA: 1. Daraja-miqdor, sabab, maqsad ravishlari.
 2. Ravishdosh.

B O Z O R D A

Bozor ham insonlar yaratgan buyuk kashfiyotlardan biridir. Jamiyat taraqqiy etishi bilan kishilar o'z ehtiyojlaridan ortgan mahsulotlarini bozorga olib chiqadigan bo'lishdi. Bundan sotuvchi ham, sotib oluvchi ham manfaatdor. Sharqda bozorga bo'lgan ehtiyoj juda qadim zamonlarda paydo bo'lgan. Yurtimizdan Sharqu G'arbni tutashtiruvchi «Buyuk ipak yo'li» ning o'tganligi ham bejiz emas.

O'zbekistonning Toshkent, Samarqand, Buxoro kabi shaharlari o'zining ko'plab bozorlari bilan dunyoga mashhur bo'lgan. Hozir ham Toshkentda yigirmadan ortiq, Samarqandda esa o'ndan ortiq katta-kichik bozorlar mavjud.

Qadimiy va navqiron Samarqanddagi bozorlarning eng kattasi Siyob bozoridir. Bu bozor Toshkent ko'chasining boshida, Bibixonim masjidi yonida joylashgan. Toshkent ko'chasining har ikki tarafga oziq-ovqat mahsulotlari, xo'jalik, sanoat mollari, esdalik sovg'alari do'konlari, dorixona, oshxona, maishiy xizmat uylari qurilgan bo'lib, Registon maydonigacha davom etadi.

Siyob bozoriga Samarqand viloyatining turli tumanlaridan, qo'shni viloyatlardan har kuni o'n tonnalab mahsulotlar keltiriladi.

Bozorning shimoliy chetida tunukasozlik, ko'chatlar, poliz mahsulotlari rastalari joylashgan. Bu yerda kuz va bahor oylarida O'zbekistonda ekiladigan barcha daraxt ko'chatlarini, qishin-yozin qovun, tarvuz, oshkadi va oshqovoqlarni sotib olsa bo'ladi. Bozorning o'rtasida doimo quritilgan ziravorlar, turli dorivor o'simliklar: jag'jag', yalpiz, qushtili, ochambiti, ismaloq, otquloq, zubturum, qo'ziqorinlar sotiladi. Bozorning sharqiy qismi non,

qandolat mahsulotlari, guruch, quruq mevalar sotiladigan rastalardan iborat. Bu rastalar yonida olma, nok, uzum, limon, anor, o'rik, shaftoli, shotut, anjir, xurmo, olcha, qulupnay, gilos, behi, olxo'ri, ko'ksulton kabi shirin mevalar sotiladi. Mevalar rastasidan o'tsangiz, ko'katlar va sabzavotlarga ko'zingiz tushadi. Bu yerda ko'm-ko'k kashnich, shivit, shovul, oshrayhon, barra piyoz, sarimsoq, sholg'omcha kabi oshko'klar qishin-yozin sotiladi. Dehqonlar o'zlari yetishtirgan darmondorilarga boy sholg'om, turp, bodring, karam, piyoz, kartoshka, pomidor, lavlagi, sarimsoq, shirin va achchiq qalampir, sabzi, baqlajon kabi sabzavotlarini sotish uchun mana shu rastalarga keltiradilar.

Siyob bozoridan baliq, tovuq, mol go'shti, qo'y go'shti, sut, qatiq, chakka, pishloq, suzma, qaymoq, qazi hamda hasipning xom mahsulotini tanlab sotib olish mumkin. Bozor yon-atrofi xo'jalik-ro'zg'or buyumlari, sanoat mollari do'konlari bilan o'ralgan. Kiyim-kechak, gilam rastalari O'zbekistonda va xorijda ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan to'la.

Samarqandga kelgan sayyohlar Siyob bozorida sovg'a uchun sopol, chinni, yog'och buyumlar, do'ppi, to'n, belbog', pichoq, zeb-ziynat buyumlari sotib oladilar.

FAOL SO'Z VA IBORALAR

kashfiyotlardan biri	ehtiyoj
sotuvchi	sotib oluvchi
manfaatdor	tutashtiruvchi
buyuk ipak yo'li	bejiz emas
har ikki tarafga	esdalik sovg'alari
maishiy xizmat uyi	shimoliy cheti
ziravorlar	sharqiy qismi
qandolat mahsulotlari	ko'zingiz tushadi
rasta	pishloq
suzma	qatiq
hasip	tanlab sotib olish

xo‘jalik-ro‘zg‘or buyumlari sanoat mollari
zeb-ziyat buyumlari sopol,yog‘och buyumlar
tunukasoqlik ko‘chatlar

MATN BO‘YICHA SAVOLLAR

1. Bozor insonlar yaratgan qanday kashfiyot?
2. Kishilar o‘z ehtiyojidan ortgan mahsulotlarni nima qiladilar?
3. Yurtimiz hududidan qadimda qanday savdo yo‘li o‘tgan?
4. O‘zbekistonning qaysi shaharlari o‘zining boy bozorlari bilan mashhur bo‘lgan?
5. Hozir Toshkentda qancha bozor bor?
6. Samarqandda-chi?
7. Samarqandning eng katta bozori qaysi?
8. Bu bozor Samarqandning qayerida joylashgan?
9. Toshkent ko‘chasida qanaqa do‘konlar mavjud?
10. Siyob bozoriga mahsulotlar qayerlardan keltiriladi?
11. Bozorning shimoliy chetida qanday rastalar joylashgan?
12. Gul, daraxt ko‘chatlari va poliz mahsulotlarini qayerdan sotib olish mumkin?
13. Bozorning o‘rtasidagi rastalardan nimalar sotib olsa bo‘ladi?
23. Bozorning sharqiy qismi qanday rastalardan iborat?
15. Mevalar rastasida nimalar sotiladi?
16. Mevalar rastasidan so‘ng qanday rasta boshlanadi?
17. Bu rastada qanaqangi oshko‘klar bo‘ladi?
18. Sabzavotlar rastasida qanday mahsulotlar sotiladi?
19. Siyob bozorida go‘sht va baliq mahsulotlari sotib olsa bo‘ladimi?

20. Bozor qanday do‘konlar bilan o‘ralgan?
21. Kiyim-kechak va gilamlar rastasida qayerning mahsulotlari bor?
22. Samarqandga kelgan mehmonlar, sayyohlar qanday sovg‘alar sotib olishlari mumkin?
23. Siz turli mahsulotlar sotib olish uchun qaysi bozorga borasiz?

QUYIDAGI HADISLARNI TARJIMA QILING

Yoshlikda olingan bilim toshga o‘yilgan naqsh kabidir.
Tangrining nazdida to‘g‘ri so‘zdan ortiq sadaqa yo‘qdir.
Izn uch martagacha so‘raladi. Agar izn berilsa, kiring,
yo‘qsa qaytavering!.

Bir-biringizga tuhmat va bo‘hton qilmanglar!

Ko‘rgan-bilgani haqida guvohlik berishdan bosh tortgan odam yolg‘on guvohlik bergan bilan barobardir.

Odamlarning sirlarini bilib olib, tashmachilik qiluvchi chaqimchining nasli pok ekanligi shubhalidir.

Qaysi bir olim ilmidan so‘ralganda qizg‘anib gapirib bermasa, qiyomat kuni og‘ziga o‘tdan tizgin solib qo‘yiladi.

Kimki qilmishiga pushaymon bo‘lib uzr so‘ragan odamni kechirib yuborsa, uning xatolarini ham Tangri qiyomat kuni kechirur.

Qiyomat kuni kimga do‘zax o‘ti harom bo‘lishini aytaymi?!
U yuvosh, muloyim, yaxshi muomalali, bir gapga oson kelishadigan odamdir.

TOPISHMOQLARNI TARJIMA QILING VA TOPING

O'zi taom bo'lmas,
Usiz tam bo'lmas.

(tuz)

Oyog'i yo'q, qo'li bor,
Boshi yo'q soqoli bor,
Barcha uyda bo'ladi,
Uyni toza qiladi.

(supurgi)

O'tda yoqilmas,
Izingdan qolmas.
Chopsang chopilmas,
Qorong'ida topilmas.

(soya)

Juda ulkan bir daraxt
O'n ikkita shoxi bor.
Har shoxida to'rt uya.
Uya tuxumga to'la,
Tuxumlar yettitadan
Yarmi oq, yarmi qora.

(yil, oylar, fasllar, hafta, kun va tun)

NAZARIY BILIMLARNI MUSTAHKAMLASH UCHUN MASHQLAR

128-mashq. Quyidagi daraja-miqdor ravishlarini tarjima qiling va yodda saqlang.

Ko'p, oz, kam, bir oz, sal, picha, xiyol, juda ham, g'oyat, g'oyatda, nihoyatda, har qancha, obdan, ozmuncha, aslo, sira, benihoya, eng, yana, yanada, uncha.

129-mashq. Sabab va maqsad ravishlarini tarjima qiling, ular ishtirokida gaplar tuzing.

Atayin, ataylab, jo'rtaga, qasddan, noiloj, noilojlikdan, chorasizlikdan.

130-mashq. Gaplarni tarjima qiling va ravishlarning turlarini ko'rsating.

1. Я никогда не читал этой книги. 2. Мы нигде не оснаношливались. 3. Он никуда не пошёл в воскресенье. 4. Я ниоткуда не жду писем. 5. Когда пошёл дождь, мы были в поле, и нам не куда было спрятаться. 6. Он никогда не отказывается помочь товарищу. 7. Я сегодня вечером никуда не пойду. 8. Сегодня я занят, мне некогда гулять. 9. Я не пойду с тобой, мне незачем туда идти. 10. Я тебя везде искал и нигде не мог найти. 11. Все места были заняты, сесть было негде. 12. Когда неоткуда было взять дрова, мы шли в лес.

131-mashq. Ravish ishtirok etgan quyidagi maqollarni tarjima qiling va ma'nosini izohlang.

Aytgan so'zni takror aytma.

Aytar so'zdan aslo qaytma.

Aqlsiz – bugunni o'ylar,

Aqli – ertani.

Kerilma g'oz

Hunaring oz.

Do'sting mingta bo'lsa ham kam,

Dushmaning bitta bo'lsa ham ko'p.

Ko'p bo'lsa ketadi,

Oz bo'lsa yetadi.

Har kechaning kunduzi bor,

Daryoning o'z qunduzi bor.

Tindim tunda, tinmadim kunduzi,

Qo'y telpagim bo'ldi qunduzi.

132-mashq. Quyidagi gaplarni tarjima qiling. Ravishlarning turlarini aniqlang.

1. Botir sevinganidan chapak chalib, beixtiyor o'rnidan turib ketdi. 2. Hamdam aka, bu yigitlar Xo'janddan ataylab sizni izlab kelishibdi. 3. Tergov natijasida jinoyatchilarning ko'pgina hujjatlarni qasddan qalbakilashtirilganliklari ma'lum bo'ldi. 4. Darsga kech qolmaslik uchun yo'lak bo'ylab jadalroq yurib ketdi. 5. O'tirganlar orasida birdan g'ala-g'ovur boshlandi. 6. Ziyofatdan so'ng mehmonlar asta-sekin bog'dan chiqdilar. 7. Uning hozirjavobligidan xursand bo'lgan tog'asi hazillashib burniga chertib qo'ydi. 8. Malikaning onasi har hafta atayin qizi uchun ikkita yog'li patir pishirardi. 9. Kun botgan bo'lsa ham, ish hamon qizg'in davom etar edi. 10. Do'stim, Vatan mustaqilligini mustahkamlashimiz uchun hali ko'p ishlashimiz kerak. 11. Yo'qolgan kalit tasodifan stolning tortmasidan chiqib qoldi. 12. Guruh rahbari har kuni darsga ikki talaba kelmayotganini keyinroq bilib qoldi.

133-mashq. Quyidagi daraja-miqdor ravishli birikmalar ishtirokida gaplar tuzing.

Yanada tezroq yurmoq, eng ko'p ishlamoq, aslo charchamaslik, sira kech qolmaslik, obdon o'ylab ko'rmoq, ko'p gapirmoq, ozgina surilib o'tirmoq, kam kuch sarflamoq, bir oz kechikmoq, picha uxlab olmoq, juda charchamoq, g'oyatda qiziq kitob, nihoyatda baland bino, har qancha og'ir bo'lsa ham, eng oxirgi so'z, yana qaytib kelmoq, uncha og'ir bo'lmagan vazifa, ozgina yanglishmoq.

134-mashq. O'ng tomondagi ravishlardan chap tomondagi ravishlarning sinonimlarini toping va har bir sinonimik qatorni alohida-alohida yozing.

yana	! ancha, so'ng, karra, bir oz, barvaqt,
erta	! tag'in, qo'qqisdan, oz-moz, bor, talay,
to'satdan	! so'ngra, sonsiz, gal, picha, nogohon,
oldinga	! qayta, sal, navbat, sanoqsiz, innay-
marta	! keyin, daf'a, behisob, xiyol, bexosdan,

ko'p	! mo'l, qayta, jindek, ilgari, serob,
keyin	! jinday, vaqtli, safar, qittay, olg'a,
	! beadad, birdan, jichcha, bisyor, andak, !
	kutilmaganda.

Namuna: *Keyin, so'ng, so'ngra, innaykeyin.*

135-mashq. Matnni tarjima qiling.

РАННЕЕ ЛЕТНЕЕ УТРО

Небо на востоке бледнеет, ночь кончается, и начинается новый день. Рассвет. Говорят, что это лучшее время суток. Ещё всё спит. Спит вода, спят рыбы, спят птицы, и только совы, которые потом пропадут на целый день, пока летают около костра медленно и безшумно.

Мы почему-то говорим шёпотом – боимся спугнуть рассвет. С жестяным свистом проносятся тяжёлые утки. Туман начинает клубиться над водой. Мы наваливаем в костёр горы сучьев и смотрим, как подымается огромные белое солнце – солнце бесконечного летнего дня.

Так мы живём в палатке на лесных озёрах по несколько дней. Наши руки пахнут дымом, и этот запах не исчезает неделями.

Мы спим по два часа в сутки и почти не знаем усталости. Должно быть, два-три часа сна в лесах стоят многих часов сна в духоте городских домов.

136-mashq. Gaplarni tarjima qiling, ularda qo'llangan ravishdoshlarning hosil bo'lishini tushuntiring.

1. U bo'lgan voqeani o'rtoqlariga batafsil, shoshilmasdan gapirib berdi. 2. Cho'pon kuni bilan qo'ylarning ortida piyoda yura-yura charchadi. 3. Biz tog' sayridan lola, qizg'aldoq, chuchmoma terib kechqurun qaytdik. 4. O'qituvchimiz bu qiziq hikoyani kula-kula o'qib berdi. 5. Salima she'rni takrorlab o'qiy-

o'qiy yodlab oldi. 6. Darsdan so'ng Charos biznikiga kelavermagach, men o'zim ularnikiga bordim. 7. Toshkent shahrida o'qigani faqat viloyatlardan emas, balki qo'shni davlatlardan ham talabalar kelishadi. 8. Dehqonlar bahor kelguncha dalalarni ekishga tayyorlab qo'yadilar. 9. Hozir dunyoning har qanday mamlakatiga o'qigani, ishlagani yoki sayohat qilgani borish mumkin. 10. Men odamlardan so'ray-so'ray amakimning hovlisini zo'rg'a topdim. 11. Akam universitetni tugatgach, magistraturaga kirib o'qimoqchi. 12. Bu safar erta tongda turib, quyosh chiqquncha shaharga yetib oldik. 13. Poyezd har galgidan ikki soat kechikib yetib keldi. 14. Universiada ishtirokchilari qo'llarini silkita-silkita biz bilan xayrlashdilar.

137-mashq. Quyida berilgan ravishdoshlar ishtirokida gaplar tuzing.

Terlab, ko'rib, turgach, ekkach, chiqqach, borguncha, cho'kkuncha, qo'rqquncha, tergani, ovlagani, suhbatlashgani, yoza-yoza, o'ylay-o'ylay.

138-mashq. Quyidagi ravishdoshlarni tarjima qiling, ular ishtirokida so'z birikmalari, gaplar tuzing.

Слушая, сказав, войдя, взяв, поступив, написав, закончив, встретившись, начав, спросив, уходя, спрашивая, сидя, смеясь, смотря, глядя.

139-mashq. Quyidagi ravishdoshli birikmalar ishtirokida gaplar tuzing.

Shaharda qolib ishlamoq, konvertga solib jo'natmoq, darsni tayyorlab bo'lmoq, olmalarni terib olmoq, belgilangan vaqtda yetib bormoq, qayerdan kelganligini aniqlab bermoq, kulib so'zlashmoq, misollarni ishlab bo'lmoq, yugurib yetib olmoq, doimiy yashagani ko'chib kelmoq, to'xtatib so'ramoq, radiodan eshitib bilmok,

darvozani ochib qaramoq, yugura-yugura chiqib olmoq, so'rayverib bezor qilmoq.

140-mashq. Gaplarni tarjima qiling, ravishdoshlarni izohlang.

1. Встретившись с однокурсниками, мы вместе пошли к больному другу. 2. Отвечая на вопросы, продумайте правильность построения предложения. 3. Читая текст, обращайте внимание на знак ударения. 4. Одевшись потеплее, мы отправились на работу. 5. Уходя из дома, гасите свет, проверьте газ и водопровод. 6. Попращавшись с гостями, мы поздно вернулись домой. 7. Изучая узбекский язык, мы узнаём многое о жизни узбекского народа и о его истории. 8. Карим, прочитав условие упражнения, приступил к её выполнению. 9. Заучивая наизусть стихи, выполнив упражнения, вы лучше усвоите узбекскую речь. 10. Повторяя пройденный материал, студенты готовятся к экзаменам и зачетам. 11. Каждый раз отвечая на вопросы он не списав прошёл мимо окон. 12. Студенты прочитав новые статьи о международной политике и обсуждали их содержания.

141-mashq. Quyidagi birikmalarni tarjima qiling va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Обсудив вопрос, читая книгу, заключив договор, отвечая на вопрос, не жалея сил, вернувшись домой, слушая музыку, выполнив задание, закончив учёбу, рискуя жизнью, собрав урожай, претворяя в жизнь, радуясь успехом, приступить к работе, беседуя с товарищем, пользуясь случаем, исполнив просьбу.

OG'ZAKI NUTQNI O'STIRISH UCHUN MATERIALLAR

Istak, xohish. Niyat. Желание. Намерение.

Siz bilan gaplashishni...	Я хотел бы...поговорить с Вами,
-sizga yordam berishni	помочь Вам,
-sizni kuzatib qo'yishni istardim.	проводить Вас.
Siz bilan gaplashib...	Мне надо...
	поговорить с Вами,
-sizdan so'rab,	спросить у Вас,
-sizdan bilib olishim kerak.	узнать у Вас.
Bir oz dam olsak...	Хорошо бы нам ...
	немного отдохнуть,
- ozroq tanaffus qilsak...	сделать небольшой перерыв,
- hammamiz to'planishsak...	собраться всем вместе,
- ishdan keyin uchrashsak...	встретиться после работы,
kinoga borsak...	сходить в кино,
- shahar tashqarisiga chiqsak...	поехать за город,
- pivo ichsak yaxshi bo'lardi.	выпить пива.
U...	Пусть он...
- menga telefon qilsin...	позвонить мне,
- mening oldimga kirsin...	зайдет ко мне,
- men (bizni)kutib tursin.	подождет меня (нас).
Men boshqa ishga o'tmoqchiman.	Я собираюсь
	Перейте на другую работу.
Men institutga kirmoqchiman.	Я думаю поступить в институт.

Noaniq javob

Balki.
Ehtimoli bor.
Ehtimol.
Bilmayman.
Ishonchim yo'q, amin emasman.
Bo'lishi gumonroq.

Неопределенный ответ

Может быть.
Возможно, вероятно.
Наверно.
Не знаю.
Не уверен.
Скорее всего, да.

Borolmayman.	Скорее всего, нет.
Kelolmayman .	Я боюсь (думаю),
...deb xavotirdaman (o'ulaيمان).	что не приду.
Men harakat qilaman.	Я постараюсь.
Men o'ylab ko'raman.	Я подумую.
Men chamalab ko'raman.	Я посмотрю.
Men va'da berolmayman.	Я не могу обещать.
O'ylab ko'rish kerak.	Надо подумать.
Maslahatlashish kerak.	Надо посоветоваться.
Men darhol javob bera olmayman	Я не могу сразу дать
	ответ.

MULOQOTLARNI OG'ZAKI TARJIMA QILING

- Aytingchi, Siyob bozoridan qanday mahsulotlar sotib olish mumkin?
 - Siyob bozori shahrimizning markaziy bozori hisoblanadi. Bu bozordan xohlagan sabzavot, meva, poliz mahsulotlari, quruq mevalar, shirinliklar, non, go'sht, baliq va boshqa mahsulotlarni sotib olish mumkin. Siz nima sotib olmoqchi edingiz?
 - Men olma, nok, anor, uzum, xurmo, qovun hamda bir ikki xil quruq mevalardan sotib olmoqchi edim.
 - Bu bozorda boshqa bozorlarga qaraganda mahsulotlar ko'p bo'ladi. Meva va sabzavotlarni tanlab olishingiz mumkin. Yana narxi ham unchalik qimmat emas. Yuring mevalar rastasini ko'rsatib yuboraman.
 - Tashakkur.
 - Salomat bo'ling!
 - Ha, aytganday, mevalar rastasidan so'ng sabzavotlar rastasi boshlanadi.
 - Minnatdorman!
- *** *** ***
- Kechirasiz, sholg'omning bir kilosi necha so'm? Ta'mi qanday?

– Fargʻonaning sholgʻomi. Juda shirin. Shamollashga qarshi davo boʻladi. Narxi arzon. Kilosi 30 soʻmdan.

– Sabzi-chi?

– Sabzining narxi 40 soʻmdan.

– Qizil kartoshkaning narxini ham aytib yuboring.

– Kartoshka qimmatroq, kilosi 150 soʻmdan.

– Oq piyozning narxi qanchadan?

– Oq piyozning kilosi 60 soʻm.

– Yaxshi. Menga ikki kilo sholgʻom, uch kilo sabzi, toʻrt kilo kartoshka, besh kilo piyoz bering.

– Marhamat. Toʻr xaltani tuting. Sizdan 1080 soʻm.

– Mana oling. Rahmat sizga.

*** *** ***

– Aka, guruchning kilosi qanchadan?

– Guruchning kilosi 500 soʻmdan?

– Menga toʻrt kilo guruch oʻlchang.

– Noʻxatingizning narxi qanchadan?

– Noʻxatning narxi 400 soʻm.

– Mosh-chi?

– Mosh ham 400 soʻmdan.

– Ikki kilo noʻxat, ikki kilo mosh torting.

– Marhamat.

– Pulingizni oling. Rahmat.

– Sogʻ boʻling!.

*** *** ***

– Sariyogʻdan bir kilo oʻlchab bering.

– Marhamat.

– Qancha toʻlashim kerak? 1600 soʻm? Marhamat.

– Kassaga toʻlang.

– Menga ikki kilo shakar, bir qutidan koʻk va qora choy, 2 dona kir sovun bering.

– Marhamat. Kassaga 2600 soʻm toʻlang.

– Xoʻp. Mayda tuz bormi? Bir kilo mayda tuz ham bering.

– Yana 50 soʻm qoʻshib toʻlang.

– Xoʻp. Rahmat.

– Marhamat. Yana kelib turing.

*** *** ***

– Пожалуйста, взвесьте мне полкило конфет, четыреста граммов черного чая. И ещё я хочу взять торт и десяток разных пирожных.

– Выбирайте. Какой торт вам нравится?

– Пожалуй, я возьму шоколадный. Он очень красивый.

– Заплатите в кассу, а я вам всё упакую.

– Спасибо. А заказать продукты на субботу у вас можно?

– Да, пожалуйста. Пройдите к столу заказов.

Latifani tarjima qiling

Bola koʻzlarida yosh bilan uyga kirdi.

– Nima boʻldi? – soʻradi onasi.

– Yuqori sinfdagilardan biri urdi.

– Uni taniy olasanmi?

– Endi uni hamma taniydi – bitta qulogʻi choʻntagimda.

TOPSHIRIQLAR

1. «Bozorda» matnini tarjima qiling.
2. Matnning mazmunini hikoya qiling.
3. Oʻzingiz turli mahsulotlar sotib oladigan bozor haqida soʻzlab bering.
4. Ravishning turlari va ravishdosh mavzulari boʻyicha oʻrganlaringizni yozma bayon eting.

13 - MASHGʻULOT

MATN: Salomatlik – tuman boylik.

GRAMMATIKA: 1.Oʻzlik, soʻroq va koʻrsatish
olmoshlari.
2. Harakat nomi.

SALOMATLIK – TUMAN BOYLIK

Dunyoning barcha mamlakatlarida salomlashish yuksak madaniyat belgisi hisoblanadi. Koʻchaga chiqqanda uchragan birinchi tanishga, doʻstlarga, oʻqish yoki ish joyiga kirib qoʻyish hamsaboqlar, hamkasabalarga, uyga qaytganda esa oila aʼzolariga salom beriladi, salomga alik olinadi. Salom-alikning maʼnosi, eng avvalo, bir-biriga sogʻliq, tinchlik, omonlik tilashdir. SHundan ham koʻrinadiki, inson uchun sogʻliq, omonlik, tinchlikdan qimmatroq boylik yoʻqdir. Shuning uchun ham bir-birimiz bilan uchrashganda «Assalomu alaykum! Salomatmisiz? Sogʻliqlaringiz yaxshimi? Sogʻ-omonmisiz?» desak, xayrlashayotganda esa, albatta, «Sogʻ boʻling! Xayr, salomat boʻling!» deymiz.

Doim sogʻ boʻlish mumkinmi? Ha, mumkin. Buning uchun oʻz vaqtida rejali ovqatlanish, zararli odatlardan voz kechish, oʻqish yoki ishni qatʼiy tartib asosida yoʻlga qoʻyish, ertalab badantarbiya qilish, tanani, oʻqish yoki ish joyini doim toza-ozoda saqlash, asabiylashishdan oʻzni tiyish, koʻproq quvnoq kishilar davrasida boʻlish, oʻz vaqtida dam olish, turli meva, sabzavot va koʻkatlardan isteʼmol qilib turish lozim.

Afsuski, har doim ham vaziyat biz istagandek boʻlavermaydi. Doim ham bir-birimizni toʻgʻri tushunavermaymiz. Oqibatda kishi asabiylashadi. Asabiylashish esa oʻqish yoki ishdagi dilxiraliklarga, eng yomoni, salomatligimizning yomonlashuviga sabab boʻladi. Shuningdek, ob-havoning tez-tez oʻzgarishi, quyosh yoki tabiatdagi muvozanatning oʻzgarishi, oʻqish, ish yoki yashash joyimizdagi turli noqulayliklar ham salomatligimizga salbiy taʼsir etadi. Oqibatda kishi tanasi oʻzining doimiy muvozanatini saqlab

turolmay, tashqi yordamga muhtojlik sezadi. Shunda biz shifokorlarga murojaat etishga majbur boʻlamiz.

Oʻzbekiston Respublikasi hukumati aholi sogʻligini mustahkamlash uchun barcha sharoit va imkoniyatlarni yaratmoqda. 2000-yili respublikamizda «Sogʻlom avlod yili» deb eʼlon qilindi. Aholi sogʻligini mustahkamlash yoʻlida alohida xizmat koʻrsatgan kishilar uchun «Sogʻlom avlod uchun» ordeni taʼsis etilgan. Mamlakatimizda xalq hayotini farovonlashtirish, atrof-muhitning ifloslanishiga yoʻl qoʻymaslik borasida bir qancha qonunlar qabul qilingan. Korxonalarda mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi qoidalariga qatʼiy amal qilinadi. Koʻpchilik korxonalarining profilaktoriyalari, dam olish pansionatlari mavjud. Aholi sogʻligini tiklash va mustahkamlash uchun qishloq vrachlik punktlari, ambulatoriyalar, poliklinikalar, shifoxonalardan tashqari, oʻnlab sanatoriyalar, dam olish uylari yil boʻyi ishlab turadi.

Sogʻligini asrash har kimning oʻz qoʻlidir. Buning uchun har birimiz uyda, oʻqishda va ishda xushmuomala boʻlishimiz, rashk, igʻvo, fitnalarga barham berishimiz, bir-birimizga mehribon boʻlishimiz, ichkilikbozlik, kashandalik, giyohvandlik, fohishabozlik kabi illatlarni tag-tubi bilan yoʻq qilishimiz, chang, tutun va shovqin-suronsiz sharoitda yashash, oʻqish va ishlash imkoniyatini yaratishimiz, ovqatlanish va dam olishni toʻgʻri tashkil etishimiz, asabga tegadigan har qanday omillardan voz kechishimiz, sport bilan shugʻullanib chiniqishimiz, qisqasi – sogʻlom hayot tarzini yaratishimiz lozim. Ana shundagina dunyoning barcha boyliklaridan ham qimmatroq boʻlgan sogʻligimizni asrab, baxtli hayot kechiramiz.

FAOL SOʻZ VA IBORALAR

madaniyat belgisi	salomlashish
uchragan tanishga	hamsaboqlar
hamkasblar	salom beriladi
alik olinadi	sogʻliq tilash

xayrlashayotganda	rejali ovqatlanish
zararli odatlar	qat'iy tartib asosida
yo'lga qo'yish	asabiylashishdan tiyilish
o'z vaqtida	quvnoq kishilar davrasi
iste'mol qilib turish	vaziyat
istagandek bo'lavermaydi	to'g'ri tushunavermaymiz
oqibatda	dilxiralik
sabab bo'ladi	ob-havoning o'zgarishi
tabiatdagi muvozanat	noqulayliklar
salbiy ta'sir etadi	saqlab turolmay
shifokorlarga	yordamga muhtojlik sezadi
murojaat etish	imkoniyatlarni yaratmoqda
«Sog'lom avlod yili»	«Sog'lom avlod uchun»
farovonlashtirish	alohida xizmat ko'rsatgan
illatlarni	atrof-muhit ifloslanishi
texnika xavfsizligi	sog'likni tiklash
mustahkamlash	har kimning qo'lida
xushmuomala bo'lmoq	barham bermoq
mehribon bo'lmoq	ichkilikbozlik
kashandalik	giyohvandlik
fohishabozlik	mehnatni muhofaza qilish
sharoit yaratish	to'g'ri tashkil etish
chiniqish	sog'lom hayot tarzi
sog'likni asramoq	hayot kechirmoq

MATN BO'YICHA SAVOLLAR

1. Siz nimani yuksak madaniyat belgilaridan biri deb hisoblaysiz?
2. Qachon va qayerda salomlashiladi?
3. Salom-alikning ma'nosi nima?
4. Inson uchun eng qimmatbaho boylik nima?
5. O'zbekcha salomlashilganda qanday so'zlardan foydalaniladi?

6. Doim sog' bo'lish uchun nima qilish lozim?
7. Nima uchun odamlar asabiylashishadi?
8. Asabiylashish qanday zarar keltiradi?
9. Yana nimalar salomatligimizga salbiy ta'sir etishi mumkin?
10. Nima uchun biz shifokorlarga murojaat etamiz?
11. O'zbekiston Respublikasi hukumati aholi sog'ligini mustahkamlash uchun qanday g'amxo'rliklar qilmoqda?
12. Nechanchi yili «Sog'lom avlod yili» deb e'lon qilingan edi?
13. «Sog'lom avlod uchun» ordeni bilan kimlar taqdirlanadi?
14. Bizda xalq hayotini farovonlashtirish, atrof-muhitning ifloslanishiga yo'l qo'ymaydigan qonunlar mavjudmi?
15. Korxonalarda sog'liqni tiklash va dam olish uchun qanday imkoniyatlar mavjud?
16. O'zbekistonda aholi salomatligini muhofaza qilish, tiklash va mustahkamlash uchun xizmat qiladigan qanday tibbiy muassasalar bor?
17. Sog'ligimizni asrash uchun nimalarga e'tibor berishimiz lozim?
18. Sizningcha, yana qanday omillar kishining sog'ligini asrash va mustahkamlash uchun xizmat qiladi?

TABOBATGA DOIR QUIYIDAGI HADISLARNI TARJIMA QILING

Surma ko'zni ravshan qilib, kipriklarni o'stiradi.

Bir joyda vabo kasali bor deb eshitalaring, o'sha joyga kirmanglar. Agar sizlar yashayotgan joyga vabo kelsa, o'sha yerdan qochib chiqib ketmanglar.

Ko'pi mast qiladigan ichimliklarning ozidan ham sizlarni qaytaraman.

Safar qilinglar, sog'lom va rizqu nasibali bo'lasizlar.

Ey Tangrining bandalari! Bemorlaringizni davolatinglar, zero, Tangri har dardning davosini ham yaratgan, faqat keksalikning davosi yo‘qdir.

Betoblingda seni ko‘rgani kelmagan odamni sen borib ko‘raver.

Senga xayru ehson qilmagan odamga sen ehson qilaver.

Insonga bir vodiy to‘la molu dunyo berilsa, u ikkinchi vodiyni ham berilishini xohlaydi. Ikkinchisidan keyin uchinchisini va hokazo, uning nafsi to‘ymaydi. Insonning ko‘zini faqat tuproq (qabr tuprog‘i) to‘ydiradi. Kimki tavba qilsa, Tangri uni kechiradi.

Odam tanasida qorindan yomonroq idish yo‘qdir. Inson bir necha osham ovqat bilan kifoyalanadi. Agar zarur bo‘lsa, qorinning uchdan birini ovqatga, yana uchdan birini suvga, qolgan uchdan birini nafas olishga ajratsin.

Bemorni ko‘rgani borganda uning peshanasiga qo‘lni qo‘yib hol-ahvol so‘rash barkamol ziyorat hisoblanadi. Qo‘l berib ko‘rishib salomlashish mukammal bo‘ladi.

Boshga tushgan musibatlarni, o‘zidagi kasalliklarni va qilgan xayru ehsonini yashirish – yaxshilik xazinalaridandir.

Qo‘llarida ovqatdan qolgan yog‘ qoldiqlari bilan yotib uxlagan odamga biror kasallik yopishsa, o‘zidan ko‘rsin.

Tabobat ilmida tanilmagan odam soxta tabiblik qilsa, u odamlar uchun zomindir.

MAQOLLARNI TARJIMA QILING VA YODDA SAQLANG

Sog‘lom tanda – sog‘ aql.

Sog‘liq qadrini betobdan so‘ra.

Birinchi boylik – sog‘lik.

Ikkinchi boylik – qayliq.

Ko‘zing og‘risa, qo‘lingni tiy,

Qorning og‘risa, nafsingni tiy.

Kasallik joyini topsa, olti oy qishlaydi.

Dori achchiq, ta’siri shirin.

Orom – eng yaxshi malham.

Bemorning tuzalgisi kelsa, tabib o‘zi kirib keladi.

Tabib tabib emas, boshidan o‘tgan tabib.

Mehnatning tagi rohat.

Ko‘p ter to‘kkan ko‘p umr ko‘radi.

Shisha mastlikka eltar,

Mastlik pastlikka eltar.

Bosh omon bo‘lsa do‘ppi topilar.

Kasalga asal ham bemaza tuyular.

Kasalga so‘z yoqmas,

Charchaganga – o‘yin.

Och bo‘l, yalang‘och bo‘l, salomat bo‘l.

Sarimsoq, sarimsoq yeganning tani sog‘.

Sog‘lik umrning garovi.

Toza uyda dard bo‘lmas.

El sog‘ligi – yurt boyligi.

Qimiz ichgan qarimas.

Qarisa ham dard ko‘rmas.

DONOLAR SALOMATLIK HAQIDA

Jismoniy mashqlar bilan doimo mo‘tadil shug‘ullanib borgan kishi hech qanday davoga muhtoj bo‘lmaydi.

Ibn Sino

Odamning salomatligi tashqi sharoit bilan chambarchas bog‘langan.

Ibn Sino

Agar havoda chang va tuman bo‘lmasa edi, kishi ming yil yashagan bo‘lard.

Ibn Sino

Olti narsa kishi yuzini o‘zgartiradi: kutilmagan shodlik, birdan kelgan g‘am, g‘azab, uyqu, mastlik va qarilik.

Kaykovus

Ko‘p demak birla bo‘lmag‘il nodon,

Ko'p yemak birla bo'lmag'il hayvon.

A.Navoiy

Na boylik va na shuhrat insonni baxtli qila oladi.
Kasalmand shohdan sog'lom gado baxtlidir.

Shopengauer

Badan rohati sog'liqda, aql rohati bilimda.

Fales

Kasal bo'lmaguncha sog'liqning qadriga yetmaydilar.

Fuller

Har bir istakning tub maqsadi – sog'liqdir.

At-Tabariy

Ba'zilar salomat bo'lay deb o'zlarini ayab, paypaslab yuradilar. Ammo ular doim bemordirlar. Ba'zilar esa bemorlikdan cho'chimaganliklari uchun ham salomatdirlar.

Klyuchevskiy

Har bir ishning oxiri bor va har qanday kasallikning davosi bor.

Zohiriy Samarqandiy

Isitma – shifo beruvchi jarayondir.

Kullen

Har qanday yoshdagi odamning o'ziga yarasha dardi va hasrati bo'ladi.

Emerson

Men hayotda ikkita baxtsizlikni bilaman: u ham bo'lsa vijdotsizlik va bemorlikdir.

L.N.Tolstoy

Bizning xatomiz shundaki, o'z salomatligimiz haqida faqat uni yo'qotganimizda, ya'ni mexanizm sinib, uni tuzatish kerak bo'lgandagina qayg'uramiz.

K.Bikov.

Umringni uzaytirishni istasang, taomni kamaytir.

V.Franklin

NAZARIY BILIMLARNI MUSTAHKAMLASH UCHUN MASHQLAR

142-mashq. O'zlik olmoshiga tegishli egalik qo'shimchalarini qo'shib gaplarni ko'chiring, shaxs va sonini izohlang.

1. Zebuniso dugonasinikiga kechqurun bir o'z ... borib keldi. 2. O'zbek xalqida shunday maqol bor: avval o'z...ga boq, so'ngra nog'ora qoq. 3. Xalq hurmatidan qolmay desang, hech qachon o'z... bilaman dema. 4. YAngi o'quv yili uchun o'z...ga kerakli barcha o'quv qurollari, darslik va qo'llanmalarni sotib oldim. 5. Aqlli kishi hech qachon o'zi...ni maqtamaydi, uni boshqalar maqtaydi. 6. Har doim o'z...ning kamchiliklaringizni o'z... sezmasligingiz mumkin. 7. Shuni unutmangki, faqat o'z...ni o'ylaydigan odam el nazaridan qoladi. 8. Ishda yo'l qo'yilgan xato-kamchiliklarni kechiktirmay o'z... tuzatamiz. 9. Vaqtda bajarilmagan bu ish uchun ularning o'z... javob beradilar. 10. Dala hovliga sabzavotlarni erta bahorda o'z... ekaman. 11. Dasturxonidagi shirinliklarning barisini o'z... birgalashib pishirdik. 12. Har qanday og'ir uy vazifalarini ham o'z... yolg'iz tayyorlayman.

143-mashq. Darak gaplarni so'roq olmoshlaridan foydalanib so'roq gaplarga aylantiring.

1. Kurs rahbarimiz O'zbekistonning bugungi taraqqiyoti to'g'risida suhbat o'tkazdi. 2. Biz har kuni kechki ovqatdan so'ng ertangi ishlar haqida suhbatlashamiz. 3. Zamira har bir ishni o'z vaqtida bajarishni yaxshi ko'radi. 4. Keyingi yillarda shahrimizda ko'plab zamonaviy binolar qurildi. 5. Bulutlar orasidan charaqlab turgan quyosh ko'rindi. 6. Ekinlar payhon bo'lmasligi uchun yo'l bo'ylari va ariq chetlari chetan bilan o'raldi. 7. Muborak bobosiga salom berib hovliga kirdi. 8. To'g'ri so'z, mehnatsevar, odobli kishini hamma hurmat qiladi. 9. Irina bilan Kristina o'zbek tilidan respublika olimpiadasiga tayyorlanishyapti. 10. Ertaga yangi yilni kutish uchun biznikiga qarindoshlarimiz yig'ilishadi. 11. Men

onamga bayram dasturxonini tuzashda ko'maklashaman. 12. Buloq suvi qishda iliq, yozda muzdek sovuq bo'ladi.

144-mashq. Gaplarni tarjima qiling, ularda qo'llangan olmoshlarning turini aniqlab, izohlang.

1. Bugun ham bozorga kirib, u-bu xarid qildik. 2. Talabalar uchun yaratilgan bunday imkoniyatlardan foydalanish lozim. 3. Men o'z yurtimning gullab-yashnashi uchun bor kuchimni ayamayman. 4. U o'n yilda ham hech bir o'zgarmagan, o'shanday hazilkash, o'shanday dilkash edi. 5. Siz nimani ma'qul ko'rsangiz, biz o'shani qarorga kiritamiz. 6. Siz o'sha yili universitetga o'qishga kirgan edingizmi? 7. Akam mana shu ko'rkam binoda yetti yildan beri ishlaydi. 8. Mana bu bog'ni bobom o'z qo'llari bilan yaratgan. 9. Sen har doim ham o'z imkoniyatlaringdan to'liq foydalanmayapsan. 10. Allakim muzda toyib yiqildi. 11. Shu bir og'iz so'zga ham xafa bo'lib o'tiribsanmi? 12. Keyingi yillarda bu natijalar hech kimni qanoatlantirmay qo'ydi.

145-mashq. Quyida berilgan o'zlik olmoshli birikmalar ishtirokida gaplar tuzing.

o'zim keltirdim	o'zim kuzatib qo'ydim
o'zing borasan	o'zing kutib olasan
o'zi olib keladi	o'zi eltib beradi
o'zimiz ta'mirlaymiz	o'zimiz terib olamiz
o'zingiz yozasiz	o'zingiz tuzasiz
o'zlari o'qiydilar	o'zlari obuna bo'ladilar
o'zim aytaymi	o'zimiz tuzlaymiz
o'zing ko'rdingmi	o'zingiz ortasiz
o'zi yashaydimi	o'zlari qursin
o'zim ishlayman	o'zim ko'paytiraman

146-mashq. Quyidagi so'roq olmoshlarini tarjima qiling va ularning ba'zilari ishtirokida gaplar tuzing.

Кто? куда? чего? чей? чему? что? кому? кого? когда? кем? где? который? у кого? сколько? с чего? с кем? почему? от чего? от кого? о чем? о ком? на чем? что делать? что сделал? какой? какое место? каким образом? как? к кому? из-за кого? из чего? зачем? за что? за кого? за кем? до кого? до какого места? для чего? для кого? в чем? благодаря кому? благодаря чему? возле кого? что будет делать? со сколько часов? до сколько часов? рядом с кем? перед кем? над чем? что хотите делать?.

147-mashq. Quyidagi gaplarni tarjima qiling, ularda qo'llangan harakat nomlarini izohlang.

1. Uyalib qolishni istamagan kishi doim o'zidan ehtiyot bo'ladi. 2. Savollarga javob berayotganda qo'rqish, cho'chish, shoshish yaramaydi. 3. Do'stim o'zi to'g'risida gapirishni yomon ko'radigan odam. 4. Bayram arafasida ota-ona, aka-uka, opa-singil va boshqa yaqinlarni bayram bilan tabriklash lozim. 5. Kishi sog'lom bo'lay desa, me'yorida ishlash va dam olishni bilishi kerak. 6. Dehqon kuzda yerga qancha ishlov bersa, yozda hosil shuncha mo'l bo'ladi. 7. O'qishning qiyinchiliklariga uni orzu qilganlarning barchasi ham chidayvermaydi. 8. Rejani bajarish – shart, majburiyatni bajarish – sharaf. 9. Daryoda suv ko'payganligi tufayli pastroqdagi kechuvdan o'tishga to'g'ri keldi. 10. Tergovchi jinoyat bo'yicha so'rab-surishtirish, aniqlash, qidirish ishlarini tugatib, xulosalashga kirishdi. 11. Til o'rganish uchun doimiy ravishda yangi so'zlarni yodlab bormoq lozim. 12. Fabrikaga yangi to'quv dastgohlari sotib olish rejalashtirildi.

148-mashq. Harakat nomi ishtirok etgan quyidagi maqollarni tarjima qiling va ma'nosini izohlang.

1. O'lmoqning jazosi – ko'mmoq, Yomonning jazosi – urmoq. 2. Yelning ishi sovurmoq, o'tning ishi qovurmoq.

3. Kelmoq ixtiyor bilan, ketmoq ijozat bilan. 4. O'qish – ulg'ayish. 5. Halol yashamoq – xalqqa xizmat qilmoq. 6. Arslon bolasini tutmoq uchun, Arslon uyasiga kirmoq kerak. 7. Yomonni yaxshi qilish – dononing ishi, Yaxshini yomon qilish – nodonning ishi. 8. Ilm olish – nina bilan quduq qazish. 9. Uchishga qanot kerak, O'qishga – toqat. 10. O'qish yaxshi, uqish undan ham yaxshi. 11. Gapirganning adashmog'i, Yurganning qoqilmog'i bor. 12. Olish o'rgatmas, sotish o'rgatar. 13. Olmoqning bermog'i bor. 14. Ortiqcha maqtov – ishlashga g'ov. 15. Poda boqishiga qaraguncha, haq olishiga qara. 16. Otdan otning chopishi ortiq, Er yigitning – topishi.

149-mashq. Matnni tarjima qiling.

KIYIKO'T

Kiyiko't bir yillik yoki ko'p yillik o'simlik. O'zbekistonda 7 turi uchraydi. Kiyiko't ziravor, dorivor o'simlik sifatida ishlatiladi.

Kiyiko't xalq tabobatchiligida qadim zamonlardan beri foydalaniladi. U tomoq og'rig'i, me'da faoliyatining buzilishi, ko'ngil aynishi, yurak sanchig'i, behalovatlikda taskin beruvchi omil sifatida tavsiya etiladi. Kiyiko'tdan tayyorlangan damlama oqma maraz, zaxm, ichburug', yo'g'on ichakning yallig'lanishida iste'mol qilinadi. Giyoh tog'li aholining tatimli oshko'ki bo'lishi bilan birga, sabzavotlarni saqlashda, mahsulotlarni konservalashda, bo'za tayyorlashda ham qo'llanadi. Kiyiko'tdan tayyorlangan damlama ishtahani ochib, ovqat hazmini tezlashtirish hamda siydik haydash xususiyatiga ega. Undan tayyorlangan ichimliklar organizmni mustahkamlaydi.

Quritib olingan kiyiko't begona o'simlik qoldiqlaridan tozalanib, maydalangan holda, og'zi yaxshi yopiladigan idishlarda nam tegmaydigan, salqin joylarda saqlanadi.

150-mashq. Gaplarni tarjima qiling. Olmoshlarning turini aniqlab, ma'nosini izohlang.

1. Кто труда не боится, того и лень сторонится. 2. Не заведуй тому, кто носит богатый халат, а заведуй тому, кто знаньем богат. 3. Чьи помыслы чисты, светла голова, у тех не расходятся с делом слова. 4. Лучше жить под тем деревом, которое и плоды приносит и тень дает. 5. Когда пьешь воду, не забывай о тех, кто вырыл колодец. 6. Не тот живет большой, чей век дольше; а тот живет дольше, чьих трудов больше. 7. Когда ешь фрукты, вспоминай тех, кто посадил дерево. 8. Кто же дорогу примечает, когда с любимой по ней шагает? 9. Слава к тому приходит, кто впереди ходит. 10. Если у человека нет своих собственных знаний и мыслей, какую пользу он извлечет из книги? 11. Кто врага боится – друг врагу, кто народ любит – друг смельчаку. 12. Куда не придет хороший, принесет с собой спокойствие, куда ни придет дурной, разожжет пожар раздоров. 13. Кто гостю рад, тот и собачку его кормит. 14. Где дыра – там ветер, где лодырь – там и разговоры. 15. Где есть единство, там – жизнь, где есть согласие, там – сила. 16. Кто работает – тот есть, кто бездельничает – лиш покашливает.

OG'ZAKI NUTQNI O'STIRISH UCHUN MATERIALLAR

Uzr, kechirim so'rash	Извинение
Itimos, meni kechiring.	Извините (простите) пожалуйста.
Kelolmaganim uchun ...	Извините (простите), что...
- kechikkanim uchunя не мог придти.
- sizga qo'ng'iroq qilolmaganim uchunя опаздал.
- gapingizni bo'lganim uchun...	...я не позвонил Вам.
- sizni kutmaganim uchunя Вас перебиваю.
...kechiring.	
Uzr so'rayman, kechiring.	Прошу прощения.

Aybdorman.	Виноват.
Sizdan uzr so‘ramoqchiman.	Я хочу извиниться перед Вами
Sizdan uzr so‘ramoqchiman.	Я должен извиниться перед Вами
Jahlingiz chiqmasin.	Не сердитесь на меня.
Mendan xafa bo‘lmang.	Не обижайтесь на меня.
Men aybdor emasman.	Я не виноват.

Uzrga e‘tibor berish	Ответ на извинение
Marhamat.	Пожалуйста.
Hech qisi yo‘q.	Ничего.
Arzimaydi.	Пустяки (не стоит).

MULOQOTLARNI TARJIMA QILING

- Здравствуйте! К вам можно, доктор?
- Здравствуйте! Проходите, пожалуйста. На что жалуетесь?
- Кажется, заболел. Больно глотать, голова болит, слабость.
- Откройте рот шире. Да, горло у вас красное. Когда вы чувствовали себя плохо?
- Два дня назад. Думал, что пройдет. Но вчера вечером стало хуже.
- Измеряли температуру?
- Нет.
- Вот термометр. Сейчас эпидемия гриппа, многие болеют. Нужно соблюдать правила гигиены. Да, у вас повышенная температура. Теперь я вас послушаю. Разденьтесь, пожалуйста, до пояса. Дышите глубже. Шумов нет, дыхание чистое. Вам нужно несколько дней полежать в постели. У вас ангина. Будете принимать лекарства и полоскать горло несколько раз в день.
- Спасибо, доктор.
- Выздоровливайте. Если температура не упадет, вызовите врача на дом, а если будете чувствовать себя хорошо,

приходите в субботу, я буду принимать с девяти до тринадцати.

- До свидания. Спасибо!
- Всего хорошего! Будьте здоровы!

*** *** ***

- Азиз, ты всегда такой бодрый и подтянутый. Заведую тебе.

- А знаешь почему? Я каждый день занимаюсь утренней гимнастикой. Это и дает бодрость и хорошее настроение.

- Как долго ты делаешь зарядку?

- 10-15 минут. А потом я приступаю к водным процедурам. Если очень некогда, обтираюсь мокрым полотенцем.

- Знаешь, Азиз я тоже, пожалуй, займусь утренней гимнастикой. Ты мне сможешь составить комплекс упражнений?

- Конечно, помогу.

- Спасибо, Азиз.

*** *** ***

- Assalomu alaykum. Doktor, kirsam maylimi?

- Va alaykum assalom. Marhamat, kiring.

- Doktor, mazam yo‘q. Maslahat bersangiz.

- Nima bo‘ldi? Qayeringiz og‘riyapti?

- Tomog‘im og‘riydi, yo‘talamam, boshim aylanib, ko‘zim tinadi.

- Haroringiz ham ko‘tariladimi? Haroringizni o‘lchadingizmi?

- Ha, haroratim ko‘tariladi. Kecha o‘lchagan edim. Kechqurun 38 darajaga ko‘tarildi.

- Og‘zingizni oching, tomog‘ingizni ko‘ray. A-a-a, deng. Tomog‘ingiz qizargan, bir oz shishgan. Endi ustki kiyimlaringizni yechib, ko‘krangizni, yelkangizni oching. O‘pkangizni eshitib

ko'ray. Nafas oling, yana chuqurroq nafas oling. Yuragingiz bezovta qilmaydimi? Bo'ldi, kiyining. Ha, qattiq shamollabsiz. Terlab sovuqroq suyuqlik ham ichgan ko'rinasiz. O'pkangiz shamollagan. Hozir dori yozib beraman. Dorixonadan olasiz. Mana bu dorilarni ovqatdan oldin bittadan ichasiz. Mana bu dori bilan tomog'ingizni har kuni 3-4 marta chayasiz. Bunisini burningizga kechqurun va ertalab ikki tomchidan tomizasiz. Bir ikki kun darsga bormang. Ko'p yurmang, o'ranib yoting. Xonangizni tez-tez shamollatib, isiriq tutating. Ikki kundan so'ng yana kelasiz. Betob kunlaringiz uchun ma'lumotnoma yozib beraman.

- Doktor, dorilarni necha mahal ichish kerak?
- Dorilarni uch mahal ovqatdan oldin ichganingiz mu'qul.

Xavotir olmang, tezda tuzalib ketasiz. Faqat aytganlarimga qat'iy amal qiling.

- Xayr, doktor.
- Xayr, tezda tuzalib keting.

Topshiriq. She'rni ifodali o'qing va yod oling.

SHUNDAY YASHAR ODATDA ODAM

Yo'q, kerakmas, qo'ying, kerakmas,
Menga orom istamang, do'stlar,
Xilvat soz deb qistamang, do'stlar,
Qo'ying, bunday orom kerakmas.
Nogohonda xayolga botsam,
Yo uxlasam, uyg'oting darrov,
Nomim tutib, so'z qoting darrov.
Behudaga bir yoqqa borsam,
Qo'llarimdan ushlab o'shal dam,
Kurashlarning safiga qo'shing,
Qur, yarat deng, hayqir deng,
jo'sh deng,
Shunday yashar odatda odam.

(A.Oripov)

TOPSHIRIQLAR

1. «Salomatlik – tuman boylik» matnini tarjima qiling.
2. Matn mazmunini o'z so'zlaringiz bilan hikoya qiling.
3. Inson tanasi a'zolari nomlarini o'zbekcha aytib bering.
4. O'zlik, so'roq, ko'rsatish olmoshlari va harakat nomi mavzui bo'yicha bilganlaringizni yozma bayon eting.

14-MASHG'ULOT

MATN: Yil fasllari.

GRAMMATIKA: 1. Belgilash, bo'lishsizlik va gumon olmoshlari.

2. O'zlik va majhul nisbatlari.

YIL FASLLARI

Biz Quyosh tizimiga kiruvchi sayyoralardan biri – Yerda yashaymiz. Yer Quyoshdan taxminan 150 million kilometr masofada turib uning atrofida aylanadi. Yerning Quyosh atrofida bir marta to'liq aylanib chiqishi yil deb ataladi. Yer 365 kunda Quyosh atrofini to'liq aylanib chiqadi. Yer bir sutkada o'z o'qi atrofida to'liq aylanadi.

Yer Quyosh atrofini aylanib chiqayotganda uning nurlari sayyoramiz yuzasini turlicha yoritadi. Natijada doimiy almashinib turuvchi yil fasllari vujudga keladi.

Quyosh osmonda Yerga nisbatan tik ko'tarilganda, uning nurlari sayyoramizga to'g'ri tushib, uni qizdiradi. Shunda Yer yuzi issiq bo'ladi. Quyosh baland ko'tarilmay, uning nurlari qiyalab

tushganda, sayyoramiz yuzasi yaxshi qizimaydi, havo sovuq bo'ladi.

O'zbekiston O'rta Osiyoning markaziy qismida – Sirdaryo va Amudaryo oralig'ida joylashgan. Faqat Toshkent va Namangan viloyatlari Sirdaryoning o'ng tomonida, Xorazm va Qoraqalpog'istonning bir qismi Amudaryoning chap tomonida joylashgan. O'zbekistonning sharqiy va janubiy-sharqiy qismida Tyan-shan, Oloy, Turkiston, Zarafshon va Hisor tog'lari joylashgan. Uning g'arbiy va shimoliy-g'arbiy qismiga qarab tog'lar pasayib boradi, tekisliklar va vodiylarga ulanib ketadi. Vodiylar tugab, cho'l va qumliklar boshlanadi. O'zbekiston serquyosh o'lka. Bu yerda yilning deyarli 250-300 kunida havo ochiq, quyosh charaqlab turadi. Mana shuning uchun ham O'zbekistonda bahor erta – mart oyidan boshlanadi.

Har yili 22-martda kecha bilan kunduz tenglashadi. Shu kundan boshlab kechalar qisqarib, kunduzi esa uzaya boradi. Quyoshning tik ko'tarila borishidan tuproq qizib, o'simliklar, daraxtlar uyg'onadi. Barcha jonivorlar harakatga keladi. Dehqon, bog'bon, chorvadorlar bahorgi ishlarga kirishadilar. Qir-adirlar, dalalar ko'm-ko'k o'simliklar, rang-barang gullar bilan bezanadi. Tabiatdagi bunday o'zgarishlar aprel-may oylarigacha davom etadi. Iyun oyidan issiq yoz fasli boshlanadi. 22-iyunga kelib kunduzlari juda uzayadi, kechalari nihoyatda qisqaradi. Mevalar qiyg'os pishadi, sabzavot va poliz ekinlari yetiladi. Kechalari 20-25 daraja, kunduzlari 40-45 darajagacha isiydi. Bolalar, hatto kattalar ham ko'llar, daryolar, cho'milish havzalaridan chiqishmaydi. Yoz fasli sentabr oyigacha davom etadi.

Sentabr oyidan kuz boshlanib, daraxtlar va o'simliklarning yaproqlari sariq tusga kiradi. 22-sentabrda kecha va kunduzning kuzgi tenglashishi yuz beradi. Bu tenglashishdan so'ng kechalar uzaya boshlaydi. Kuzgi mevalar, sabzavotlar va poliz ekinlarini yig'ishga kirishiladi. Ayniqsa, bu davrda «oq oltin» yig'im-terimi avjiga chiqadi. Yetishtirilgan hosilni yig'ib-terish dekabr oyigacha davom etadi.

Dekabr qish faslining dastlabki oyidir. Endi kunlar soviydi, yomg'ir, ba'zan qor yog'adi. Turna, laylak, ko'kqarg'a, qaldirg'och, bedana, bulbul kabi qushlar issiq o'lkalarga uchib ketadi. Shudgorlangan yerlar, yaproqlarini to'kkan daraxtlar dam oladi, ba'zi hayvonlar qishki uyquga kiradi. Yanvar oyidan boshlab kunlar uzaya boshlaydi. Bolalar issiq kiyimlarga o'ranib qorbo'ron o'ynaydilar, qorbobo yasaydilar, yaxmalak otib, chanada uchadilar. Fevral oyining oxirlariga borib bahorning ilk elchisi – boychechaklar qor ostidan chiqib, gullay boshlaydi. Mana shu taxlit yil fasllari almashaveradi, biz esa yana bir yosh ulg'ayaveramiz.

FAOL SO'Z VA IBORALAR

quyosh tizimi	sayyora
taxminan	masofada
atrofida aylanadi	to'liq aylanib chiqishi
o'z o'qi atrofida	nurlari
turlicha yoritadi	tik ko'tarilganda
to'g'ri tushadi	qizdiradi
yer yuzi	qiyalab tushganda
havo sovuq bo'ladi	oralig'ida joylashgan
janubiy-sharqiy qismi	shimoliy-g'arbiy qismi
pasayib boradi	havo ochiq
quyosh charaqlab turadi	tenglashadi
kecha va kunduz	qisqaradi
uzaya boradi	tuproq qiziydi
tabiat uyg'onadi	bahorgi ishlar
bezanadi	davom etadi
pishadi, yetiladi	sarg'aya boshlaydi
kuzgi tenglashish	tayyorlana boshlaydi
yig'ishga kirishiladi	avjiga chiqadi
kunlar soviydi	qor yog'adi
qishki uyquga kiradi	qorbo'ron o'ynaydilar
qorbobo yasaydilar	yaxmalak otadilar

chana uchadilar kuch yig'adi
bahorning ilk elchisi boychechak gullaydi

MATN BO'YICHA SAVOLLAR

1. Biz qaysi sayyorada yashaymiz?
2. Yer sayyorasi Quyoshdan necha kilometr uzoqlikda aylanadi?
3. Yer Quyosh atrofini qancha vaqtda aylanib chiqadi?
4. Yerda bir yil qanday hosil bo'ladi?
5. Yerda kecha va kunduz qanday hosil bo'ladi?
6. Yer Quyosh atrofini qancha muddatda aylanib chiqadi?
7. Yerda yil fasllari qanday hosil bo'ladi?
8. Quyosh qanday holatda Yerni qizdiradi?
9. Nima uchun havo sovuq bo'ladi?
10. O'zbekiston qayerda joylashgan?
11. O'zbekistonning qaysi viloyatlari ikki daryo oralig'idan tashqarida joylashgan?
12. O'zbekistonda qanday tog'lar bor?
13. O'zbekistonda yilning qancha vaqtida quyosh charaqlab turadi?
14. O'zbekistonda bahor qachon boshlanadi?
15. Kecha va kunduzning bahorgi tenglashishi qachon yuz beradi?
16. Shundan so'ng kecha va kunduzda qanday o'zgarish bo'ladi?
17. Nima sababdan o'simliklar va daraxtlar uyg'onadi?
18. Tabiatda qanday o'zgarish yuz beradi?
19. Yoz fasli qachon boshlanadi?
20. 22-iyunga kelib kecha va kunduzda qanday farq bo'ladi?
21. Yozda havo qanday bo'ladi?
22. Sentabr oyida yoz fasli qaysi fasl bilan almashadi?
23. O'simliklar va daraxtlarda qanday o'zgarish bo'ladi?

24. Kuzda qanday meva, sabzavot va poliz ekinlari yetiladi?
25. Paxta yig'im-terimi qachon avjiga chiqadi?
26. Qachon kecha va kunduzning kuzgi tenglashishi kuzatiladi?
27. Qish fasli qachon boshlanadi?
28. Qishda ob-havo qanday bo'ladi?
29. Qishda bolalar qanday o'yinlar o'ynaydilar?
30. Qaysi oyga borib bahor nafasi sezila boshlaydi?

HADISLARNI TARJIMA QILING

Ilmning ofati – esdan chiqarmoqlik va ilmga rag'obati bo'lmagan kishilarga o'rgatib, uni zoye ketkazmoqlikdir.

Qaysi birlaringda jahlu g'azab qo'zisa, darhol sukut saqlashga o'tsin.

Hamma ishlarigizda to'g'ri bo'ling, odamlarga muomalada xulqingiz chiroyli bo'lsin!

Kasbning eng yaxshisi kishining o'z qo'li bilan bajaradigan ishi va halol savdodir.

Zotu nasablarigizni (avlod va ajdodlarigizni) yaxshi tanib olinglar, toki qarindoshlar bilan aloqa yaxshi bo'lsin. O'zi yaqin turgani bilan o'zaro muruvvati bo'lmasa, uning yaqinidan foyda yo'q. O'zi uzoq turgani bilan bir-biriga muruvvati yaxshi bo'lsa, uzoqligining zarari yo'q.

Farzandlarigizni izzat-ikrom qilish bilan birga axloq-odobini ham yaxshilangizlar.

Tangri sizlarning tashqi ko'rinishlarigiz yoki molu dunyolarigizga emas, balki dillaringizga va ishlarigizga qarab baho beradi.

Tangri aksirishlikni yoqtiradi, esnashlikni yomon ko'radi.

Mo'minning o'limidan so'ng ham (uning foydasiga) yozilib turadigan amallar: tarqatgan ilmi, qobil farzandi, meros qoldirgan Qur'oni, qurgan masjidi, mehmonxonasi, chiqargan suvi, sog'lik va hayotlik paytida qilgan sadaqasidir.

Sizlardan oldin qavmlar nima uchun halok qilinganlar? Chunki ular hurmatli odamlar o'g'rilik qilsa kechirganlar, ammo zaif va bechora hol odamni esa jazolaganlar.

Gumondan saqlaninglar! Zero, u yolg'on gapdan iboratdir. Bir-birlaringizni tekshirib josuslik qilmanglar. Mol-dunyo uchun musobaqa qilmanglar. O'rtalaringda hasad, adovat va arazlash bo'lmasin. Tangrining o'zaro birodar bandalari bo'linglar. Birov qo'ygan sovchi ustiga, to ular o'zaro bitishguncha yoki tark qilishguncha, sovchi yubormanglar.

Qaysi bir qavm boshlig'i o'z qo'l ostidagi odamlarga xiyonat qilib, ularni aldasa, u qiyomat kuni do'zaxga mahkum bo'ladi.

Xayrli va savobli ishlar insonni turli halokatlardan saqlaydi.

Vafotidan so'ng nadomat qilmaydigan odam bo'lmaydi. Yaxshi kishilar bu dunyoda xayrli ishlarni ziyodaroq qilmaganidan, yomon kishilar esa yomonlikdan qaytib tavba qilmaganidan nadomat chekadilar.

ABU RAYHON BERUNIY HIKMATLARI

Ey baxtli o'rtoq, bu olamga kelgan har bir kishining u dunyoga ko'chmog'i zaruriydir. Va lekin aql hukm qiladiki, u masalani bilmagan holda jon taslim qilmog'imdan ko'ra, bilib o'lishim yaxshiroqdir.

Odamlar o'rgangan, odatlangan va ko'pchilikka ma'qul bo'lgan narsaga ko'r-ko'rona qarshilik ko'rsatma.

Asosi bo'lmagan fandan esa voz kechsa ham bo'ladi.

Tenglik hukm surgan joyda sotqin, aldanchi ehtiroslar, g'am-g'ussa bo'lmaydi.

Bilim – qaytarish va takrorlash mevasidir.

Ehson qilgan kishining minnati ehsonini yo'qqa chiqaradi.

Yaxshi bilmagan narsasiga uringan kishi sharmanda bo'ladi.

Bilmaganligimiz sababli bilgan narsalarimizni aytmay qo'yishimiz ham yaxshi emas.

Har bir insonning qadr-qiymati o'z ishini qoyil qilib bajarishida.

Yer yumaloq bo'lmaganda odamlar yashaydigan joylar kengligi jug'rofiy mintaqalarga ajralmas edi, yozu qishda kecha bilan kunduz uzunligi o'zgarmas edi, yoritgichlarning ufqqa nisbatan vaziyatlari va sutkali yo'llari hozirgidek ko'rinishda bo'lmas edi.

Delfin – dengiz hayvoni bo'lib, damlangan teriga o'xshaydi. U odamni sevadi, kemalarni kuzatadi, g'arq bo'lganlarni o'lik-tirikligidan qat'i nazar qutqaradi.

Inson hayotidagi zarurat, ehtiyojlar ularning ilmlarga bo'lgan talablarini keltirib chiqaradi. Shu ehtiyojlarga ko'ra ilmlar har xil tarmoqlarga bo'lindi. Ilmlarning foydasi ochko'zlik bilan oltin-kumush to'plash uchun bo'lmay, balki u orqali inson uchun zarur narsalarga ega bo'lishdir.

BILASIZMI...

Odam tanasida 80 grammga yaqin temir, 150 gramm natriy, 1.000 gramm kalsiy, 60 gramm magniy, 65 foiz, ya'ni umumiy og'irlikning 45 kg.miqdorida kislorod, 10 foiz – 7 kg.miqdorda vodorod, 0,02 aoiz ftor bo'ladi.

Inson o'rtacha 70 yil umr ko'rsa, shundan 23 yilini uxlash, 13 yilini kishilar bilan so'zlashish va 6 yilini ovqatlanish uchun sarf qilar ekan.

Bir kishi o'rtacha iqlim sharoitida yil davomida bir tonnage yaqin suv iste'mol qiladi.

MUCHAL NIMA?

Muchal mo'g'il, xitoy va turkiy xalqlarda keng tarqalgan yil hisobi bo'lib, bunda yil oylari 12 hayvon nomi bilan ataladi.

Har yili 22-martdan yangi muchal yili boshlanadi. Muchal yilida odamning yoshi ona qornida paydo bo'lgan kundan hisoblanganligi tufayli, hisobda tug'ilgan yilga 9 raqami qo'shiladi va yig'indi 12 ga bo'linadi. Qoldiq son muchal yilning soni bo'ladi.

Masalan, kishi 1957-yilda tugʻilgan deylik: $1957+9+1966:12=163$, qoldiq 10. Demak, 1957-yil 21-martdan soʻng tugʻilgan kishi roʻyxat boʻyicha oʻninchi hayvon nomi bilan yuritiladigan tovuq yilida tavallud topgan.

№ Muchal	Muchalga mos yillar							
1. Sichqon	1936	1948	1960	1972	1984	1996	2008	
2. Mol	1937	1949	1961	1973	1985	1997	2009	
3. Yoʻlbars	1938	1950	1962	1974	1986	1998	2010	
4. Quyon	1939	1951	1963	1975	1987	1999	2011	
5. Baliq	1940	1952	1964	1976	1988	2000	2012	
6. Ilon	1941	1953	1965	1977	1989	2001	2013	
7. Ot	1942	1954	1966	1978	1990	2002	2014	
8. Qoʻy	1943	1955	1967	1979	1991	2003	2015	
9. Maymun	1944	1956	1968	1980	1992	2004	2016	
10. Tovuuq	1945	1957	1969	1981	1993	2005	2017	
11. It	1946	1958	1970	1982	1994	2006	2018	
12. Toʻngʻiz	1947	1959	1971	1983	1995	2007	2019	

NAZARIY BILIMLARNI MUSTAHKAMLASH UCHUN MASHQLAR

151-mashq. Gaplarni tarjima qiling, belgilash olmoshlarini aniqlab, izohlang.

1. Har bir narsaning ham oʻz oʻrni va meyoʻri bor.
2. Direktorimiz har kimga ham bunday masʼuliyatli topshiriqni beravermaydi.
3. Har qanday yolgʻonchilik jamiyatga ham, shaxslarga ham katta zarar keltiradi.
4. Ozod har narsaga qiziquvchan, qobiliyatli, zehni oʻtkir talaba.
5. Tergovchining har bir narsadan, har bir kishidan shubhalanishga haqqi bor.
6. Bahor kelishi bilan barcha bogʻlar, qir-adirlar, dalalar koʻm-koʻk maysalar, rang-barang gullarga burkanadi.
7. Navroʻz kuni har birimiz koʻchamizga bir juftdan oʻrik koʻchati ekdik.
8. Hojiboy

har nimani bahona qilib dars tayyorlamay kelar edi.
9. Hamma oʻz joyiga oʻtirib olgandan soʻng oʻqituvchi darsni boshladi.
10. Sodiq har qanday ogʻir masala yoki misollarni bir zumda osongina yechib tashlar edi.
11. Har qaysi guruh oʻziga belgilangan joyda shanbalik oʻtkazdi.
12. Har kim ekkani oʻradi.

152-mashq. Quyidagi belgilash olmoshlarini tarjima qiling, ular ishtirokida bir necha gap tuzing.

Hamma, har kim, har nima, barcha, har qanday, har qancha, bari, har qanaqa, nimaga, har kimda, har nimada, har narsadan, har kimdan, har nimadan, har kimni, har narsani, har nimani, har kimning, har nimaning, hammadan, hammaga, hammada, hammaning.

153-mashq. Quyidagi boʻlishsizlik olmoshlarini tarjima qiling, ular ishtirokida gaplar tuzing.

Hech kim, hech nima, hech qaysi, hech qachon, hech qanday, hech kimga, hech nimaga, hech bir, hech narsa, hech kimda, hech nimada, hech kimdan, hech nimadan, hech kimning, hech nimaning, hech narsadan, hech narsaga, hech qayer, hech qancha, hech qayerga, hech qayerda, hech qayerdan, hech qayerning, hech kimni, hech nimani, hech qayerni, hech narsani, hech qaysini.

154-mashq. Gaplarni tarjima qiling, boʻlishsizlik olmoshlarini topib, ularning qaysi kelishikda ekanligini aniqlang.

1. U umri davomida hech kimni xafa qilmagan, hech kimni sensiramagan edi.
2. Bugun oʻzbek tili darsiga talabalardan hech kim kechikib kelmadi.
3. Oʻqituvchimiz bugun hech kimdan uy vazifasini soʻramadi, mashqlarni ham tekshirmadi.
4. Salima hech kimga bildirmasdan davradan sekingina chiqib ketdi.
5. Saodat hech kimning xayoliga kelmagan narsalarni oʻylab topar edi.
6. Bu vazifani uddalay olishingga hech kimda shubha yoʻq.
7. Chet elda hech kimingiz yoʻqmi?
8. Bu pulga bozordan hech nima sotib

ololmaysan. 9. Bizning shahrimizdagidek tarixiy yodgorliklar dunyoning hech qayerida yo'q. 10. Quyuq tuman bo'lgani uchun oldinda hech narsa ko'rinmas edi. 11. U yoshligiga qaramasdan hech narsadan qo'rqmaydi. 12. Uning fikrlari to'g'ri bo'lganligi tufayli hech qaysimiz e'tiroz bildirmadik.

155-mashq. Quyida berilgan gumon olmoshlarini tarjima qiling, ular ishtirokida gaplar tuzing.

Kimdir, allanima, allaqanday, qaysidir, allaqayerga, qachondir, allaqachon, kimgadir, allanimaga, allanechuk, allaqayoqda, allanechani, qayerdandir, nimagadir, kimdandir, nimadandir, qayerdadir, qayoqdandir, qayoqqadir, allakimni, nimanidir, allakimning, allanimaning, kimingizdir, allanimangiz, nimasidir, allakimi.

156-mashq. Gaplarni tarjima qiling, gumon olmoshlarini topib, ularning ma'nosini izohlang.

1. Kimdir eshikni taqillatib, uy egasini chaqirdi. 2. Allakim o'tirgan joyidan notiqqa savol berdi. 3. Nigora allanimadan juda xursand bo'lib chiqib ketdi. 4. Stol ustida turgan allanima polga tushib sindi. 5. U har kuni tong otguncha allanimalarni yozadi, chizadi, ko'chiradi. 6. Malika kimgadir qo'ng'iroq qilib, uni yangi yil bayrami bilan tabrikladi. 7. Afrikada o'n metr keladigan ulkan ilonlar bo'lishini kimdandir eshitgan edim. 8. Kimdir o'qigani kitob topolmaydi, kimdadir ular bekor yotibdi. 9. O'quv zalida kimningdir daftari esidan chiqib qolibdi. 10. Ertalab bir qiz allakimni qidirib keldi. 11. Bekzod allaqayoqdan kelayotgan tovushlarni eshitib, artofni kuzatdi. 12. Sherzod institutni bitirib, allaqaysi korxonada muhandislik qilayotgan emish. 13. Shu payt ko'l tomondan allaqanday kishining qorasi ko'rindi. 14. Daraxt shoxlari orasidan qandaydir qushning sayrashiga o'xshash ovoz eshitildi.

157-mashq. She'rni ifodali o'qing. Unda qo'llangan olmoshlarni topib, turini aniqlang va she'rning mazmunini o'z so'zlaringiz bilan bayon eting.

V A Q T

Shundoq yonimizdan o'tib ketdi u!
O'tib ketdi, sira qaytib kelmaydi.
Bu yo'l faqat oldga – orqaga yo'l yo'q,
Bizdan bo'sh ketgan Vaqt – u yerda daydi.
Shundoq yonimizdan o'tib ketdi u,
Ko'rmay qoldik uni yo ko'z yumdik jim.
U bir yaqin do'stdek, biz qo'l bermagach,
Bosh egib yo'liga jo'nadi sekin.
U do'stimiz edi – biz chap bergan Vaqt!
Undan yuz o'girdik, yuz o'girdik biz.
Ming afsus yesang ham, u qaytmas endi,
Ranjitgan bu do'sting kelmas yuzma-yuz.
(Omon Matjon)

158-mashq. Gaplarni tarjima qiling. Fe'llarning qaysi nisbatdaligini aniqlang.

1. Atrof ko'm-ko'k libos kiyib, chuchmoma, nargis, lolayu qizg'aldoqlar ochildi. 2. Nargiza bugun ham to'yga boradigandek chiroyli kiyinib, yasanib chiqib ketdi. 3. Ilg'or brigada dalasiga yana ikkita paxta terish mashinasi tushirildi. 4. Mehmonxona yaxshi jihozlangan, xona o'rtasiga stol qo'yilgan, atrofiga stullar terilgan edi. 5. Qattiq shamol tufayli uzilgan elektr simlari ikki kundan so'ng ulandi. 6. Mahallalarda ichkilikbozlik, giyohvandlik va qonunbuzarlikka doir turli mavzularda tashviqot ishlari olib borilmoqda. 7. Vazira soy bo'yidagi toshlarga qoqilib, surinib uning orqasidan ergashdi. 8. Billur qandilning chiroyli shokilalari nurda ajoyib tovlanardi. 9. Mashina notekis yo'lda qattiq chayqalib, o'ngga burildi. 10. U muzdek buloq suvida maza qilib yuvindi va shiyponga chiqib artindi. 11. Rais yo'l qo'ygan kamchiliklar

aniqlandi, faktlar tasdiqlandi va u lavozimidan olindi. 12. Bu yil hosil erta yig'ib olindi va dalalar o'z vaqtida sifatli shudgor qilindi. 13. Universitet talabalariga zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanislari uchun barcha sharoitlar yaratilgan. 14. Voleybol bo'yicha terma jamoamiz a'zolari bu gal ham g'alaba bilan qaytishdi.

159-mashq. Quyidagi fe'llardan -l, -il, -n, -in qo'shimchalari yordamida o'zlik, majhul nisbatlari hosil qiling, ma'nosini izohlang va ular ishtirokida gaplar tuzing.

bajarmoq	bo'yamoq
bormoq	dam olmoq
boshlamoq	yozmoq
yopmoq	bog'lamoq
bo'lmoq	yordam bermoq
yoqmoq	ilmoq
maqtamoq	taramoq
o'ramoq	o'qimoq
suyamoq	to'plamoq
egmoq	yashirmoq

160-mashq. Qavs ichidagi fe'llarga tegishli nisbat qo'shimchasini qo'shing, gaplarni ko'chirib yozing va tarjima qiling.

1. «Universitet bahori» ko'rik-tanlovi g'oliblari qimmatbaho sovg'alar bilan (mukofotlamoq). 2. Soyada yotgan it qattiq hurib, darvoza tomonga (tashlamoq). 3. Jamoa xo'jaligidagi barcha ekish, ishlov berish, jo'yak olish va terim mashinalari sifatli ta'mirdan (chiqarmoq). 4. U ishdagi ko'ngilsizliklarni bironvga aytolmay uzoq vaqt (qiynamoq). 5. Yangi mehmonxona qurilishi uchun har xil qurilish materiallari (keltirmoq). 6. Hulkar bu xushxabar bilan ota-onasini xursand qilish uchun (shoshmoq). 7. Keyingi yillarda shahrimizda ko'plab yangi binolar (qurmoq). 8. Tushga yaqin atrofni sutdek o'rab olgan quyuq tuman (tarqamoq). 9. Binoning oldi tomoni (oqlamoq), yon tomoni esa

qizil rangga (bo'yamoq). 10. Uning qop-qora sochlari shamolda to'zg'ib, butun yelkasiga (yoymoq). 11. Yangi mavzu talabalarga qayta-qayta (tushunmoq), notanish so'zlar (yozmoq). 12. Men do'stimni kutdirib qo'ymaslik uchun tezgina (kiymoq). 13. Mavzuga doir mashqlar talabalar tomonidan (bajarmoq).

161-mashq. Matnni tarjima qiling.

ВРЕМЕНА ГОДА

В течение года зима сменяется весной, после весны наступает лето, а за тем следует осень. Мы настолько привыкаем к этой смена времен года, что и не замечаем пролетевших лет.

Зимой бывает холодно. Солнце даже в полдень стоит низко над горизонтом. Дни очень короткие. К весне солнце поднимается выше. Снег начинает таять. Дни становятся длиннее. Приходит теплое лето. Солнце летом восходит рано, в полдень стоит высоко над горизонтом, а заходит поздно. Летняя ночь коротка. Только, кажется, ты заснул, уже и ставать надо. Летние дни летит быстро. Ты и не заметишь, как подойдет осень. К осени уменьшается высота солнце над горизонтом. Дни становятся короче, а ночь длиннее. Температура падает.

Смена времен года объясняется тем, что Земля вращается вокруг Солнца. Время полного оборота вокруг Солнце называется годом.

Времена года различаются не везде. В областях вокруг Северного и Южного полюсов круглый год холодно: там солнечные лучи как бы скользят по поверхности земли и греют слабо. А по обе стороны экватора, в тропиках, во все времена года жарко. Солнце там постоянно стоит высоко, это область на земле получает больше всего солнечного тепла.

62-1mashq. Matnni o'qing, mazmunini og'zaki hikoya qiling.

HUSHYOR BOLA

Jo'raning ota-onasi dalaga ketdi. Jo'ra uyda qoldi. U dars qilgani o'tirdi. Birdan qo'shni xotinlarning g'ala-g'ovurini eshitib qoldi. Gap notanish kishining chegara tomonga o'tib ketgani haqida borardi.

Jo'ra jamoa xo'jaligi otxonasiga yuugurdi. Otlardan birini minib, chegara tomon haydadi. U notanish kishini qishloq chekkasida uchratdi. Lekin notanish kishi otni cho'chitib qochib qoldi. Jo'ra otni qishloqqa burdi. Qishloqdan chegarachilarga telefon qildi. Voqeani tushuntirdi. Chegarachilar notanish kishini qo'lga tushirdilar. Ular namunali xizmatlari uchun mukofotlandilar. Mukofotlanganlar orasida o'n bir yoshli Jo'ra ham bor edi. Chegarachilar Jo'raga durbin sovg'a qilishdi. Jo'ra chegarachi bo'lishga ahd qildi.

OG'ZAKI NUTQNI O'STIRISH BO'YICHA MATERIALLAR

Afsuslanish. Achinish.	Сожаление. Сочувствие.
Afsus, attang	Мне очень жаль
Afsuski, ...	Как жаль, что ...
- men hozir bandman.	Я сейчас занят.
- yonimda pulim yo'q.	у меня не с собой денег.
- biz uzoq vaqt uchrasha olmaymiz.	мы долго не встретимся.
Bugun havo yomon.	Сегодня плохая погода.
Afsuski, ...	К сожалению, ...
- men qila olmadim.	- я не мог.
- men unutibman.	- я забыл.
- men eslay olmaيمان.	- я не помню.

- men bilmayman.	- я не знаю.
- men tushuna olmadim.	- я не понял.
- men eshita olmadim.	- я не расслышал.
- men eshitmadim.	- я не слышал.
- men ko'rmadim.	- я не видел.
Juda achinaman, ammo...	Весьма сожалею, но...
Juda xafaman.	Я очень огорчен.
Bularning hammasi juda...	Всё это очень...
- qayg'uli.	грустно.
- yoqimsiz, noxush.	неприятно.
- achinarli.	Обидно, досадно.
Qanday noxushlik, ko'ngilsizlik!	Какая неприятность!
Attang!	Какая досада!
Qanday baxtsizlik!	Какая несчастье!
Na chora!	Ничего не поделаешь!
Hayajonlanmang, iltimos.	Не волнуйтесь, пожалуйста.
Tinchlaning, iltimos.	Успокойтесь, пожалуйста.
Hammasi joyida bo'ladi.	Всё будет в порядке.
Hammasi yaxshi bo'ladi.	Всё будет хорошо.
Sizga juda achinaman.	Я Вам глубоко сочувствую.
Sizga hamdardlik bildiraman.	Примите моё соболезнование.

o

MULOQOTLARNI TARJIMA QILING

- Здравствуй, Саодат!
- Здравствуй, Барно! Наконец-то наступила зима!
- А мне не нравится это время года. Я больше люблю лето, яркое солнце, когда созревают фрукты и овощи и по утрам поют птицы. А тебе больше нравится зима?
- Да. Зимой меньше пыли, воздух чистый, прозрачный, свежий.
- А зимой хорошо кататься на коньках, лыжах, санках, лепить снежную бабу.

- Значит, Саодат, у нас с тобой разные вкусы.
- Да, а о вкусах, говорят, не спорят.

*** *** ***

- Hozir qaysi fasl?
- Hozir o'lkamizda bahor fasli.
- Bahor faslida ob-havo qanday bo'ladi?
- Bahor faslida havo juda o'zgaruvchan bo'ladi. Momaqaldir oq gumburlab, yashin chaqnaydi. Tez-tez yomg'ir yog'adi. Daraxtlar gullaydi, barg chiqaradi, har xil o'tlar ko'karadi. Kunlar isiy boshlaydi. Janubiy yurtlarda qishlagan qushlar uchib kela boshlaydi.
- Bahordan so'ng qaysi fasl keladi?
- Bahordan so'ng yoz fasli keladi.
- Bahor fasli qaysi oylardan iborat bo'ladi?
- Bahor fasli mart, aprel va may oylaridan iboratdir.
- Bahor faslida qanday bayramlar nishonlanadi?
- Bahor bayramlarga boy fasl. 8-martda xalqaro xotin-qizlar bayrami nishonlanadi. Biz bu bayram bilan mehribon buvijonlarimizni, onajonlarimizni, aziz opa-singillarimizni samimiy tabriklaymiz. 21-martda Navro'z bayrami bo'ladi. Sharqda bu kun Yangi yilning boshlanishi sifatida nishonlanadi. Bu bayramga butun mamlakat miqyosida tayyorgarlik ko'riladi. Birinchi aprel hazil-mutoyiba, kulgi va yumor kuni bo'lsa, 9-may xotirlash va qadrlash kuni sifatida nishonlanadi.
- Siz bayram kunlari qayerda bo'lasiz?
- Men bayram kunlari uyda bo'laman Ota-onam bilan mehmonlarni kutamiz. Ba'zan o'zim ham do'stlarimni, qarindoshlarimizni bayram bilan tabriklash uchun ularnikiga boraman.
- Bayram kunlari qanday taomlar pishiriladi?
- Bahorgi bayramlarda ko'k somsa, ko'kat chuchvara, qatlama, halim, palov, sumalak pishirish odat hisoblanadi. Biz

mehmonlar bilan to'kin dasturxon atrofida suhbat qilishni yaxshi ko'ramiz.

*** *** ***

- Зухра, какие факторы влияют на климат того или иного региона?
- Климат зависит от географического расположения территории, от циркуляции воздушных масс, от рельефа местности. Например, Узбекистан с севера и востока открыт для вторжения воздушных течений, поэтому зимой холодный воздух с севера проникает почти до самой южной границы республики.
- А за счёт чего летом у нас так жарко?
- За счёт интенсивности солнечной радиации. Летом солнце хорошо прогревает землю, особенно на равнинной части, формируя туранский тропический воздух. Этот воздух очень сухой, горячий, насыщен мелкой пылью.
- Как называется такой климат, как у нас?
- Континентальный.
- А где можно подробнее прочитать о климате Узбекистана?
- В учебнике географии, в энциклопедии.
- Спасибо тебе, Зухра.

LATIFALARNI TARJIMA QILING

Когда афанди учился в медресе, преподаватель спросил его на экзамене:

- Что выберете – два маленьких вопросов или один большой?
- Один большой! – ответил афанди.
- Ага! Ну, тогда ответьте: откуда взялся человек?
- Мать родила!
- Ну, а самая первая мать – откуда взялась?

- Э, домла, так не пойдет, сказал афанди, - это уже второй вопрос!

*** *** ***

- Что нам важный, спросил у афанди, солнце или луна?

Долго думал, потом говорит:

- Луна важней.

- Почему?

- Да солнце светит днем, когда и так свпетло! А луна темной ночью...

- *** **** ***

- Какая разница между лекарем и мясником? – спросили афанди.

- Известно какая: мясник сначала убьет, а потом сдирает шкуру. А лекарь сперва сдерает шкуру – а уж потом убивает.

TOPSHIRIQ. Matnni ifodali o‘qing, mazmunini o‘z so‘zlaringiz bilan gapirib bering.

BAXILTOG‘

Nurota go‘zal tog‘lar saltanatida joylashgan. Bir yonda Oqtog‘, bir yonida Qoratog‘, bir yonda ularni to‘sib turgan Baxiltog‘. Nega Baxltog‘, dersiz? Oq tog‘ning balandligi ikki ming metrdan oshiq. Atrofidagi tog‘lardan baland bo‘lib, qirlar orasida qor malikasidek qad rostlab turadi. Balandligi uchunmi, unda qor tez erib ketmaydi. Issiq boshlanib, jilg‘alar oqqanda ham go‘zallik turaveradi. Uning irmoqlari, buloqlari yilning to‘rt faslida ham sizib yotadi. Nurotaning azaldan aholi yashagan joyigacha esa buloqlar yetib kelolmaydi. Negaki, o‘rtada uni pastakkina Baxiltog‘ to‘sib qolgan.

BUNI ESDA TUTING: -dir qo‘shimchali gumon olmoshlariga egalik va kelishik qo‘shimchalari shu qo‘shimchadan oldin qo‘shiladi: kimimdir, kimingizdir, kimgadir, kimdandir kabi.

TOPSHIRIQLAR

1. «Yil fasllari» matnini tarjima qiling.
2. Matn mazmunini og‘zaki hikoya qiling.
3. O‘zingizga yoqqan faslga tavsif bering.
4. Belgilash, bo‘lishsizlik, gumon olmoshlari, o‘zlik va majhul nisbatlar mavzusiga doir bilgan nazariy bilimlaringizni yozma bayon eting.

15 - MASHG‘ULOT

MATN: Milliy va zamonaviy bayramlar.

GRAMMATIKA: 1. Birgalik va orttirma nisbatlar.

2. Gap bo‘laklari.

MILLIY VA ZAMONAVIY BAYRAMLAR

Bayram – muhim tarixiy voqea, hodisa sharafiga shodlik, rasmiy tantana o‘tkazish uchun belgilangan muborak kun. Bunday muborak kunlar xalq tomonidan quvonch, shodlik, tantana, o‘yinkulgi bilan kutib olingan, tantanavor nishonlangan.

Har bir xalqning asrlar davomida shakllangan, ardoqlab-e‘zozlaydigan o‘ziga xos bayramlari, tantanalari, an‘analari bo‘ladi. Bayramlar qadimgi davrlardan boshlab xalq hayotining eng muhim va tarkibiy qismiga aylanib ketgan.

Bayramlarda xalqning qadimiy udumlari, an‘analari, tarixi, madaniyati o‘zining yorqin ifodasini topadi. Bayramlarda kishilarning diniy, ijtimoiy, madaniy, ma‘naviy yutuqlari namoyish etiladi. Bayram arafasida, bayram kunlari kishilar bir-birlarini tabriklaydilar, bir-birlariga yaxshi niyatlar izhor etib, muvaffaqiyatlar tilaydilar.

O‘zbek xalqi eng qadimgi davrlardan chorvachilik va dehqonchilik bilan shug‘ullanib kelgan. Shuning uchun ham xalq orasida Navro‘z, gul sayli, ekin ekishga kirishish, qovun sayli, uzum sayli, hosil bayrami kabilar keng tus olgan. Keyinchalik

islom dini bilan bog'liq Ramazon va Qurbon hayitlari ham keng nishonlanadigan bo'lgan.

Bugungi mustaqil O'zbekistonda bayramlar dam olish kuni deb e'lon qilingan. Quyidagi sanalar qonuniy bayram kunlari hisoblanadi: 1-yanvar – Yangi yil, 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni, 21-mart – Navro'z, 9-may – Xotira va qadrlash kuni, 1-sentabr – Mustaqillik kuni, 1-oktabr – O'qituvchi va murabbiylar kuni, 8-dekabr – Konstitutsiya kuni, Ramazon va Qurbon hayitlari hijriy hisobga ko'ra har yili o'n kun farq bilan nishonlanadi. Bularidan tashqari, mamlakatimizda 14-yanvar – respublika qurolli kuchlari kuni, 1-aprel – hazil-mutoyiba, kulgi va shodlik kuni, 1 iyun – bolalarni himoya qilish kuni, 21-oktabr – o'zbek tiliga davlat tili huquqi berilgan tarixiy sana sifatida nishonlanib kelinadi.

Bayramlar ichida Navro'z va Yangi yilni bolalar ham, kattalar ham intizorlik bilan kutadilar. Bu bayramlarga imkon qadar jiddiy tayyorgarlik ko'rishadi.

Sharq xalqlari qadimdan Navro'zni Yangi yilning birinchi kuni sifatida keng nishonlab kelishgan. Navro'zda kecha bilan kunduz tenglashib, hayvonlar nomi bilan ataluvchi yil – muchal almashadi. Buyuk bobolarimiz Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Qoshg'ariy, Nosiriddin Rabg'uziy, Lutfiy, Alisher Navoiy va boshqalar Navro'zni bahor, uyg'onish, yoshlik, go'zallik bayrami sifatida tasvirlaganlar.

Navro'z bayramida uylar, hovli-joylar, choyxonalar, sayilgohlar, bozorlar, qabristonlar tozalangan. Daraxt va gul ko'chatlari ekilgan. Marhumlarning qabrlari ziyorat qilingan. Kishilar ota-onalari, qarindoshlari, do'stlari bilan diydorlashganlar. Bu kun xonadonlarda sumalak, yalpiz somsa, ko'k chuchvara, halim, go'ja, palov, g'ilmindiki kabi taniqli taomlar, turli shirinliklar pishirilgan. Qadimda ham Navro'zda kishilar bir-birlariga tortiqlar ulashganlar, urushlar to'xtagan, mahbuslar ozod etilgan, katta xalq sayillari uyushtirilib, uloq, poyga, kurash musobaqalari o'tkazilgan.

Navro'zdan keyin dehqonchilik, bog'dorchilik, chorvachilik ishlari jonlangan. Bu bayram barchani mehnat va ijodga chorlovchi baynalmilal bayramlardan biridir.

Rim imperatori Yuliy Sezar kalendari bo'yicha Yangi yilni nishonlash bizda bir asrdan ko'proq tarixga ega. Aslida bu bayram miloddan oldingi 46-yildan beri nishonlanib kelinadi. Uzoq vaqtlardan beri davom etib kelayotgan an'analarga muvofiq yangi yilni kutib olish uchun archa va u o'rnatilgan bino bezatiladi, rang-barang elektr chiroqchalari bilan o'raladi. Dasturxon yozilib, turli taomlar, shirinliklar bilan to'ldiriladi. Tantanaga qorbobo bilan qorqiz taklif etiladi. Bayram marosimi tungi soat 24 dan so'ng – yangi yil kirgach, yana davom ettiriladi.

Bayramlar kishilar o'rtasida mehr-muhabbat, bir-biriga g'amxo'rlik, o'zaro hurmat-e'tiborni kuchaytirishda muhim ahamiyatga egadir.

FAOL SO'Z VA IBORALAR

shakllangan	ardoqlab-e'zozlaydigan
tantanalari	tarkibiy qism
tarixiy voqea	sharafiga
muborak kun	kutib olingan
tantanavor nishonlangan	yorqin ifodasini topadi
yutuqlar namoyish etiladi	bayram arafasida
izhor etmoq	muvaffaqiyat tilamoq
gul sayli	ekin ekishga kirishish
qovun sayli	uzum sayli
hosil bayrami	xalqaro xotin-qizlar kuni
hijriy hisobga ko'ra	tarixiy sana
intizorlik bilan kutadi	tayyorgarlik ko'riladi
tasvirlaganlar	tozalangan
qabrlar ziyorat qilingan	diydorlashganlar
tortiqlar ulashganlar	musobaqalar o'tkazilgan
ishlar jonlangan	mehnat, ijodga chorlovchi
baynalmilal bayram	miloddan oldingi 46-yil

kutib olish uchun
dasturxon yoziladi

archa va binolar bezatiladi
muhim ahamiyatga ega

MATN BO'YICHA SAVOLLAR

1. Bayram nima?
2. Bayramlar qanday kutib olinadi va nishonlanadi?
3. Bayramlarda xalq hayotining qaysi jihatlari o'z ifodasini topadi?
4. Bayram arafasi va bayram kunlari kishilar nima qilishadi?
5. O'zbek xalqi qadimdan qaysi sohalar bilan ko'proq shug'ullangan?
6. Xalqimiz qanday mehnat bayramlarini nishonlab kelgan?
7. Islom dini bilan bog'liq bayramlar ham mavjudmi?
8. Respublikamizda bayramlar qanday kun deb e'lon qilingan?
9. Hozir O'zbekistonda qanday rasmiy bayramlar nishonlanadi?
10. Bulardan tashqari, yana qanday bayram va tarixiy sanalarni bilasiz?
11. Navro'z va Yangi yil bayramlarini qanday kutamiz?
12. Navro'z Sharqda qanday kun hisoblangan?
13. Muchal qachon almashadi?
14. Kimlar Navro'z haqida asarlar yozib qoldirgan?
15. Navro'z arafasida qanday ishlar amalga oshirilgan?
16. Navro'z kuni qanday tadbirlar o'tkazilgan?
17. Navro'z bayramida qanday taomlar pishirilgan?
18. Qadimda Navro'z qanday nishonlangan?
19. Navro'zdan so'ng qanday ishlar boshlangan?
20. Navro'z qanday bayram?
21. Yuliy Sezar kalendari bo'yicha Yangi yil qachondan beri nishonlanadi?

22. O'zbekistonda Yangi yil qachondan beri nishonlanib kelinadi?
23. Yangi yilni kutib olish uchun qanday tadbirlar amalga oshiriladi?
24. Dasturxon qanday bezatiladi?
25. Yangi yil kechasiga kimlar taklif etiladi?
26. Bayramlar qanday ahamiyatga ega?
27. Oilangizning sevimli bayrami qaysi va uni qanday nishonlaysiz?

HADISLARNI TARJIMA QILING

Rostgo'ylikda xavfu xatar ko'rsanglar ham rost so'zlanglar. Shunda najot topasizlar. Garchi foyda ko'rib turgan bo'lsangiz ham yolg'ondan saqlaninglar. Chunki bari bir yolg'onning oxiri voy.

Qachonki xayolingizdan biror shubhali fikr o'tsa, uni tark eting!

Beshta narsadan oldin beshta narsani g'animat biling: o'limdan oldin tiriklikni, betoblikdan oldin salomatlikni, bandlikdan oldin bo'sh vaqtni, keksalikdan oldin yoshlikni, faqirlikdan oldin boylikni g'animat biling.

Bu dunyoda bema'ni gaplarni ko'p gapiradigan odamning gunohi qiyomat kuni ko'p bo'lur.

Tangri birodarlariga qovog'ini solib qaraydigan kishilarni yoqtirmaydi.

Baxtsizlik uch narsadadir: otda, xotinda va hovlida.

Odamlar orasida chaqimchilik va bo'hton gaplarni tarqatishdan saqlaninglar.

Kimki otasining vafotidan keyin ham unga yaxshilik qilishni istasa, uning yoru birodarlari bilan aloqani uzmasin.

Kimki birovning biror aybini topib ustidan kulgan bo'lsa, o'zi ham shu aybga muhtalo bo'lmaguncha dunyodan o'tmaydi.

Birovning tashqi ko‘rinishiga yoki qilayotgan yaxshi ishiga qarab uni maqtashga shoshilmanglar, balki uning oxirgi holiga nazar solinglar!

Mehmondo‘st bo‘lmagan odamdan yaxshilik kutilmaydi.

Vasiyat qilamanki, maxfiy ham va oshkora holda ham xudodan qo‘rq, agar yomon ish qilib qo‘ysang, uni yuvish uchun yaxshi, savobli ish ham qilib qo‘y. Birovdan hech narsa so‘rama, omonat tutma. Ikki kishining o‘rtasida hukm chiqarma.

YIL FASLLARI BILAN BOG‘LIQ MAQOLLARNI TARJIMA QILING VA YODDA SAQLANG

Bahorgi harakat – kuzgi barakat.

Bahorning kuni qishni boqar.

Yozda jarohat ko‘rsang,

Qishda rohat ko‘rasan.

Yozning yuvindisi – qishga osh-qatiq.

Yilning yaxshi kelishi bahoridan ma‘lum.

Kuzning bir kuni qishning bir oyini boqar.

Kun g‘amini sahar ye,

Yil g‘amini bahor ye.

Navro‘zdan so‘ng qish bo‘lmas,

Mezondan so‘ng yoz bo‘lmas.

Chilla suvi – tilla suvi.

Qishning bir kuni qolsa qo‘rq.

Qishning qori – yozga dori.

G‘oz kelgani – yoz kelgani.

Hut kirdi – yer ostiga dud kirdi.

NAZARIY BILIMLARNI MUSTAHKAMLASH UCHUN MASHQLAR

163-mashq. Gaplarni tarjima qiling, birgalik nisbatdagi fe’llarni izohlang.

1. Dugonalar barvaqt turib Manzura ayaning sigirini sog‘ib berishdi. 2. Bolalar hovlining o‘rtasiga katta qorbobo yasashdi.

3. Havaskorlar to‘garagi anjuman qatnashchilariga yangi tomoshalar ko‘rsatishdi. 4. Xalqaro anjuman ishtirokchilari bugun vatanlariga qaytib ketishadi. 5. Klubimiz a‘zolari dunyoning ellikka yaqin mamlakatlari yoshlari bilan xat yozishadi. 6. Quruvchilar bu muhtasham binoni ikki yilda qurishdi. 7. Guruhimiz talabalari fakultet devoriy gazetasiga turli mavzularda maqolalar yozib turishadi. 8. So‘zga chiqqanlar ish jarayonidagi kamchiliklarni ham aytib o‘tishdi. 9. Ular darsdan so‘ng Afrosiyob muzeyi tomon yo‘l olishdi. 10. Opa-singil Qosimovalar biz bilan bir fakultetda o‘qishadi. 11. Talabalar o‘zbek tilidan o‘tkaziladigan fakultetlararo olimpiadaga tayyorlanishyapti. 12. Barnoning amakilari Samarqand shahrida yashashadi.

164-mashq. Quyidagi fe’llardan birgalik nisbati hosil qiling va ular ishtirokida gaplar tuzing.

artmoq	bo‘yamoq	bajarmoq
bermoq	dam olmoq	boshlamoq
bog‘lamoq	bo‘lmoq	jo‘namoq
tuzmoq	ichmoq	turmoq
ishlamoq	to‘lamoq	uchramoq
kirmoq	xalaqit bermoq	fosh etmoq
kutmoq	ko‘zdan kechirmoq	chaqirmoq
ko‘rmoq	ko‘rsatmoq	shoshmoq
maqtamoq	shug‘ullanmoq	olib kelmoq
olib chiqmoq	yaxshi ko‘rmoq	ekmoq

165-mashq. Quyida berilgan birgalik nisbatli so‘z birikmalari ishtirokida gaplar tuzing.

suratlarni ilishdi	maza qilib cho‘milishdi
urgut tog‘lariga chiqishdi	atir gul ko‘chati ekishdi
imtihon va sinovlarni	meva va sabzavotlar
topshirishdi	terishdi
istirohat bog‘ida bo‘lishdi	qo‘pol o‘ynashdi

yangi soʻzlarni oʻrganishdi	varrak uchirishdi
baliq ovlashdi	daraxtlarni sanashdi
kitoblarni tartibga keltirishdi	hovli devorlarini taʼmirlashdi
ovqat pishirishdi	darsga kech qolishmadi
raqs tushishdi	musiqa tinglashdi.
sezmay qolishdi	kutib olishmadi

166-mashq. Gaplarni tarjima qiling va orttirma nisbat hosil qilgan qoʻshimchalarni aniqlang.

1. Bugun adabiyot oʻqituvchimiz «Men sevgan adib» mavzusida insho yozdirdi. 2. Qiziqchi yangi latifalar aytib barchani rosa kuldirdi. 3. Sen bu qiligʻing bilan bizni uyaltirding, yuzimizni yerga qaratding. 4. Kuchli musiqa sadolari eshik, deraza va javonlarni titratdi. 5. Men bolani qoʻlidan tortib boʻsh oʻrindiqa oʻtqazdim. 6. Buzilgan elektr asboblarni mana shu maishiy xizmat uyida tuzattiraman. 7. Biz yangi darvozamizni koʻk rangga boʻyatdik. 8. Sen bayramga yangi shim tiktirmaysanmi? 9. Haydovchi oʻchib qolgan mashinani bir amallab yurgizdi. 10. Difuza singlisiga iliqqina sut ichirdi. 11. Tarbiyachi bolalarga odob, vatan, doʻstlik va tinchlik haqidagi sheʼrlarni yodlatdi. 12. Trenerimiz bizni stadion boʻylab yarim soat yugurtirdi.

167-mashq. Quyida berilgan feʼllarga nisbat hosil qiluvchi -t, -ar, -ir, -dir, -tir, -giz, -kiz, -gʻiz, -kaz, -qaz qoʻshimchalaridan mosini qoʻyib orttirma nisbat yasang, ular ishtirokida soʻz birikmalari va gaplar tuzing.

joʻnamoq	etmoq	yurmoq
toʻlmoq	pishmoq	oʻqimoq
qirmoq	uchmoq	ochmoq
qaytmoq	chiqmoq	ishlamoq
kiymoq	yuvinmoq	uxlamoq
aytmoq	ranjimoq	sevinmoq
kesmoq	supurmoq	tashimoq

qoʻnmoq	tasdiqlamoq	toʻplamoq
uchramoq	oʻlchamoq	chalmoq
chizmoq	eshitmoq	oqlamoq
choʻzmoq	toʻqimoq	choʻmilmoq
taramoq	qaramoq	topmoq
qazimoq	toʻzgʻimoq	ortmoq

168-mashq. Quyidagi maqollarni tarjima qiling. Ularda qoʻllangan orttirma nisbat hosil qiluvchi qoʻshimchalarni aniqlang.

Yaxshi xotin erini yashartirar,
Yomon xotin erini tez qaritar.
Yaxshi oʻgʻil tindirar,
Yomon oʻgʻil oʻldirar.
Ochkoʻzni tuproq toʻydirar.
Oriq ot manzilga yetkazmas.

Oltovlon ola boʻlsa,
Ogʻzidagin oldirar.
Toʻrtovlon tugal boʻlsa,
Unmaganin undirar.

Sahroyini urma-soʻkma, soʻzlat.

Odamni nomus oʻldirar, Quyonni – qamish.

Tabassum toshni eritar.

169-mashq. Quyida berilgan bir oʻzakdan hosil boʻlgan turli feʼl shakllari orasidagi farqlarni aniqlang va izohlang.

Kiydi, kiygizdi, kiyindi, kiyildi, kiyishdi; oʻtishdi, oʻtindi, oʻtkazdi, oʻtqazdi, oʻtildi, oʻtdi; yasadi, yasandi, yasaldi, yasashdi; koʻrildi, koʻrishdi, koʻrsatdi, koʻrindi, koʻrgazdi, koʻrdi; yutdi, yutishdi, yutqazishdi, yutindi, yutildi; soʻradi, soʻratdi, soʻrashdi, soʻraldi; yechishdi, yechildi, yechtirdi, yechindi, yechdi; qirdi, qirindi, qirdirdi, qirishdi, qirildi; urdi, urildi, urindi, urishdi, urdirdi; yigʻdi, yigʻdirdi, yigʻildi, yigʻindi, yigʻishdi.

170-mashq. L.Batning «Hayot boʻstoni» asaridan olingan quyidagi parchani oʻqing, fe'llarning qaysi nisbatdaligini aniqlang.

... Samarqandda muttasil qirq yil hukmronlik qilgan Ulugʻbek zamonida talaygina yangi binolar qad koʻtardi. Ammo bobosi asosan machit, maqbaralar qurdirgan boʻlsa, Ulugʻbek fan saroylari qurdirish bilan shuhrat topdi. U harbiy shon-shavkat ketidan quvmadi. Hamma narsadan koʻproq uni matematika va astronomiya qiziqtirardi. Bu fanlar sohasida beqiyos yuksaklikka koʻtarildi, osmon sayyorolari harakatini sharhladi va astronomik jadval yaratib, butun jahonga dong taratdi. Oʻzi kabi fanga sodiq doʻstlari bilan birgalikda osmon sayyoralari kuzatadigan asboblar yaratdi. Kishilarda ilmu maʼrifatga muhabbat uygʻotishga intildi. Qoʻl ostidagi shaharlarda maktab va madrasalar soldirdi.

171-mashq. Matnni tarjima qiling.

Случай кошелком

Шли по улице двое: старшая сестра Катя и младший брат Костя. А впереди них шла старушка. Седенькая. Старенькая.

Шла так старушка, шла да выронила кошелек с деньгами.

Костя первым увидел его. Нагнулся, схватил кошелек, а потом побежал и догнал старушку:

- Бабушка, вы кошелек потеряли. Вот он!

Старушка взяла свой кошелек и сунула его в карман:

- Тьфу! Какая стала я растеряха. . .

Сказала так она и пошла дальше. Костя вернулся к сестре и пожаловался на старушку:

- Бывает же на свете неблагодарные люди! Взяла кошелек, сунула его в карман и даже не удивилась.

Тогда старшая сестра остановилась, строго посмотрела на младшего брата и спросила:

- А чему она должна удивляться? Тому, что ты честен? Так ведь быть честным – это твоя обязанность, а не заслуга.

172-mashq. Quyida berilgan orttirma nisbatli birikmalar ishtirokida gaplar tuzing.

dars jadvalini oʻzgartirmoq	yangi mavzuni tushuntirmoq
ukasini koʻchada oʻynatmoq	devor bilan oʻrattirmoq
darsini tayyorlatmoq	doʻsti bilan tanishtirmoq
matnni tajima qildirmoq	paypoq toʻqitmoq
pulni maydalatmoq	tufisini mixlatmoq
dogʻini ketkizmoq	seminar oʻtkazmoq

173-mashq. Gaplarni tarjima qiling, eganing qaysi soʻz turkumi bilan ifodalanganligini aniqlang.

1. Zafar yaxshi tayyorgarlik koʻrganligi tufayli test sinovlaridan muvaffaqiyatli oʻtdi. 2. Tulki Oʻzbekistonning barcha hududlarida yashaydi. 3. Biz buyuk bobolarimizning ilm-maʼrifatga erishgan yutuqlarini boyitishimiz kerak. 4. Yaxshilar har doim elning ardogʻida boʻladi. 5. Oʻgʻillarining biri tuman hokimiyatida ishlaydi, ikkinchisi jahon tillari universitetida oʻqiydi. 6. Koʻplar yoʻl qoʻygan xatosini oʻzining feʼl-atvoridan qidirmaydi. 7. Oʻqigan har qanday joyda oʻz bilimiga tayanadi. 8. Oʻqish kishini baxtga yetaklaydi. 9. Ammo bogʻlovchi. 10. Bor soʻzlaydi, yoʻq oʻylaydi. 11. Ustaxonada taraqqiyoq avjga chiqdi. 12. Shu payt jangovar «ura» yangradi. 13. Oʻzbekiston Respublikasining poytaxti – Toshkent.

174-mashq. Gaplarni oʻqing, kesimning qaysi soʻz turkumi bilan ifodalanganligini tushuntiring.

1. Naʼmatalar ostida kaklik va bedanalar basma-bas sayraydi. 2. Toʻyning boshi boshlanguncha. 3. Guliston bu kitoblarning barini bolaligida oʻqigan... 4. Maqsadim – bu dunyoning barcha sir-asrorini bilish. 5. Hozir amaliy ishlar boʻyicha rahbarimiz – Maysara. 6. Bizning eng yaqin doʻstimiz –

kitob. 7. Jamoa xo'jaligimizning o'rikzor bog'i nihoyatda katta.
 8. Bunaqa chiroyli hovli qishlog'imizda bitta. 9. Sizlarga ayta olmay yurgan maqsadim – shu. 10. Senga o'xshagan a'lochilar fakultetimizda ko'p. 11. Azizim, mehnat jamoamizda sizning ham munosib o'rningiz bor! 12. Maslahatsiz qilingan har qanday ishning oxiri voy. 13. Shamol esadi g'ir-g'ir, yaproqlar shildir-shildir. 14. Avval bu joylar odam yurishga qo'rqadigan chakalakzor edi.

175-mashq. Gaplarni o'qing, ikkinchi darajali bo'laklarni izohlang. **Q**

Qishda

Qor juda qalin yog'di. Qattiq sovuq bo'ldi. Hamma yoqda chiroyli manzara. Kechasi birov atrofga oq choyshab yozib ketganga o'xshaydi. Daraxt shoxlari xuddi marjon taqib qo'yilganday yarqiraydi.

Qorning tinishidan darak yo'q. Qor emas, shakar yog'ayotganga o'xshaydi. Qayum o'tirib zerikdi. Oppoq yungli po'stinini kiyib ko'chaga chiqdi. Bolalar qish kunlari tepalikda o'ynashardi. Qayum ham tepaga qarab yo'l oldi. O'rtoqlari shu yerda ekan.

Ular orasida Alisher ham bor edi. U ko'p narsani biladi. Bugun ham yangi o'yin topib kelibdi. O'yin «qutb-qutb» deb atalar ekan. Ular ahil bo'lib o'ynadilar. O'yinlari juda soz bo'ldi.

OG'ZAKI NUTQNI O'STIRISH UCHUN MATERIALLAR

Hayrat. Ajablanish.

Удивление. Недоумение.

Men hayronman.
 Men juda hayronman.
 Bu meni ajablantiradi
 Ajabo! Taajjub!
 Qiziq! G'alati!

Я удивляюсь.
 Я очекнь удивлен.
 Меня это удивляет.
 Удивительно.
 Странно!

Tushunib bo'lmaydi
 Kim o'ylabdi deysiz!
 Ana yangilik!
 Ajoyib!
 Aql bovar qilmaydi!
 Bo'lishi mumkin emas!
 Nahotki?
 Rostmi?
 Rostdanmi?
 Hazillashmayapsizmi?
 Ana xolos!

Непонятно!
 Кто бы мог подумать!
 Вот это новость!
 Поразительно!
 Невероятно!
 Не может быть!
 Неужели?
 Правда?
 В самом деле?
 Вы не шутите?
 Вот это да!

Norozilik. G'azablanish.

Недовольство. Возмущение.

Bular menga yoqmaydi.
 Bularni men xush ko'rmayman.
 Sizdan noroziman.
 Qanday uyat! Sharmandalik!
 Uyalishingiz kerak!
 Qanday tentaklik!
 Qanday bema'nilik!
 Bu yolg'on!
 Bu-borib turgan safsatabozlik!
 Bu –borib turgan bema'nilik!
 Bunga aslo chidab bo'lmaydi!
 Rasvogarchilik!
 Bu-bo'lmag'ur ish! Bu – yaramaslik!
 Nima gap?
 Bu yerda nima bo'lyapti?
 Bas qiling!

Мне всё это не нравится.
 Мне всё это неприятно.
 Я не доволен Вами.
 Какой стыд (позор)!
 Вам должно быть стыдно!
 Какая глупость!
 Какая нелепость!
 Это неправда (ложь)!
 Это просто чепуха!
 Это просто абсурд!
 Это просто возмутительно!
 Безобразие!
 Это никуда не годится!
 В чём дело?
 Что здесь происходит?
 Прекратите!

MULOQOTLARNI TARJIMA QILING

- Камола, что такое конституция?

- Это основной закон государства. Произошло это слово от латинского «устройство».

- А что значит основной закон?

- Он определяет общественное и государственное устройство, порядок и принципы образования представительных органов власти, избирательную систему, права и обязанности граждан. Конституция – основа всего законодательства государства.

- Какие права гарантирует Конституция Республики Узбекистан?

- Права на труд, на отдых, на охрану здоровья, на материальное обеспечение в старости и в случае болезни, право на собственность, на жилище, на образование, на участие управления государственными, общественными делами. Гарантируются свобода печати, слова, собраний.

- А какие обязанности имеет каждый гражданин республики?

- Во-первых, он обязан соблюдать Конституции Республики Узбекистан. Во-вторых, добросовестно трудиться, оберегать интересы своей страны.

- Спасибо Камола. Как я понимаю, права и обязанности каждого гражданина нашей республики неотделимы друг от друга.

*** *** ***

- Почему ты вчера не был у нас?

- Мы с старшим братом ездили в Ташкент.

- Когда вы выехали?

- Рано утром. Было только пять часов.

- Где же вы там были и что видели?

- Были на выставке достижений народного хозяйства.

- А что показывают на этой выставке?

- Там можно узнать всё о нашем республике.

- Ну и что ты узнал?

- Я узнал про наши заводы и фабрики. Я видел разные новые машины и станки. А какие красивые ткани и одежды выпускают наши фабрики!

- А что там можно узнать про наши горы?

- Мы видели разные пролезные ископаемые, которые добывают в горах.

- Долго вы были на выставке?

- Четыре часа. Теперь я знаю много о промышленности, о сельском хозяйстве и о культуре нашей республики.

*** *** ***

- Sizga qaysi bayramlar ko‘proq yo‘qadi?

- Menga ko‘proq Yangi yil, Navro‘z va Mustaqillik bayramlari yo‘qadi.

- Bular boshqa bayramlardan nimasi bilan farq qiladi?

Bu uchala bayramga ham oldindan tayyorgarlik ko‘rib boramiz. Yangi yilni kutib olish uchun archa xarid qilamiz, uni rang-barang o‘yinchoqlar bilan bezaymiz. Yangi yil kirishi oldidan dasturxon tuzaymiz. Mehmonlar chaqiramiz. Qo‘shnilar, qarindoshlar, do‘stlarni tabriklab chiqamiz. Navro‘zni butun respublikamiz aholisi tantanali nishonlaydi. Bu bayram bahor quvonchlariga ulashib ketadi. Bayram arafasida ko‘chalar, maydonlar, ariqlar, sayrgohlar, qabristonlar tozalanadi. Gul va daraxt ko‘chatlari ekiladi. Bayram tantanalari qishloq va shaharlarning ko‘kalamzor chetida, stadionlarda o‘tkaziladi. Hamma xonadonlarda yetti xil taom pishiriladi. Ko‘pchilik taomlar yangi ko‘katlardan tayyorlanadi.

- Mustaqillik bayramini qanday nishonlaysizlar?

- Bu bayram xalqimiz uzoq yillar orzu qilgan muqaddas bayramdir. Bayram kuni mahallalarda nahor oshi tortiladi. Butun

shahar bo‘ylab kontsert va tomoshalar qo‘yiladi. Bolalar istirohat bog‘larida quvnaydilar.

- Oilangizda bayramlardan tashqari, yana qanday kunlarni nishonlaysizlar?

- Biz oilamiz bilan tug‘ilgan kunlarni muntazam nishonlab boramiz. Sunnat to‘yi, muchal to‘yi, nikoh to‘yi, diplom to‘yi kabilar ham oilaviy tantanalarga kiradi.

Topshiriq. Quyidagi topishmoqlarni tarjima qiling va toping.

Отец один, мать одна,
А детей у них много тысяч.

В огне не горит,
В воде не тонит,
В земле не гниёт.

И зимой, и летом
В одно одета.

Слышит, но не видит,
Видит, но не слышит.

Без цветков родится плод,
Кто поест, тот выпьет мед.

Ойнаvand katta saroy,
Ko`rib jannatmi deysiz.
Qishda ham yozdagiday,
Har xil sabzavot yeysiz.

Og`zi yo`g`u, tishi bor,
Duraddorda ishi bor.

Rangi har xil,
Nomi bir xil.

Sharga o`xshaydi o`zi,
Unga siqqan yer yuzi.

Kunduzi yonar,
Kechasi so`nar.

Zarga sotilmas,

Zo`rga topilmas.

TOPSHIRIQLAR

1. «Milliy va zamonaviy bayramlar» matnini tarjima qiling.
2. Matn mazmunini og‘zaki hikoya qiling.
3. Oilangizning sevimli bayrami yoki oilaviy tantanalarigizdan biri haqida so‘zlab bering.
4. Birgalik, ortirma nisbatlar hamda gap bo‘laklari bo‘yicha bilgan nazariy bilimlarinigizni yozma bayon eting.

16 - MASHG‘ULOT

MATN: Sharafli kasb.

GRAMMATIKA: 1. So‘z tarkibi.

2. So‘zlarning tuzilishiga ko‘ra turlari.

3. Yordamchi va alohida guruh so‘zlar turkumi.

SHARAFLI KASB

Ibtidoiy jamiyat davridayoq odamlar ovchilik, keyinroq esa chorvachilik, dehqonchilik, kosibchilik bilan shug‘ullanganlar. Jamiyat rivojlangan sari ortib borayotgan ehtiyoj va talabni qondirish uchun kasblar ham ko‘payib borgan. Bugungi kunda jamiyatimizni novvoy, uchuvchi, huquqshunos, konstruktor, sartarosh, operator, oshpaz, soatsoz, shaxtyor, etikdo‘z, haydovchi, traktorchi, g‘isht teruvchi, suvoqchi, ekskavatorchi, buldozerchi, payvandchi, aktyor, bo‘yoqchi, xonanda, rassom, shifokor, musiqachi, sotuvchi, bastakor, duradgor, temirchi, hisobchi,

naqqosh, chilangar, broker, yozuvchi, menenjer va hokazo kabi yuzlab kasblarsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Ko'pchiligimiz hali maktabga bormasimizdanoq, ayrimlarimiz esa maktabda o'qiy boshlagach, o'zimizga kasb tanlaymiz. Kimdir mashhur sportchi, kimdir taniqli jurnalist, yana kimdir mohir tikuvchi, tergovchi, quruvchi, kosmonavt, harbiy mutaxassis bo'lishni orzu qiladi. Har birimiz shu ezgu orzuimizga erishish, tanlagan kasbimizni egallash uchun tinmay o'qiyimiz, izlanamiz, intilamiz.

Dunyoda shunday bir sharaflı kasb egalari borki, ular ming yillardan beri barcha xalqlar orasida el-yurt hurmatiga sazovor bo'lib keladi. Bu kasb ko'pchiligimiz sevadigan o'qituvchilikdir. Bu kasbning naqadar sharaflı ekanligini miloddan oldin o'tgan buyuk yunon faylasufi Arestotelni «birinchi muallim», X asrning ulug' qomusiy olimi Abu Nasr Forobiyni «ikkinchi muallim» deb ataganliklaridan ham bilsa bo'ladi.

O'qituvchi endigina atrof-olamni ko'rib, uning ajoyibotlaridan hayratlanayotgan 7-8 yoshdagi bolalarga mo'jizalar yaratishni: yozish, o'qish, hisoblash, go'zallikni his qilish va o'z taassurotlarini hikoya qilish, tasvirlash, kuylash orqali boshqalarga yetkazishni o'rgatadi.

Ota-ona o'z farzandini sog'lom qilib o'stiradi, kiyim-kechak, oziq-ovqat, o'quv qurollari va boshqalar bilan ta'minlaydi, odob-axloq o'rgatadi. O'qituvchi ham har bir o'quvchini o'z farzandidek yaxshi ko'rib, unga ta'lim-tarbiya beradi. O'z o'quvchisining tarbiyali, madaniyatli, bilimli, hunarli, hozirjavob, mehribon inson bo'lib kamol topishi uchun bor bilim hamda kuchini sarflaydi. U shogirdlarining har bir mavaffaqiyatidan o'zi erishgan g'alabadek quvonadi. Muvaffaqiyatsizligidan qayg'uradi.

Kishining jamiyatda o'z o'rnini topib olishida ota-ona va bilimdon o'qituvchilarning xizmatlari beqiyosdir. Shuning uchun ham xalqimiz otani ulug'lab «ota rozi – xudo rozi» desa, ustozlarni ulug'lab «ustoz otangdek ulug'» deydi.

Mamlakatimizda ustoz-murrabiylarga hurmat-e'tibor katta. Har safar o'quv yili tugashi bilan hurmatli ustozlarimiz ikki oylik mehnat ta'tiliga chiqadilar. Dam olish hamda salomatliklarini tiklash uchun respublikamiz va xorijdagi dam olish uylari, sanatoriya va kurortlarga yo'llanmalar olishadi. Davlat tomonidan yaratilgan turli imtiyozlardan foydalanadilar. Ko'pchilik o'qituvchilarimiz ijodkorligi, tashabbuskorligi, ta'lim-tarbiya berishdagi alohida xizmatlari uchun orden va medallar, «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan o'qituvchi», «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi» kabi faxriy unvonlarga sazovor bo'ladilar.

Biz savod o'rgatgan, ta'lim tarbiya bergan, ilm cho'qqilariga yo'l ko'rsatgan muhtaram ustozlarimizni hech qachon unutmaymiz.

FAOL SO'Z VA IBORALAR

ehtiyoj va talab	ibtidoiy jamoa davri
kasb	ko'payib borgan
bugungi kunda	tasavvur etib bo'lmaydi
ko'pchiligimiz	ayrimlarimiz
rivojlangan jamiyat	kasb tanlaymiz
izlanamiz	intilamiz
hurmatga sazovor	sharaflı
birinchi muallim	qomusiy olim
endigina	ajoyibotlardan hayratlanmoq
his qilish	hisoblash
tasvirlash	kuylash
o'stiradi	o'rgatadi
ta'minlaydi	farzandidek yaxshi ko'rmoq
odob-axloq	madaniyatli
tarbiyali	hunarli
hozirjavob	ta'lim-tarbiya bermoq
mehribon	muhtaram
kamol topmoq	muvaffaqiyatidan quvonmoq

ulug'lamoq
mehnat ta'tili
ijodkorlik
turli imtiyozlar
xizmat ko'rsatgan

ustoz otangdek ulug'
ota rozi – xudo rozi
tashabbuskorlik
faxriy unvonlar
ustozlarni unutmamiz

«SHARAFLI KASB» MATNI BO'YICHA SAVOLLAR

1. Ibtidoiy jamoa davrida odamlar qanday ishlar bilan shug'ullanishgan?
2. Nima sababdan yangi-yangi kasb va hunarlar paydo bo'lgan?
3. Rivojlangan jamiyatimizda qanday kasblar keng tarqalgan?
4. Bolalar necha yoshdan boshlab o'zlariga kasb tanlashadi?
5. Ko'pchilik bolalar qaysi kasblarni egallashni orzu qilishadi?
6. Tanlagan yoki orzu qilgan kasbni egallash uchun nima qilish kerak?
7. O'qituvchilik qanday kasb hisoblanadi?
8. Nima uchun ko'pchilik bu kasbni sevadi?
9. Sharqda Arestotel va Forobiyga qanday yuksak baho berishgan?
10. O'qituvchi maktabga ilk bor qadam qo'ygan o'quvchiga nimalarni o'rgatadi?
11. O'qituvchi o'z shogirdlarining qanday insonlar bo'lishini xohlaydi?
12. Ustoz o'z shogirdlarining erishadigan muvaffaqiyatlarini yoki yo'l qo'yadigan kamchiliklarini qanday qabul qiladi?
13. Kishining jamiyatda o'z o'rnini topib olishi uchun ota-ona va ustozning o'rnini qanday?
14. Mamlakatimizda ustoz-murabbiylariga munosabat qanday?
15. O'qituvchilarga necha kunlik mehnat ta'tili beriladi?
16. Ustozlarimiz qayerlarda dam olib salomatliklarini tiklashlari mumkin?
17. O'qituvchilarning jamiyat oldidagi xizmatlari qanday taqdirlanadi?
18. Muhtaram ustozlarimizga bizning munosabatlarimiz qanday?
19. O'z ustozlaringiz haqida hikoya qiling.

20. O'zingiz tanlagan kasb haqida hikoya qiling.
21. Hozirgi davrda kishilar egallagan qanday kasb-hunarlarini bilasiz?

QUYIDAGI HADISLARNI TARJIMA QILING

Qaysi biringizga Tangri bir kasb sababli rizq yetkazib turgan bo'lsa, o'sha kasbning o'zi o'zgarmaguncha shu kasbni tashlamang.

Nafaqa (moddiy yordam) va sadaqa berishda avval o'zingdan boshla. Agar biror narsa ortsa, ahli ayolingga (oila a'zolariga) ber. Yana biror narsa ortib qolsa, qarindoshlaringga ber. Ulardan ham ortsa boshqalarga ber.

O'zimdandan keyin qoladigan ummatlarim uchun uch narsadan qo'rqaman:

1. Nafsu havoga berilib, yo'ldan ozishidan.
2. Nafsoniy va shahvoniy hissiyotga berilib ketishidan.
3. Ilmu ma'rifatga ega bo'la turib, g'ofillarning ishini tutishidan.

Ummatlarim uchun eng qattiq qo'rqan jihatlari: qorin solib semirish, seruyqulik, dangasalik va sust e'tiqodda bo'lishidir.

Odamlarga keng qalbli bo'linglar, shunda odamlar ham sizlarga shunday bo'lurlar.

Kimgaki aql-u idrok nasib etilgan bo'lsa, demak, u omadlidir.

Yaxshilik – eskirmaydi, gunoh – unutilmaydi, jazolovchi (Tangri) esa o'lmaydi. Xohlagan ishni qil, diyonating qanday bo'lsa, jazoing ham shunday bo'ladi.

Gunohidan tavba qiluvchi kishi gunohsiz odam bilan barobardir.

Kishining go'zalligi uning tilidan bilinur.

Yer yuzida bitta jinoyatga berilgan jazo Yer ahli uchun qirq kun yomg'ir yoqqanidan afzaldir.

Xotinlarning yaxshisi erining ko'zini quvontiradigan, amriga itoat qiladigan va u yoqtiradigan narsasini yoqtiradigan va yoqtirmaydiganini yoqtirmaydigan bo'ladi.

Sizlarning yaxshilaringiz – dunyo ishini deb oxiratni, oxiratni deb dunyo ishini tark qilmaydigan va boshqalarga malollik tushirmaydiganlaringizdir.

NAZARIY BILIMLARNI MUSTAHKAMLASH UCHUN MASHQLAR

176-mashq. Gaplarni tarjima qiling, soʻzlarni oʻzak, negiz va qoʻshimchalarga ajratib, tahlil qiling.

1. Badanni junjituvchi sovuq shamol izgʻib qoldi. 2. Toshlar ustiga doʻlanaday-doʻlanaday yirik tomchilar tushib, atrofga sochildi. 3. Olimovning qoʻlidagi yuklari hammanikidan ogʻirroq, nozikrok edi. 4. Bularni bolalarga ishonib berib boʻlmasdi. 5. Buzoq, echki, qoʻzi boqib, toʻp tepishib, varrak uchirib, chillak oʻynashib yurgan bolalar chuvvos koʻtarishganicha uy-uylariga toʻzgʻib ketishdi. 6. Boʻron goh nor tuyaday oʻkirar, goh och boʻriday uvlardi. 7. Boyagina tumtaraqay qochgan bolalar ham yana qoʻziqorinday patirlashib chiqib kelishdi. 8. Arilar hujumiga birinchi boʻlib uchragan Qoʻziboy allaqachon jilgʻa yoniga borib olgan edi. 9. Bu kovaklarda gala-gala mayda arilar gʻuvillashmoqda. 10. Ular oʻrtaroq yerdagi yoʻgʻon archa yonida toʻxtadilar. 11. Bu ajoyib koʻrinishlar bolalarning diqqatini butkul band etib qoʻyganidan Toshbuloq haqidagi xayolni unutdilar. 12. Bu joyning havosi yana ham sof va xushboʻy, manzarasi yanada koʻrkam boʻlganidan sayohatchilarning jilgilari kelamay qoldi. (H.N.)

177-mashq. Quyidagi sinonim soʻzlarni oʻzak, negiz, qoʻshimchalarga ajrating, ular orasidagi farqlarni izohlang va tarjima qiling.

Gaplashmoq – soʻzlashmoq – suhbatlashmoq – gurunlashmoq; bitirmoq – tugatmoq – tamomlamoq; keksa – qari; oʻylash – fikrlash; yashirin – xufiya; charchash – toliqish; kutilmaganda –

birdan – tusatdan – qoʻqqisdan; nuqul – faqat; qarash – boqish; soʻkish – haqoratlash; ayblamoq – qoralamoq; goʻzal – chiroyli – barno – suluv; cheksiz – poyonsiz; oʻrin – joy; vaqt – payt – zamon; shu kunlarda – shu kezlarda; teng – barobar; yolgʻiz – yakka – tanho; oltin – tilla – zar; boʻyin – gardan; bajardi – oʻrinlatdi – bopladi; ketdi – qochdi – yoʻqoldi; ichdi – shimirdi – sipqordi; gʻajidi – tishladi – qopti; chopmoq – yelmoq – yugurmoq – zingʻillamoq; yalang – ochiq; qoʻshni – hamsoya; kulmoq – jilmaymoq – iljaymoq – hiringlamoq – tirjaymoq – irshaymoq.

178-mashq. Gaplarni tarjima qiling, ularda qoʻllangan tub va yasama soʻzlarni izohlang, ular tarkibidagi qoʻshimchalarni tahlil qiling.

1. Besh-oltita joʻyak olingan toʻrt burchakli bu gulzorchada qator-qator nomozshomgul, gultojixoʻroz, rayhon, ularning atrofida raʼnogul va boshqa gullar rang-barang boʻlib ochilib turardi, ulardan taralayotgan yoqimli hid kishi dimogʻiga tegib, taʼbni ravshan qilardi (F.Niyoziy) 2. Biz shunday qilishimiz kerakki, bogʻbon ham, chorvador ham, dehqonu hunarmand ham oʻz mehnatining samarasidan bahramand boʻlsin, uka. 3. Bu oʻt oddiy chaqmoqtoshdan chiqqan olov emasdir. (Sh.Rustaveli) 4. Shu yil mart oyi boshlarida Xayri Chinoz qishloq xotin-qizlari uchun ochilgan kooperativda ishlay boshladi (A.Muhiddin). 5. Ayvonning zinasini oldida siniq xum agʻanab, kattakon qadoqtosh zang bosib yotibdi. (A.Q.) 6. Sanʼatkor tajang edi: tanaffus vaqtida zalga chiqqan edi, bir traktorist uni savodsizlikda aybladi. (A.Q.) 7. Temirchilar bogʻlar taqa, Tilanchilar dardi bir chaqa. (O.) 8. Goho ustaning gʻoriga hamsoya hunarmand va kosiblar, temirchilar, chilangarlar, miskarlar, suyaktarosh va sangtaroshlar, sandiqchi va beshiksozlar, mixchi va taqachilar, etikdoʻz va gilamdoʻzlar yigʻilishar, ustozlari Temur boboga atalgan sovgʻa-salomlarini qoʻltiqlashib, ogʻa-ini Qalqonbek bilan Bosqonbek kirib kelishar, shunday paytlarda oʻchoqda qora qoʻmgʻon biqirlab, suhbat qizir... barcha yangiliklar oʻrtaga tashlanar edi. (O.Y.) 9. Sinfidoshlarim

sakkizinchida o'qiy boshlagan kuni men belimga etak bog'lab terimga tushib ketdim. (P.Q.) 10. Qassoblar kelishib bog'larida qo'y so'yishdi, oshpazlar osh damlashdi. (O.Y.)

179-mashq. Gaplarni o'qing, ularda qo'llangan shakl yasovchi va so'z o'zgartuvchi qo'shimchalarni aniqlang hamda ularning vazifasini izohlang.

1. Jo'ravoy, bolaginam, kampirlarning qilgan ishi senga yoqadimi? (G'.G'.) 2. Butun qo'rg'oncha ship-shiydam, o'g'ri urganday vahimali edi. (G'.G'.) 3. O'rtoqjon, shu iltimosni «bir balo» qilib yuboring. («Mushtum») 4. Tanishib olaylik, otingiz nima, yigitcha? («Gulxan») 5. Osmon tiniq havolar yengil, qo'shiq aytib uchar qushchalar. (Z.Diyor) 6. O'g'ilchangni yangi yaslida ko'rdim, qo'ziqchoqday o'ynab yuribdi. (U) 7. Shu yoshlik, shu chiroy – umring bahori, sarg'ayish bilmasin, suluv kelinchak! (Zulfiya) 8. Kelingiz toyloqlarim, qaydan shamol uchirdi? (H.N.) 9. Ko'zimning oqu qorasi jiyanginamga, ukaginamdan qolgan yodgorginamga, tikib keldim. («Sharq yulduzi») 10. Yumshoqqina yesin deb, buzoqqa tert qoradi. (Q.Muhammadiy) 11. Gunafshaxon, gunafsha, kulishlaring chiroyli. (Z.Diyor) 12. –Jiyantoy, kelganing juda yaxshi bo'ldi-da, - dedi tog'asi. (N.Maqsudiy) 13. Zuhraoyginamning ko'ngli to'lmayapti. («Sharq yulduzi») 14. Buzuq radiopriyomnikning ham astar-avrasini ag'darib, goh kichkinagina stanokchasida sim g'altak o'rar, dam bir nimalarni ular edi. (A.M.)

180-mashq. Berilgan so'zlarga ot yasovchi qo'shimchalardan mosini qo'yib, yangi so'zlar hosil qiling (-chi, -kor, -shunos, -kash, -xon, -do'z, -paz, -xo'r, -dor, -bon, -dosh, -lik, -zor, -iston, -don, -xona, -ma).

To'qi, qatla, dori, osh, siyoh, tuz, gul, o'zbek, tojik, olma, olcha, meva, do'st, shod, mard, sinf, qishloq, vatan, darvoza, bog', chorva, nafaqa, pora, o't, somsa, qandolat, holva, etik, telpak,

mahsi, kitob, she'r, gazet, jurnal, arava, kira, mehnat, til, adabiyot, tarix, musiqa, paxta, sholi, sabzavot, ish, suv, sport.

181-mashq. Quyida berilgan yasama sifatlar ishtirokida so'z birikmalari va gaplar tuzing.

Chiroyli, aqlli, shirali, mazali, xushmanzara, badbashara, badbaxt, serhosil, serdaromad, sersuv, serqirra, badavlat, bamaza, bama'ni, bevafo, beta'm, betaraf, bemaza, noto'g'ri, noo'rin, noma'qul, kasalmand, tuzsiz, kayfiyatsiz, uyatchan, ishchan, kuyunchak, bilag'on, qopag'on, topag'on, bugungi, kuzgi, kechki, tashqi, ko'rinmas, ilmiy, she'riy, samoviy, oilaviy, tuxumsimon, to'lqinsimon, tinchlikparvar, og'zaki, ko'ylakbop.

182-mashq. Quyida berilgan fe'llarning tub yoki yasama ekanligini aniqlang, yasovchi qo'shimchalarni izohlang va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Ishla, so'zla, maydala, to'g'rila, kuyla, sayla, tashla, boshla, turla, otlar, shodlan, g'ururlan, suhbatlash, hasratlash, sharilla, qarsilla, chiqilla, qaltira, yaltira, miltira, bo'sha, sana, toray, qoray, oqar, eskir, begonasira, uyqusira, boyi, changi, kechik, birik, yo'liq, to'lat.

183-mashq. Quyidagi yasama ravishlar ishtirokida so'z birikmalari va gaplar tuzing.

Butunlay, tiriklay, ko'ylakchang, maykachang, ruxsatsiz, tinimsiz, ixtiyorsiz, majburan, mantiqan, mazmunan, tasodifan, taxminan, oylab, yillab, do'stona, mardona, yoppasiga, qatorasiga, qishloqchasiga, dehqonchasiga, qahramonlarcha, yovuzlarcha, vahshiylarcha, o'rtoqlarcha, har qachon, hech qachon, har kuni, har zamonda, bir qancha.

184-mashq. Quyidagi matnni tarjima qiling. Unda qo‘llangan sodda, qo‘shma, yasama so‘zlarga e‘tibor bering.

ВЕРНЫЙ ДРУГ

Много лет назад в ауле жил охотник Мухтар. У него был молодой орёл, который слушался Мухтара и помогал ему на охоте.

Однажды случилось несчастье: в аул пришла чёрная смерть. Так все называли чуму. Тогда, при царе, больниц в ауле не было. Чёрную болезнь лечили пулями. Аул со всех сторон окружали солдаты. Если кто-нибудь из жителей пытался уйти из аула, его убивали. Если кто-нибудь хотел войти в аул, его тоже убивали.

Отр чумы умерло много людей аула. Осталось всего несколько человек. Среди них был и Мухтар.

Оставшимся в живых от чумы грозила смерть от голода. Солдаты продолжали стоять вокруг аула и убивать всех, кто хотел выйти из аула или войти в него.

Люди съели всё, что было возможно. Мухтар понял, что сегодня они съедят и его птицу. Он снял цепь с ноги орла, и орёл улетел. Но скоро он вернулся и принёс в своих когтях зайца. Потом опять улетел и принёс уже лису. Так он летал целых двадцать дней и приносил голодным людям еду. Он не охотился. Он работал, как человек. Так орёл спас людей от голодной смерти.

Слава об орле пошла далеко за аул. Многие хотели купить его у Мухтара. Богачи предлагали за орла большие деньги. Но разве мог Мухтар продать верного друга?

185-mashq. Matnni o‘qing. Undan sodda tub, sodda yasama, qo‘shma va juft sifatlarni aniqlang. Matn mazmunini hikoya qiling.

BAHOR

Erta bahorning serzavq kunlari. Yam-yashil adirlardagi giyohlardan taralgan xushbo‘y hid lar dimoqqa uriladi. Oftob charaqlaydi. Ko‘m-ko‘k osmon shishadek tiniq. Olaquroq paxtali to‘nlar yelkadan tushgan. Katta-kichik mehnatkash dehqonning egnida xom surp yaktak. Xushchaqchaq qizlarning qop-qora sochlarida tolbagakdan sochpopuk. O‘riklarning katta-kichik novdalarida och pushti marjon. Ariq bo‘ylaridan yalpizlarning xushbo‘y hidi anqiydi. Baland-baland devorlar tagida qumursqalar o‘rmaydi.

Zarqishloqning katta-kichik ko‘chalarida, serdaraxt bog‘larida ko‘klam namoyishi kezadi. Qishloq o‘rtasidagi eng baland azamat chinorning och yashil kurtaklari orasida savatdek uya. Unda laylak bir oyoqlab turganicha tek qotgan. Kun peshindan oqqan. Hali barg yozmay, bezrayib turgan ikki tup kattagina sada tagidagi naqshli choyxonada turli-turman odamlar ko‘p. (S.Ahm.)

186-mashq. Berilgan matnni tarjima qiling va mazmunini o‘z so‘zlaringiz bilan hikoya qiling.

САМОЕ БОЛЬШОЕ ЧУДО

Мног на свете чудес. Самолёт летит - чудо! Такой тяжелый, сто человек в нем, и ни на чем не держится, только на воздухе. И телевидение, и разумные машины... Не счесть сегодняшних чудес, окружающих нас. Но самое большое чудо стоит на вашей полке. Это книга.

Книга без самолёта поднимет вас в воздух, без ракетного корабля доставит на далекую планету, покажет Африку и Америку без телевидения. Расскажет о том, что есть и чего еще нет. И о том, что было давно.

Это чудо-книга – помогает человеку самому творить чудеса. Кто из вас, прочитав книгу, не боролся с захватчиками, кто запросто не разговаривал с птицами и животными, кто не взлетал в поднебесье, где ветер, откуда далеко видно вокруг?

Книга с нами всю жизнь. Она наш друг, наш помощник, наш учитель. Никогда большое, самое большое чудо-книга не заменят другие чудеса. (Р.Погодин)

187-mashq. Matnni tarjima qiling. Undagi soʻzlarni tuzilishiga va turkumlariga koʻra tahlil qiling.

HAYVONOT BOGʻIDA

Shahrimizda kino, teatr, konsert zali va tabiat muzeyi bor. Oʻrtoqlarim bilan kinoga, teatrga tez-tez borib turamiz. Bulardan tashqari boshqa shaharlardan ham koʻchma sirk va dorbozlar kelib turadi. Yaqinda shahrimizga koʻchma hayvonot bogʻi keldi. Biz hayvonot bogʻini tomosha qilgani bordik. U yerda oq ayiq, boʻri, yoʻlbars, maymun kabi turli hayvonlar bor ekan. Bulardan tashqari burgut, tuyaqush, toʻti, tovus kabi turli qushlarni koʻrdik. Uyga kelib ota-onamizga soʻzlab berdik. Koʻrganlarimizdan ayrimlarining rasmini ham chizdik. U rasmlarni ukalarimizga sovgʻa qildik. Ular bizdan xursand boʻlishdi.

188-mashq. Matnni tarjima qiling va uni nomlang.

Труд занимает в жизни людей главное место. Именно в труде раскрывается красота и сила человека. Без труда человек не может существовать, развиваться.

Труд – основа нашей жизни.

Каждый из вас должен участвовать в труде для благо Родины, внести свой вклад в общенародное дело. Но вы должны решить сами, на каком месте вы будете трудиться: в поле, у станка, у машины, у аппарата или у комбайне.

При выборе профессии не торопитесь, хорошо всё обдумайте, посоветуйтесь с учителями и родителями.

Если вы удачно выберете себе профессию и вложите в труд всю душу, то счастье само найдет вас.

189-mashq. Quyida berilgan matnni tarjima qiling.

HAYVONLAR «TARBIYASIDA»

Amerikalik olim professor A.Jizelning maʼlumotlariga koʻra, turli hayvonlar inson bolalarini boqib tarbiyalaganligi xususidagi faktlardan fanga oʻttizdan ortigʻi maʼlumdir.

Jumladan, 1661-yilda Litvadagi ayiq yashaydigan gʻordan hayvonlar tarbiyasida boʻlgan 12 yashar oʻgʻil bola, 1671-yilda Irlandiyadan ham shunday bola topilgan edi.

Keyinchalik, 1787-yilda Fransiya oʻrmonlaridan maymunlar tarbiyasidagi 12 yashar bola, 1920-yili Hindistonning Kalkutta shahri yaqinida boʻri tarbiyasida boʻlgan opa-singil Amala va Kamalalar topildi.

Hayvonlar tarbiyasida boʻlgan hamda topilgan bolalarning birortasi ham insoniy xislatlarga ega boʻlmagan..., gapira olmagan va koʻp yashamagan ham.

BUNI ESDA TUTING: oʻzbek tilida soʻz tarkibi oʻzak va qoʻshimchalardan tashkil topadi. Soʻz yasovchi qoʻshimchalar ham, shakl yasovchi qoʻshimchalar ham, soʻz oʻzgartuvchi qoʻshimchalar ham oʻzak oxiridan qoʻshiladi: meva – mevazor – mevazorlar – mevazorlardan kabi. Faqat sifat yasovchi qoʻshimchalargina oʻzak oldidan qoʻshiladi: sersuv, beodob, nomaʼqul, bamaza kabi.

TOPSHIRIQ:

1. «Sharafli kasb» matnini tarjima qiling.
2. Matn mazmunini oʻz soʻzlaringiz bilan ogʻzaki hikoya qiling.
3. Oʻzingizning sevimli faningiz hamda oʻqituvchingiz haqida yozma hikoya tuzing.

4. Soʻz tarkibi, soʻzlarning tuzilishiga koʻra turlari, yordamchi va alohida guruh soʻzlar turkumiga doir oʻrganganlaringizni yozma bayon eting.

I L O V A L A R

I. TARJIMA QILISH VA MUSTAQIL OʻQISH UCHUN MATNLAR.

IBN SINO VA KITOBLAR

Roviyalar rivoyat qilishlaricha, Buxoro muzofotida dunyoga dongʻi ketgan, mashhur, hakimlarning hakimi dono Ibn Sino oʻtgan ekan. Ibn Sino yoshligidanoq ilm-fanga berilib, koʻp oʻqibdi. Oʻqigan kitoblari borki, uqibdi, yod olibdi. Bundan tashqari hayvonlarning «gap-soʻz»larini ham, parranda-darrandalarning tilini ham, giyohlarning holatini ham biladigan, tushunadigan boʻlibdi. Bolalar oʻyin-kulgu bilan band boʻlishsa, Ibn Sino turli giyohlarning holatini ham biladigan, tushunadigan boʻlibdi. Bola chumoli, qumursqalarni tutish, ilon, qurbaqalarni ushlash bilan ovora ekan. Oʻz-oʻzidan giyohlardan dori-darmonlar tayyorlab, oshnalaridan birini kasal qilib, uni davolash bilan shugʻullanarkan. Bolasidagi bu qiliq-odatlarini koʻrgan ota-ona uni maktabga beribdilar. Ibn Sino maktabda oʻqiladigan kitoblarni allaqachon oʻqib, ularni uqib olgan ekan. Shuning uchun maktabga bormay qoʻyibdi. Ota-onasi shaharda oʻqisin, deb Buxoroga koʻchib kelishibdi. Ammo madrasadagilar eshigiga yaqinlashtirishmabdi. Ibn Sino noiloj yana oʻzicha oʻqib, uqib yuraveribdi. Yana giyoh, oʻt-alaflar toʻplab, ular ustida soatlab, kunlab, haftalab mashq qilib yuraveribdi.

Baʼzi bir kasallar oldiga kelsa davolab, dardiga shifo bera boshlabdi. Bora-bora juda ham zoʻr tabib boʻlib ketibdi. Ammo koʻpchilikka bildirmabdi, tabibligini sir saqlamasin, sirlari oshkora boʻlaveribdi. Chunki «Gapni gap quviydi, sirni sir ochadi», degan

gap bor. Ibn Sinodan shifo topgan odam bugun bir boʻlsa, ertasiga ikki boʻlibdi. «Men falonchidan shifo topdim», deb bir kishi ikkinchi kishiga aytsa, ikkinchisi unga yana qoʻshib, «falonchi-falonchi Ibn Sinodan shifo topibdi, kasal edi, tuzalibdi», – deb gap tarqataveribdi. Hamma yoqqa ovozasini ketibdi. Shunday boʻlsa ham gʻalamis tabiblar uni tan olishmas, shaharga yoʻlatishmas ekan. Kunlardan bir kuni dong taratishda Samarqandga teng keladigan, balkim undan oʻtadigan Buxoro shahrining xoni kasalga chalinib, yotib qolibdi. Avvaliga saroy tabiblari «Hech gapmas, xonimiz tuzalib ketadilar, kasallari unchalik ogʻir emas», – deyishibdi. Qarashibdi, davolashibdi, xon tuzalmabdi. Keyinchalik boshqa mamlakatlardan man-man degan tabiblarni oldirib kelib, qaratahibdi, xon tuzalmabdi. Hech kim xonning dardiga malham topa olmayotganini koʻrib, xon kishilari xavotirga tushib qolishibdi. «Endi xonimiz oʻlib qolarkan-da», – deyishib, oʻzlarini u yoqqa urishibdi, bu yoqqa urishibdi, hech nima chiqarisholmabdi. Oralaridan birovining esiga Ibn Sino tushib, shuni chaqirtirsak-chi, deb qolibdi. Bu gap hammaga maʼqul tushibdi. Tezlikda Ibn Sinoni saroyga keltirishibdi. Bosh tabib unga yalinib-yolvoribdi:

– Ulugʻ xonimizning amru farmonlari shunday. Biz u kishini davolab, shifo toptirishimiz kerak. Aks holda hammamizning kallamiz qilichdan oʻtkazilur yohud dorga tortilurmiz, – debdi. Ibn Sino:

– Men nima qilmogʻim darkor? – deb soʻrabdi.

– Xonimizni tuzatmogʻing darkor, – deb javob beribdi bosh tabib. Ibn Sino:

– Kasalni koʻrmay, tomirini ushlaymay, qanday davolayman. Axir meni uning oldiga olib kiringlar-da, – debdi. Bosh tabib Ibn Sinoni xonning oldiga olib kiribdi. Ibn Sino kasalni koʻrib, tomirini ushlabdi-da, iziga qaytib, qishlogʻiga qarab ketibdi. Ibn Sinoning kasalni koʻrib, tomirini ushlab hech nima demasdan qishlogʻiga qaytib ketganini xon oʻzicha, tabiblar oʻzicha tushunishibdi. Xon: «Kasalim ogʻir ekan, endi oʻlar ekanman», deb oʻylagan boʻlsa, tabiblar: «Ibn Sino haliyam bizdan xafa ekan. Shohni tuzatsam

bular omon qoladi, tuzatmasam ularning boshi ketadi», – deb o‘ylashibdi. Xon tabiblarni yoniga chaqirib: «Kasalimni tezlikda tuzatmasalaring, bola-chaqalarini o‘zlariga qo‘shib dorga torttiraman», – debdi. Tabiblarning yana boshlari qotibdi. Ibn Sinoga yana odam yubormoqchi bo‘lishibdi. Shu payt Ibn Sinoning o‘zi kirib kelibdi-da, xonning oldiga kirib uyida tayyorlagan dorini beribdi. Xon dorini ichibdi. Ibn Sino hech kimni yoniga yo‘latmay, xonning boshida unga tikilgancha o‘ltiraveribdi. Xon uyquga ketibdi, ancha vaqt o‘tgandan keyin o‘ziga kelib, yemak so‘rabdi. Ibn Sino suv berimlarini buyuribdi. Xon o‘ziga kelib, tuzalib qolgach, Ibn Sinodan, nima bersam xursand qilgan bo‘laman, debdi. Ibn Sino hech narsa talab qilmabdi. «Bir qop tilla ol!» – debdi xon. Ibn Sino qabul qilmabdi. «Yurt so‘ra, yurt beray», – debdi xon. Ibn Sino hech narsa olmasligini aytibdi. «Suruv-suruv ot, qo‘y beray», – debdi xon. Ibn Sino yana, hech nima kerak emas, debdi. Xon so‘ra, beray, deyavergach, Ibn Sino: «Xonim, men harakat qildim, xudo shifo berdi-yu, tuzalib oyoqqa turdingiz. Menga hech qanday tilla ham, yurt ham, suruv-suruv ot, qo‘ylar ham kerak emas, qishlog‘imizga bir qiroatxona qurdirib, qirq tuya kitob bersangiz bo‘lgani», – debdi. Xon xursand bo‘lib, barcha ustalarni yig‘dirib, Ibn Sino qishlog‘iga katta qiroatxona qurdirishga kirishibdi. Butun dunyoga jar soldirib kitob yig‘diribdi, o‘zining boy kutubxonasidan ham eng nodir kitoblardan olib, 40 tuyaga yuklatib, Ibn Sino qishlog‘iga jo‘natibdi. Qiroatxona bitib, kitoblar keltirib bo‘lingach, Ibn Sino kutubxona ichiga kirib ketibdi. Xonni o‘limdan olib qolgan Ibn Sino og‘izga tushib, dong‘i har yonga ketibdi. Boshqa tabiblar unga hasad bilan qaray boshlabdi. Ko‘pchilik bo‘lib, Ibn Sinoning oldiga borishibdi. Kutubxonaga kirib kitoblar orasidan Ibn Sinoni zo‘rg‘a topishibdi-da undan:

– Xonlikdan kelganingizdan beri shu yerda kitob titkilab yotibsizmi? – deb so‘rashibdi. Ibn Sino:

– Ha, eng yaqin do‘stlarim – kitoblar bilan suhbat qurib, kunu oy, haftayu yillar o‘tganini ham sezmayapman. Miyamni ilmga, cho‘ntagimni hazinaga to‘ldirish bilan bandman, – debdi.

– Tabiblik-chi, tabiblikni tashladingizmi? – deb so‘rabdi tabiblardan biri.

– Yo‘q, tabibligimni qiyomiga yetkazmoqdaman. Avval ulug‘ ustozlarimning pandu nasihatlarini, ko‘rsatmalarini bilib olib, keyin davolashga o‘taman. Men shu kungacha o‘zimni zo‘r tabib hisoblab katta xatoga yo‘l qo‘ygan ekanman. Endi mana bu kitoblardan olganlarimni amaliyot bilan mustahkamlay olsamgina, o‘zimni tabib deb atashga haqliman, – debdi. Tabiblardan yana biri:

– Bordi-yu, kutubxonangizga o‘t ketsa, nima bo‘ladi? – debdi. Ibn Sino:

– Avvalambor, kutubxonaga o‘t ketishdan xudo saqlasin, bordi-yu, falokat ro‘y berib, o‘t ketsa, unda cho‘chidigan joyim yo‘q. Hammasini yod bilurman. Qaytadan yozib chiqishga umrim yetsa kifoya, – debdi. Tabiblar Ibn Sinoning zehni bilan xotirasiga qoyil qolib, kelgan joylariga qarab ketibdilar. Oradan kunlar o‘tibdi, oylar o‘tibdi, baribir tabiblar hasad qilishni qo‘ymabdilar. G‘alamislik yo‘liga o‘tib, Ibn Sinoning kutubxonasiga o‘t qo‘yibdilar. Bundan xabar topgan Ibn Sino chopib borib, kutubxona ichiga kirib ketibdi. «Yaxshisi, do‘stlarim bilan birga yona qolay», – deya kitoblar orasida o‘ltiraveribdi. Odamlar zo‘rg‘a qutqazib qolishibdi. Ibn Sino kuygan kitoblarni yoddan qayta bitib, tiklabdi-da, kutubxonani yangitdan qurdiribdi. U umrining ko‘p qismini o‘sha yerda o‘tkazgan ekan.

«Asotirlar va rivoyatlar»dan.

INSONNING QADR-QIMMATI BILIM BILAN BELGILANISHI HAQIDA

Olamga odamzod sara mavjudot sifatida keldi, u salohiyat, bilim va zakovatga ega bo‘ldi.

Unga tabiat aql va ong ato qildi, soʻzlash qobiliyatini berdi, uni andisha, xushxulq va goʻzal feʼl bilan taʼminladi.

Unga bilim hadya qildi, shu tufayli inson ulugʻlikka erishdi, zakovatlar ato qildi, shu tufayli inson chigal jumboqlarni hal qildi.

Tabiat kimga zakovat, aql-idrok, bilim bersa, u ezgu ishlar qilishga qoʻl uradi.

Bilimning buyukligini va zakovatning ulugʻligini anglagin, bu ikkalasiga ega boʻlgan sara kishilar ulugʻlikka erishadilar.

Buning dalili uchun mana shunday ibratli soʻz bordir, sen uni eshitgin va bu borada soʻzni choʻzmagin.

Zakovat har yerda ham ulugʻlikka eltadi, kimda bilim boʻlsa, u ulugʻlikka erishadi.

Zakovatlilar uqadilar va bilimlilar biladilar, bilimli va zakovatlilar tilaklariga yetadilar.

Bilim haqida nimalar deyilgan, bu soʻzning maʼnosini chaq, bilimli kishilardan balo-ofatlar yiroqlashadi.

Blimsiz kishilar misoli dardmand boʻladilar, dardni davolamagan kishi esa bevaqt oʻladi.

Kel, ey bilimsiz johil, dardingga davo qilgin, bilimsiz boʻlsang xoru zorsan, bilimlilar esa baxtiyordirlar.

Bilim misoli boshbogʻ kabidir, unga ega boʻlgan kishini u tilaklari sari eltadi, orzulari tomon boshlaydi.

Odamda zakovat boʻlsa nafi kattadir, bilim oʻrgangan kishlar aziz va qadrli boʻladilar.

Barcha ish-yumushlar zakovat tufayli bitadi, beklar ham davru davlatga bilim orqasidan erishadilar.

TILNING FAZILATLARI, FOYDA VA ZARARLARI HAQIDA

Zakovat va bilimning ochqichi tildir, odamni yorugʻlikka boshlovchi til – ravon tilni oʻrgangin.

Odamni til ulugʻlaydi, uni baxtiyor qiladi, shuningdek til odamni beqadr ham qiladi, uning boshiga balolar keltiradi.

Til qafasda yotuvchi arslon kabidir, qafasdagi gʻaddor vahshiy boshingga yetishi hech gap emas.

Til tufayli ozor chekkan odam nima deydi, eshit, bu soʻzga amal qilib oʻzingga manfaat ol:

Tilim meni juda koʻp kulfatlarga soladi, tilim mening boshimni kesmasidan burunroq men tilimni kesayin.

Soʻzlaringga ehtiyot boʻl, boshing ketmasin, tilingni tiyib tut, u tufayli tishing sinmasin.

Odamning tili yomon, u doim sen haqingda soʻzlaydi, kishilarning feʼli hasadli, ular seni gʻajishga ham tayyor turadi.

Bilimlilar til haqida puxta taʼlim bergandirlar: ey til sohibi, boshingni asragin, deganlar.

Sen oʻzingning eson-omonligingni istasang, tilingdan zinhor yaramas soʻzlarni chiqarmagin.

Bilib-tushunib soʻzlangan soʻz donolikdan dalolatdir, nodon-johilning soʻzi oʻz boshini yeydi.

Koʻp soʻzlashdan ortiqcha naf koʻrmaganman, soʻzning koʻpidan foyda ham topmaganman.

Soʻzni koʻp soʻzlamasdan biroz oz soʻzlagin, ming soʻzli chigalni bir soʻz bilan yechgin.

Odam soʻz tufayli ulugʻlikka erishadi, podsho boʻladi, koʻp va ortiqcha soʻz esa yuzni yerga qaratadi.

Haddidan ortiq soʻzlaganlarni ezma deyiladi, shuningdek hech soʻzlamaganlarni gung deb ataladi.

Modomiki shunday ekan, oʻrtacha yoʻriqqa amal qil, oʻrtacha yoʻriqqa amal qilgan odam yuksaklikka erishadi.

Tilingga juda ehtiyot boʻlgin, boshing omon saqlanadi, soʻzingni qisqa qilsang, yoshing uzayadi.

Tilning foydasi juda koʻpdir, sen oʻzingni bosib ol, til goho maqtaladi, goho tahqirlanadi.

Modomiki shunday ekan, soʻzni bilib soʻzla, soʻzing koʻrmas koʻrlar uchun koʻrar koʻz boʻlsin.

Bilimsiz kishi shubhasiz koʻrdir, kel ey bilimsiz nodon, bilimdan oʻzingga ulush olgin.

Tugʻilganlar oʻladi, nom-nishonsiz va izsiz boʻlib ketadi, soʻzingni ezgu soʻzlasang, oʻlsang ham soʻzing bilan mangu qolasan.

Odam ikki narsa tufayli qarimaydi: biri–yaxshi feʻli, ikkinchisi esa ezgu soʻzi.

Odam tugʻiladi va oʻladi, uning soʻzi qoladi, inson oʻladi, uning nomi mangu qoladi, buni unitma.

Oʻzing oʻlmas mangu nom istasang, feʻlingni va soʻzingni ezgu tutgin, ey dono.

Tilning foydasi va zararlari haqida anchagina gapirdim, bundan maqsadim senga ushbu soʻzlarni aytish edi.

Har qanday soʻzni soʻzlayverilsa, aqldan boʻlmaydi, odam kerakli soʻznigina soʻzlaydi, uni yashirmaydi.

Soʻzlarimni senga soʻzladim, ey oʻgʻlim, bu pand-nasihatlarini senga qildim, ey jigarbandim.

Mendan senga kumush va oltinlar qolsa, sen ularni bu soʻzlarga teng tutib almashmagin.

Oltin-kumushni ishga solsang tugaydi, olqinadi, soʻzlarimni ishga solib amal qilsang oltin-qumush keltiradi.

Odamdan odamga meros boʻlib soʻz qoladi, bu meros qolgan pand-nasihatlariga amal qilinsa nafi behisob boʻladi.

Yusuf Xos Hojibning «Qutadgʻu bilig»idan.

MENING OʻGʻRIGINA BOLAM

Otamizning oʻlganiga anchagina yil oʻtib ketdi. Bu yil – oʻn yettinchi yilning koʻklamida onamizdan ham ajralib, shum yetim boʻlib qoldik. Biz toʻrt yetimdan xabar olib turishga katta onam – onamning onalari Robiyabibi kelib turibdilar. Bu kishini biz erkalab «qora buvi» deb ataymiz.

Oqshomlari buvim boshliq hammamiz oldi ochiq ayvonda uvin-toʻda koʻrpa-yostiqlarga oʻralib, bittagina Oʻratepaning kir ip sholchasi ustida uxlaymiz.

Sentabr oylarining oxiri, ilk kuz oqshomlaridan biri edi. Havo anchagina salqin. Biz yetimlar bir-birimizning pinjimizga tiqilib, bir-birimizni isitib uyquga ketganmiz. Qatorda eng soʻnggi boʻlib, ona chumchuqday qora buvim yotardilar, u kishi saksondan oshib ketgan, noskash kampir edilar.

Bu oqshom uch xoʻroz oʻtgandan keyin, Yetti qaroqchi yulduzi tik kelganda gʻoʻngʻir-gʻoʻngʻir ovozdan uygʻonib ketdim. Buvim kim bilandir anchagina baland ovoz bilan suhbatlashmoqda edilar. Hovlimiz ota-buvadan qolgan, anchagina katta boʻlib, toʻrt burchak tanobi hovlilardan edi. Gir atrofi imorat, shimol tomonda amakivachchalarimiz turishardi. Lekin ular yozda boqqa koʻchib ketadilar. Hozir ular tomon boʻsh.

Buni qarang-a, bizning uyimizga oʻgʻri kepti. Bizni ham odam deb yoʻqlaydigan kishilar bor ekan-da dunyoda. Ertaga oʻrtoqlarimga rosa maqtanadigan boʻldim-da. «Biznikiga oʻgʻri keldi». Gʻurur bilan aytilsa boʻladi. Lekin ishonisharmikin?

Oʻgʻri oʻsha amakivachalarning tomidan sekin yura kelib, buvimning toʻgʻrilariga kelganda aksa urib yuboribdi. Buvim esa yostiqni koʻkraklariga qoʻyib, til tagidagi nos bilan oʻylab yotar ekanlar. Buvim puf deb nosni tuflab, tomga qarab:

– Oʻgʻrigina bolam, hoy oʻgʻrigina bolam, hoynahoy biror tiriklikning koʻyida tomga chiqqan koʻrinasan, axir kasbing nozik, tumov-pumovingni yozib chiqsang boʻlmaydimi, - debdilar.

Oʻgʻri tomdan turib:

– Axir, buvijon, siz ham birorgina kecha tinchingizni olib uxlasangiz boʻlmaydimi, bizning tirikchiligimizning yoʻlini toʻsaverasizmi? – debdi.

Men gap shu yerlarga kelganda uygʻonib ketgan boʻlsam kerak. Qolgan gaplarni eshitganimcha qilib yozaman.

– Hoy, aylanay oʻgʻrigina bolam, boshimda shunday musibat turganda koʻzimga uyqu keladimi. Mana, olti oy boʻldi, biror soat mijja qoqib uxlaganim yoʻq. Kunduz kunlari garangday dovdirab yuraman. Biror yerga oʻtirib mizgʻiganday qushuyqusi qilaman. Kechalari xayol olib qochib ketadi.

– Nimalarni xayol surasiz, buvijon? – Bu gapdan keyin ustidagi to'nini turmuchlab bo'g'otning ustiga yostiqliq qilib, o'g'ri ham yonboshlab oldi.

– Nimalarning xayolini surardim. Shu to'rtta yetimning ertasini o'ylayman-da. Zamoni o'zing ko'rib turibsan, tiriklik toshdan qattiq, tuyaning ko'ziday non anqoga shapig'. Hali bularning qo'lidan ish kelmaydi. So'qqaboshgina aravakash tog'alarining topgani o'zining ro'zg'oridan ortib, bularga qut-loyamut bo'lishi qiyin. Ro'zg'orda bo'lsa, ko'z ko'rib, qo'l tutguday arzigulik buyum qolgani yo'q. Bir chekkadan sotib yeb turibmiz. «Turib yeganga turumtog' chidamas», deganlar. Eh-a, bu bolalar qachon ulg'ayadi-yu, qachon o'zining nonini topib yeydigan bo'ladi. Chor-nochor xayol surasan, kishi. Tag'in bu yetimlarning bittaginasi o'g'il, uchasi qiz. Endi o'n to'rttdan o'n beshga o'tdi. Qizlari qurg'ur qachon bir yerga elashib ketadi-yu. O'zi o'rab, o'zi chirmab oladigan joy chiqmasa bularga kimning ham ko'zi uchib turibdi, deysan. Zamon qattiq, o'g'rigina bolam, zamon qattiq!

– To'g'ri aytasiz bo'vijon, - dedi o'g'ri, - mening ham ikki bolam, xotinim, bitta kampir onam bor, bir tovuqqa ham don kerak, ham suv kerak, deganlaridek, shularni boqishim kerak. To'rtta chavati non topish uchun o'zimni o'tga, cho'qqa, Alining tig'iga uraman. Bo'lmasa ishlay desam bilagimda quvvat bor, aqlu hushim joyida. Menga hozir shu qilib turgan o'g'rilik kasbi yoqadi deysizmi. Tuppa-tuzuk ayolomand kosibning bolasi edim. Zamon chappasiga ketdi. Kerinska poshsho bo'lgandan keyin urush to'xtaydi degan edilar. Hali-beri to'xtaydigan ko'rinmaydi. Hali ham zamon-zamon o'sha iligi to'qlarniki.

– Biror boshqa kasb qilsang bo'lmaydimi, bolam, - dedi kampir.

– Nima kasb qilay? Hamma kasblarning ham bozori kasod. Ota kasb kavushdo'zlikni qilaymi? Avvalo shuki, kavush tikishga na charm bor, na sirach, na mix, na lok. Masallig'ining o'zi, bitib chiqqan kavushdan uch baravar qimmat. Hammollik qilay desam, avvalgidek qoplab g'alla, qoplab savzi-sholg'om oladigan

badavlatlarning tuxumi qurigan. Tunov kuni shu mahallaning devkor etikdo'zlaridan Buvamat ota butun qolipu, shonu, so'zan, bigizlarini ulgurjisiga ikki pud jo'xori unga movaza qildi. Yaxshi qildi. Uning etigini kiyadigan o'zbek, qozoq, qirg'iz dehqonlari qayoqda deysiz, qolgan emas. Faqat ularning yetimlarigina shahrimizni to'ldirib yuribdi. Qaysi burchakka, qaysi chordevorga bosh suqmang, o'n beshta yetim yuvuqsiz qo'lini cho'zib «amaki non bering» deydi. Non-a, o'zimmikiga topolmaymanu. Bitta man emas, buvi, mahalladagi hamma kosiblarning ahvoli shunaqa. Pichoqchilar ham, bo'zchilar ham, ko'nchilar ham boringki, maktab domlari ham, mullavachchalarning ham rangi pano. Bir qoshiq obi yovg'onga zor. Sanqib yuribdi.

– Huv, xudoyo urushi boshiga yetsin. Qiyomat-qoyim degani shudirda-a, o'g'rigina bolam. Ha, mayli shu yetimlarning ham peshonasiga yozilgani bordir. Xo'sh, endi o'zingdan so'ray. Axir, noilojlikdan-ku, shu harom yo'lga qadam bosibsan, o'ziga to'qroq, badavlatroq odamlarnikiga borsang bo'lmaydimi? Mana, shu mahallada Karim qori degan chitfurush bor. Odilxo'jaboy degan pudratchi bor. Matyoqubboy degan ko'nchi bor. Bularning davlati-ku mil-mil. Beshikdagi bolasi ham chetiga bayt yozilgan chinni kosada osh ichadi. Shularning tomini teshsang bo'lmaydimi?

– Ey, buvim tushmagur, soddasiz-sodda, - dedi o'g'ri. – Boylarning uyiga tushib bo'ladimi, ularning paxsasi sakkiz qavat, eshiklari temirdan, har bittasining qo'rasida eshakday-eshakday ikkita, uchadan itlari bor. Bu itlar hovli sahnidan bitta kapalak o'tsa, bir hafta vovullaydi. Odilxo'jaboyning g'ulomgardishi(yo'lak)da-chi, miltiq ushlagan gorodovoy turadi. Jonimdan kechibmanmi, o'ldirmaganda ham Sibir qilib yuboradi.

– Bu gaping ham to'g'ri, o'g'rigina bolam. Ammo, lekin ehtiyot bo'l. El-yurtning oldida tag'in badnom bo'lib qolmagin, - dedi bizning kampir.

– Gapingiz to'g'ri, buvi, tunov kuni Orif sassiqning otxonasidan to'rtta tovuq, bitta xo'roz o'margan edim.

– Tovuq-xo‘roz dedingmi? Ha, bu maxluqlari qurg‘ur qaqqlab seni sharmanda qilmadimi?

– Hamma ishning ham o‘z maromi bo‘lar ekan buvi, tovuq olgani borganda cho‘ntagimga bir shishaga suv solib olaman. Keyin qo‘ndoqning tagiga borib, og‘zimni suvga to‘ldirib tovuqlarga purkayman. Tovuqday ahmoq jonivor olamda yo‘q. Yomg‘ir yog‘ayapti shekilli deb o‘ylab, boshini ichiga tiqib, xap yotaveradi, keyin bitta-bitta hiqildog‘idan tutib xaltaga solaman.

– Shunaqa degin, voy tovba-ey. Hamma hunarning ham o‘zining murti gardoni bo‘lar ekan-da.

– Shunday qilib desangiz, buvixon, sirimning xashagi ochilishiga oz qoldi. Yo‘q, ellikboshimiz Rahmonxo‘jaga xo‘rozni olib borib bergandim, ishni bosti-bosti qilib yubordi. Rahmonxo‘ja men bilan tuzuk, yaxshi odam. Bultur uni-buni sotib sakson uch so‘m pul jamg‘arib «topganimiz shu, ellikboshi ota» deb pora bergan edim, rabochiyga ketishdan olib qoldi.

– Ha, ishqilib, bola-chaqasining egiligini ko‘rsin. Endi bu yoqqa qara, o‘g‘ri bolam, hademay tong ham yorishib qolar. Ana yorug‘ yulduz ham tikka kelib qoldi. Oshxonaning yonidagi tutdan sirg‘alib pastga tush. O‘tinimiz yo‘q, oshxonada bir zamonlar bog‘dan kelgan bir-ikkita yong‘oq to‘nka bor, boltani olib, shuning bir chekkasidan ozgina uchirib ber, qumg‘on qo‘yaman. Kecha tog‘ang berib ketgan zog‘aradan ikkitasini olib qo‘yganman, birgalashib choy ichamiz.

– Yo‘g‘-e, buvi, - dedi o‘g‘ri, - to‘nka yorib-ku berarman, ammo choy icholmayman, chunki kun yorishib qolsa, meni tanib qolasiz. Juda ham yuzimni sidirib tashlaganim yo‘q, andisham bor, uyalaman.

– Voy o‘lay, qutlug‘ uydan quruq ketasanmi, bolam. Bir nima olib ket. To‘xta, nima olib ketsang ekan, ha, darvoqi, oshxonada bitta yarim pudlik qozon bor. Allazamonlar uyimizda odamlar ko‘p edi, katta qozonda osh ichardik. Xudoning g‘ashiga tegdik, shekilli, shundoq katta, gurkiragan xonadondan mana shu to‘rttagina yetim qolib turibdi. Eh-a, bular qachon katta qozonni qaynatar edi-yu...

SHuni olib keta qol. Sotib bir kuningga yaratarsan, o‘g‘rigina bolam.

– Yo‘q, yo‘g‘-e, buvi, yomon niyat qilmang. Ha-huv deguncha bu kunlar ham unut bo‘lib ketadi. Yana katta oilalar jam bo‘ladi. Hatto bu qozon ham kichiklik qilib qoladi. O‘sha yetimlarning o‘ziga buyursin. To‘ylarida o‘ynab-kulib xizmat qilaylik. Xayr endi buvi, men ketaman, tog‘ tomon ham yorishib qoldi.

– Xayr, o‘g‘rigina bolam, kelib tur.

– Xo‘p, ona, xo‘p.

* * *

Men o‘sha o‘g‘ri kishini tanir edim. Haligacha hech kimga kimligini aytgan emasman.

G‘afur G‘ulom (1965)

AFANDI O‘LMAYDIGAN BO‘LDI

Afandi daladan bir eshak o‘tin terib, shahar bozoriga olib tushib, uch miriga sotdi. Qishloqqa qayta turib yo‘l yo‘lakay eshak qadamidan zerikib o‘sha uch mirilik kumush tangani o‘ynab kelar edi: tangani o‘ng bosh barmog‘ining ustiga qo‘yib chertib yuborar, chap qo‘lining kaftida ilib olar, yana chap bosh barmog‘i tirnog‘iga qo‘yib chertib yuborar, o‘ng kafti bilan ilib olar edi. Tanganing bir tomonida poshsholik muhr, ikkinchi tomonida «Hoqon ibni Hoqon Sulton Sulfiddinxon G‘oziy» deb yozilgan tamg‘asi bor edi. Afandi tanganing o‘ngi-tersiga istehzo bilan qarab:

– Ey, tavba, bir misqol kelar-kelmas qalay aralashgan kumush bo‘lsa, ikki tomonida aji-buji xatlari bo‘lsa, na san‘ati, na qadr-qiymati bo‘lsa, ana shu bir burda tangaga ne-ne kishilar muhtoj bo‘lsa, ne-ne barno ayollar, ne-ne azamat davangiday yigitlar sakkaz no‘xat og‘irligidagi shu temirga ertadan qaro kechgacha ishlasa... Shu tangang bo‘lmasa, obro‘ying bir pul, aqlu farosating, ilding hemiri, qavmu qarindosh begona, do‘stu oshno sendan uzoq, hamma eshiklar betingga yopiq, bozor-o‘chardan qadaming

qirqilgan, bola-chaqa och, o'zing yalang'och. Ajab zamona ekan-da.

Ajib zamonada qoldik, yaqolar bo'ldi etak,
Bo'z paytava bo'ldi, boshga chiqdi patak.

Bunga sen nima deysan, hangihofizi mayda qadam?

Eshak Afandining so'ziga «ma'qul» deganday boshini silkitib quloqlarini bir-biriga urishtirib bedana yurish qilib ketib borardi. Afandi tanga o'ynashda davom etar edi.

Kech kirib qolgan. Uchko'prik degan yerga yetganda ro'baro'sidan bir oqsoq it chiqib hura boshladi. Afandi ham, eshak ham shunga alahsiy ketib tanga itqinib yerga tushdi, yerdagi qaysidir toshga jiring etib urilib qaygadir yo'qoldi. Afandi topaman degan xayol bilan eshakdan bafurja tushib, tangani qidira ketdi. Ko'tarib qaramagan bir toshi qolmadi. Tanga yer yutganday nom-nishonsiz edi. Qosh qorayib shom tushdi. Topolmasligiga ko'zi yetib, tanga yo'qolgan joyiga atrofdagi katta-kichik toshlarni yig'ib kelib qo'ydi. Erta bilan barvaqt kelib yana qidiraman, degan o'y bilan qishlog'iga jo'nadi.

Erta bilan tong saharda kelib yana qidirdi. Tangadan nom-nishon topilmadi. Shunda Afandining xayoliga bir gap kelib qoldi:

– Iya, nega men avval o'ylamabman! Kecha oqshom ham mendan boshqa kishilar shu yerdan o'tgandir yoki bugun mendan oldin bir necha kishi shahar tomon tushgandir. Nahotki shulardan birontasi mening tangamni topib olmagan bo'lsa. Shulardan surishtirish kerak!

Shu payt ustidan belini bog'lagan, hachir mingan bir yigit shahar tomon zudlik bilan o'tib qoldi. Afandi shoshilib uning jilovidan ushladi:

- Qayoqqa ketayotibsan?
- Amakim vafot qilib qoldilar, janozaga aytib yuribman.
- Bu yerdan kecha ham o'tganmiding?
- Ha, kechqurin tabib olib o'tgan edim.
- Ha, barakalla! Tangani cho'z! – dedi Afandi.
- Qanaqa tanga, - dedi yig'lamsirab yigitcha.

– Mug'ambirlik qilma! Qanaqa tanga bo'lardi, uch mirilik buxor tangasi, sendan boshqa it olarmidi, bu yoqqa cho'z!

– Man tanga-panga ko'rganim yo'q, qo'yvoring, mulla aka! O'lik muntazir bo'lib qoladi.

– O'liging bilan ishim yo'q, tangani cho'z! Bo'lmasa xachirdan ag'darib do'pposlayman.

Janozaga odam aytishdan kechikayotgan yigitcha adi-badi aytib o'ltirishning foydasizligini anglagach, yonchig'ini kavlab uch miri chiqarib berdi-da, shoshilib jo'nab ketdi. Afandi tangani kaftiga olib o'ngi, terisini sinchiklab ko'rdi.

– Yo'q, bu mening tangam emas. Mening tangamda Sulton Sulfiddinxon degani qiyshiqroq yozilgan edi. O'zimmiki topilmaguncha qidiraman. Ammo bu ham ortiqcha qilmaydi, - deb yonchig'iga solib qo'ydi. Xarsangga o'ltirib yo'l quzatdi. Bu navbat shahardan sakkizta xurmacha, katta sut chelak ko'targan o'rta yashar bir qatiqfurush obkash ko'tarib yayov kelar edi. Unga:

– Bir nafas to'xtang, jonidan akasi! Shu yo'ldan qachon o'tgan edingiz? – dedi yumshoqlik bilan Afandi.

– Ilk tongda, Cho'lpon yulduzi ko'tarilganda.

– Barakalla, - dedi Afandi. – Qani, tangani cho'zing!

– Qanaqa tanga?

– O'smoqchilamang, uka! Shu yerda kecha bitta buxor tangasi yo'qolgan. Uni sizdan boshqa hech kim topib olmagan, albatta. Shu pulni cho'zing!

– Bo'lmagan gap!

Gap mojaroga aylandi. Mojaro mushtlashuvga. Bir xurmacha sinib, sut chelakning qorni pachoq bo'ldi. Afandiga kuchi yetmasligiga ko'zi yetgan qatiqfurush bitta uch mirilikni boshidan yetti aylantirib Afandiga uzatdi:

– Ma, ol, yo'lto'sar ablah! Bola-chaqangga osh bo'lmasin, yug'uchingga buyursin.

U so'kina-so'kina singan xurmachasiga, noo'rin ketgan uch mirisiga achinib yo'lida ravona bo'ldi. Afandi undan qoqib qolgan tangani ham tekshirib:

– Yo‘q, bu mening tangam emas. Bu tanganing kungirasi siyqalanib ketibdi. Meniki zarbdan yangi chiqqan edi... Hay, mayli, bu ham bir kunga yarab qolar, - deb kissaga uribdi.

Bugun Afandi o‘tgan-ketganlardan besh-o‘n tanga olib qolgan bo‘lsa ham, bu tangalar yo‘qotgan tangasiga o‘xshamas edi.

Hazil-hazil bora-bora kasbga aylanib, Afandi Uchko‘prik boshida besh yilu uch oy qolib ketdi. Har kuni o‘tgan-ketgandan o‘z tangasini so‘roqlab, ba‘zilar bilan yaxshilikcha, ba‘zilar bilan mushtlashib uch miridan olib qoladigan bo‘lib qoldi. Kuniga o‘n, o‘n besh tanga tushib tursa ham, lekin bu tangalar yo‘qotgan tangaga o‘xshamas edi. Afandi o‘z tangamni topmay qo‘ymayman, deb qasam ichib qo‘yganligi uchun o‘z ahdidan qaytmas edi. Daladan shaharga, shahardan dalaga o‘tguvchi yo‘lovchilar Afandining bu tiqilishiga ko‘nikkan edilar.

– Nazarmat, qaysi yo‘ldan ketamiz, uch miri jinni tomondanmi yoki uzoqroq bo‘lsa ham G‘irvon oshib ketamizmi? – desa, boshqa biri:

– Menda tanga bor, yaqingina Uchko‘prikdan ketaveramiz, - derdi kulib.

...Ammo tepada xudo bor. Afandining qilig‘iga hamma ko‘niksa ham, xudo ko‘nikmas edi. Besh yilu uch oydan beri bitta oq bulutga yonboshlab, uzun rezinka nayli chilimda takbas chekib kayf qilib, cho‘zilib yotgan xudo Afandining qiliqlariga g‘ashi kelib uni kuzatar edi. Oxiri chidolmadi. Bitta yugurdak farishtani zing‘illatib Azroilni chaqirtirdi. Vazifasi kishilar jonini olish bo‘lgan qo‘rqinchli Azroil qo‘ltig‘iga bir katta kitobni qisib, xudoning oldiga kelib ta‘zim qildi. Xudo Afandini ko‘rsatib:

– Bor! Anov bandaning yo‘qotgan uch mirisini topib ber, keyin jonini ol! U mening ham, boshqa bandalarning ham joniga tegdi, - dedi.

Azroil pastga qarab:

– Iya, bu mulla Nasriddin Afandi-ku, - dedi.

– Ha, o‘shaning jonini ol!

Azroil qo‘ltig‘idagi ro‘yxat kitobining «N» harifidan Nasriddin Afandini topib, Xudoga murojaat etdi:

– Soqolingga sadaqa bo‘lay, xudojonim, o‘zing yozgan mana bu taqdir kitobida Afandining o‘lishiga hali yigirma bir yil bor, ajali yetmagan. Agar hoziroq jonini olsam, yerdagilar orasida janjal ko‘tariladi. «Va‘dasida turmaydigan beburd Xudo», - deyishadi, senga ishonmay qo‘yishadi.

– Bo‘lmasa, qo‘rqit, cho‘chit, bu hunarini qilmasin. Boshqa yengilroq hunar o‘rgatib chiq.

– Xo‘p, - dedi-yu, bitta chikkabel farishtani yetaklab yerga tushdi. Azroil, eshak arava mingan handalakfurush dehqon siyoqida Afandiga ro‘baro‘ bo‘ldi.

– Bu yerdan qachon o‘tgan eding? – dedi Afandi unga do‘q aralash.

– Bugun ertalab.

– Bu yerda uch mirilik bitta tanga yo‘qolgan. O‘shani sendan bo‘lak it ham olmagan. Shu tangani egasiga, ya‘ni menga qaytar-da, yo‘lingga ketaver.

– Bo‘lmagan gap, - dedi Azroil. – Sen besh yilu uch oydan buyon uch miringni bahona qilib xudoyim bandalaridan necha o‘n ming undirib olding. Bo‘ldi qil! Bo‘lmasa, hozir joningni olaman!

– Joningni olaman?! Sen Azroilmiding?!

– Bo‘lmasam-chi! – Azroil shu zamoniyoq, o‘z dahshatli qiyofasiga, eshagi esa chiroyli bir farishtaga aylandi. Afandining yuragi «shuv» etib ketgan bo‘sa ham, sir boy bermadi:

– Bitta emas, yetti Azroil birdan kelganingda ham jonimni olib bo‘psan, gapni aylantirmay tangani cho‘z!

Azroil bilan farishta, Afandi shuncha yillardan beri po‘stak solib o‘ltiradigan katta harsangni ag‘darib tashladilar-da, tagidan qumu tuproqlarni tirnoqlari bilan tirmalab, ko‘karib, zanglab ketgan tangani Afandiga olib berdilar:

– Ma, ol, to‘ymagur! Bu, o‘sha sen yo‘qotgan tanga.

Afandi, zihlaridan o‘zi yo‘qotgan tangasini tanigan bo‘lsa ham, tan olmadi:

– Bu meniki emas. Mening tangam yangi edi. O‘zimmiki topilmaguncha shu yerda o‘ltirganim-o‘ltirgan.

– Endi o‘ltirmaysan, - dedi Azroil. – Biz senga oson daromadli kasb o‘rgatamiz, kuning yetib o‘lguningcha bemalol bolachaqaqni boqasan.

– Qanaqa hunar ekan? O‘zimmikidaqa mo‘may kasbni topib bo‘larmidi, - dedi Afandi.

– Biz senga tabiblikni o‘rgatamiz, - dedi Azroil...

– Tabibchilikka ilm kerak, men esam g‘irt savodsizman, alifni kaltak deya olmayman, qizamiq bilan chipqonni bir-birovidan ajratolmayman, taqsir, - dedi Afandi.

– Tabibchilikka ilmning hojati yo‘q. Xuddi sendaqa avomlardan tabibning zo‘ri chiqadi, - dedi Azroil.

– Xotiningga elliktacha xalta tiktirasan. Xaltalarga har xil o‘tlarni quritib, uqalab solasan. Besh-olti shishada har xil rangorang suvlar tayyorlaysan. Mahallangga borib, tushimda hazrati Luqmon og‘zimga tupurib ketdi, tabib bo‘ldim deysan. Sal kunda dovrug‘ing olamni bosib ketadi. Qolganiga men yordam beraman.

– Sen qanday yordam berarding?

– Iya, aytdim-ku, axir, men Azroil – o‘lim farishtasiman. Kimning ajali yetganini mendan oldin biladigan kishi yo‘q. Kim o‘ladi, kim qoladi, men senga ishoratlar bilan ma‘lum qilib turaman, ya‘ni bir odam kasal bo‘ldi, seni tabib deb chaqirtiradilar, sen bilan qo‘shilishib men ham boraman. Sen meni ko‘rasanu, xaloyiq meni ko‘rmaydi. Agar men borib kasalning oyoq tomonida o‘ltirsam bilginki, har qanday og‘ir kasal bo‘lsa ham sog‘ayib ketadi. Ana shunga qarab ishingni qilaverasan.

Afandi goh ishonib, goh ishonmay, bu muomalaga ko‘ndi. Mahallaga qaytib, o‘zini «tabib» deb e‘lon qildi. Ko‘pchilik Afandini mayna qilib kuldi, ko‘pchilik jinniga chiqardi. Bir qism kishi ishondi ham. Asta-sekin Afandining shuhrati ko‘tarilib, ixlosmandlar orta bordi. Chunki uning ishlariga, bilasizki, Azroil sherik edi. Ha-hu deguncha, hakimi hoziq mulla Nasriddinning ovozasi elu yurtga tarqab ketdi. Kimni qoladi desa qoladi, o‘ladi

desa o‘ladi. Tabibgarchilikdan keladigan daromad katta. Ichki-tashqilik tunuka tom, xo‘roz karnaylik imoratlar, qo‘sh xotin, to‘rt kelin, yegani oldida, yemagani ketida, bisotu bag‘al, haddan ziyod, elu yurt o‘rtasida obro‘si bashang, bosar-tusarini bilmay kekkayib ketgan...

Ana shu zaylda yigirma bir yil o‘tib ketdi. Osmondagi xudoning katta kitobi hisobida Afandining o‘lim kuni yetib keldi. Bu gaplardan bexabar Afandi o‘zining kasal qabul qiladigan mehmonxonasida sherigi Azroilni kutib o‘ltirar edi. Soat o‘ndan ham oshib ketdi, Azroildan darak yo‘q. Eshikda odamlar kutar, Afandi mehmonxonaning u yog‘idan-bu yog‘iga yurib so‘kinardi.

– Bu nima degan gap! Sherik bo‘lgandan keyin xizmatga o‘z vaqtida kelish kerak-da!

Kuta-kuta charchadi shekilli, baxmal ko‘rpacha to‘shalgan parqu yostiqli so‘riga borib yastandi. Shu tobda desangiz, Azroil ko‘kdan inib tushib, to‘g‘ri Afandining oyog‘i tagiga o‘ltirdi. Afandi qo‘rqib ketsa ham, bilib bilmaslikka olib, oyog‘ini yig‘ishtirdi. Azroilni koyigan bo‘ldi. Yon cho‘ntagidan yo‘g‘on zanjirli, qo‘ng‘iroqli tilla soatini olib:

– Mana, qara, soat ham sal kam o‘n bir bo‘libdi. Eshikda qirq choqli kasal kutib o‘ltiribdi. Sen bo‘lsang arshi a‘loda qaysi hur qiz bilan bekinmashoq o‘ynab yurganikinsan...

– Shunaqamikin, - dedi tabassum bilan Azroil, - ammo bugun sizning navbatingiz. Xudoning osmondagi katta kitobida sizning o‘limingiz bugun soat o‘n biru o‘ttiz yetti minutga tayin qilingan. Men yigirma bir yillik qadrdonlik yuzasidan qirq minutcha oldin tushdim. Bola-chaqalarigizni, yor-oshnolaringizni chaqiring, vasiyat qiling. Keyin men og‘ritmay avval esingizni, keyin joningizni olaman.

– Bo‘lmagan gaplarni qo‘ying, - dedi Afandi, dovdிரaganidan sansirashni ham esdan chiqarib. – Endigina tabiblik hunarining mag‘ziga yetib, og‘zimiz oshga yetganda o‘limdan gapirmang! Yana biron o‘n-o‘n besh yil totuvlashib ish qilaylik.

– Iloji yo‘q, - dedi Azroil. – Qazoyi qadarni o‘zgartirolmayman. Tayyorgarlikni ko‘ring! Gap bilan bo‘lib, mana yana to‘rt minut o‘tib ketdi.

Afandi yana anov-manov deb gap cho‘zayotgan edi, Azroil shig‘ etib Afandining yarim beligacha jonini olib qo‘ydi. Afandi juda qo‘rqib ketdi.

– Hoy-hoy, to‘xtang, to‘xtang, bu nima qo‘pollik! Hali vaqtim bor. Mana endi bu gap bo‘pti, - deb kuldi-da, Azroil jonning tanobini bo‘shatib o‘z joyiga qo‘ydi, - vasiyatni boshlang, Afandim!

– Vasiyat shuki, - dedi Afandi, - men o‘z umrimda xudoyimga ko‘p gunoh qilgan bandaman. Xudoning bandalariga yo‘qolgan tangam vajidan besh yillab ozor berganman. Endi xudoyimga yig‘lab tavba qilishim kerak. Ikki rakaat namoz o‘qib, iltijo qilishim kerak. Dargohi keng xudoyim, zora gunohlarimdan kechsa, siz ham qasam iching. Shu ikki rakaat namozimni o‘qib bo‘lmagunimcha jonimni olmay turasiz.

Azroil maslahat so‘raganday osmonga qaradi. Xudo hali ham o‘sha oq bulutga yonboshlab takbas qilib kayf surar edi. Azroilning savol nazariga: «Mayli, Afandiga ijozat bera qol, ikki rakaat tavba namozini o‘qisa o‘qiy qolsin», - deganday chap ko‘zini qisib ijozat berdi. Shundan keyin Azroil Afandiga qarab:

– Xo‘p, mayli, namozingizni o‘qing. O‘qib bo‘lguningizcha joningizni olmayman.

– Barakalla, - dedi Afandi. So‘ng xotirjam nosqovog‘ini olib o‘zi kaftini to‘ldirib bitta otdi. – Ma, sen ham otasanmi? Juda zo‘r! Qoraqishloqning talqonidan!

Azroil xo‘mrayib qarab indamadi. Afandi tashqariga chiqib tahorat qilib keldi. Makkaning surati solingan joynamozini yozib, qiblaga qarab imirsilab namoz boshladi. Azroil jon oladigan asboblarini tayyor qilib kuzatib turardi. Afandi bir rakaatgina namoz o‘qib o‘ltirdi. Salom berib, yuziga fотиha tortdi. Bu degani namoz tamom bo‘ldi degani edi. Hovliqib qolgan Azroil:

– Iya, Afandim, namozingiz chala qoldi-ku, qolgan bir rakaatini o‘qimaysizmi?

– Vaqtim yo‘q, - dedi iljayib Afandi, - eshikda bemorlar kutib qolishdi. Qolgan bir rakaatini dunyodan zerikkanimda o‘qiyman. Hayot juda shirin narsa, hunaring jon olish bo‘lgandan keiyn sen buni tushunarmiding, ablah!

Ana shu-shu bo‘ldi-yu, Afandi o‘lmaydigan bo‘ldi, u bizning hayotiy olamimizda bizning hamma ishlarimizga aralashib, kuldirib, xushnud qilib yuribdi. Azroil bo‘lsa uning orqasidan bir rakaat namozini qistab necha yuz yillardan beri ovora...

G‘afur G‘ulom (1965)

MULLA NASRIDIN AFANDI VA SHAYTON ALAYH UL-LA’NA

Kech bahor ayyomida Mulla Nasriddin Afandi o‘z yaqin do‘stlari – Ahmadali va Jo‘ravoylar bilan Oqtosh qishlog‘iga sovchilikka borib, quruq qaytib kelar ekanlar. Do‘rmon degan qishloqqa kelganlarida katta bir salqin olchazorga duch kelibdilar. O‘ninchi sinf qizlariday qator, bir tekis ekilgan olchalar o‘rtasidan birinchi sinf bolalariday shovqin-suron solib ikki tegirmon suvli ariq sharqirab oqib yotar ekan.

– Kelinglar, shu so‘lim yerda ozgina dam olaylik, - depti Jo‘ravoy.

Uchovlari ariq labiga cho‘qqayibdilar. G‘arq pishgan olchalar marjonday tizilib ularning boshi ustida mayin shabadada tebranib turar ekan. Rad etilgan sovchilikdan hasratlashib, qo‘l uzatib olchalardan uzib yeb, bekorchilikka ermak danagini ikki barmoq o‘rtasida xuddi kim o‘zar o‘ynaganday «tirs-tirs» etib ariqning narigi betiga otib o‘tirar ekanlar.

Ana shunda desangiz, xuddi qiyomat-qoyim bo‘lganday bo‘libdi. Yer osma ko‘prikday tebranib ketibdi. Yer qa‘ridan o‘kirgandaymi, bo‘kirgandaymi guldiros tovushlar chiqibdi.

Innakeyin desangiz, shudgorlab qo'yilgan yerning o'rtasidan «g'urru-g'urru-gumbur» deganday ovoz kelib yer qoq yorilibdi. Yer yorig'idan bir bochka neftga o't ketganday tim qora, quyuc tutun osmonga o'rlab chiqibdi. Ikki terak bo'yimi, uch terak bo'yimi chiqqandan keyin yana quyilib yerga cho'ka boshlabdi. Odam bo'yidan sal balandroq yerda to'xtab shaklga kira boshlabdi. Bir emas – ikkita, katta-kichiklik.

– Ota-bola dev kelyapti! – debdi Ahmadali.

– Rostdan-a? – debdi Jo'rovoy, u ham yana bitta olchani mahkam quchoqlab.

– Xaf turlaring, hozir nimaligi bilinadi, - debdi o'rtada o'tirgan Afandi pinagini buzmay.

Keyin desangiz, haligi bahaybat maxluq kichkinasini bir qo'lidan yetaklab ular tomon kela boshlabdi. Kattasining ikkita parmagajak shoxi bor, qorayu uzun shokildali dumi bor. Kichkinasining shoxi endi bo'rtgan, bir ko'ziga katta paxta qo'yib, ustidan ingichka qora latta bilan boylangan. Buning dumi ham kalta – bir qarich kelar-kelmas.

Bu maxluq uch bahodir o'g'lonlarning oldiga kelib:

– Kim bu yerda olcha yegan? – deb na'ra tortibdi.

– Uchalamiz ham olcha yeb o'tiribmiz, - deпти Afandi.

– Tirsillatib danak otgan qaysi birlaring?

– Uchalamiz.

– Ha-ha! – deпти o'shqirib, - bilasanlarmi, men Shayton bo'laman! Danak otganda ko'zlaringga qarab otsalaring bo'lmaydimi! Mana, mening qo'zichoqlarim yong'oq tagida o'ynab yurishgan ekan, bitta danak kelib mana bu kenjatoyimning ko'zini chiqarib qo'yibdi.

– Bo'lmagan gap, - deпти Afandi, - avvalo shuki, sen Shayton emassan. Bizga tuhmat qilyapsan.

– Shaytonman! – deпти qobonnikiday qayqi tishlarini qirtillatib, - asli biz bir otadan egizak tug'ilganmiz. Otamiz birimizga Rahmon deb, birimizga Shayton deb ism qo'ygan. Biz – Hasan-Husan o'g'illar har kuni mushtlashaverganimizdan keyin otamiz zerikib

yerni bizga bo'lib berib qutuldi. Rahmonga yerning yuzi-yu, menga yerning qa'ri tegdi. Rahmon senlarga xudo bo'lib qoldi. U ahmoqqa tekkan narsalarni qarang – mana shu o'tu o'lanlar, oltita yong'og'u bir kaft mayiz, senga o'xshash ahmoq bandalar. Men – Shaytonga-chi? Yerning qa'ridagi butun boyliklar, konlar, xazinalar, o't pusqurib turgan vulqonlar... Men hozir senlarni o'g'limni ko'r qilganlaring jazosi uchun yer qa'riga – jahannamga olib tushib ketaman, dodingni xudoga ayt. Qah-qahlab kulibdi.

– Shayton bo'p bo'psan, dedim-ku, - deпти Afandi, - hali ham gap shu, Shayton emassan. Shaytonlar ko'pincha odamlar o'rtasida yuradi. Sen juda nari borsa biror jahannamdan qochgan piyonista devdirsan.

– I-ya, - deпти boyagi maxluq, - Shaytonligimga ishonmasang qudratimni ko'rsataman. Nima istaysan?

Afandi o'ng tomonda o'tirgan Ahmadaliga qarab:

– Uka, shu ablahga bir qiyin ish buyurib daf' qilib yubor, - deпти.

– Agar Shayton bo'lsang, - deпти Ahmadali endi o'ziga kelib, - shu jilg'ani orqasiga qaytarib oqiz. Har ikki qulochda bittadan fontanchasi ham bo'lsin.

– Ha-ha-ha! Shu ham gapmi! Mana qarab tur bo'lmasa, - deb qo'ltig'idan titilib ketgan telefon daftarchasiday kitobini olib, filning o'pkasiday lablarini shivirlatib:

– Zumbayk, vili-tili-nadze, zum-baykvi, zum-bayk va kuf! – deb duo o'qib suvga ufuripti.

Ana shunda desangiz, haligi sho'x-shotir ariqcha avvaliga shippa to'xtadi, keyin g'izillaganicha orqasiga oqa boshladi. Har ikki quloch yerda chopayotgan saman otning dumiday fontanchalar qalqirab turardi.

– Qoyilman, - dedi xo'rsinib Ahmadali. – Men Shaytonligingga ishondim. Qani, jahannamingga boshla.

– To'xtab tur, - dedi haligi maxluq, - bular ham ishonsin, hammangni birga qo'shib olib ketaman.

– Qani endi sen, Jo‘ravoy uka, o‘zing puxtaroq bir nima devor, bu to‘ngbo‘yinni mot qilib yubor!

– Agar Shayton bo‘lsang, - dedi Jo‘ravoy uh tortganday, - shu yeb o‘tirgan olchalarimizning tanasi kumushdan, yaproqlari zumraddan, mevalari yoqutdan bo‘lib qolsin.

– Vo hah-ha-ha. Shuni o‘ylab topdingmi? Mana qarab tur, - qo‘ltiq daftarchasini olib «O» harfini qidirdi (olchani), so‘ng duo o‘qiy ketdi:

– Ko-bakay – yo-chil-ozo, chun-zuhu-ozo, chun-zuhu-digan tunzu... Kuf, suf! – deb olchalarga dam urdi. Ana innakeyin qarabsizki, haligina mayin yelda hilpirab turgan yaproqlardan bodroq qovrilayotgan paytdagi qozonga o‘rilgan kappir ovozi chiqa boshladi.

Qani endi birorta mevasini uzib bo‘lsa! Uch kishilashib arang uchta olchani uzib olib og‘zilariga solishsa - g‘ajir-g‘ujur toshginaning o‘zi.

– Men boshidayoq Shayton ekanligingni sezgan edim, - dedi ixrab Jo‘ravoy, - muncha cho‘zildilaring, qani ketaveraylik, Ahmadali bo‘lar ish bo‘ldi...

– Qani endi sen nimani istaysan? – dedi shayton Afandiga qarab.

– Xo‘p bo‘pti, Shayton bo‘lsang Shaytondirsan. Bizning yerda, odamlar o‘rtasida ko‘pchilikning aytganiga bo‘ysinish degan muqaddas qoida bor. Bu ikkovi seni Shayton deb tanigandan keyin men nima der edim. Qani yo‘l boshla. Ketsak ketdik-da. Ko‘r bo‘lib boqib olarsan...

– To‘xta, - dedi Shayton, - yo‘q, bu yo‘ling ketmaydi.. Sen bularning ichida mahmadona, makkorroq, so‘zamolroq ko‘rinasan. Yer ostiga olib tushsam butun xo‘jaligimning to‘s-to‘polonini chiqarib, odamlarimni yo‘ldan uradiganga o‘xshaysan. Kel, seni ham, meni ham armonimiz qolmasin, orani ochiq qilib olaylik. Buyur, nima hunar ko‘rsatay?

– Buyurganimni qilolmasang, nima bo‘ladi, - dedi miyig‘ida kulib Afandi.

– Nima, nima? Mening qo‘limdan kelmaydigan ish ham bor deb o‘ylaysanmi? Men sening xudoyingga o‘xshagan o‘z bandalaridan qo‘rqadigan emasman. Men vulqonlar, zilzilalar hukmdoriman.

– Bo‘lmasa yaqinroq kelib menga qulog‘ingni tut, - dedi Afandi.

Shayton bukila kelib qora quyoning terisidek shalpang qulog‘ini Afandiga tutdi (Ma‘lumki, Afandining oldida bitta tishi yo‘q, shu tish o‘rnidan ko‘pincha «chirt-chirt» tupurib ham yurardi, to‘rtinchi sinf o‘g‘il bolalariday uzoqdagi birovni ham shu yerdan «Hush-sh-t» deb chaqira olar edi). Ana shu tish orqasidan cho‘zibroq egovni arraga surganday g‘ash keltiradigan qilib hushtak chaldi. So‘ng:

– Eshitdingmi? – deb so‘radi Shaytondan.

– Ha, eshitdim. Oddiy hushtak, - dedi Shayton.

– Bo‘lmasa sen ham armonda qolma. Bu qulog‘ingni ham tut. Shaytonning bu qulog‘iga ham hushtak chalib qo‘ydi.

– Bunisi-chi?

– Bunisi ham hushtak, - dedi Shayton.

– Barakalla, - dedi Afandi, - Shayton bo‘lsang, qani bir qudratingni ko‘rsatib ana shu hushtaklarga sakkiztadan tugma qadab ber.

(Shayton shu damgacha hushtakka tugma qaday olganini hech bir manbadan uchrata olmadik – G‘.G‘.).

Shayton hang-mang bo‘lib qoldi. Bu hangamalarga tomoshabin bo‘lib turgan o‘g‘liga yaqinlashib, uning g‘uloq-chakkasiga tortib yubordi:

– Padar la‘nat shaytonvachcha, hamma ayb o‘zingda ekan! Qani yur, qolgan jazoni onangdan olasan...

Yana yer osma ko‘prikday silkindi. Bu silkinishdan sovchilikday uzoq yo‘ldan quruq qaytayotib horib uxlab qolgan uch og‘ayni cho‘chib uyg‘onib ketdilar.

B Y E M O R

O‘TMISHDAN

Osmon yiroq, yer qattiq.

Maqol

Sotiboldining xotini og‘rib qoldi. Sotiboldi kasalni o‘qitdi – bo‘lmadi, tabibga ko‘rsatdi. Tabib qon oldi. Betobning ko‘zi tinib, boshi aylanadigan bo‘lib qoldi. Baxshi o‘qidi. Allaqanday bir xotin kelib tolning xipchini bilan savaladi, tovuq so‘yib qonladi... Bularning hammasi, albatta, pul bilan bo‘ldi. Bunday vaqtlarda yo‘g‘on cho‘ziladi, ingichka uziladi.

Shaharda bitta doktorxonaga bor. Bu doktorxonaga to‘g‘risida Sotiboldining bilgani shu: salqin, tinch parkda, daraxtlar ichiga ko‘milgan baland va chiroyli oq imorat; shisha qabzali kulrang eshigida qo‘ng‘iroq tugmasi bor. Chigit po‘choq va kunjara bilan savdo qiladigan xo‘jayini Abdug‘aniboy omborda qulab ketgan qoplar ositida qolib o‘ladigan bo‘lganida bu doktorxonaga bormay Simga¹ ketgan edi. Doktorxonaga deganda Sotiboldining ko‘z oldiga izvosh va oq podshoning surati solinga 25 so‘mlik pul kelar edi.

Bemor og‘irlashdi. Sotiboldi xo‘jayinining oldiga arzga bordi, ammo bu borishdan muddaosi nima ekanini aniq bilmas edi. Abdug‘aniboy uning so‘zini eshitib ko‘p afsuslandi, qo‘lidan kelsa hozir uning xotinini oyoqqa bostirib berishga tayyor ekanini bildirdi, keyin so‘radi:

– Devonai Bahovaddinga hech narsa ko‘tardingmi? G‘avsula‘zamga-chi?

Sotiboldi ketdi. Bemorning oldidan jilmaslik va shu bilan birga tirikchilik uchun xonaki bir kasb qilishga majbur bo‘ldi – har xil savatchalar to‘qishni o‘rgandi. U ertadan kechgacha oftobshuvoqda gavronlar ichiga ko‘milib savat to‘qiydi. To‘rt yashar qizchasi qo‘liga ro‘molcha olib, onasining yuzini karaxt, nimjon, xira

pashshalardan qo‘riydi, ba‘zan, qo‘lida ro‘molcha, mukka tushib uxlab qoladi. Hammayoq jim. Faqat pashsha g‘ing‘illaydi, bemor inqillaydi, har zamon yaqin-yiroqdan gadoy tovushi eshitiladi: «Hey do‘st, shaydullo banomi ollo, sadaqa raddi balo, baqavli rasuli xudo...»

Bir kechasi bemor juda azob tortdi. U har ingraganda Sotiboldi chakkasiga burov solingan kishiday talvasaga tushar edi. Qo‘shnisi – bir kampirni chaqirdi. Kampir bemorning to‘zigan sochlarini tuzatdi, u yoq-bu yog‘ini siladi, so‘ngra... o‘tirib yig‘ladi.

– Begunoh go‘dakning saharda qilgan duosi ijobat bo‘ladi, uyg‘oting qizingizni! – dedi.

Bola anchagacha uyqu g‘ashligi bilan yig‘ladi, keyin otasining g‘azabidan, onasining ahvolidan qo‘rqib, kampir o‘rgatganicha duo qildi:

– Xudoyo ayamdi daydiga davo beygin...

Bemor kundan-kun battar, oxiri o‘sal bo‘ldi. «Ko‘ngliga armon bo‘lmasin» deb «chilyosin» ham qildirishga to‘g‘ri keldi. Sotiboldi to‘qigan savatchalarini ulgurji oladigan baqqoldan yigirma tanga qarz ko‘tardi. «Chilyosin»dan bemor tetik chiqqanday bo‘ldi, shu kechasi hatto ko‘zini ochib, qizchasini yoniga tortdi va pichirladi:

– Xudo qizimning saharlari qilgan duosini dargohiga qabul qildi. Dadasi, endi tuzukman, qizimni saharlari uyg‘otmang.

Yana ko‘zini yumdi, shu yumganicha qaytib ochmadi – saharga borib uzildi. Sotiboldi qizchasini o‘lik yonidan olib, boshqa yoqqa yotqizayotganda qizcha uyg‘ondi va ko‘zini ochmasdan odatdagicha duo qildi:

– Xudoyo ayamdi daydiga davo beygin...

Abdulla Qahhor (1936)

1. Sim – hozirgi Farg‘ona shahri

O'zining aytishiga ko'ra «nafis adabiyot muallimi» o'rtoq Boqijon Baqoyev og'ilga kirib ta'bi xira bo'ldi: sigirning qulog'iga yana kana tushibdi! Kanadan ham ko'ra sigir uning achchig'ini keltirdi: kanani teray desa qo'ymaydi – boshini silkiydi, pishqiradi.

– Hayvon! Sigir emas, hayvon! – dedi og'ilning eshigini qattiq yopib. – Hayvon!

Xotini Mukarram hovlida samovarga suv quyay edi.

– Hayvon! – dedi Baqoyev, - bu sigirni sotib puliga cho'chqa olish kerak!

– Shaharda cho'chqa asrash mumkin emas, - dedi Mukarram samovarga ko'mir solayotib.

– Nima uchun? Taqiq qilinganmi? Kim aytdi? Men aytib edimmi? To'g'ri, mumkin emas... albatta, mumkin emas...

– Uyga kiring Hamida keldi.

Hamida o'n olti yoshlardagi tiyrak, quvnoq qiz, pochchasini ko'rib sevinib ketdi.

– Siz uyda ekansiz, bilsam daftarimni olib kelar ekanman... esizgina...

O'rtoq Boqijon Baqoyevning ta'bi ochildi – sigir, uning qulog'idagi ko'm-ko'k kana, g'o'qillab tumshug'i bilan ariq yoqalarini buzib yurgan cho'chqa ko'z oldidan ketdi.

– Texnikumdan rabfakka o'tibsan deb eshitdim, rostmi? – dedi. – Hmm... yaxshi qilibsan. Rabfakka o't, deb men aytib edim shekilli? Hmm... Auff, zarda bo'libman... Rabfak yaxshi. Men bir borgan edim. Kanselyariyaning eshigiga praktikum deb yozib qo'yipti. To'g'ri emas. Praktikum, minimum, maksimum bular hammasi lotincha yoki lotinchaga yaqin so'zlar. Men shaxsan shunday deb bilaman.

Bir oz jim qolishdi.

– Boqijon aka, - dedi qiz uyalibroq, - bir narsani sizdan so'ramoqchi edim: biz sinfda Chexovning «Uyqu istagi»ni o'qidik, go'dakni o'ldirgan qizni sud qilmoqchimiz. Da'vogar go'dakning onasi – Rahima bo'ladi, qoralovchi – Sharifjon. Sudyalar ham

bo'ladi. Men qizni oqlab, butun gunohni uning xo'jayiniga, yosh qizni bu qadar berahm ekspluatatsiya qilgan kishiga qo'ymoqchiman. Man shu... Shuni yozdim. Shu to'g'rida sizning fikringizni bilmoqchiman. Chexov shunday demoqchi emasmi?

O'rtoq Baqoyev o'ylab turib so'radi:

– Nafis adabiyot darsini sizlarga kim beradi? Hakimov? Ahmoq odam! O'z ustida ishlaymaydi. Savol alomati hamma vaqt «mi»dan keyin qo'yiladi desam, kuladi. Gap bunda ham emas...

Mukarram samovar ko'tarib kirdi. Hamida irg'ib turib, samovarni opasining qo'lidan oldi va stolga qo'ydi. U homilador xotonga samovar ko'tartirib, qarab o'tirgan pochchasidan o'pkalamoqchi edi, biroq uyaldi, indamadi. O'rtoq Boqijon Baqoyev juda chanqab turgan ekan, ustma-ust to'rt piyola choy ichdi va terladi.

– Chuchvaradan keyin choy juda yaxshi ketadi-da, - dedi yuzidagi terni artib. – Hmm... soqol ham o'sipti, sartarosh bo'lmasa odamlar maymun bo'lib ketar ekan. Maymun juni to'kilib odam bo'lgan. Bu haqda Engelsning fikri bor...

– Haligini aytmadingiz, Boqijon aka, - dedi qiz. – Chexov shunday demoqchi emasmi?

O'rtoq Baqoyev yana bir piyola choy so'radi.

– Chexovmi? Hmm... burjuaziya realizmi to'g'risida so'zlaganda eng avval uning ob'ektiga diqqat qilish kerak. Burjuaziya realistlari tushungan, ular aks ettirgan ob'ektiv voqelikni anglash lozim bo'ladi. Turgan gapki, Chexovning ijodi boshdan-oyoq, butun mohiyati bilan ilk burjuaziya realizmi, ya'ni... hmm... Mukarram, tovuqqa moyak qo'ydingmi? Qo'yish kerak, bo'lmasa daydi bo'lib ketadi... Tavba, tovuqdan ahmoq jonivor yo'q – moyak qo'ysang tug'adi! Nima uchun moyak qo'ysang tug'adi? Xo'roz nima uchun sahar chog'i qichqiradi? Ajoyib psixologiya! Biologiya o'qiysizlarmi?

Hamida biologiyadan nimalar o'qiganini, bu o'qish yilida yana nimalar o'tilajagini so'zlab berdi va o'zining oqlash nutqida

fiziologik asoslar ham ko'rsatish niyati bor ekanini aytib, yana so'zni Chexov ustiga burdi.

– Hmm... – dedi Baqoyev, - Chexov to'g'risida o'zinning fikrim bor. Boshqalar nima desa desin, har holda uning dunyoga qarashida... Uning dunyoga qarashi Pushkin va Lermontovlarning dunyoga qarashidan farq qiladi. Bir davr, bir sinf, bir mamlakat yozuvchilari bo'lishlariga qaramasdan mutlaqo farq qiladi!

– Chexov Pushkin bilan bir davrda yashagan emas-ku, - dedi Hamida, - bizning kutubxonada uning Maksim Gorkiy bilan oldirgan surati bor. Chexov 1904-yilda o'lgan bo'lsa kerak.

O'rtoq Baqoyev bir oz o'ng'aysizlandi.

– Sizlar qaysi Chexov to'g'risida gapirayotibsizlar? Choydan quy!.. Bu Chexov haqidami? To'g'ri, bu 1904-yilning birinchi yarmidami, ikkinchi yarmida o'lgan... Boshqa ro'molcha ber, bundan piyoz hidi kelayotipti. Men ana u Chexov, ilk burjuaziya realizmining namoyandasi bo'lgan Chexov haqida so'zlayotibman.

– «Uyqu istagi» qaysi Chexovniki? – dedi Hamida.

– Hech shubhasiz, bu Chexovniki. Bu narsa birinchi marta «Sovremennik» jurnalida bosilgan.

Shundan keyin o'rtoq Boqijon Baqoyev uzundan-uzoq so'zlab ketdi. Uning nima to'g'rida so'zlayotganini Hamida bilmas edi. Detirding degan qandaydir mashhur tanqidchi Shelling degan yozuvchiga «sen dastyorga zor bo'lguncha o'g'ling dastyor bo'ladi» deb xat yozgan; Marks Dobrolyubovni Mering bilan bir qatorga qo'ygan; Stending degan allaqanday bir dramaturg o'lar chog'ida Demping degan bir tanqidchiga: «Agar butun jonivorlarni xudo yaratgan bo'lsa, men uning zavqiga qoyil emasman, echkemar ham jonivor bo'ldimi?» degan... Hamidaning boshi og'irlashib ketdi, ikki marta sekin, og'zini ochmasdan esnadi.

Hamida mezbonlar bilan xayrlashib ko'chaga chiqqanda qorong'i tushgan edi, «Uyqu istagi» to'g'risida pochchasidan hech qanday fikr ololmadi. Uning so'zlaridan nima olgani haqida o'ziga hisob berar ekan, g'uvillab turgan boshida shundan boshqa hech

narsa yo'q edi: praktikum, minimum, maksimum; Detirding, Stending, Shelling, Mering, Demping...

Abdulla Qahhor (1937)

II. NAZARIY MATERIALLAR

LEKSIKOLOGIYA. O'ZBEK TILINING LUG'AT BOYLIQI. SO'Z. ATAMA. IBORA.SO'ZLARINING SHAKL VA MA'NO MUNOSABATIGA KO'RA TURLARI. SINONIMLAR. OMONIMLAR. ANTONIMLAR. PARONIMLAR.

Leksikologiya. Tilshunoslikning leksikologiya bo'limi tilning lug'at tarkibini o'rganuvchi soha hisoblanadi. Tilda mavjud bo'lgan barcha so'zlarning yig'indisi lug'at tarkibini tashkil etadi. Lug'at tarkibi shu tilda so'zlashuvchi xalqning ijtimoiy tarixi, moddiy va ma'naviy madaniyati tarixi bilan, qisqa qilib aytganda, lug'at tarkibi shu xalqning butun hayoti bilan to'la bog'langan bo'ladi.

So'z. So'z tushunchalarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Tushunchalar esa so'zlar orqaligina moddiy xususiyat kasb etadi. So'z oddiy tushuncha nomini ifodalashdan tashqari, kishining anglatayotgan narsa yoki hodisaga nisbatan bo'lgan ijobiy yoxud salbiy munosabatini ham ifodalaydi. Bir tushunchani ifodalovchi *bet, yuz, chehra, jamol, ruxsor, uzor, diydor, oraz, bashara, turq, aft, angor* so'zlari o'zining ijobiy yoki salbiy ma'no qirralari bilan bir-biridan farqlanadi. Demak, so'z tovush yoki tovushlardan tashkil topib, biror ma'no bildiruvchi nutq birligidir.

O'zbek tili ham dunyodagi lug'at tarkibi boy tillar qatoriga kiradi. O'zbek tilining davlat tili huquqiga ega bo'lishi bilan uning ijtimoiy vazifasi yanada kengaydi. Bu esa o'zbek tilining rivojlanishiga, lug'at tarkibining yanada boyishiga, sayqal topishiga keng imkoniyat yaratadi.

O'zbek xalqi o'zining ko'p asrlik tarixida boshqa xalqlar bilan iqtisodiy, madaniy va siyosiy aloqada bo'lganligi tufayli

uning lugʻat tarkibiga boshqa tillardan koʻplab soʻzlar oʻzlashgan. Oʻzbek tili lugʻat tarkibidagi soʻzlarni uning oʻz leksik qatlami va oʻzlashgan qatlamlarga boʻlish mumkin. Oʻzbek tilining oʻz leksik qatlamiga umumturkiy soʻzlar va oʻzbek tilining oʻzigagina tegishli boʻlgan soʻzlar kiradi. Bu qatlam lugʻat tarkibining oltmish foizdan koʻprogʻini tashkil etadi.

Fors-tojik, arab va rus tillari oʻzbek tiliga koʻproq taʻsir etgan tillar hisoblanadi. Umumiy olganda, bu tillar va ular orqali boshqa tillardan oʻzlashgan soʻzlar oʻzbek tili lugʻat tarkibining oʻttiz-oʻttiz besh foizini tashkil etadi.

Soʻzlar bir yoki birdan ortiq maʼnolarga ega boʻlishi mumkin. Masalan, *yer* soʻzi planeta, uning quruqlik qismi, planeta qobigʻining sirtqi qatlami, ekin ekiladigan maydon, joy, biror mamlakatga tegishli hudud, masofa, biror narsaning boʻlagi, ish joyi kabi oʻndan ortiq maʼnolarga ega boʻlsa, *chugalchang* yoki *chumchuq* soʻzlari bir maʼnolidir.

Atama. Ilm-fan, adabiyot, sanʼat, texnika, qishloq xoʻjaligi kabi sohalarga oid maʼlum tushunchani ifodalovchi soʻz yoki soʻz birikmasi atama deb yuritiladi. Atamalar, asosan, bir tushuncha – bir maʼnoni ifodalash uchun xizmat qiladi. Chunki fanda bir atama bilan bir necha maʼnolarni ifodalash ijobiy hol sanalmaydi. Ammo maʼlum bir soha uchun atama boʻlgan soʻz oʻsha doiradan tashqarida boshqa maʼnolarda ham qoʻllanaverishi mumkin. Masalan: *ega, kesim, toʻldiruvchi, aniqlovchi, hol, ot, sifat, son, feʼl, ravish* va hokazo.

Ibora. Ikki va undan ortiq soʻzlardan tarkib topgan va umumiy bir maʼnoni anglatadigan til birligiga *ibora* yoki frazeologizm deyiladi. Har bir tilning lugʻat boyligini leksik birliklar – soʻzlar bilan bir qatorda, iboralar ham tashkil etadi. Iboralar ham soʻzlar kabi yaxlit bir maʼno bildiradi. Biroq soʻz va ibora anglatgan maʼnolar bir-biriga teng kelmaydi. Chunki iboralar koʻchma maʼnoga asoslanganligi uchun ular anglatgan maʼnoda boʻyoqdorlik, obrazlilik, his-hayajon ifodalash kuchliroqdir. Masalan: *xursand – ogʻzi qulogʻida; yoʻqotmoq – yer bilan yakson*

qilmoq; qoʻrqoq – chumchuq pir etsa, yuragi shir etadigan... . Iboralar ham gapda soʻzlar kabi bitta gap boʻlagi vazifasida keladi hamda har doim soʻzlar kabi nutqqa tayyor holda kiritiladi. Masalan: *U qoʻy ogʻzidan choʻp olmagan yigit.*

Iboralarda ham xuddi soʻzlardagi kabi omonimlik, sinonimlik, antonimlik va variantlilik hodisalari mavjud.

Lugʻat tarkibida shunday soʻzlar ham borki, ular shakl va maʼno munosabatiga koʻra quyidagi guruhlarni hosil qiladi: 1. Shakldosh soʻzlar (omonimlar). 2. Maʼnodosh soʻzlar (sinonimlar). 3. Zid maʼnoli soʻzlar (antonimlar). 4. Talaffuzida oʻxshash soʻzlar (paronimlar).

Omonimlar. Omonimlar talaffuz va yozilishiga koʻra bir xil, ammo anglatgan maʼnosiga koʻra turli xil boʻladi. Omonim soʻzi grekcha boʻlib, bir xil demakdir. Omonimlar, asosan, bir soʻzdagi koʻp maʼnolilik, turli soʻzlardagi fonetik oʻzgarishlar, boshqa tillardan soʻz oʻzlashtirish natijasida hosil boʻladi. Masalan: *sir – davlat siri, oynaning siri, kostrulning siri; ot – ism, hayvon, atama, feʼl* kabi.

Omonimlar badiiy adabiyotda, ogʻzaki nutqda, ayniqsa, askiyada soʻz oʻyini, qochiriq maʼnolarni ifodalash uchun keng qoʻllaniladi. Shuningdek, oʻzbek adabiyotida omonim soʻzlar qofiyasiga asoslangan tuyuq janri ham mavjud.

Sinonimlar. Sinonimlar yozilishi va talaffuzi jihatidan turlicha, anglatadigan maʼnolari esa oʻzaro yaqin boʻlgan soʻzlardir. Sinonimlar tushuncha ifodalashda bir-biriga qanchalik yaqin boʻlsalar ham, maʼno nozikligini ifodalashda bir-biridan farq qiladi. Masalan: *odam, inson, kishi, kimsa, bashar, shaxs* soʻzlarini har doim ham biri oʻrnida ikkinchisini qoʻllab boʻlmaydi. *Osmon, koʻk, havo, falak, samo, gardun* soʻzlari ham maʼno qirralari va qoʻllanish uslubi hamda doirasi jihatidan oʻzaro farqlanadi. Sinonim soʻzlar majmuiga sinonimik qator deyiladi. Sinonimik qatorni tuzishda maʼnosiga koʻra betaraf boʻlgan soʻz asos qilib olinadi.

Sinonimlarning fikrni aniq va maqsadga muvofiq qilib ifodalashda ahamiyati kattadir. Shuning uchun ham o'zbek yozuvchilari, shoirlar, olimlari tilimizning omonim, sinonim so'zlaridan mohirlik bilan foydalanishib, mazmunan boy, til jihatdan rang-barang badiiy, ilmiy asarlar yaratib kelmoqdalar.

Antonimlar. Bir-biriga zid, qarama-qarshi ma'nolarni ifodalovchi so'zlar antonimlardir. Antonimlar tabiatan biri ikkinchisini inkor etadigan so'zlardir. Antonimlar bir-birini inkor etish bilan bir qatorda, ularda yangi bir tushunchani ifodalash yetakchi o'rin tutadi. Masalan: *yosh – yosh emas* so'zi bilan antonim bo'la olmaydi. Chunki *yosh* bo'lmagan odam, qari bo'lmashligi ham mumkin. *Yosh – qari* esa bir-birini inkor etish bilan yangi bir ma'noni anglatadi. Shuningdek, *keldi-kelmadi, o'tirdi-o'tirmadi, oldi-olmadi* kabi fe'lning tasdiq-inkor shaklidagi so'zlar ham o'zaro antonim hisoblanmaydi. Chunki ular bir o'zakdan hosil bo'lgan o'zakdosh so'zlardir. *Keldi-ketdi, o'tirdi-turdi, oldi-berdi* so'zlari esa o'zaro antonimlardir.

Antonimlarda bir-birini inkor etish darajasi ham bir xil bo'lmaydi. Masalan: *past-baland, oq-qora* so'zlarida qarama-qarshi ma'no ifodalash kuchli, *er-xotin, aka-uka, chol-kampir, oqshom-nahor* so'zlarida esa kuchsizdir. Vaholanki, bu so'zlar ham biri ikkinchisining zidi hisoblanadi.

Tilda mavjud so'zlarning barchasi ham o'z antonimiga ega emas. Yoki aksincha, bir so'zning bir necha antonimi bo'lishi ham mumkin. Masalan: *qattiq-yumshoq; qattiq-saxiy* kabi.

Antonimlar belgi-xususiyat, miqdor, o'rin, payt, harakat, holat ifodalaydigan so'zlarda ko'proq bo'lib, aniq narsalarni ifodalaydigan so'zlarda kam uchraydi. Antonimlar nutqda juft holda ham ko'plab qo'llanadi. Masalan: *Hozir oq-qora televizorlar juda kam ishlab chiqariladi.* Antonimlar badiiy adabiyotda, og'zaki nutqda narsa va hodisalarni tavsiflash, uning sifatini aniq va obrazli qilib ko'rsatish uchun qo'llanadi.

Paronimlar. Yozilishi va ma'nosi farqli bo'lib, talaffuzidagina o'xshash bo'lib qoladigan so'zlarga paronimlar

deyiladi. Paronimlar so'zlarni adabiy til me'yori-qoidalariga mos talaffuz etmaslik, adabiy talaffuz me'yorlarini, so'zning fonetik tuzilishini bilmaslik natijasida sodir bo'ladi. Masalan: *asr-asir, amr-amir, azm-azim, abzal-afzal, dars-darz, mard-mart, tuna-to'na, olis-alis, siyla-sila, tus-to's, zirak-ziyrak, fakt-pakt, oxir-oxur...*

Xulosa qilib aytganda, o'zbek tilining lug'at tarkibi juda boy. Uning leksik qatlamlarida umumturkiy, o'zbek tilining o'ziga xos, forscha-tojikcha, arabcha, ruscha va rus tili orqali boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar ham mavjud. O'zlashgan so'zlar ham allaqachonlar o'zbek tilining lug'at boyligiga aylanib ketgan. Biz o'zbek tilining lug'at boyligini qunt bilan o'rganishimiz, adabiy til me'yorlariga qat'iy rioya etishimiz lozim.

MORFOLOGIYA. OT. TURDOSH OTLAR. ATOQLI OTLAR. YAKKA OTLAR. JAMLOVCHI OTLAR. ANIQ OTLAR. MAVHUM OTLAR. KO'PLIK KATEGORIYASI. EGALIK KATEGORIYASI. KELISHIK KATEGORIYASI. SODDA OTLAR. QO'SHMA OTLAR. JUFT OTLAR.

Grammatika tilshinoslikning bir qismi hisoblanib, morfologiya va sintaksis bo'limlarini qamrab oladi. Unda tilning grammatik qurilishi o'rganiladi. Morfologiya grek tilidan (morfe-shakl, logos-so'z) olingan bo'lib, so'zlarning tuzilishi, o'zgarishi hamda so'z turkumlarining o'ziga xos qonuniyatlarini tadqiq etadi.

Morfologiya. Tilshunoslikning bu bo'limida so'z turkumlari, ularning o'ziga xos xususiyatlari o'rganiladi.

Ot. Ot so'z turkumi o'zbek va rus tillarida shaxs, narsa, voqea-hodisa va boshqalarning nomini bildiradi. Har ikkala tildagi ot so'z turkumining mushtarak tomonlari bilan bir qatorda, farqli jihatlari ham bor. Bular quyidagilar:

1. O'zbek tilida otlar jonli va jonsiz turlarga bo'linmaydi. Rus tilida otlar shunday guruhlariga bo'linadi.

2. O'zbek tilida *kim?* so'rog'i faqat insonlarga nisbatan qo'llanadi. Rus tilida esa *кмо?* so'rog'i barcha jonli mavjudotlarga nisbatan qo'llanaveradi.

3. O'zbek tilida *nima?* so'rog'i insondan boshqa barcha narsalarga nisbatan qo'llansa, rus tilida *что?* so'rog'i faqat jonsiz narsalarga nisbatangina ishlatiladi.

4. O'zbek tilida *kim?* va *nima?* so'roqlari *kimlar?* va *nimalar?* tarzida ham qo'llanadi. Rus tilida bu so'roqlarning ko'plik shakli mavjud emas.

5. Ilmiy manbalar, darslik va qo'llanmalarda o'zbek tilida grammatik jins kategoriyasi yo'q deb e'tirof etiladi. Rus tilida esa mujskoy, jenskiy va sredniy rodlar mavjud. O'zbek tilida uchraydigan *adib – adiba, shoir – shoir, muallim – muallima* kabi so'zlar bundan mustasno. Bu so'zlar arab tilidan o'zlashgandir.

6. O'zbek tilida qarashlilikni ifodalovchi egalik kategoriyasi mavjud. Rus tilida bu vazifani egalik olmoshlari bajaradi.

7. O'zbek va rus tillarida oltitadan kelishik mavjud. Biroq o'zbek tilida творительный va предложны kelishiklari, rus tilida esa o'rin-payt va chiqish kelishiklari mavjud emas.

8. O'zbek tilida ot so'z turkumiga oid barcha so'zlar kelishik qo'shimchalarini olib turlanadi. Rus tilida esa ayrim so'zlar kelishiklar bilan turlanmasligi mumkin.

9. Rus tilida faqat birlik yoki ko'plik shaklida qo'llanadigan otlar mavjud. O'zbek tilida esa otlarning bunday xususiyati yo'q.

10. Rus tilida otlarning tugallanmasiga asoslanib ularning ma'lum grammatik jinsga yoki ot so'z turkumiga taalluqli ekanligini bilsa bo'ladi. O'zbek tilida esa so'zning ot yoki boshqa biror so'z turkumiga qarashli ekanligini faqat uning ma'nosi orqaligina bilish mumkin. Bu xususiyat barcha mustaqil so'z turkumlari uchun ham xosdir. Masalan:

Ot	Sifat	Fe'l
<i>qo'ra</i>	<i>qora</i>	<i>qara</i>
<i>asal</i>	<i>kasal</i>	<i>tuzal</i>
<i>o'q</i>	<i>oq</i>	<i>chaq</i>

<i>o'rtoq</i>	<i>qo'rqq</i>	<i>qo'rq</i>
<i>tosh</i>	<i>bo'sh</i>	<i>tush</i>

Ko'rinadiki, so'zlarning qaysi turkumlarga mansubligini bilish uchun ham ularning lug'aviy ma'nosidan xabardor bo'lish lozim.

O'zbek tilida otlar dastlab ikki turga bo'linadi. 1. Turdosh otlar. 2. Atoqli otlar.

Turdosh otlar bir turdagi narsalarning nomini bildiradi: *bola, ota, odam, gul, yaproq, qor, uzum, bog', qush, olma* kabi.

Atoqli otlar shaxslar, narsa, voqea-hodisa, tashkilot va muassasalar, asarlar, gazeta-jurnallar, geografik joylar, hayvonlarga atab qo'yilgan nomlardir: *Mahmud, Samarqand, «Xalq so'zi» gazetasi, «Fan va turmush» jurnali, «Xamsa» dostoni, Navro'z bayrami, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Boychibor* kabi.

Jamlovchi otlar bir xildagi narsalarning jamini anglatuvchi otlardir: *xalq, olomon, guruh, to'da, gala, qo'shin, poda* kabi.

Aniq otlar kishi sezish a'zolariga ta'sir etuvchi narsalarning nomlarini anglatadi: *bo'yoq, yomg'ir, tam, hid, havo, quyosh, muz, paxta, shira, tosh* kabi.

Mavhum otlar inson ongi orqali idrok qilinishi mumkin bo'lgan tushunchalarning nomlarini anglatadi: *ong, fikr, xayol, baxt, shodlik, quvonch, sevgi, qo'rquv, hayajon*, kabi.

O'zbek tilida ko'pgina atoqli otlar turdosh ot, sifat, fe'l kabi boshqa turkumlarga oid so'zlar asosida paydo bo'ladi: *Lola, Ra'no, Qo'chqor, Arslon, Shirin, Buyuk, Aziz, Turdi, O'lmas, Tursun* kabi.

Ko'plik kategoriyasi. O'zbek tilida ko'plik kategoriyasi ikki usul bilan hosil bo'ladi: 1. Morfologik usul. 2. Sintaktik usul.

Birinchi usulda otlarga **-lar** qo'shimchasi qo'shilib ko'plik hosil qilinadi: *qushlar, yo'llar, dalalar, qishloqlar* kabi.

Ikkinchi usulda ko'plik so'zlar yordamida hosil qilinadi: *bir to'p bola, o'nta bola, bir guruh bola, ko'p bola, bir necha bola, bir to'da bola, ancha bola* kabi.

O'zbek tilida quyidagi to'rt guruh otlar odatda ko'plik qo'shimchasi olmasdan qo'llanadi:

1. Atoqli otlar: *Toshkent, Anvar, Zarafshon, Urgut* kabi.
2. Donalab sanalmaydigan otlar: *shakar, guruch, suv, choy, sut, neft, tuz, tuproq, qum, un* kabi.
3. Mavhum otlar: *baxt, do'stlik, quvonch, hayot, ishq, qayg'u* kabi.
4. Inson tanasi a'zolari nomlari: *soch, ko'z, quloq, qo'l, oyoq, tish, lab., tirnoq* kabi.

Egalik kategoriyasi. O'zbek tilida u yoki bu narsa, buyumning uchala shaxsdan biriga tegishli ekanligini ifodalash uchun otlarga ma'lum egalik qo'shimchalarini qo'shish lozim.

Ular quyidagilar:

Birlik sonda			Ko'plik sonda	
Shaxs	Unlidan so'ng	Undoshdan so'ng	Unlidan so'ng	Undoshdan so'ng
I	<i>tog'a-m</i>	<i>kitob-im</i>	<i>tog'a-miz</i>	<i>kitob-imiz</i>
II	<i>tog'a-ng</i>	<i>kitob-ing</i>	<i>tog'a-ngiz</i>	<i>kitob-ingiz</i>
III	<i>tog'a-si</i>	<i>kitob-i</i>	<i>tog'a-lari(si)</i>	<i>kitob-lari(i)</i>

Odatda egalik qo'shimchasini olgan so'zdan oldin qaratqich kelishigidagi so'z keladi: *Mening baxtim, akamning shimi, sening so'zing* kabi.

Quyidagi uch holatda so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilishi bilan so'z o'zagida o'zgarish yuz beradi:

1. So'zning o'zagi [k] tovushi bilan tugagan bo'lsa, bu tovush [g] tovushiga aylanadi: Masalan: *telpak, uzuk, ertak* kabi. *Telpagim, telpaging, telpagi, telpagimiz, telpagingiz, telpaklari* kabi.

2. So'zning o'zagi [q] tovushi bilan tugagan bo'lsa, bu tovush [g'] tovushiga aylanadi. Masalan: *o'rtoq, qishloq, barmoq, qoshiq, sochiq* kabi. *O'rtog'im, o'rtog'ing, o'rtog'i, o'rtog'imiz, o'rtog'ingiz, o'rtoqlari* kabi.

3. Quyidagi so'zlarga qo'shilganda so'z oxiridagi unli tovush tushib qoladi: *o'g'il, singil, ko'ngil, bo'yin, bo'g'iz, og'iz, burun,*

qorin, shahar kabi. *O'g'lim, o'g'ling, o'g'li, o'g'limiz, o'g'lingiz, o'g'illari* kabi.

Ammo bu qoidalarga *ishtirok, idrok, polk, bank, tank, blok, park, erk, burk, yuk, huquq, haq, zavq, xalq, xulq, axloq, nutq* kabi so'zlar bo'ysunmaydi.

Kelishik kategoriyasi. O'zbek tilida oltita kelishik bor. Kelishik qo'shimchalari so'zlarni o'zaro sintaktik aloqaga kiritib, ularni bir-biriga bog'lash uchun xizmat qiladi.

1. **Bosh kelishik.** Morfologik ko'satkichi, ya'ni qo'shimchasi yo'q. Bosh kelishikdagi so'z kim? nima? qayer: so'roqlaridan biriga javob bo'ladi. Bosh kelishikdagi so'z asosan ega yoki ot-kesim vazifasida keladi. SHuningdek bosh kelishik shakli izohlovchi, undalma, sifatlovchi-aniqlovchi vazifalarida ham kelishi mumkin.

Ega: *Alisher Navoiy 1467-1469 yillarda Samarqand shahrida yashagan.*

Kesim: *Kamoliddin Behzod - buyuk rassom.*

Undalma: *Bahodir, bugun darsga soat nechada borasan?*

Izohlovchi: *Professor Xudoyberdi Doniyorov o'zbek shevalari haqida yirik ilmiy tadqiqotlar yaratdi.*

Aniqlovchi: *Sho'rva yog'och qoshiq bilan ichiladi.*

2. **Qaratqich kelishigi.** Qo'shimchasi **-ning**. Kimning? nimaning? qayerning? so'roqlariga javob bo'ladi. Nutqda belgisi, ya'ni qo'shimchasi qo'shilgan holda va belgisiz, ya'ni qo'shimchasi yashirin holda qo'llanadi. Gapda faqat qaratqichli aniqlovchi bo'lib keladi.

Belgisi: *Universitetning hovlisida katta oshxona bor.*

Belgisiz: *Tog' echkilari qishda pastga tushadi.*

Qaratqich kelishigi qarashlilikni ifodalash uchun xizmat qiladi. Bunda qaratqich kelishigidagi so'zdan keyingi so'z tegishli shaxsdagi egalik qo'shimchasini olgan bo'ladi. Masalan: *mening kitobim, sening daftaring, uning qalami, bizning uyimiz, sizning hovlingiz, ularning ko'chasi* kabi. Narsa-buyum aniq bir shaxsga tegishli bo'lganda qaratqich kelishigi belgisi holda, qarashlilik

mavhum, umumiy bo'lganda belgisiz holda qo'llanadi. Masalan: *akamning do'sti, opamning xonasi, cho'l havosi, majlis qarori, shahar ko'chalari, qishloq bolalari* kabi.

3. **Tushum kelishigi.** Qo'shimchasi –**ni**. Kimni? nimani? qayerni? so'roqlariga javob bo'ladi. Bu kelishik ham nutqda belgili yoki belgisiz holda qo'llanadi. Gapda faqat vositasiz to'ldiruvchi vazifasini bajaradi. Tushum kelishigidagi so'z umumiylikni, noaniqlikni ifodalasa, belgisiz holda bo'ladi. Aniq bo'lganda esa belgili holda qo'llanadi. Masalan: *she'r o'qiyapman – Abdulla Oripov she'rini o'qiyapman. Film ko'ryapman – «Kelinlar qo'zg'oloni» filmi ko'ryapman* kabi.

Atoqli otlar, olmoshlar, egalik qo'shimchasini olgan so'zlar, sifatdosh va harakat nomlari belgili holda qo'llanadi. Masalan: *Alisherni ko'rdim. Ahmadni chaqiring, daftarimni bering, ukamni yubordim, o'qishni bitirdim, yozishni o'rgandim; Eshikdan kelganni it qopmas* kabi.

4. **Jo'nalish kelishigi.** Bu kelishikning qo'shimchasi so'zning qanday tovush bilan tugashiga qarab uch xil ko'rinishda qo'shiladi: **-ga, -ka, -qa**. Agar so'zning o'zagi [g], [k] tovushlari bilan tugagan bo'lsa, **-ka** qo'shimchasi, [g'], [q] tovushlari bilan tugagan bo'lsa, **-qa** qo'shimchasi, qolgan barcha hollarda **-ga** qo'shimchasi qo'shiladi. Kimga? nimaga? qayerga? qachon? so'roqlariga javob bo'ladi. Masalan: *barg – barkka, eshikka, ellikka, tog' – toqqa, boqqa, qishloqqa, tuzoqqa, qarmoqqa, to'yga, shaharga, ko'lga, maqsadga, do'konga* kabi. Faqat bu qoida rus tilidan o'zlashgan *geolog, filolog, biolog* kabi so'zlarga tadbiq etilmaydi: *geologga, filologga, biologga* kabi bo'ladi. Bu kelishikdagi so'z gapda vositali to'ldiruvchi va hol vazifalarini bajaradi. Masalan: *Akamga zardo'zi chopon sotib oldik. Yozda Baxmal tog'iga dam olgani boramiz. Maktab qurilishi yana yozga qoldirildi.*

Og'zaki nutqda jo'nalish kelishigining belgisiz qo'llanish hollari ham uchraydi. Masalan: *Yakshanba kuni Urgut bordik. Kelasi hafta Toshkent bormoqchimiz.*

5. **O'rin-payt kelishigi.** Qo'shimchasi –**da**. Kimda? nimada? qayerda? qachon? so'roqlaridan biriga javob bo'ladi. Gapda vositali to'ldiruvchi va hol vazifalarida keladi. Masalan: *Na'matakda S darmondorisi ko'p. Talabalarda til o'rganishga qiziqish katta. Samarqandda oltita oliy o'quv yurti bor. Noyabr oyida paxta yig'im-terimi tugaydi.*

6. **Chiqish kelishigi.** Qo'shimchasi –**dan**. Kimdan? nimadan? qayerdan? qachondan beri? so'roqlariga javob bo'ladi. Bu kelishikdagi so'z ish-harakatning boshlanish o'rni yoki paytini anglatadi. Gapda vositali to'ldiruvchi va hol vazifalarini bajaradi. Masalan: *O'qituvchi talabalardan uyga berilgan vazifani birma-bir so'radi. Paxtadan momiq, qog'oz, yog', plyonka, porox kabi qimmatbaho mahsulotlar olinadi. Sportchilarimiz Sidney olimpiadasidan bittadan oltin, kumush va uchta bronza medal bilan qaytishdi. Telefonimiz nimagadir kechadan beri ishlamayapti.*

Otlarning tuzilishiga ko'ra turlari. O'zbek tilida otlar tuzilishiga ko'ra uch xil bo'ladi. 1. Sodda otlar. 2. Qo'shma otlar. 3. Juft otlar.

Sodda otlar birgina o'zakdan tashkil topib, sodda tub va sodda yasama turlarga bo'linadi. Sodda tub otlar tarkibida yasovchi qo'shimchalar ishtirok etmaydi: *paxta, dala, sholi, uzum, chumchuq, tog', xola* kabi. Sodda yasama otlar so'z yasovchi qo'shimchalar yordamida yasaladi. Quyidagi qo'shimchalar yordamida ko'plab yasama otlar hosil qilinadi: *-chi, -kor, -kash, -xon, -do'z, -gar, -shunos, -soz, -paz, -boz, -xo'r, -dor, -furush, -dosh, -lik, -chilik, -garchilik, -zor, -goh, -iston, -don, -xona, -ma*. Masalan: *xizmatchi, paxtakor, mehnatkash, gazeton, etikdo'z, zargar, tilshunos, saotsoz, oshpaz, masxaraboz, tekinxo'r, chorvador, mevafrush, sinfdosh, do'stlik, sabzavotchilik, loygarchilik, olmazor, sayrgoh, guliston, siyohdon, oshxona, qovurma* kabi.

Qo'shma so'zlar ikki va undan ortiq so'zlarning o'zaro birikuvidan hosil bo'ladi: *gultojixo'roz, qo'lqop, ko'zoynak,*

toshbaqa, qizilishton, Kattaqo'rg'on, Oqdaryo, Past Darg'om, O'rta Osiyo, Quyi Chirchiq kabi.

Juft otlar ikki har xil so'zning o'zaro teng aloqaga kirishuvidan hosil bo'ladi, doim chiziqcha bilan yoziladi: *opa-uka, do'st-dushman, ota-ona, kiyim-kechak, bola-chaqa, temir-tersak, idish-tovoq* kabi.

SIFAT. SIFATLARNING MA'NO TURLARI.

SIFATLARNING TUZILISHIGA KO'RA TURLARI. SIFAT DARAJALARI. SIFATLARNING SINTAKTIK VAZIFASI.

Sifat o'zbek tilida ham, rus tilida ham shaxs, narsa, voqea-hodisa kabilarning belgisini bildiradi. Rus tilida sifatni boshqa so'z turkumlaridan farq qildiruvchi qo'shimchalar mavjud. O'zbek tilida esa, xuddi boshqa so'z turkumlari kabi, sifatlarni ajratib turadigan maxsus morfologik ko'rsatkichlar yo'q. Qiyoslang:

Sifatlar	Otlar
<i>kichik</i>	<i>kuchuk</i>
<i>oilali</i>	<i>shaftoli</i>
<i>chiroyli</i>	<i>chumoli</i>
<i>xavfli</i>	<i>hovli</i>
<i>yasama</i>	<i>qatlama</i>
<i>sariq</i>	<i>tariq</i>
<i>qiziq</i>	<i>qoziq</i>
<i>qizil</i>	<i>hazil</i>

O'zbek tilida sifatlar ma'nosiga ko'ra, quyidagi guruhlariga bo'linadi:

1. Fe'l-atvor, xususiyat bildiruvchi sifatlar: *yaxshi, yoqimtoy, odobli, chaqqon, sun'iy, tabiiy, ajoyib* kabi.

2. Holat bildiruvchi sifatlar: *go'zal, suluv, soqov, sovuq, tinch, yangi, boy* kabi.

3. Rang-tus bildiruvchi sifatlar: *oq, qora, qizil, sariq, ko'k, malla* kabi.

4. Shakl-ko'rinish bildiruvchi sifatlar: *dumaloq, yassi, qiyshiq, do'ng* kabi.

5. Hajm-o'lchov, masofa bildiruvchi sifatlar: *keng, tor, uzun, chuqur* kabi.

6. Maza-tam bildiruvchi sifatlar: *shirin, nordon, sho'r, mazali, bemaza* kabi.

7. Hid bildiruvchi sifatlar: *xushbo'y, muattar, ifor, qo'lansa, sassiq* kabi.

8. Vazn-og'irlik bildiruvchi sifatlar: *og'ir, yengil, vazmin* kabi.

9. O'rin va paytga munosabat bildiruvchi sifatlar: *kuzgi, kechki, qishgi, yozgi, tashqi, ichki, quyidagi, pastdagi* kabi.

Sifatlar tuzilishiga ko'ra uch turli bo'ladi. 1. Sodda sifatlar. 2. Qo'shma sifatlar. 3. Juft sifatlar.

Sodda sifatlar birgina o'zakdan tashkil topib, sodda tub sifatlar va sodda yasama sifatlarga bo'linadi. Sodda tub sifatlar tarkibida yasovchi qo'shimchalar ishtirok etmaydi: *qiziq, katta, ko'k, og'ir, to'g'ri, oq* kabi. Sodda yasama sifatlar tarkibida tegishli yasovchi qo'shimchalar mavjud bo'ladi: *vijdonli, ishsiz, tiniq, tinch, sayroqi, oilaviy, ilmiy* kabi.

O'zbek tilida quyidagi qo'shimchalar yordamida sodda yasama sifatlar yasaladi: *-li, -lik, -siz, -gi (-ki, -qi), -dor, -kor, -iy, -viy, -ma, -simon, -parvar, ser-, be-, no-, -mas, -imli, -chan* va h. Misollar: *chiroyli, aqlli, ko'ylaklik, qishloqlik, suvsiz, shirasiz, kuzgi, kechki, tashqi, vafodor, sepkildor, gunohkor, ehtiyotkor, aqliy, ijodiy, tarbiyaviy, afsonaviy, qaynatma sho'rva, qovurma palov, to'lqinsimon, odamsimon, insonparvar, tinchlikparvar, sersut, serhosil, bemaza, beodob, badavlat, baquvvat, noqulay, noo'rin, o'tmas, yengilmas, yoqimli, sevimli, ishchan, uyatchan* kabi.

Qo'shma sifatlar birdan ortiq so'zlarning o'zaro birikuvidan hosil bo'ladi: *jigar rang, ochko'z, sofdil, hozirjavob,*

kamgap kabi. **Juft sifatlar** ikki har xil sifatning o'zaro teng bog'lanishi yoki bir sifatning takrorlanishidan hosil bo'ladi: *katta-kichik, oq-qora, yosh-qari, yaxshi-yomon, issiq-sovuq, quyuq-suyuq, katta-katta, baland-baland, oppoq-oppoq* kabi.

O'zbek tilida sifatlar otdan oldin kelib, u bilan bitishuv usuli orqali bog'lanadi: *qizil qalam, ishchan yigit, aqlli bola* kabi. Rus tilida ham sifatlar, asosan, oldin keladi va ot bilan rod, son va kelishikda moslashadi.

O'zbek tilida ham sifatning uchta darajasi mavjud. 1. Oddiy daraja. 2. Qiyosiy daraja. 3. Orttirma daraja.

Oddiy daraja sifatning o'zagi yoki negiziga teng bo'ladi: *yashil, yumshoq, sariq, yengil, qattiq, qisqa* kabi.

Qiyosiy daraja sifat o'zagi yoki negiziga –**roq** qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi hamda bir belgining boshqasiga nisbatan ortiq yoki kamligini bildiradi: *qoraroq, uzunroq, qattiqroq, aqlliroq, torroq* kabi.

Orttirma daraja belgining o'ta yuqori yoki pastligini ifodalaydi: Bu daraja sifatlar oldidan juda, juda ham, g'oyat, g'oyatda, nihoyatda, eng, hammadan kabi so'zlardan birini keltirish orqali hosil qilinadi: *juda og'ir, juda ham qattiq, g'oyat go'zal, g'oyatda bama'ni, nihoyatda uzoq, eng kuchli, hammadan ortiq* kabi.

Bulardan tashqari, o'zbek tilida sifatlarning ozaytirma va kuchaytirma shakllari ham mavjud. Ozaytirma sifatlar belgining kamligini bildiradi: *oq-oqish, qora-qoramtir, sariq-sarg'ish, qizil-qizg'ish, yashil-och yashil* kabi. Kuchaytirma sifatlar esa belgining ortiqqligini ifodalaydi: *qora - qop-qora, tim qora; oq - oppoq, ko'k - ko'm-ko'k, tekis - tep-tekis, yumaloq - yum-yumaloq, katta - kap-katta, yolg'on - g'irt yolg'on, ho'l - jiqqa ho'l, sariq - sap-sariq* kabi.

Sifatlar gapda, asosan, aniqlovchi vazifasida, ba'zan kesim yoki hol vazifalarida ham keladi. Masalan: *Shahrimizda ulkan binolar, go'zal istirohat bog'lari, tarixiy yodgorliklari ko'p. Shahrimizning ko'chalari juda go'zal va chiroyli. Hulkar*

gimnastika mashqlarining barchasini juda yaxshi va chiroyli bajardi.

Sifatlar otlashganda boshqa bo'laklar vazifasida ham kela oladi. Sifatning otlashishi – nutqda sifatdan keyin keladigan otning tushib qolishi va ot bajarishi lozim bo'lgan sintaktik vazifalarning sifatning zimmasiga o'tishidir. Masalan: *Dunyoda yaxshi odamlar ko'p. Dunyoda yaxshilar ko'p.*

Ega: *Yaxshilar hamma joyda el hurmatiga sazovor bo'ladi.*

To'ldiruvchi: *Ilg'orlarga mukofotlarni topshirish uchun hokimning o'zi keldi.*

Qaratqichli aniqlovchi: *Yaxshining sharofati tegsa, yomonning kasofati tegadi.*

Undalma: *Ey yaxshilar, bechoralarga yordam qilishni unutmang.*

SON. SANOQ SONLAR. MIQDOR SONLAR. DONA SONLAR. TAQSIM SONLAR. CHAMA SONLAR. JAMLOVCHI SONLAR. KASR SONLAR. TARTIB SONLAR. SONLARNING TUZILISHIGA KO'RA TURLARI. SONLARNING SINTAKTIK VAZIFASI.

Barcha tillardagi kabi o'zbek tilida ham son shaxs, narsa, voqea-hodisalarning son-sanog'ini, miqdorini, joylashish tartibini bildiradi. Sonlarni ma'nosi va grammatik xususiyatlariga ko'ra, ikki turga bo'lish mumkin. 1. Sanoq sonlar. 2. Tartib sonlar.

Sanoq sonlar ham o'z navbatida bir necha turga bo'linadi.

1. Miqdor sonlar. Ular bir turdagi narsalarning umumiy miqdorini anglatadi, ularning maxsus qo'shimchasi yo'q. O'zbek tilida miqdor sonlar quyidagilar: *bir, ikki, uch, to'rt, besh, olti, yetti, sakkiz, to'qqiz, o'n, yigirma, o'ttiz, qirq, ellik, oltmish, yetmish, sakson, to'qson, yuz, ming. Bundan katta sonlar million, milliard, trillion* kabi baynalmilal sonlardir.

2. Dona sonlar narsalarning yakka, donalab sanaladigan umumiy miqdorini bildiradi. Miqdor sonlarga –*ta* qo'shimchasini

qo'shish bilan hosil bo'ladi: *yuzta qo'y, mingta daraxt, o'n mingta daftar* kabi.

Dona sonlar ko'p hollarda hisob so'zlar bilan ham qo'llanadi. Bunday holda *-ta* qo'shimchasi o'rnida hisob so'z keladi. Quyidagilar nutqda hisob so'z vazifasini bajarishi mumkin: *dona, nafar, bosh, tup, nusxa, juft, bet, pud, metr, so'm, kilo, daqiqa, soniya, gektar, bog'* va hokazo.

3. Taqsim sonlar shaxslar yoki narsalarning taqsimlanish yoxud guruhlanish miqdorini ifodalaydi. Sonning bu turi miqdor sonlarga *-tadan* qo'shimchasini qo'shish orqali yoki bir sonning takror qo'llanishidan hosil bo'ladi: *ikkitadan, uchtadan, uchta-uchtadan, o'nta-o'ntadan* kabi.

4. Chama sonlar shaxslar, narsalarning taxminiy, noaniq miqdorini bildiradi. U miqdor sonlarga *-tacha, -larcha, -lab* qo'shimchalaridan mosini qo'shish yoki ikkita sonning o'zaro teng juftlashib qo'llanishidan hosil bo'ladi: *o'ntacha talaba, yuztacha ishchi, mingtacha ko'chat, minglab qushlar, besh-o'nta daftar, bir-ikki og'iz gap* kabi.

5. Jamlovchi sonlar shaxslar, narsalar miqdorini jamlab, umumlashtirib yoki ajratib ko'rsatadi. Ular miqdor sonlarga *-ov, -ovlon, -ala* qo'shimchalaridan tegishlisini qo'shish bilan hosil bo'ladi: *ikkovi, uchovlon, to'rtalasi, oltovlon, yettoviga* kabi.

6. Kasr sonlar butunning qismini, bo'lagini ifodalaydi: *yarim, chorak, nim chorak, to'rtadan bir, ikki butun o'ndan besh* kabi.

Tartib sonlar ham miqdor sonlarga *-nchi, -inchi* qo'shimchalaridan mosini qo'shish orqali hosil bo'lib, narsalarning tartibini, joylashish o'rnini bildiradi: *ikkinchi, to'rtinchi, o'n birinchi, yetmish sakkizinchi* kabi.

Sonlar tuzilishiga ko'ra ikki turga bo'linadi. 1. Sodda sonlar. 2. Murakkab sonlar.

Sodda sonlar birgina o'zakdan tashkil topadi: *bir, o'n, yuz, yetmish, to'qson, ming* kabi.

Murakkab sonlar ikki va undan ortiq sonlar birikuvidan hosil bo'ladi: *o'n bir, bir yuz o'ttiz olti, ikki ming ikki yuz to'qson yetti* kabi.

O'zbek tilida son o'zi birikib kelgan ot bilan bitishuv usuli orqali bog'lansa, rus tilida ular sifatlar kabi o'zi birikib kelgan ot bilan rod, son va kelishikda moslashadi. Sonning yana bir muhim xususiyati shundaki, u morfologik yoki sintaktik yo'l bilan boshqa so'z turkumlaridan yasalmaydi. Miqdor sonlarga qo'shimchalar qo'shish bilan boshqa tur sonlarning hosil bo'lishi yasalish emas, balki sonning o'z ichki o'zgarishlaridir.

Sonlar ham gapda sifatlar kabi, asosan, *aniqlovchi* va *kesim* vazifasini bajaradi.

Aniqlovchi: *Men bugun ukamga juda qiziq ikkita kitob sotib oldim.*

Kesim: *Darslarga doim tayyorlanib keladigan talabaning bahosi besh.*

Sonlar ham otlashganda boshqa bo'laklar vazifasida kela oladi.

Ega: *Mana shu talabalardan biri har kuni darsga kech qolib keladi.*

To'ldiruvchi: *Birni birovdan minnat bilan olgandan ko'ra, mingni mehnat qilib topgan yaxshi.*

Hol: *Nurmurod betob do'sti holidan har kuni ikki marta xabar olib turdi.*

Undalma: *Birinchi, birinchi, birinchi, men o'ttiz yettinchiman, qanday eshityapsiz, qabul.*

**OLMOSH. KISHILIK OLMOSHLARI. O‘ZLIK OLMOSHI.
SO‘ROQ OLMOSHLARI. KO‘RSATISH OLMOSHLARI.
BELGILASH OLMOSHLARI. BO‘LISHSIZLIK
OLMOSHLARI. GUMON OLMOSHLARI.
OLMOSHLARNING TUZILISHIGA KO‘RA TURLARI.
OLMOSHLARNING SINTAKTIK VAZIFASI.**

Olmosh ham mustaqil so‘zlar turkumiga mansub bo‘lib, nutqda ot, sifat, son so‘z turkumlari o‘rnida qo‘llanadi. Olmosh shaxs, narsa, belgi va miqdorni ko‘rsatish uchun xizmat qiladi. Olmoshlar ham xuddi sonlar kabi boshqa so‘z turkumlaridan morfologik yoki sintaktik yo‘l bilan yasalmaydi. Biroq son va olmosh turkumiga mansub so‘zlar boshqa so‘z turkumlarini yasash uchun asos bo‘lishi mumkin: *birlik, ikkilanmoq, biryo‘la, sensiramoq, sizlamoq, manmanlik, allaqachon* kabi. Olmoshlar ma’no va grammatik xususiyatlariga ko‘ra yetti guruhga bo‘linadi.

Kishilik olmoshlari. Bu turdagi olmoshlarga quyidagilar kiradi:

Birlik sonda	Ko‘plik sonda
I sh. <i>men</i>	I sh. <i>biz</i>
II sh. <i>sen</i>	II sh. <i>siz</i>
III sh. <i>u</i>	III sh. <i>ular</i>

O‘zbek tilida I shaxs birlik sondagi kishilik olmoshi ko‘plik sondagi I shaxs kishilik olmoshi bilan almashinib ham qo‘llanadi. Masalan: *Kitoblarni men keltiraman. Kitoblarni biz keltiramiz.* Ushbu gaplarning har ikkalasida ham ishni bajaruvchi birlik sondagi birinchi shaxsdir. Shuningdek, II shaxs birlikdagi kishilik olmoshi o‘rnida II shaxs ko‘plik sondagi kishilik olmoshi qo‘llanib, ko‘plikni emas, balki hurmat ma’nosini anglatadi. Masalan: *Uyga sen birinchi kir. Uyga siz birinchi kiring.* Har ikkila holatda ham bir kishi nazarda tutilyapti. Odatda ko‘plik ma’nosi *–lar* qo‘shimchasi qo‘shilganda anglashiladi: *Sizlar tezroq boraveringizlar,*

orqalaringizdan yetib boramiz. Bugun qabul tugadi, sizlarni boshqa kuni yana chaqiramiz.

Kishilik olmoshi kelishiklar bilan quyidagicha turlanadi:

1. Bosh kelishik: *men, sen, u, biz, siz, ular*
2. Qaratqich kelishigi: *mening, sening, uning, bizning, sizning, ularning.*
3. Tushum kelishigi: *meni, seni, uni, bizni, sizni, ularni.*
4. Jo‘nalish kelishigi: *menga, senga, unga, bizga, sizga, ularga.*
5. O‘rin-payt kelishigi: *menda, senda, unda, bizda, sizda, ularda.*
6. Chiqish kelishigi: *mendan, sendan, undan, bizdan, sizdan, ulardan.*

Men va *sen* kishilik olmoshlari qaratqich va tushum kelishiklarining qo‘shimchalarini olganda, ular tarkibidagi bir [*n*] tovushi tushib qoladi: *men-ning, sen-ni* shaklida emas, *me-ning, se-ning* shaklida bo‘ladi. Xuddi shuningdek, *u* kishilik olmoshi jo‘nalish, o‘rin-payt va chiqish kelishiklarining qo‘shimchasini olganda, tarkibida bir [*n*] tovushi orttiriladi: *u-ga, u-da, u-dan* shaklida emas, balki *un-ga, un-da, un-dan* kabi.

Rus tilida kishilik olmoshlari kelishiklar bilan turlanganda, ularning boshlang‘ich shakllari butunlay o‘zgarib ketadi. O‘zbek tilida esa, yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek, o‘z asl shaklini saqlab qoladi.

Men kishilik olmoshi o‘rnida mumtoz adabiyotda *kamina, faqir, qo‘lingiz, banda* kabi so‘zlar ham qo‘llanib kelingan.

O‘zbek tilida *sen* kishilik olmoshiga *–lar* ko‘plik qo‘shimchasi qo‘shilgan holda qo‘llanishi ham uchraydi. Bunda mensimaslik, kamsitish, istehzo, ta’na kabi ma’nolar burtib turadi. Masalan: *Senlar bu yerda nima qilyapsanlar? Men senlarga aytyapman. Senlarni deb shuncha g‘alvaga qoldim.*

Ko‘plik sondagi birinchi shaxs *biz* kishilik olmoshi ham nutqda *–lar* ko‘plik qo‘shimchasi bilan qo‘llanishi mumkin. Bunda ko‘plik ma’nosi yanada *kuchaytiriladi.* Masalan: *Bu ishni biz*

bajaramiz. Gapdan anglashilayotgan ish-harakatni bir kishi yoki ko'pchilik bo'lib bajarish mumkin. Bu gap bilan qiyoslang: *Bu ishni bizlar bajardik*. Ish-harakat bir kishi tomonidan bajarilmagan, ko'pchilik tomonidan bajarilgan.

O'zlik olmoshi. O'zbek tilida o'zlik olmoshi o'z so'zidagina iborat. Rus tilida esa bu vazifani egalik olmoshlari bajaradi. O'z olmoshi otlar bilan birikib kelganda rus tilidagi *svoy* olmoshiga, egalik qo'shimchasi bilan kelganda *sam* belgilash olmoshiga to'g'ri keladi: *o'zimning uyim, o'zingning fikring, o'zim, o'zing* kabi. O'zlik olmoshi avval egalik, keyin kelishik qo'shimchalarini olib turlanadi:

Birlik sonda

I sh. *o'zim*

II sh. *o'zing*

III sh. *o'zi*

Kelishiklar

Bosh kelishik: *o'zim*

Qaratqich kelishigi: *o'zimning*

Tushum kelishigi: *o'zimni*

Jo'nalishi kelishigi: *o'zimga*

O'rin-payt kelishigi: *o'zimda*

Chiqish kelishigi: *o'zimdan*

Egalik qo'shimchalarini olgan o'zlik olmoshi uchala shaxsdagi kishilik olmoshlariga sinonim bo'ladi: *men – o'zim, sen – o'zing, u – o'zi, biz – o'zimiz, siz – o'zingiz, ular – o'zlari* kabi. *Bu xatni men yozdim. Bu xatni o'zim yozdim.*

So'roq olmoshlari *shaxs, narsa, belgi, vaqt, miqdor* va hokazolar to'g'risidagi so'roq ma'nosini bildiradigan so'zlardir. Bu tur olmoshlarga quyidagi so'zlar kiradi: *kim? nima? qanday? qanaqa? qaysi? necha? nechta? qancha? qachon? nega? nimaga? qani? nechanchi? kimniki?* kabi.

O'zbek tilida aksariyat so'roq olmoshlari ko'plikda ham qo'llana oladi: *kimlar? nimalar? qaysilari? nechalar? qanchalar? nechalar? qachonlar?* kabi.

So'roq olmoshlari ham egalik va kelishik qo'shimchalarini olib turlanadi:

Birlik va ko'plik sonda

I sh. *kimim*

II sh. *kiming*

III sh. *kimi*

I sh. *kimimiz*

II sh. *kimingiz*

III sh. *kimlari*

Kelishiklar

Bosh kelishik: *kimim*

Qaratqich kelishigi: *kimimning*

Tushum kelishigi: *kimimni*

Jo'nalish kelishigi: *kimimga*

O'rin-payt kelishigi: *kimimda*

Chiqish kelishigi: *kimimdan*

Ko'rsatish olmoshlari shaxs, narsa yoki belgini ko'rsatish uchun xizmat qiladi: *u, bu, shu, o'sha, ushbu, mana, ana, mana, shu, man bu, ana u, bunday, shunday, shunaqa, shuncha* kabi. Mumtoz adabiyotda ko'rsatish olmoshlari *ul, bul, shul, o'shal* kabi ko'rinishlarda qo'llangan.

Ko'rsatish olmoshlari ko'plik, egalik va kelishik qo'shimchalarini olib turlanadi: *bularingizni, mana shulardan, ana unisini, shunisiga* kabi. Odatda, ko'rsatish olmoshi bilan bog'langan so'z ko'plik, egalik va kelishik qo'shimchalarini olib turlangan bo'ladi, olmosh esa o'zgarishsiz qoladi: *bu kitobimga, shu ishlaringizdan, o'sha odatini, shu bog'imizning* kabi.

Belgilash olmoshlari shaxslar, narsalarning to'ldasini, jamini, yig'indisini bildiradi yoki ularni ajratib, ta'kidlab ko'rsatish uchun xizmat qiladi. Ularga quyidagilar kiradi: *hamma, bari, jami, barcha, butun, yalpi*. Shuningdek, belgilash olmoshlari *har* so'zi bilan *bir, narsa* hamda so'roq olmoshlarining birikuvidan hosil bo'ladi: *har bir, har narsa, har kim, har nima, har qanday, har qaysi, har qancha, har qachon* kabi.

Belgilash olmoshlari ham egalik va kelishik qo'shimchalarini qabul qiladi (bundan faqat birlik sonning I shaxsi mustasno).

Birlik va ko'plik sonda

I sh.	-
II sh.	<i>hammang, har biring</i>
III sh.	<i>hammasi har biri</i>
I sh.	<i>hammamiz, har birimiz</i>
II sh.	<i>hammangiz, har biringiz</i>
III sh.	<i>hammalari, har birlari</i>

Kelishiklar

Bosh k.	<i>hammang</i>
Qaratqich k.	<i>hammangning</i>
Tushum k.	<i>hammangni</i>
Jo'nalish k.	<i>hammangga</i>
O'rin-payt k.	<i>hammangda</i>
Chiqish k.	<i>hammangdan</i>

O'zbek tilida belgilash olmoshlari otlar bilan bog'langanda, o'z shaklini o'zgartirmaydi: *har bir gul, har qanday bola, barcha maktablar, yalpi hosil* kabi. Rus tilida esa ular o'zi birikib kelgan otga tobe bo'lib, o'sha ot bilan rod, son va kelishikda moslashadi.

Bo'lishsizlik olmoshlari mavjud bo'lmagan shaxs, narsa, belgi yoki miqdorni ko'rsatish uchun qo'llanadi. Bo'lishsizlik olmoshlari *bir, narsa* hamda so'roq olmoshlariga *hech* so'zini qo'shish orqali hosil bo'ladi. Ularga quyidagi so'zlar kiradi: *hech bir, hech narsa, hech kim, hech nima, hech qanday, hech qaysi, hech qanaqa, hech qachon, hech qayer*. Bo'lishsizlik olmoshlari ham egalik va kelishik qo'shimchalarini olib turlanadi.

Birlik va ko'plik sonda

I sh.	<i>hech kimim</i>
II sh.	<i>hech kiming</i>
III sh.	<i>hech kimi</i>
I sh.	<i>hech kimimiz</i>
II sh.	<i>hech kimingiz</i>
III sh.	<i>hech kimlari</i>

Kelishiklar

Bosh kelishik:	<i>hech kim</i>
Qaratqich kelishigi:	<i>hech kimning</i>
Tushum kelishigi:	<i>hech kimni</i>
Jo'nalish kelishigi:	<i>hech kimga</i>
O'rin-payt kelishigi:	<i>hech kimda</i>
Chiqish kelishigi:	<i>hech kimdan</i>

Gumon olmoshlari o'zi mavjud bo'lgan, ammo noma'lum shaxs, narsa, belgi yoki miqdorni ko'rsatish uchun xizmat qiladi. Gumon olmoshlari, asosan, so'roq olmoshlariga *-dir* yoki *alla-* qo'shimchalaridan birini qo'shish orqali hosil bo'ladi: *kimdir, allanima, nechtadir, allaqancha, qaysidir, allaqanday, allaqachon, qachondir, qayeridir* kabi. *-dir* va *alla-* qo'shimchalari vazifasiga ko'ra bir xildek ko'rinsa-da, ba'zan bir so'zga qo'shilganda turli ma'no ifodalashi mumkin: *allaqachon, qachondir* kabi.

SHuningdek, *bir narsa, bir nima, allanarsa, biror, biron, birov, ba'zilar, biror kimsa, qaysi bir, bir necha, bir qancha* kabilar ham gumon olmoshlari hisoblanadi. Gumon olmoshlari ham egalik va kelishik qo'shimchalarini olib o'zgaradi. Faqat *-dir* qo'shimali gumon olmoshlarining turlanishi boshqa olmoshlarning turlanishidan bir oz farq qiladi.

Birlik va ko'plik sonda

I sh.	<i>kimimdir</i>
II sh.	<i>kimingdir</i>
III sh.	<i>kimidir</i>
I sh.	<i>kimimizdir</i>
II sh.	<i>kimingizdir</i>
III sh.	<i>kimlaridir</i>

Kelishiklar

Bosh kelishik:	<i>kimdir</i>
Qaratqich kelishigi:	<i>kimningdir</i>
Tushum kelishigi:	<i>kimnidir</i>
Jo'nalish kelishigi:	<i>kimgadir</i>
O'rin-payt kelishigi:	<i>kimdadir</i>
Chiqish kelishigi:	<i>kimdandir</i>

Olmoshlar tuzilishiga ko'ra uch turli bo'ladi. **1. Sodda olmoshlar. 2. Murakkab olmoshlar. 3. Juft olmoshlar.**

Sodda olmoshlar birgina o'zakdan tashkil topgan bo'ladi: *men, sen, u, kim? nima? shu, o'sha* kabi.

Murakkab olmoshlar ikki va undan ortiq tarkibli bo'ladi: *har kim, hech nima, har qaysi, ana o'sha, mana bu, bir kimsa* kabi.

Juft olmoshlar ikki olmoshning o'zaro teng aloqaga kirishuvidan hosil bo'ladi: *siz-biz, sen-men, u-bu* kabi.

Olmoshlar gapda ot, sifat va son so'z turkumlariga xos sintaktik vazifalarni bajaradi.

Ega: Men *bu yilgi barcha sinov va imtihonlarni faqat «a'lo» baholarga topshirdim.*

Kesim: *Bu ishlarning bajarilishi uchun javobgar shaxs – sen.*

Aniqllovchi: Sening *qilmishlaring uchun yaqinlaring uyalmasliklari lozim.*

To'ldiruvchi: Hammadan *gumonsiraydigan odamning o'ziga ishonib bo'lmaydi.*

Hol: *Bu mashq bunday bajarilmaydi, shuni ham bilmadingmi?*

FE'L. FE'L ZAMONLARI.. FE'L MAYLLARI. FE'L NISBATLARI. FE'LNING XOSLANGAN SHAKLLARI. FE'LLARNING YASALISHI. FE'LLARNING SINTAKTIK VAZIFASI.

Harakat va holat ma'nosini bildiradigan mustaqil so'z turkumiga fe'l deb ataladi. O'zbek tilida fe'l rus tilidagi kabi tugallangan yoki tugallanmagan turlarga bo'linmaydi.

O'zbek tilida fe'l o'zagi yoki negiziga *-moq* harakat nomi qo'shimchasini qo'shish bilan uning noaniq shakli hosil qilinadi: *surmoq, haydamoq, qo'zg'amoq, tishlamoq, so'zlamog, tunamoq* kabi.

Fe'ning tub yoki yasama shaklidan zamon, mayl, nisbat, shaxs-son va boshqa shakllar hosil qilinadi. Fe'ning mayl, zamon va shaxs-son shakllarini olib o'zgarishi *tuslanish* deyiladi. Fe'llar ish-harakatning bajarilishi yoki bajarilmasligini ifodalashga ko'ra ikki turga bo'linadi. **1. Bo'lishli fe'llar.** Bunday fe'llar ish-harakatning uchala zamondan birida bajarilishini, tasdig'ini bildiradi: *keldi, olyapti, ko'rmoqchiman, yugurding, to'qiyisiz* kabi. **2. Bo'lishsiz fe'llar** esa ish-harakatning uchala zamondan birida bajarilmasligini, inkorini bildiradi: *uchmadi, sezmayapti, olmoqchi emas* kabi. U o'zbek tilida bo'lishsizlik ma'nosi *-ma, -mas* qo'shimchalaridan mosini qo'shish orqali, *emas* to'liqsiz fe'li, *yo'q* va *na* yordamchilari vositasida hosil bo'ladi: *yurma, tortmayman, o'zgarmassan, qo'rqmas, burmoqchi emas, shoshgan emasmiz, na o'qiydi, na yozadi* kabi.

Fe'l nutq jarayonida so'zlovchi, tinglovchini hamda suhbatda ishtirok etmayotgan shaxsning harakatini ham ifodalashi mumkin. O'zbek tilida shaxslarning harakat va holatini *birlik* hamda *ko'plik* sonda ifodalovchi tegishli tuslovchi qo'shimchalar mavjud. Bu quyidagilar:

Birlik sonda	Ko'plik sonda
I sh. <i>fe'l + zamon + man, + m</i>	<i>fe'l + zamon + miz, + k</i>
II sh. <i>fe'l + zamon + san, + ng</i>	<i>fe'l + zamon + siz, + ngiz</i>
III sh. <i>fe'l + zamon + ti, -</i>	<i>fe'l + zamon + ti, + lar</i>

O'zbek tilida ham fe'ning uch zamoni mavjud. 1. O'tgan zamon. 2. Hozirgi zamon. 3. Kelasi zamon. O'zbek tilidagi fe'l zamonlari bir necha shakllarga egaligi bilan rus tilidan farq qiladi.

O'tgan zamon fe'li va uning shakllari. O'tgan zamon fe'li ish-harakatning nutq so'zlanib turgan paytdan oldin bajarilgan yoki bajarilmaganligini ifodalaydi. O'zbek tilida o'tgan zamon fe'li hozirgi va kelasi zamon fe'llariga nisbatan ko'proq shakllarga ega.

Aniq o'tgan zamon shakli fe'l o'zagi yoki negiziga *-di* zamon va shaxs-son qo'shimchalarini qo'shish orqali hosil bo'ladi. Uning tuslanishi quyidagicha:

Tasdiq shakli

Birlik sonda	Ko'plik sonda
I sh. <i>ko'r-di-m</i>	<i>ko'r-di-k</i>
II sh. <i>ko'r-di-ng</i>	<i>ko'r-di-ngiz</i>
III sh. <i>ko'r-di -</i>	<i>ko'r-di-lar</i>

Inkor shakli

Birlik sonda	Ko'plik sonda
I sh. <i>ko'r-ma-di-m</i>	<i>ko'r-ma-di-k</i>
II sh. <i>ko'r-ma-di-ng</i>	<i>ko'r-ma-di-ngiz</i>
III sh. <i>ko'r-ma-di</i>	<i>ko'r-ma-di-lar</i>

So'roq shakli

Birlik sonda	Inkor shakli
Tasdiq shakli	Inkor shakli
I sh. <i>ko'r-di-m-mi?</i>	<i>ko'r-ma-di-m-mi?</i>
II sh. <i>ko'r-di-ng-mi?</i>	<i>ko'r-ma-di-ng-mi?</i>
III sh. <i>ko'r-di-mi?</i>	<i>ko'r-ma-di-mi?</i>

Ko'plik sonda

Tasdiq shakli	Inkor shakli
I sh. <i>ko'r-di-k-mi?</i>	<i>ko'r-ma-di-k-mi?</i>
II sh. <i>ko'r-di-ngiz-mi?</i>	<i>ko'r-ma-di-ngizmi?</i>
III sh. <i>ko'r-di-lar-mi?</i>	<i>ko'r-ma-di-lar-mi?</i>

Aniq o'tgan zamon shakli ish-harakat so'zlovchining ko'z oldida yoki uning ishtirokida bajarilganini anglatadi. Masalan: *Men bu yil «Chimyon» sanatoriyasida dam oldim. U hozirgina poyezddan tushdi.*

Yaqin o'tgan zamon shakli. O'tgan zamon fe'lining bu shakli fe'l o'zagi yoki negiziga *-gan* hamda shaxs-son qo'shimchalarini qo'shish orqali hosil bo'ladi va nutq so'zlanib turgan paytdan ancha ilgari sodir bo'lgan yoki sodir bo'lmagan ish-harakatni ifodalaydi.

Tasdiq shakli

Birlik sonda	Ko'plik sonda
I sh. <i>ko 'r-gan-man</i>	<i>ko 'r-gan-miz</i>
II sh. <i>ko 'r-gan-san</i>	<i>ko 'r-gan-siz</i>
III sh. <i>ko 'r-gan -</i>	<i>ko 'r-gan-lar</i>

Inkor shakli

Birlik sonda	
I sh. <i>ko 'r-ma-gan-man,</i>	<i>ko 'r-gan-im yo 'q</i>
II sh. <i>ko 'r-ma-gan-san,</i>	<i>ko 'r-gan-ing yo 'q</i>
III sh. <i>ko 'r-ma-gan,</i>	<i>ko 'r-gan-i yo 'q</i>

ko 'r-gan emas-man
ko 'r-gan emas-san
ko 'r-gan emas -

Ko'plik sonda

I sh. <i>ko 'r-ma-gan-miz,</i>	<i>ko 'r-gan-imiz yo 'q</i>
II sh. <i>ko 'r-ma-gan-siz,</i>	<i>ko 'r-gan-ingiz yo 'q</i>
III sh. <i>ko 'r-ma-gan-lar,</i>	<i>ko 'r-gan-lari yo 'q</i>
	<i>ko 'r-gan emas-miz</i>
	<i>ko 'r-gan emas-siz</i>
	<i>ko 'r-gan emas-lar</i>

So'roq shakli

Birlik sonda	Ko'plik sonda
I sh. <i>ko 'r-gan-man-mi?</i>	<i>ko 'r-gan-miz-mi?</i>
II sh. <i>ko 'r-gan-san-mi?</i>	<i>ko 'r-gan-siz-mi?</i>
	<i>ko 'r-gan-mi-san?</i>
	<i>ko 'r-gan-mi-siz?</i>
III sh. <i>ko 'r-gan-mi?</i>	<i>ko 'r-gan-lar-mi?</i>

Misol: *Biz bu filmni ikki marta ko'rganmiz. U biznikiga biror marta ham kelgan emas. Sen bu kitobni o'qiganmisan?*

-gan qo'shimchasi so'zning o'zagi [k] yoki [q] tovushi bilan tugashiga qarab, *-kan, -qan* tarzida qo'shilishi mumkin. Masalan: *Men ikkita chiroyli tuvakka gul ekanman. Nega devorlarga mix qoqqansiz? Yozda ko'lda cho'milib, o'tobda qorayib chiniqqanmiz. Hovlining pasti ancha cho'kkan.*

Uzoq o'tgan zamon shakli o'zak yoki negizga *-gan edi* hamda shaxs-son qo'shimchalarini qo'shish orqali hosil bo'lib, yaqin o'tgan zamon shaklini ifodalagan vaqtdan ham ancha ilgari bajarilgan yoxud bajarilmagan ish-harakatni anglatadi. Qiyoslang: *Men bu kitobni o'qidim. Men bu kitobni o'qiganman. Men bu kitobni o'qigan edim.* Birinchi gapdagi ish-harakat yaqin kunlar ichida bajarilgan. Ikkinchi gapdagi ish-harakat esa bir oy yoki undan ko'proq vaqt ilgari bajarilgan. Uchinchi gapdagi ish-harakat bir yoki bir necha yil oldin bajarilgan bo'lishi ham mumkin.

Tasdiq va so'roq shakli

Birlik sonda	Ko'plik sonda
I sh. <i>yodla-gan edi-m-mi?</i>	<i>yodla-gan edi-k-mi?</i>
II sh. <i>yodla-gan edi-ng-mi?</i>	<i>yodla-gan edi-ngiz-mi?</i>
III sh. <i>yodla-gan edi-mi?</i>	<i>yodla-gan edi-lar-mi?</i>

Inkor shakli

Birlik sonda

I sh. <i>yodla-ma-gan edim, yodlaganim yo 'q edi, yodlagan emas edim</i>
II sh. <i>yodla-ma-gan eding, yodlaganing yo 'q edi, yodlagan emas eding</i>
III sh. <i>yodla-ma-gan edi, yodlagani yo 'q edi, yodlagan emas edilar</i>

Ko'plik sonda

I sh. *yodla-ma-gan edik, yodlaganimiz yo'q edi, yodlagan emas edik*

II sh. *yodla-ma-gan edingiz, yodlaganingiz yo'q edi, yodlagan emas edingiz*

III sh. *yodla-ma-gan edilar, yodlagani yo'q edi, yodlagan emas edilar*

O'tgan zamon davom fe'li so'z o'zagi yoki negiziga *-r, -ar, -yotgan, -moqda* qo'shimchalaridan so'ng *edi* to'liqsiz fe'lini keltirish hamda shaxs-son qo'shimchalarini qo'shish orqali hosil bo'ladi. O'tgan zamon fe'lining bu shakli ish-harakatning davomli bo'lganligini, muntazam takrorlanib turganligini anglatadi. Misol: *Men bolaligimda ko'p kitob o'qir edim. Sen hovlida kitob o'qimoqda eding. U turnikda mashq bajarayotgan edi.*

Tasdiq shakli

Birlik sonda

I sh. *o'qi-r (-moqda, -yotgan) edim*

II sh. *o'qi-r (-moqda, -yotgan) eding*

III sh. *o'qi-r (-moqda, -yotgan) edi*

Ko'plik sonda

I sh. *o'qi-r (-moqda, -yotgan) edik*

II sh. *o'qi-r (-moqda, -yotgan) edingiz*

III sh. *o'qi-r (-moqda, yotgan) edilar*

-r, -ar, edi ko'rinishli fe'llarning inkor shakli bu qo'shimchalar o'rniga *-mas* inkor qo'shimchasi va shaxs-son qo'shimchalarini qo'shish bilan hosil bo'ladi. *-yotgan* qo'shimchasi oldidan esa *-ma* inkor qo'shimchasi keltirilishi bilan inkor shakli hosil qilinadi. *-moqda* qo'shimchali fe'llar bilan inkor shakli hosil qilinmaydi. Masalan: *ko'rar edim – ko'rmas edim, aytar edik – aytmas edik, borayotgan edik – bormayotgan edik, olayotgan edingiz – olmayotgan edingiz* kabi.

O'tgan zamon maqsad fe'li so'z o'zagi yoki negiziga *-* *moqchi* qo'shimchasi hamda *edi* to'liqsiz fe'li va tegishli shaxs-son

qo'shimchalarini qo'shish bilan hosil qilinadi. Bunda o'tgan zamonda ish-harakatni bajarish maqsad qilib qo'yilganligi, rejalashtirilganligi ma'nosi anglashiladi.

Tasdiq va so'roq shakli

Birlik sonda

I sh. *o'qi-moqchi edi-m-mi?*

II sh. *o'qi-moqchi edi-ng-mi?*

III sh. *o'qi-moqchi edi-mi?*

Inkor shakli

Birlik sonda

I sh. *qurmoqchi emas edim*

II sh. *qurmoqchi emas eding*

III sh. *qurmoqchi emas edi*

Ko'plik sonda

o'qi-moqchi edi-k-mi?

o'qi-moqchi edi-ngiz-mi?

o'qi-moqchi edi-lar-mi?

Ko'plik sonda

qurmoqchi emas edik

qurmoqchi emas edingiz

qurmoqchi emas edilar

Hozirgi zamon fe'li va uning shakllari. Hozirgi zamon fe'li ish-harakatning nutq so'zlanib turgan paytda bajarilayotgan yoki bajarilmayotganligini ifodalaydi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida hozirgi zamon fe'lining *ikki* shakli mavjud. 1. Hozirgi zamon davom shakli. 2. Hozirgi-kelasi zamon shakli.

Hozirgi zamon davom shakli quyidagi qo'shimchalardan birini fe'l o'zagi yoki negiziga qo'shib, shaxs-son qo'shimchalari bilan tushlash orqali hosil qilinadi: *-yap, -moqda, -yotib, -yotir. Yurmoq, turmoq, o'tirmoq* va *yotmoq* fe'llari o'zagiga *-ib* hamda shaxs-son qo'shimchalarini qo'shish orqali ham hozirgi zamon davom shakli hosil qilinadi: *men yuribman, sen turibsan, u o'tiribdi, siz yotibsiz* kabi. Biroq bu fe'llar bilan shu zamonning inkor shaklini hosil qilib bo'lmaydi.

Tasdiq shakli

Birlik sonda

I sh. *o'qi-yap (-moqda, -yotib, yotir) –man*

II sh. *o'qi-yap (-moqda, -yotib, -yotir) –man*

III sh. *o'qi-yapti (-moqda, yotibdi, -yotir)*

Ko'plik sonda

I sh. *o'qi-yap (-moqda, -yotib, -yotir) –miz*

II sh. *o'qi-yap (-moqda, -yotib, -yotir) –siz*

III sh. *o'qi-yapti (-moqda, -yotib, -yotir) –lar*

Inkor va so'roq shakli

Birlik sonda

Ko'plik sonda

I sh. *o'qi-ma-yap-man-mi?*

o'qi-ma-yap-miz-mi?

II sh. *o'qi-ma-yap-san-mi?*

o'qi-ma-yap-siz-mi?

III sh. *o'qi-ma-yap-ti-mi?*

o'qi-ma-yap-ti-lar-mi?

-yotib, -yotir qo'shimchalari unli tovush bilan tugagan so'zlarga shu ko'rinishicha, undosh tovush bilan tugagan fe'llarga –*ayotib, -ayotir* shaklida qo'shiladi va shundan so'ng shaxs-son qo'shimchalari qo'shib tuslanadi.

-moqda qo'shimchasi ishtirokida inkor shakli umuman hosil qilinmaydi, so'roq shakli ham kamdan-kam hollarda qo'llanadi.

Hozirgi-kelasi zamon shakli undosh tovush bilan tugagan fe'lga –*a*, unli tovush bilan tugagan fe'lga –*y* qo'shimchasini qo'shish hamda tegishli shaxs-son qo'shimchalari bilan tushlash orqali hosil bo'ladi.

Tasdiq shakli

Birlik sonda

Ko'plik sonda

I sh. *bor-a-man, yasha-y-man*

bor-a-miz, yasha-y-miz

II sh. *bor-a-san, yasha-y-san*

bor-a-siz, yasha-y-siz

III sh. *bor-a-di, yasha-y-di*

bor-a-dilar, yasha-y-dilar

Inkor va so'roq shakli

I sh. *bor-may-man-mi?*

bor-may-miz-mi?

II sh. *bor-may-san-mi?*

bor-may-siz-mi?

III sh. *bor-may-di-mi?*

bor-may-dilar-mi?

Hozirgi-kelasi zamon fe'li ish-harakatning nutq so'zlanib turgan paytgacha, so'z va undan so'ng ham amalga oshishini yoki ish-harakatning doimiy yuz berishini ifodalaydi. Masalan:
1. *So'zlarindan o'zimda yo'q quvonaman (Tinglovchi*

so'zlovchining gaplarini eshitish jarayonida quvonyapti). 2. Bugun kitobingizni olib boraman (Ish-harakat nutq so'zlanib bo'lganidan so'ng amalga oshiriladi). 3. Biz Samarqand shahrida yashaymiz. Oy Yer atrofida aylanadi (Biz nutq so'zlanguncha ham ko'rsatilgan shaharda yashaganmiz, nutq so'zlanayotgan paytda ham yashayapmiz, nutq jarayonidan so'ng ham yashashimiz nazarda tutilyapti. Oynning Yer atrofida aylanishi ham xuddi shu taxlit davom etyapti).

Kelasi zamon fe'li va uning shakllari. Kelasi zamon fe'li ish-harakatning nutq so'zlanib turgan paytdan so'ng yuzaga chiqish yoki chiqmasligini anglatadi.

O'zbek tilida kelasi zamon fe'lining ikkita shakli mavjud: 1. Kelasi zamon maqsad shakli. 2. Kelasi zamon gumon shakli.

Kelasi zamon maqsad shakli fe'l o'zagi yoki negiziga –*moqchi* hamda shaxs-son qo'shimchalarini qo'shish orqali hosil bo'ladi.

Tasdiq shakli

Birlik sonda

Ko'plik sonda

I sh. *ol-moqchi-man*

ol-moqchi-miz

II sh. *ol-moqchi-san*

ol-moqchi-siz

III sh. *ol-moqchi -*

ol-moqchi-lar

Inkor shakli

Birlik sonda

Ko'plik sonda

I sh. *ko'r-moqchi emas-man*

ko'r-moqchi emas-miz

II sh. *ko'r-moq emas-san*

ko'r-moqchi emas-siz

III sh. *ko'r-moqchi emas*

ko'r-moqchi emas-lar

So'roq shakli

Birlik sonda

Ko'plik sonda

I sh. *sot-moqchi-man-mi?*

sot-moqchi-miz-mi?

II sh. *sot-moqchi-san-mi?*

sot-moqchi-siz-mi?

sot-moqchi-mi-san?

sot-moqchi-mi-siz?

III sh. *sot-moqchi-mi?*

sot-moqchi-lar-mi?

Kelasi zamon maqsad fe'li ish-harakatning maqsad, niyat qilinganligi, rejalashtirib qo'yilganligini anglatadi. Masalan: *Men kelgusi yil 20 gektar yerga sholi ekmoqchiman. Sen bu gullarni Charosga sovg'a qilmoqchimisan? Shuhrat o'rtog'inikiga mehmonga bormoqchi. Badiya yangi yilni Toshkentda Shamsiya bilan kutib olmoqchi.*

Kelasi zamon gumon shakli fe'l o'zagi yoki negiziga **-r**, **-ar** qo'shimchalaridan mosini qo'shish va ulardan so'ng shaxs-son qo'shimchalarini keltirish orqali yasaladi. Inkor shakli **-mas** qo'shimchasi orqali hosil bo'ladi. Fe'lning bu shakli kelgusida amalga oshishi yoki amalga oshmasligi gumon, noaniq bo'lgan ish-harakatni anglatadi.

Tasdiq shakli

Birlik sonda	Ko'plik sonda
I sh. <i>ko'r-ar-man, o'qi-r-man</i>	<i>ko'r-ar-miz, o'qi-r-miz</i>
II sh. <i>ko'r-ar-san, o'qi-r-san</i>	<i>ko'r-ar-siz, o'qi-r-siz</i>
III sh. <i>ko'r-ar, o'qi-r</i>	<i>ko'r-ar-lar, o'qi-r-lar</i>

Inkor shakli

Birlik sonda	Ko'plik sonda
I sh. <i>ko'r-mas-man, o'qi-mas-man</i>	<i>ko'r-mas-miz, o'qi-mas-miz</i>
II sh. <i>ko'r-mas-san, o'qi-mas-san</i>	<i>ko'r-mas-siz, o'qi-mas-siz</i>
III sh. <i>ko'r-mas, o'qi-mas</i>	<i>ko'r-mas-lar, o'qi-mas-lar</i>

So'roq shakli tasdiq yoki inkor ko'rinishda tushlangan fe'lga **-mi** yuklamasini qo'shish orqali hosil qilinadi: *ko'rarmanni? ko'rarmi?* kabi.

Fe'l mayllari. Ish-harakatning voqelikka munosabati mayl deyiladi. Voqelik – muayyan ish-harakatning ma'lum zamon va makonda shaxs tomonidan amalga oshirilishidir. O'zbek tilida fe'lning uch mayli farqlanadi. 1. Aniqlik yoki ijro mayli. 2. Buyruq-istak mayli. 3. Shart mayli.

Aniqlik maylining maxsus morfologik ko'rsatkichi yo'q. Aniqlik maylidagi fe'l ish-harakatning uchala zamondan birida yuz berayotganligi yoki bajarilayotganligidan xabar beradi. Masalan:

Bugun ertalab kuchli yomg'ir yog'di. Javohir o'rtoqlari bilan kutubxonada dars tayyorlayapti. Shahzod zamonaviy fotoapparat sotib olmoqchi. Sardor bu musobaqada ishtirok etmoqchi emas.

Buyruq-istak maylidagi fe'llar buyruq, istak, maslahat, iltimos kabi ma'nolarni anglatadi. Bu mayldagi fe'lning I shaxsi istak, iltimos ma'nolarini, II shaxsi sof buyruq, iltimos ma'nolarini, III shaxsi esa maslahat, iltimos ma'nolarini bildiradi.

Birlik sonda

- I sh. *men yoz-ay (in), o'qi-y (in)*
- II sh. *sen yoz (gin), o'qi (gin)*
- III sh. *u yoz-sin, o'qi-sin*

Ko'plik sonda

- I sh. *biz yoz-aylik, o'qi-ylik*
- II sh. *siz yoz-ing (izlar), o'qing (gizlar)*
- III sh. *ular yoz-sin (lar), o'qi-sin (lar)*

Shart maylidagi fe'llar boshqa biror ish-harakatning amalga oshishi uchun undan oldin bajarilishi shart bo'lgan ish-harakat ma'nosini anglatadi. Shart mayli fe'l o'zagi yoki negiziga **-sa** qo'shimchasini qo'shish bilan hosil bo'ladi va undan so'ng shaxs-son qo'shimchalari qo'shiladi: *borsam, borsang, borsa, borsak, borsangiz, borsalar* kabi.

O'zbek tilidagi shart maylining ma'nosi rus tilida *ecnu* yoki *kozda* so'zlarining kelasi zamon shaklidagi fe'l bilan birikib kelishi orqali beriladi. Qiyoslab ko'ring: *Ertaga havo ochiq bo'lsa, biz toqqa chiqamiz. Yozgi ta'til boshlansa, biz oilamiz bilan dam olishga ketamiz.*

Fe'l nisbatlari ish-harakatning bajaruvchisi (subyekti) bilan bajariluvchisi (obyekti) o'rtasidagi munosabatni ifodalaydi. Ish-harakatning ob'ektga bo'lgan munosabatiga qarab fe'llar ikki turga bo'linadi. 1. O'timli fe'llar. 2. O'timsiz fe'llar.

O'timli fe'llar tushum kelishigidagi so'zlarni boshqarib keladi: *ashula (ni) aytmoq, xat (ni) yozmoq, olma (ni) termoq, kitob (ni) o'qimoq, kino (ni) ko'rmoq* kabi. Qolgan fe'llar esa o'timsiz fe'llar sanaladi: *uchmoq, uxlamoq, yig'lamoq, kulmoq, gapirmoq,*

charchamoq, uyalmoq, qulamoq kabi. O'timsiz fe'llarga orttirma nisbat hosil qiluvchi qo'shimchalardan mosini qo'shib, ularni o'timli fe'lga aylantirish mumkin: *qushni uchirmoq, bolasini uxlatmoq, ukasini yig'latmoq, tomoshabinlarni kuldirmoq, talabani gapirtirmoq, o'zini charchatmoq, yolg'onchini uyaltirmoq, devorni qulatmoq, mashinani yurgizmoq* kabi.

O'zbek tilida fe'l nisbatlari rus tilidagi fe'l nisbatlariga qaraganda son jihatdan ortiqdir. Rus tilida ular uchta bo'lsa, o'zbek tilida beshta. Rus tilida faqat o'timli fe'llardagina nisbat hosil bo'ladi. O'zbek tilida har ikkala turdagi fe'llardan ham nisbat hosil qilish mumkin. Aniq nisbatdagi fe'llarning maxsus qo'shimchasi yo'q.

O'zlik nisbatdagi fe'llar ish-harakatning bajaruv-chisi (subyekti) ham, bajariluvchisi (obyekti) ham bir shaxs yoki narsaning o'zi ekanligini anglatadi. Bu nisbat fe'lga **-l, -il, -n, -in** qo'shimchalaridan mosini qo'shish orqali hosil bo'ladi: *yuvinmoq, kiyinmoq, bezanmoq, bo'yanmoq, taranmoq, surinmoq, yiqilmoq, qoqilmoq* kabi. Masalan: *Gulsanam tongda turib yuvindi, tarandi, kiyindi va ishga jo'nadi. Futbolchining oyog'i qayrilib yiqildi.*

Majhul nisbatdagi fe'l ish-harakatning bajaruvchisini ifodalamaydi. O'zlik nisbatdagi fe'llar kabi **-l, -il, -n, -in** qo'shimchalari yordamida hosil bo'ladi: *bug'doy ekildi, sayohatga borildi, xat yozildi, maydon shudgorlandi, ishlar bajarildi, hosil to'plandi, zarar qo'plandi* kabi. Masalan: *Bu yil ob-havo yaxshi kelib, paxta ekilgan barcha yerlar erta shudgorlandi. Bir hafta ichida olmalar terib topshirildi.*

Birgalik nisbatdagi fe'l ish-harakatning ikki va undan ortiq kishi tomonidan amalga oshirilishini anglatadi. Bu nisbat fe'lga **-sh, -ish, -lash** qo'shimchalaridan mosini qo'shish bilan hosil bo'ladi: *ikkovlashib ishlashdi, o'qituvchidan so'rashdi, ko'rgani kelishdi, ashula aytishdi, opa-uka suhbatlashdi, tabiat haqida so'zlashdi, hovlini supirishdi* kabi. Masalan: *O'qituvchi dars goldirayotgan talabalar bilan suhbatlashdi. Ular boshqa dars goldirmaslikka so'z berishdi.*

Orttirma nisbatdagi fe'llar ish-harakatning amalga oshishida boshqa biror shaxs yoki narsa vosita bo'lishini ifodalaydi. Bu nisbat fe'llarga **-t, -dir, -tir, -ar, -ir, -giz (-kiz, -qiz, -g'iz), -gaz, (-kaz, -qaz)** qo'shimchalaridan mosini qo'shib hosil qilinadi: *she'rni o'qit, bog'da ishlat, bolalarni kuldir, matnni yozdir, kalitni toptir, otni choptir, xonani supirtir, tomga chiqar, qushlarni uchir, ovqatni pishirtir, mashinani yurgiz, dog'ni ketkiz, stulga o'tqiz, uyqudan turg'iz, suhbat o'tkaz, ko'chat o'tqaz* kabi. Masalan: *Gulnora ukasiga ertak o'qityapti. Mushuk daraxtga chiqib, qushlarni uchirdi.*

Fe'lning xoslangan shakllari. O'zbek tilida fe'lning uchta xoslangan (funktsional) shakli mavjud. 1. Harakat nomi. 2. Sifatdosh. 3. Ravishdosh.

Harakat nomi fe'lning ot va fe'lga xos xususiyatlarga ega shaklidir. Biroq u fe'ldan ko'ra ot so'z turkumiga xos xususiyatlarni o'zida ko'proq namoyon qiladi. SHu sababli, ko'plik, egalik, kelishik qo'shimchalarini oladi hamda gapda otga xos sintaktik vazifalarni bajarib keladi. Harakat nomi fe'l o'zagi yoki negiziga **-sh, -ish, -v, -uv, -moq** qo'shimchalaridan birini qo'shish orqali hosil qilinadi. Inkori shakli esa **-maslik** qo'shimchasi bilan hosil bo'ladi. Masalan: *ishlash, ishlamaslik, ishlov, ishlamoq, to'qish, to'quv, to'qimoq, to'qimaslik, o'qish – o'qishlar – o'qishim – o'qishimni* kabi.

Sifatdosh o'zida sifat va fe'lga xos xususiyatlarni namoyon qila oladigan fe'l shaklidir. Sifatdosh fe'lga **-gan (-kan, qan), -r, -ar, -vchi, -uvchi** qo'shimchalaridan mosini qo'shish orqali hosil bo'ladi: *o'qigan kitobim, kelgan mehmonlar, ekan daraxtingiz, taqqan galstugi, oqar suv, aytar gap, yashar joyini, fikrlovchi kishiga, bog'chada ishlovchi ayollar* kabi. Masalan: *Men o'qigan kitoblarimining ro'yxatini yozib boraman. Bultur ekan daraxtlarimizning barchasi gulladi.*

Sifatdosh gapda, asosan, aniqlovchi, kesim, otlashganda esa boshqa bo'laklar vazifasida ham kela oladi.

Ravishdosh fe'lga **-b, -ib, -a, -y, -gach (-kach, -qach), -guncha (-kuncha, quncha), -gani (-kani, -qani)** qo'shimchalaridan mosini qo'shish yo'li bilan hosil qilinadi. Uning inkor shakli **-ma, -may, -masdan** qo'shimchalari yordamida hosil bo'ladi. Ravishdosh fe'lning ravish va fe'lga xos belgilarga ega shakli hisoblanadi: *turib gapirdi, o'ylab ayting, yura-yura charchadi, o'qiy-o'qiy o'rgandi, kelgach, ekkach, chiqqach, uyga borguncha, ko'ylagini tikkuncha, qo'ylarni boqquncha, to'yga aytgani, chiqindilarni to'kkani, nishonlarini taqqani* kabi. Masalan: *O'ynab aytasang ham, o'ylab ayt. Men yangi va qiyin so'zlarni takrorlay-takrorlay yodlab olar edim.*

Fe'llarning yasalishi. O'zbek tilida fe'llar ikki usul bilan yasaladi. 1. Morfologik usul. 2 Sintaktik usul.

Morfologik usul bilan sodda yasama fe'llar hosil bo'ladi. Quyidagi qo'shimchalar sodda fe'llar yasaydi: **-la, -lan, -lantir, -lashtir, -y, -a, -r, -ar, -i, -sira, -illa.** Masalan: *so'zla, ishla, kuyla, rohatlan, shubhalan, hayajonlan, suhbatlash, harbiylash, keskinlash, chetlat, tomchilat, qoyillat, kuchsizlantir, sho'rsizlantir, yuqumsizlantir, elektrlashtir, ixtisoslashtir, rasmiy-lashtir, qoray, zo'ray, ozay, keksay, ko'kar, qisqar, eskir, boyi, tinchi, yangila, suvsira, xayfsira, begonasira, qarsilla, yaltilla, chiyilla* kabi.

Sintaktik usul bilan qo'shma va juft fe'llar yasaldi. Qo'shma fe'llar: *ishlab chiqarmoq, sotib olmoq, olib chiqmoq, olib ketmoq, bayon etmoq, qarshi olmoq, qo'l qo'ymoq, kasal bo'lmoq* kabilar. Qo'shma fe'llarni ko'makchi fe'lli so'z qo'shimchalaridan farqlash lozim. O'zbek tilida faqat ko'makchi fe'l bo'ladigan so'zlar yo'q. *Ol, tur, yur, o'tir, bo'l, bitir, yot, boshla, ber, qol, qo'y, chiq, bor, kel, ket, yubor, tashla, sol, tush, o't, ko'r, qara* kabi mustaqil ma'noli fe'llar ko'makchi fe'l vazifasini bajarib kelishi mumkin. Ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmalarida oldin kelgan so'z yetakchi, keyin kelgan so'z ko'makchi fe'l sanaladi. Mazmun yetakchi fe'l orqali yetkazilib, ko'makchi fe'l, nomi aytib turganidek, unga yordam beradi. Ba'zan yetakchi fe'l bitta bo'lgani holda, ko'makchi fe'l bir necha bo'lishi ham mumkin. Ko'makchi

fe'lsiz ham yetakchi fe'lning o'zi fikrni ifodalashi mumkin bo'ladi. Qo'shma fe'llarning tarkibini esa ajratish mumkin emas. Ular birgalikda yangi ma'no ifodalash uchun xizmat qiladi. Ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmalari: *o'qib tur, o'qib ol, o'qib bo'l, o'qib yur, o'qib o'tir, o'qiy boshla, o'qib qo'y, o'qib chiq, o'qib kel, o'qib yubor, o'qib tashla, o'qib ko'r* kabi.

Juft fe'llar ikki har xil fe'lning o'zaro teng aloqaga kirishuvidan hosil bo'ladi: *oldi-qo'ydi, bordi-keldi, yozdi-oldi, aytdi-qo'ydi, oldi-qoldi, keldi-ketdi* kabi. Ular har doim chiziqcha bilan yoziladi.

O'zbek tilida o'z lug'aviy ma'nosini yo'qotgan *edi, ekan, emish, emas* to'liqsiz fe'llari mavjud bo'lib, ular gap tarkibida fe'llar va fe'l bo'lmagan so'zlar bilan birga qo'llanadi: *kelgan – kelgan edi, o'qigan – o'qigan ekan, yozgan – yozgan emish, o'qituvchi – o'qituvchi edi, haydovchi – haydovchi ekan, yolg'onchi – yolg'onchi emish, yozgan – yozgan emas, chiroyli – chiroyli emas.* To'liqsiz fe'llar o'zi ergashib kelgan so'zga turli qo'shimcha ma'nolar berish uchun xizmat qiladi.

Fe'llarning sintaktik vazifasi. Fe'llar gapda, asosan, kesim vazifasini bajaradi: *Gulbahor bu yil universitetning iqtisodiyot fakultetini bitirdi.*

Fe'lning xoslangan shakllari gapda boshqa sintaktik vazifalarni ham bajarib kela oladi. Harakat nomi ega, kesim, to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol vazifalarini bajaradi.

Ega: *Yolg'on gapirish – insonning obro'yini to'kadi.*

Kesim: *Maqsadimiz – farovon yashash.*

To'ldiruvchi: *Jazirama yozda daryoda maza qilib suzishni kim yoqtirmaydi?!*

Aniqlovchi: *Oftobda toblanishning kishi sog'lig'iga foydasi katta.*

Hol: *Biz bu yerga ilm o'rganish uchun kelganmiz.*

Sifatdosh, asosan, aniqlovchi, kesim, otlashganda esa ega, to'ldiruvchi, undalma, qaratqichli aniqlovchi vazifalarida keladi.

Aniqlovchi: *Aytilgan gap – otilgan o'q.*

Kesim: *Bu gap ming marta aytilgan.*

Ega: *Mehnat qilgan – rohat ko‘radi.*

To‘ldiruvchi: *Yolg‘on gapiradiganlarni kim ham yoqtiradi.*

Undalma: *Kech qolganlar, dekanning nomiga tushuntirish xati yozasizlar.*

Qaratqichli aniqlovchi: *Betga aytganning zahri yo‘q.*

Ravishdosh gapda asosan hol, ba‘zan kesim vazifalarida keladi.

Hol: *Biz bugun futbol tomosha qilgani stadiona bormoqchimiz.*

Kesim: *Qo‘ng‘iroq chalingach, hamma o‘quvxonalarini tomon shoshildi. To‘yning vahimasi boshlanguncha.*

**RAVISH. HOLAT RAVISHLARI. PAYT RAVISHLARI.
O‘RIN RAVISHLARI. DARAJA-MIQDOR RAVISHLARI.
SABAB RAVISHLARI. MAQSAD RAVISHLARI.
RAVISHLARNING TUZILISHIGA KO‘RA TURLARI.**

O‘zbek tilida ham, rus tilida ham ravish turkumiga oid so‘zlar ish-harakat yoki holatning belgisini ifodalash uchun xizmat qiladi. Rus tilida ravishga oid so‘zlar hech qanday qo‘shimchalarni olmaydi va, shunga ko‘ra, ular o‘zgarmasdir. O‘zbek tilida esa ravishlarga ayrim qo‘shimchalarni qo‘shish mumkin: *erta – ertaga – ertadan, nari – nariga – narida – naridan, kechqurun – kechqurungacha, hozir – hozirdan – hozirdanoq* kabi.

Ravishlar anglatgan ma‘nolariga ko‘ra, quyidagi turlarga bo‘linadi: 1. Holat ravishlari. 2. Payt ravishlari. 3. O‘rin ravishlari. 4. Daraja-miqdor ravishlari. 5. Sabab ravishlari. 6. Maqsad ravishlari.

Holat ravishlari ish-harakatning qay holatda, tarzda, qanday qilib bajarilishini anglatadi: *tez, asta, sekin, jim, yayov, piyoda, xomligicha, darrov, darhol, birdan, birga, qo‘qqisdan, majburan, tasodifan, astoydil, yaqqol, mardlarcha,*

qahramonlarcha, qatorasiga, bittalab, birma-bir, yonma-yon, arang, zimdan, qiyg‘os, zo‘rg‘a, boshqacha, qushday, askardek, odamday va hokazo.

Holat ravishlari gapda tarz holi, aniqlovchi, kesim vazifalarida keladi. Masalan: *Ikki o‘rtoq sanoat mollari do‘konigacha yonma-yon suhbatlashib borishdi. Qip-qizil gilamdek lola-qizg‘aldoqlar tovlanib ko‘zni qamashtiradi. Auditoriya suv qo‘ygandek jim, hamma sukutda.*

Payt ravishlari ish-harakatning bajarilish paytini bildiradi: *erta, indin, bugun, kecha, avval, hamisha, hali, hanuz, keyin, so‘ng, so‘ngra, ilgari, ertalab, endi, tunov kun, bultur, qadim, oldin, allaqachon, hamon, kechasi, yiliga, tezdin, yaqinda, hech qachon, dastlab, kunduzi, har kuni, kuni bilan, hozir, yildan-yilga, erta-indin, qishin-yozin, doim, har vaqt kabi.* Payt ravishlari gapda payt holi bo‘lib keladi. Masalan: *Bu xatni egasiga shu bugunog yetkazish kerak.*

O‘rin ravishlari ish-harakatning bajarilish o‘rnini, yo‘nalishini bildiradi: *quyida, nari, beri, u yoqqa, bu yoqqa, allaqayerda, allaqayerga, allaqayerdan, unda-bunda, hech yoqqa, olg‘a, shu yerda, har yerda, o‘rtada, ichkari, tashqari* va hokazo. O‘rin ravishlari gapda o‘rin ravishi vazifasini bajaradi. Masalan: *Qo‘shnimiz har kuni ertalab allaqayerga borib keladi.*

Daraja-miqdor ravishlari ish - harakatning bajarilish darajasini, miqdorini ko‘rsatadi. Ma‘nosiga qarab ularni ikki turga bo‘lish mumkin.

1. Daraja ravishlari: *juda, g‘oyat, g‘oyatda, nihoyatda, obdan, rosa, aslo, har qancha, ozmuncha, sira, hech, benihoya, eng, tamoman, uncha, o‘ta, zir, asti, zinhor, hargiz, hadeganda* va hokazo.

2. Miqdor ravishlari: *ko‘p, oz, kam, bir oz, picha, qittak, xiyol, yana, tag‘in, sal-pal, jindek, mo‘l* va hokazo.

Daraja-miqdor ravishlari gap tarkibida daraja-miqdor holi vazifasini bajarib keladi. Shuningdek, kesim, aniqlovchi,

otlashganda esa ega, qaratqichli aniqlovchi va to'ldiruvchi bo'lib kela oladi. Masalan:

Hol: *Bu gaplarni zinhor birovga ayta ko'rma.*

Aniqlovchi: *Ko'p gap eshakka yuk, tezroq ishni tugatish kerak.*

Kesim: *Ishyoqmasning bahonasi ko'p.*

Ega: *O'ylaymanki, ko'plar bu gapdan mutlaqo bexabar.*

Qaratqichli aniqlovchi: *Ko'pning fikriga qarshi borib bo'lmaydi.*

To'ldiruvchi: *Ozni ham, ko'pni ham qanoatli, sabrli odam topadi.*

Sabab ravishlari ish-harakatning bajarilish sababini anglatadi: *noiloj, chor-nochor, noilojlikdan, chorasizlikdan.* Sabab ravishlari gapda sabab holi vazifasida keladi. Masalan: *Bu xabarni eshitib, men noiloj darvozadan qaytishga majbur bo'ldim.*

Maqsad ravishlari ish-harakatning bajarilishidan ko'zda tutilgan maqsadni ifodalaydi: *atay, atayin, ataylab, jo'rttaga, qasddan* kabi. Maqsad ravishlari gapda maqsad holi bo'lib keladi. Masalan: *Kecha ular ikkovi atayin ishxonamga qidirib kelishgan ekan.*

Ravishlarning ayrimlari sifatlar kabi belgini darajalab ko'rsata oladi: *tez yurmoq, tezroq yurmoq, juda tez yurmoq; ko'p tutmoq, ko'proq tutmoq, nihoyatda ko'p tutmoq; sekin suzmoq, sekinroq suzmoq, juda ham sekin suzmoq* kabi.

Ravishlar ham morfologik va sintaktik usullar bilan yasaladi. Quyidagi qo'shimchalar yordamida morfologik usul bilan sodda yasama ravishlar hosil bo'ladi: **-cha, -lar, -lab, -ona, -an, -ligicha, -lay, -dek, -day, -chasi**ga. Misollar: *o'zbekcha, yangicha, hozircha, mardlarcha, do'stlarcha, qarindoshlarcha, yillab, oylab, tonnalab, do'stona, oqilona, mardona, taxminan, majburan, xayolan, xomligicha, butunligicha, ko'kligicha, yoshlay, tiriklay, yashinday, o'qdek, yigitchasi*ga, *qishloqchasi*ga, *ochiqchasi*ga kabi.

Sintaktik usul bilan qo'shma va juft ravishlar yasaladi: *birmuncha, birvarakay, har vaqt, bir lahza, hech qachon, har zamon, shu yerda, tunov kun, asta-sekin, uzil-kesil, erta-kech, kecha-kunduz, kundan-kunga, yuzma-yuz, rang-barang, ko'chama-ko'cha* kabi.

YORDAMCHI SO'Z TURKUMLARI

Yordamchi so'zlar nutqda mustaqil so'zlar orasidagi grammatik munosabatlarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Ular sirasiga bog'lovchilar, yuklamalar va ko'makchilarni kiritish mumkin.

Bog'lovchilar gapning uyushiq bo'laklarini hamda qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni o'zaro bog'lash uchun xizmat qiladi. Bog'lovchilarni vazifasiga ko'ra ikki turga bo'lish mumkin. 1. Teng bog'lovchilar: *va, hamda, ammo, lekin, biroq, balki, yo, yoki, yoxud, yoinki, goh..., goh, dam..., dam, ba'zan..., ba'zan, ham..., ham.* 2. Ergashtiruvchi bog'lovchilar: *chunki, shuning uchun, negaki, toki, go'yo, go'yoki, gar, agar, agarda, basharti, garchi, garchand, -ki, -kim.* Masalan: *Bugun biz o'zbek tili darsida matn tarjima qildik va mashqlar ishladik. Kecha havo bulut bo'ldi, ammo yomg'ir yog'madi. Yo'lda avtobus buzildi, shuning uchun men darsga o'n daqiqa kech qoldim.*

Yuklamalar butun bir gapga yoki uning ayrim bo'laklariga turli qo'shimcha ma'no berish uchun xizmat qiladi. Ular tuzilishiga ko'ra ikki turga bo'linadi: 1. Qo'shimcha yuklamalar: **-mi, -chi, -a, -ya, -ku, -gina, -da, -oq, -yoq.** 2. So'z yuklamalar: *hatto, faqat, axir, xuddi, naq, ham, nahotki.* So'z yoki gapga qo'shimcha ma'no berish xususiyatlariga ko'ra yuklamalarni bir necha guruhlariga bo'lish mumkin.

1. Ko'chaytiruv yuklamalari: *hatto, hattoki, axir, nahotki, ham, -ku, -u, -yu, -da, -oq, -yoq.*

2. Chegaralov yuklamalari: *faqat, faqatgina, -gina(-kina, -qina).*

3. So‘roq yuklamalari: *-mi, -chi, -a, -ya*.

4. Aniqlov yuklamalari: *xuddi, naq*.

Masalan: *Siz «Turkiston» gazetasiga obuna bo‘ldingizmi? O‘zingiz-chi?*

Ko‘makchilar ot yoki otlashgan so‘zlarga bog‘lanib, uning boshqa bo‘laklar bilan munosabatini ifodalaydi. Ko‘makchi o‘zi bog‘langan so‘z bilan birgalikda bir so‘roqqa javob bo‘lib, birgalikda bir gap bo‘lagi vazifasida keladi. Ko‘makchi o‘zi mustaqil holda gap bo‘lagi bo‘la olmaydi. Ko‘makchilar vazifasiga ko‘ra rus tilidagi predloglarga yaqin turadi. Ko‘makchilar grammatik ma‘nolariga ko‘ra *uch turga* bo‘linadi. 1. Sof ko‘makchilar. 2. Ot ko‘makchilar. 3. Fe‘l ko‘makchilar.

Sof ko‘makchilarga quyidagilar kiradi: *bilan, uchun, kabi, singari, sayin, sari, uzra*.

Ot ko‘makchilar: *tomon, tashqari, burun, ilgari, keyin, so‘ng, old, huzur, orqa, ket, yon, o‘rta, ora, ich, tag, ost, ust, tepa, to‘g‘ri, haq, xusus, yuza, bo‘y* va hokazo.

Fe‘l ko‘makchilar: *ko‘ra, yarasha, qarab, boshlab, tortib, qaramay, qaraganda, osha, bo‘ylab* va hokazo. Masalan: *Bir guruh talabalar hozirgina kutubxona tomon o‘tishdi. Ikkinchi kurs talabalari birinchi kurs talabalariga qaraganda ancha tajriba orttirgan bo‘lishadi.*

ALOHIDA GURUH SO‘ZLAR TURKUMI

O‘zbek tilida mustaqil so‘zlarga ham, yordamchi so‘zlarga ham kirmaydigan, o‘ziga xos xususiyatlari bilan bir-biridan ham ajralib turadigan uch toifa so‘zlar turkumi bor. Ularni shartli ravishda alohida guruh so‘zlar turkumiga ajratish mumkin. Bularga undov so‘zlar, taqlid so‘zlar va modal so‘zlarni kiritish mumkin. Bu guruhlarga mansub so‘zlar lug‘aviy ma‘no ifodalama-da, undov va taqlid so‘zlar gap tarkibida ma‘lum sintaktik vazifalar bajarib keladi, so‘zlovchining o‘z fikriga, atrof-dagilarga munosabatini ifodalash uchun xizmat qiladi.

Undov so‘zlar kishilarning his-tuyg‘ularini, hayvon va parrandalarga nisbatan buyruq-xitoblarini ifodalaydi. Undov so‘zlarni ikki turga bo‘lish mumkin.

1. **His-tuyg‘u undovlari:** *eh, oh, uh, himm, be, xo, hech, ey, ho, uf, tuf, dod, voy, hah, obbo, ura, o‘ho‘, e-ha, e-he, i-i, iye, huv, hov, hoy, hey, tss, marsh, bas, hormang, bor bo‘ling, rahmat, qani, allo, salom, xayr, ofarin, balli, qulluq, brakalla* va hokazo.

2. **Buyruq-xitob undovlari:** *beh-beh-beh, tu-tu-tu, chigi-chigi, quray-quray, kuch-kuch, bah-bah, mah-mah, pish-pish, mosh-mosh, xix, ishsh, kisht, chuh, chu, hayt, cho‘k-cho‘k, drr, trr, tak-tak, tek, pisht, tur, chak, cha, xo‘o‘sh, ho‘o‘k* va hokazo.

Taqlid so‘zlar rus tilida o‘zbek tilidagi kabi keng qo‘llanmaydi. O‘zbek tilida atrofimizdagi turli-tuman narsalar, jonli va jonsiz tabiat tovushlari, shu‘la-harakatga nisbatan taqlidan hosil qilingan so‘zlar mazkur turni tashkil etadi. Ularni ikki turga bo‘lish mumkin. 1. Tovushga taqlid bildiruvchi so‘zlar. 2. Shu‘la-harakatga taqlidni bildiruvchi so‘zlar.

Tovushga taqlid so‘zlar: *qars, tars, tiq, taq, duk, kurt-kurt, kirt-kirt, g‘ichir, shtir, g‘iyq, vishsh, vizz, g‘uv-g‘uv, parr, qarr, g‘a-g‘a, g‘aq-g‘aq, g‘a-qa-qa, qo‘q-qo‘qo‘q-qo‘o‘, vaq-vaq, miyov, ang-ang, mee, mo‘o‘, irr, uvv, vov, bidir-bidir, qult-qult, kasir-kusir, inga-inga, shivir-shivir, shaqir-shuqur, g‘ir-g‘ir* va hokazo.

Shu‘la-harakatga taqlid so‘zlar: *yalt, yult, yarq, lim-lim, bij-bij, vij-vij, gir-gir, hang-mang, lapang-lapang, lang* va hokazo.

Modal so‘zlar har ikkala tilda ham so‘zlovchining o‘z nutqiga bo‘lgan munosabatini ifodalash uchun xizmat qiladi. O‘zbek tilida quyidagi so‘zlar modal so‘zlar sanalib, ular gapda kirish bo‘lak vazifasida keladi: *albatta, haqiqatan, tabiiy, balki, chamasi, ehtimol, aftidan, shubhasiz, darhaqiqat, shekilli, mazmuni, aslida, rostdan, hoyna-hoy, o‘z-o‘zidan, har qalay, har holda, so‘zsiz, shaksiz, darvoqe* va hokazo.

SO‘Z TARKIBI VA SO‘ZLARNING TUZILISHIGA KO‘RA TURLARI

So‘z tarkibi. So‘zning bo‘linmas, eng kichik ma’noli qismi morfema deyiladi. Morfemalar so‘zning ma’nosiga munosabati jihatdan ikki turga bo‘linadi. 1. O‘zak morfema. O‘zak morfema lug‘aviy ma’no ifodalaydi: *ish, kishi, ko‘z, sigir, to‘rt, kel, yugur, asta, sariq, og‘ir* kabi. 2. Qo‘shimcha morfema. Qo‘shimcha morfema o‘zi mustaqil holda lug‘aviy ma’no ifodalamaydi. So‘zga birikib kelib, yangi ma’noli so‘z yasaydi, uning asl ma’nosiga har xil ma’nolar beradi yoki so‘zlarni o‘zaro bog‘laydi: *bola-lar, bolagina, un-tacha, kel-moqda, bor-moqchi, gul-zor, kuz-gi, qish-ki, kel-guncha, chiq-qach* kabi.

So‘zning asosini o‘zak tashkil qiladi. O‘zakka yasovchi qo‘shimcha qo‘shilishi bilan negiz hosil bo‘ladi: *paxta-kor, paxta-zor, paxta-chi, paxta-li; ish-chi, ish-chan, ish-la, ish-siz, ish-xona* kabi.

Qo‘shimcha morfemalar vazifasiga ko‘ra uch xil bo‘ladi. 1. So‘z yasovchi morfemalar. 2. Shakl yasovchi morfemalar. 3. So‘z o‘zgartuvchi morfemalar.

So‘z yasovchi qo‘shimcha (morfema)lar o‘zakka qo‘shilib, yangi ma’noli so‘z yasaydi. Bunday qo‘shimchalar yordamida ot, sifat, fe‘l va ravish turkumiga oid so‘zlar yasaladi. 1. Ot yasovchi qo‘shimchalar: *-chi, -kor, -shunos, -kash, -xon, -do‘z, -gar, -soz, -paz, -boz, -xo‘r, -parast, -dor, -bon, -dosh, -don, -xona, -ma, -ch, -obod.*

2. Sifat yasovchi qo‘shimchalar: *-li, xush-, bad-, sur-, ba-, be-, no-, -mand, -siz, -chan, -chak, -ag‘on, -mon, -gi, -ki, -qi, -mas, -iy, -viy, -simon, -parvar, -aki, -bop.*

3. Fe‘l yasovchi qo‘shimchalar: *-la, -lan, -lash, -illa, -ira, -a, -ay, -y, -ar, -r, -sira, -i, -ik, -iq, -t.*

4. Ravish yasovchi qo‘shimchalar: *-cha, -larcha, -chasiga, -siga, -iga, -ona, -lab, -an, -chang, -lay.*

Shakl yasovchi qo‘shimchalar so‘zning lug‘aviy ma’nosini butunlay o‘zgartirmay, unga qo‘shimcha ma’no yuklash uchun

xizmat qiladi. Bunday qo‘shimchalar barcha mustaqil so‘z turkumlariga kiruvchi so‘zlarga qo‘shilib kelishi mumkin. Ot so‘z turkumiga xos so‘zlarga: *dala-lar, qiz-gina, buzoq-cha, toy-choq, kelin-chak, bo‘ta-loq* kabi. Sifat so‘z turkumiga xos so‘zlarga: *oq-ish, katta-roq, ko‘k-imtir, qora-mtir, sariq-qina, kichik-kina, yengil-gina.* Son so‘z turkumiga xos so‘zlarga: *o‘n-ta, yuz-tacha, ming-larcha, million-lab, besh-tadan, uch-ov, to‘rt-ovlon, uch-ala* kabi. Olmosh so‘z turkumiga xos so‘zlarga: *kim-dir, alla-nima.* Fe‘l so‘z turkumiga xos so‘zlarga: *o‘qi-t, yoz-dir, kel-sa, bor-di, ayt-gin, ko‘r-sin, art-ish, sur-moq, ol-moqchi, tur-gan, kul-ib* kabi. Ravish so‘z turkumiga xos so‘zlarga: *bugun-oq, ertaga-yoq, kech-roq, ko‘p-gina* kabi.

So‘z o‘zgartuvchi qo‘shimchalar so‘zlarning nutqda o‘zaro sintaktik aloqaga kirishuvlarini ta’minlash uchun xizmat qiladi. So‘z o‘zgartuvchi qo‘shimchalarga quyidagilar kiradi: 1. Kelishik qo‘shimchalari: *-ning, -ni, -ga, -ka, -qa, -da, -dan.* 2. Egalik qo‘shimchalari: *-m, -im, -ng, -ing, -si, -i, -miz, -imiz, -nigiz, -ingiz, -lari.* 3. Fe‘llardagi shaxs-son qo‘shimchalari: *-man, -san, -ti, -miz, -siz, -tilar, -m, -ng, -k, -ngiz* kabi. Bunday qo‘shimchalar yangi so‘z ham yasamaydi, so‘zga qo‘shimcha ma’no ham bermaydi. So‘zlarni o‘zaro bog‘lash uchun xizmat qiladi. Masalan: *Men universitet-da o‘qiy-man. Dars-imiz soat o‘n-da boshlana-di.*

So‘zlarning tuzilishiga ko‘ra turlari. O‘zbek tilida so‘zlar tuzilishiga ko‘ra uch turga bo‘linadi. 1. Sodda so‘zlar. 2. Qo‘shma so‘zlar. 3. Juft so‘zlar.

Sodda so‘zlar ham o‘z navbatida ikki turga bo‘linadi. 1. Sodda tub so‘zlar. 2. Sodda yasama so‘zlar. Sodda tub so‘zlar birgina o‘zakdan tashkil topib, tarkibida so‘z yasovchi qo‘shimchalar bo‘lmaydi: *bog‘, bog‘lar, bog‘larda, bog‘lardadir.* Sodda yasama so‘zlar tarkibida so‘z yasovchi qo‘shimchalar mavjud bo‘ladi: *bola-li, bola-siz, bola-lik, bola-larcha, bola-simon, bola-dek* kabi.

Qo‘shma so‘zlar ikki va undan ortiq so‘zning o‘zaro birikuvidan hosil bo‘ladi. 1. Qo‘shma otlar: *gultojixo‘roz,*

gulhamishabahor, suvilon, toshbaqa, tog'olcha, Oqdaryo, Qiziltepa, O'rta Osiyo, Quyi Chirchiq, Past Darg'om, Kattaqo'rg'on kabi. 2. Qo'shma sifatlar: *sohibjamol, mehmondo'st, o'zbilarmon, qo'lbola, ustabuzarmon, tinchliksevar, ertapishar, hozirjavob* kabi. 3. Qo'shma fe'llar: *sotib olmoq, javob bermoq, olib kelmoq, olib chiqmoq, bayon etmoq, qo'l qo'ymoq, himoya qilmoq, qaror qilmoq* kabi. 4. Qo'shma ravishlar: *bir oz, har zamon, bir yoqqa, hech qachon, har qachon, biryo'la, ozmuncha, allaqayda, shu yerda, o'tgan kuni, hamma vaqt* kabi.

Juft so'zlar ikki har xil so'zning o'zaro teng bog'lanishidan hosil bo'ladi. Nutqda juftlanib yoki takror holda qo'llanish barcha mustaqil so'z turkumlariga xos xususiyatdir. Juft otlar: *ota-ona, er-xotin, kuch-quvvat, tog'-tosh, gap-so'z, kiyim-kechak, temir-tersak, g'ala-g'ovur, shovqin-suron* kabi. Juft sifatlar: *oq-qora, katta-kichik, baland-past, yaxshi-yomon* kabi. Juft sonlar: *besh-olti, qirq-ellik, bir-ikki, o'n besh-o'n olti, bir-ikki yuz, o'n besh - yigirma*. Juft olmoshlar: *sen-men, siz-biz, u-bu, shu-shu, o'sha-o'sha*. Juft fe'llar: *oldi-ketdi, ketdi-bordi, aytdi-qo'ydi, o'tdi-ketdi, qirdi-tashladi*. Juft ravishlar: *asta-sekin, erta-kech, eson-omon, kecha-kunduz, uzil-kesil, qishin-yozin* kabi.

**SINTAKSIS. TENG BOG'LANISH. TOBE BOG'LANISH.
SO'Z BIRIKMASI. BOSHQARUV. MOSLASHUV.
BITISHUV. GAP. DARAK GAPLAR. SO'ROQ GAPLAR.
BUYRUQ GAPLAR. HIS-HAYAJONLI GAPLAR. GAPDA
SO'Z TARTIBI. GAPNING BOSH VA IKKINCHI
DARAJALI BO'LAKLARI.**

Sintaksisda gap, gap tarkibidagi so'z birikmalarining grammatik xususiyatlari o'rganiladi.

Gap tarkibidagi so'zlar o'zaro bir-biri bilan grammatik jihatdan bog'langan bo'ladi va shu taxlitda ular ma'lum sintaktik vazifalarni bajarib keladi.

So'zlar gap tarkibida o'zaro ikki yo'l bilan bog'lanadi. 1. Teng bog'lanish. 2. Tobe bog'lanish. So'zlar o'zaro teng bog'langanda, ular bir xil so'roqlarga javob bo'ladi hamda bir xil sintaktik vazifa bajaradi: *O'rik va shaftoli gulladi*. Gapdagi o'rik va shaftoli so'zlari va bog'lovchisi yordamida teng aloqaga kirishgan.

So'zlar o'zaro tobe bog'langanda so'z birikmasi hosil bo'ladi. Bunday birikuvda avval tobe so'z, undan keyin hokim so'z keladi: *qiziq kitob, oshxonaga kirdi, kutubxona tomon ketdi, singlimning dugonasi* kabi.

Tobe bog'lanish uch xil yo'l bilan amalga oshadi. 1. Boshqaruv. 2. Moslashuv. 3. Bitishuv.

Boshqaruvli bog'lanishda hokim so'z talabiga ko'ra tobe so'z tushum, jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishigi qo'shimchalarini olib keladi yoki hokim va tobe so'z ko'makchilar yordamida bog'lanadi: *akasini chaqirmoq, uyiga ketmoq, shaharda yashamoq, o'qituvchidan so'ramoq, do'sti bilan bormoq, kelajak haqida suhbatlashmoq, haqiqat uchun kurashmoq* kabi.

Moslashuvli aloqada hokim so'z bilan tobe so'z qaratqich kelishigi va egalik qo'shimchalari yordamida bog'lanib, o'zaro shaxs-sonda moslashadi: *mening hovlim, sening xonang, uning quvonchi, bizning guruhimiz, sizning vazifangiz, ularning fakulteti* kabi.

Bitishuvli birikuvda hokim so'z bilan tobe so'z o'zaro hech qanday grammatik vositalarsiz, faqat tartib va ohang asosida bog'lanadi: *katta ko'cha, tez gapirmoq, besh baho, kulib aytmoq* kabi. Ba'zi bitishuvli birikmalarining hokim va tobe so'zlari o'zaro o'rin almashtirilsa, so'z birikmasi gapga aylanadi: *qiziq kitob – Kitob qiziq. Katta shahar – Shahar katta. Tinch qishloq – Qishloq tinch* kabi.

So'z va so'z birikmalari gap tuzish uchun asos bo'ladi.

G A P

Gap – fikr, tuyg'u, istak va xabarni boshqalarga bildirish, yetkazish uchun qo'llanadigan sintaktik birlik. Gap – nutqning

nisbiy tugallangan fikrni ifodalaydigan bo'lagi. Fikr bir so'z yoki bir necha so'zlar yig'indisi bilan ifodalanishi mumkin. Gaplar tuzilishiga ko'ra sodda va qo'shma turlarga bo'linadi. Ular ifoda maqsadiga ko'ra uch xil bo'ladi: 1. Darak gap. 2. So'roq gap. 3. Buyruq gap.

Darak gapda bo'lib o'tgan, bo'layotgan yoki bo'lishi kutilayotgan voqea-hodisa haqida xabar beriladi. Shuningdek, bunday gaplar orqali narsa yoki hodisada biror xususiyatning mavjudligi yoki mavjud emasligi tasdiq yoxud inkor yo'li bilan ifodalanadi.

Darak gap xabar ohangi bilan aytiladi. Gapning bosh qismida ohang bir oz ko'tarilib, keyingi qismida pasaya boradi. Tovush tempi o'rtacha bo'ladi. Mantiq urg'usini olgan so'z gap tarkibidagi boshqa so'zlarga nisbatan yuqori ohang bilan aytiladi. Urg'uli bo'lak o'zidan oldingi bo'lakdan qisqa pauza bilan ajratilib, tezroq talaffuz etiladi. Darak gaplar tarkibidagi bo'laklarning joylashish tartibi odatdagi tartib sanaladi. Darak gapning kesimi darak xarakteridagi fe'llar bilan ifodalanib, so'roq, buyruq va undov xususiyatlaridan xoli bo'ladi. Darak gapning kesimi fe'ldan boshqa so'z turkumlari bilan ham ifodalanishi mumkin. Misollar: *Jahongir universitetning huquqshunoslik fakultetini bitirdi. Uning ukasi chet tillar institutining ingliz filologiyasi fakultetida tahsil olmoqda. Universitetning botanika bog'i juda katta. Kecha hammani qoyil qoldirgan talaba – shu. Bizning ko'chamizda mevali daraxtlar ko'p.*

So'roq gapda so'zlovchi uchun noma'lum bo'lgan biror narsa, harakat-holat, belgi-xususiyat haqida ma'lumot olish ma'nosi ifodalanadi. So'roq gap, asosan, dialogik nutqqa xos bo'lib, tinglovchidan so'ralayotgan mavzuni inkor yoki tasdiq etishni talab etadi. So'roq gap ohang jihatidan darak gaplardan farq qiladi. So'roq gap so'roq ohangi bilan talaffuz etiladi. So'roq gapda bevosita so'roqni bildiruvchi so'zda ovoz kuchayada. Bunday gaplar oxiriga so'roq belgisi qo'yiladi.

O'zbek tilida so'roq gap bir necha yo'llar bilan hosil bo'ladi.

1. So'roq olmoshlari yordamida shakllanadi. Bunday holatda so'roq gap tarkibida kim? nima? qanday? qanaqa? qaysi? qayerda? qayerga? qayerdan? qachon? nega? necha? nechta? qancha? nima uchun? kabi so'zlari ishtirok etadi. Masalan: *Siz nima uchun dars tayyorlamay keldingiz? Siz bugun qaysi matnni tarjima qildingiz? Siz kutubxonaga kim bilan borasiz? Gulbahorning to'yiga kimlar bordi?*

2. So'roq gaplar **-mi**, **-chi**, **-a**, **-ya**, nahotki so'roq yuklamalari yordamida hosil bo'ladi. Masalan: *Bu kitobni siz keltirdingizmi? Siz zamonaviy musiqa asarlarini yoqtirasizmi? O'zingiz-chi? Sen ikkinchi kursda o'qiysan-a? Akangiz bugun keladi-ya? Nahotki bolaligingiz o'tgan qishlog'ingizni sog'inmasangiz?*

3. So'roq gaplar ba'zan hech qanday grammatik vositalarsiz, faqat ohang yordamida hosil bo'lishi ham mumkin. Bunday holatlarda oldingi darak gap to'lig'icha yoki uning biror bo'lagi takrorlanib, so'roq gap hosil qilinadi. Masalan: *Soat o'n bo'ldi. – Soat o'n bo'ldi? – O'n? Biz muzeyga ertaga boramiz? – Ertaga boramiz? Bu ishni bugun bajara olmaymiz. – Bajara olmaymiz?* kabi.

Buyruq gaplar buyurish, iltimos, taklif, xohish-istak, xitob, ogohlantirish kabi ma'nolarni ifodalab keladi. Odatda, buyruq gaplar suhbatdoshni biror ish-harakatni bajarishga yoki shunday ish-harakatdan voz kechishga undaydi. Buyruq gaplar ikkinchi shaxsga qaratilgan bo'ladi. Shuning uchun ham bunday gaplarning kesimi ko'pincha ikkinchi shaxs birlik yoki ko'plik shaklidagi buyruq fe'li bilan ifodalangan bo'ladi. Shuningdek, ikkinchi shaxsga qaratilgan buyruq gaplarning kesimi shart fe'lining birlik va ko'plik shakllari bilan ham ifodalanishi mumkin. Masalan: *Nodiraxon, o'rtoqlaringizni ham shu yerga chaqirsangiz. Qizim, bir piyola achchiq choy bersangiz.*

Farmoyish, buyruq, qaror kabi rasmiy nutqqa xos hujjatlarda qo'llangan buyruq gapning kesimi majhul nisbatdagi fe'lining uchinchi shaxs buyruq shaklida bo'ladi. Masalan: *O'z ishiga sovuqqonlik bilan munosabatda bo'lgani uchun Nodir Qodirov ogohlantirilsin. Bu qaror ikki haftalik muddat ichida chuqur o'rganib chiqilsin*, kabi

Shuningdek, ko'pchilikka qaratilgan buyruq gaplar ham shunday shaklda bo'ladi. Masalan: *Bu yerda chekilmasin! Iflos qilinmasin! Jimlik saqlansin! Gulzordan yurilmasin! Qo'l bilan teginilmasin!* kabi.

Buyruq gap har xil ohang bilan talaffuz qilinishi mumkin. Qat'iy buyurish, talab ma'nolarini anglatuvchi buyruq gaplar kuchli ohang bilan aytilsa, o'git, nasihat, iltimos kabi ma'nolarni ifodalovchi buyruq gaplar ancha past hamda mayin ohang bilan talaffuz etilishi mumkin. Tinch ohang bilan talaffuz qilingan buyruq gap oxiriga yozuvda nuqta, kuchli his-hayajon bilan talaffuz qilingan buyruq gap oxiriga esa undov belgisi qo'yiladi. Masalan: *Har kuni ertalab barvaqt tur, yuz-qo'lingni yuv, badantarbiya bilan shug'ullan. Bugun kechqurun soat 7 da biznikiga kel. Dushmanga qarata o't oching! Qo'lingni ko'tar!* kabi.

Yuqorida aytib o'tilganlardan tashqari, his-hayajon ifodalovchi gaplar ham mavjudki, ular tilshunoslikda undov gaplar yoki his-hayajon gaplar deb yuritiladi. Bunday gaplarda so'zlovchining his-hayajoni, ruhiy kechinmalari o'z ifodasini topib, tashakkur va rag'batlantirish, hayratlanish, zavqlanish, shodlik, orzu-umid, achinish, kinoya, qo'rqish, g'azab, norozilik, nafrat, ishonch, ishonmaslik, shubha, taajjub, mensimaslik kabi ma'nolar anglashiladi. Undov gaplar anglashilayotgan ma'noga mos his-hayajonga ko'ra turlicha ohang bilan talaffuz etiladi. Odatda bunday gaplar oxiriga yozuvda undov belgisi qo'yiladi. Masalan: *Qishlog'imiz shunaqa chiroyli! Hormang! Barakalla, do'stim! Gulla, yashna mustaqil O'zbekiston!*

GAPDA SO'Z TARTIBI

O'zbek tilida gap tarkibida so'zlar tartibi, asosan, erkin. So'zlarning o'rin almashishi ularning grammatik holatiga jiddiy ta'sir etmaydi. Biroq bu gap mazmuniga, uslubiy jihatiga ta'sir etadi. Qiyoslaymiz: *Men bozorda G'olibni uchratdim. G'olibni men bozorda uchratdim. Bozorda G'olibni men uchratdim.* Bu gaplarda o'zbek tilining o'ziga xos mantiq urg'usining qo'llanish usuli namoyon bo'lmoqda. Birinchi gapda boshqa bironi emas, aynan G'olibni uchratganim, ikkinchi gapda boshqa joyda emas, aynan bozorda uchratganim, uchinchi gapda esa boshqa bironi emas, aynan men uchratganim haqidagi mazmun ifodalanyapti. O'zbek tilida mantiq urg'usi olgan so'z odatda kesimdan oldin joylashadi. Mantiq urg'usi kesimga tushganda, kesim joyini o'zgartirmaydi, balki o'z joyida yuqori ton – ohang bilan aytiladi, xolos.

O'zbek tilida eganing gap boshida, kesimning gap oxirida kelishi doimiy, me'yoriy hol hisoblanadi. Biroq badiiy uslubda, shior tipidagi buyruq va undov gaplarda, ayniqsa, og'zaki nutqda ega bilan kesimning o'zaro almashinib qo'llanish holatlari ko'plab uchraydi. Masalan: *Yashasin xalqlar o'rtasidagi baynalmilal do'stlik!*

Keldi bahor, gul bahor,

Erib bitdi oppoq qor, kabi.

Ega va kesim gapning bosh bo'laklari hisoblanadi. To'ldiruvchi, aniqlovchi va hol ikkinchi darajali bo'laklardir. Ega va unga bog'lanib kelgan ikkinchi darajali bo'laklar ega tarkibini, kesim va unga bog'lanib kelgan ikkinchi darajali bo'laklar kesim tarkibini tashkil etadi. Aniqlovchi aniqlanmishdan oldin keladi: *yam-yashil bog'lar, oppoq paxtalar, to'g'ri so'z, oltin soat* kabi. To'ldiruvchi fe'ldan oldin keladi: *kinoni tomosha qilmoq, o'qituvchi bilan bahslashmoq, she'r o'qimoq* kabi. Hol ham fe'ldan oldin joylashadi: *bugun boramiz, tezda qaytamiz, tomosha qilgani keldik* kabi. Aniqlovchi ega bilan, to'ldiruvchi va hol esa kesim bilan bog'lanib, mantiqiy butunlik hosil qiladi. Masalan: *Biz fakultetimiz yosh havaskorlar to'garagi a'zolarining qiziqarli chiqishlarini uzoq kuzatib turdik.*

O'zbek tilida ega bilan kesimning shaxs va sonda moslashuvi, asosan, birinchi va ikkinchi shaxsning birlik hamda ko'plik shakllariga xosdir. Uchinchi shaxsning birlik shaklida ham shunday moslik bor. Masalan: *Men keldim. Sen o'qiding. U boradi*, kabi. Bu gaplarda ega qaysi son va shaxsda bo'lsa, kesim ham shu son va shaxsdir. Uchinchi shaxs ko'plik shaklida esa ega ko'plikda, kesim birlik sonda qo'llanishi mumkin. Masalan: *Bolalar paxta teryapti. Daraxtlar gulladi. Sigirlar o'tladi*, kabi.

III. O'ZBEKCHA – RUSCHA LINGVISTIK ATAMALAR LUG'ATI.

adabiy talaffuz me'yorlari – нормы литературного произношения
 adabiy til me'yorlari – нормы литературного языка
 adabiy til – литературный язык
 ayirish belgisi – твёрдый знак
 alifbo - алфавит
 aniqlanmish - определяемый
 aniq nisbat – действительный залог
 aniqlik mayli – изъявительное наклонение
 aniqlovchi - определение
 aniq otlar – конкретные существительные
 aniq o'tgan zamon shakli – форма абсолютного прош. времени
 arab yozuvi – арабская графика
 atama – термин
 atoqli ot – имя собственное
 badiiy uslub - литературный стиль
 baynalmilal so'z – интернациональное слово
 belgi - знак
 belgilash olmoshlari – определительные местоимения
 belgili qo'llanish - маркированное употребление
 belgisiz qo'llanish – немаркированное употребление
 betaraf ma'noli so'z – нейтральное слово

birgalik nisbat – взаимно-совместный залог
 birikma - сочетание
 birikuv - сочетаемость
 birlik son – единственное число
 birinchi shaxs – первое лицо
 bir ma'noli so'z – однозначное слово
 bitishuv - примыкание
 bosma shakl – печатная форма
 bosh bo'laklar – главные члены предложения
 bosh kelishik – именительный падеж
 boshlang'ich shakl – исходная форма
 boshqaruv - управление
 bog'lovchi - союз
 buyruq gap – повелительное предложение
 uyruq-istak mayli – повелительно-желательное наклонение
 buyruq shakli – повелительная форма
 burun undoshi – носовое согласное
 bo'laklar tartibi – порядок членов предложения
 bo'lishli fe'l – утвердительный глагол
 bo'lishsiz fe'l – отрицательный глагол
 bo'lishsizlik olmoshlari - отрицательные местоимения
 bo'g'iz undoshi – гортанный согласный звук
 bo'g'in - слог
 vergul - запятая
 vositali to'ldiruvchi – прямое дополнение
 vositasiz to'ldiruvchi – косвенное дополнение
 gap - предложение
 gap bo'lagi – член предложения
 gap boshida – в начале предложения
 gap oxirida – в конце предложения
 gap tartibi – состав предложения
 grammatik vosita – грамматическое средство
 grammatik xususiyat – грамматическая особенность
 gumon olmoshlari – неопределенные местоимения

davlat tili – государственный язык
daraja-miqdor ravishlari – наречия меры и степени
daraja-miqdor holi – обстоятельство меры и степени
darak gap – повествовательное предложение
dialogik nutq – диалогическая речь
dona son – штучные числительные
yetakchi fe'l – ведущий глагол
yozma nutq – письменная речь
yozma shakl – письменная форма
yozuv - письмо
yoriq bo'g'in – закрытый слог
yordamchi so'zlar – вспомогательные слова
jamlovchi - собирательный, -ая, -ое
jarangli undosh – звонкое согласное
jarangsizlanish - оглушение
jarangsiz undosh – глухое согласное
jins kategoriyasi – категория рода
jo'nalish kelishigi – дательный падеж
zamon - здесь: временная форма глагола
zamon qo'shimchalari – окончания временной формы
zid ma'noli so'z - антоним
«y»lashgan tovushlar – йотированные звуки
ibora - выражение
ijobiy ma'no – положительное значение
izohlovchi - приложение
ikkinchi darajali bo'laklar – второстепенные члены предл.
ikkinchi shaxs – второе лицо
ilmiy atama – научный термин
ilmiy uslub – научный стиль
imlo - орфография
imlo qoidalari – орфографические правила
inkor shakl – отрецательная форма
ish-harakat bajariluvchisi – объект
ish-harakat bajaruvchisi – субъект

kasb-hunar atamalari – профессиональные термины
kasr sonlar – дробные числительное
kelasi zamon gumon shakli – неопредел.форма будущ.вр.
kelasi zamon maqsad shakli – форма намерения будущ.вр.
kelasi zamon – будущее время
kelishik kategoriyasi – категория падежа
keng unli – широкое гласное
kesim - сказуемое
kirill yozuvi - кириллица
kirish bo'lak – вводной член предложения
kishilik olmoshlari – личные местоимения
kuchaytirma sifatlar – усилительные прилагательные
kuchaytiruv yuklamasi – усилительная частица
ko'makchi - послелог
ko'makchi fe'l – вспомогательный глагол
ko'p bo'g'inli so'z – многосложное слово
ko'p ma'noli so'z – многозначное слово
ko'plik kategoriyasi - категория множественности
ko'plik son – множественное число
ko'plik shakli – форма множественного числа
ko'plik qo'shimchasi – окончание множественного числа
ko'rsatish olmoshlari – указательные местоимения
ko'chma ma'no – переносное значение
lab-lab undoshlari – губно-губные согласные
lablashmagan – нелабиализованный
lab-tish – губно-зубной, -ая, -ое
lotin yozuvi – латинская графика
leksik birlik – лексическая единица
leksik qatlam – лексический слой
lug'aviy ma'no – лексическое значение
lug'at - словарь
lug'at boyligi – лексическое богатство
lug'at tarkibi – словарный состав
mavhum ot – обстрактное существительное

majhul nisbat – страдательный залог
mayl – наклонение
mantiqiy butunlik – логическая целостность
mantiq urg‘usi – логическое ударение
matn - текст
ma‘no - значение
ma‘nodosh so‘z - синоним
ma‘no qirralari – оттенки значения
maqsad ravishlari – наречия цели
maqsad holi – обстоятельство цели
me‘yor - норма
miqdor sonlar – количественные числительное
modal so‘z – модальное слово
morfologik usul – морфологический способ
morfologik ko‘rsatgich – морфологический показатель
moslashuv - согласование
murakkab olmoshlar – сложные местоимения
murakkab sonlar – сложные числительное
mustaqil so‘zlar – знаменательные части речи
muqobil so‘zlar – эквивалентное слово
negiz - основа
nisbat – залог
nutq birligi – единица речи
nutq tovushlari – звуки речи
nuqta - точка
oddiy daraja – положительная степень
ozaytirma sifatlar – уменьшительные прилагательные
old qo‘shimcha - префикс
olmosh - местоимение
ona tili – родной язык
orttirma daraja – превосходная степень
orttirma nisbat – понудительный залог
ot - здесь: имя существительное
otlashish - субстантивация

ochiq bo‘g‘in – открытый слог
og‘zaki nutq – устная речь
ohang - интонация
payt ravishlari – наречия времени
payt holi – обстоятельство времени
portlovchi undosh – взрывное согласное
ravish - наречие
ravishdosh - деепричастие
ravish holi – обстоятельство образа действия
rasmiy uslub – официально-деловой стиль
sabab ravishlari – наречия причины
sabab holi – обстоятельство причины
salbiy ma‘no – отрицательное значение
sanoq sonlar – количественные числительное
satr - строка
sinonim qator – синонимический ряд
sintaktik aloqa – синтаксическая связь
sintaktik birlik – синтаксическая единица
sintaktik vazifa – синтаксическая функция
sintaktik usul – синтаксический способ
sirg‘aluvchi undosh – щипящее согласное
sifat – имя прилагательное
sifatdosh - причастие
sodda - простой, -ая, -ое
son – имя числительное
suhbat - диалог
so‘z - слово
so‘z birikmasi - словосочетание
so‘z tartibi – порядок слов
so‘z turkumlari – части речи
so‘z urg‘usi – словесное ударение
so‘z-yuklama – слово-частица
so‘zlashuv - разговор
so‘zlashuv uslubi – разговорный стиль

soʻzning fonetik tuzilishi – фонетическое строение слово
soʻroq - вопросительный, -ая, -ое
talaffuz - произношение
talaffuz meʼyorlari – нормы произношения
tarjima - перевод
tarz holi – обстоятельство образа действия
tartib son – порядковые числительное
tasdiq shakli – утвердительная форма
taqlid soʻzlar – подражательное слово
taqsim sonlar – раздильные числительное
teng aloqa – сочинительная связь
teng bogʻlovchilar – сочинительные союзы
tizim - система
til – язык
til oldi undoshi – переднеязычное согласное
til oldi unlisi – переднеязычное гласное
til orqa undoshi – заднеязычное согласное
til orqa unlisi – заднеязычное гласное
til oʻrta undoshi - среднеязычное согласное
tilshunoslik – языкознание, лингвистика
til belgilari – знаки языка
titroq undosh – дрожащее согласное
tobe soʻz – подчиненное слово
tovush birikma – звуковое сочетание
tovush tushishi – опущение звука
tovush oʻzgarishi – изменение звука
tovushga taqlid soʻzlar – звуко-подражательные слова
tor unli tovush – узкое гласное
tub - составной, -ая, -ое
tub soʻz – непроизводное слово
turdosh ot – имя нарицательное
turk-run yozuvi – тюркско-руническая графика
turlanish – склонение
tuslanish – спряжение

tuslovchi qoʻshimchalar – окончания спряжения
tutuq belgisi – опостроф
tushum kelishigi – винительный падеж
tushuncha – понятие
toʻldiruvchi – дополнение
toʻliqsiz feʼl – недостаточный глагол
uzoq oʻtgan zamon – давно прошедшее время
uygʻur yozuvi – уйгурская графика
umumturkiy soʻzlar – общетюркские слова
undalma – обращение
undov belgisi – восклицательный знак
undov gap – восклицательное предложение
undosh tovush – согласный звук
unli tovush – гласный звук
unli harf – гласная буква
undosh harf – согласная буква
urgʻu – ударение
urgʻuli boʻlak – ударенный член предложения
usul – способ
uchinchi shaxs – третье лицо
uyushiq boʻlaklar – обособленные члены предложения
feʼl – глагол
feʼl koʻmakchilar – вспомогательные глаголы
feʼl yasalishi – образование глагола
fonetik oʻzgarish – фонетическое изменения
chegaralov yuklamasi – ограничительная частица
chet – иностранный, -ая, -ое
chiqish kelishigi – исходный падеж
choʻziq – длинный, -ая, -ое
shakldosh soʻz – омоним
shart mayli – условное наклонение
shaxs – I лицо
shovqinli undoshlar – шумные согласные
ega – подлежащее

egalik kategoriyasi – категория принадлежности
egalik olmoshi – притяжательное местоимение
egalik qo‘shimchalari – окончания притяжательности
ergash bog‘lanish – подчинительная связь
ergashtiruvchi bog‘lovchi – подчинительный союз
yuklama – частица
yumshatish belgisi – мягкий знак
yuqori ton – сильный тон
yasama – производный, -ая, -ое
yasovchi qo‘shimcha – словообразовательное окончание
o‘zak – корень
o‘zakdosh so‘zlar – однокоренные слова
o‘zlashgan – заимствованный, -ая, -ое
o‘zlik nisbat – возвратный залог
o‘zlik olmoshi – возвратное местоимение
o‘rin-payt kelishigi – местный падеж
o‘rin ravishlari – наречия места
o‘rin holi – обстоятельство места
o‘tgan zamon davom shakli – многократ.длит.фор.проц.вр.
o‘tgan zamon maqsad shakli – форманамерения проц.врем.
o‘tgan zamon – прошедшее время
o‘timli fe‘l – переходной глагол
o‘timsiz fe‘l – непереходной глагол
qavs – скобки
qaratqich kelishigi – родительный падеж
qaratqichli aniqlovchi – притяжательное определение
qatlam – слой
qoida – правило
qonuniyat – закономерность
qiyosiy daraja – сравнительная степень
qisqa – короткий, -ая, -ое
qo‘shimcha – окончание, суффикс
qo‘shma gap – сложное предложение
qo‘shma – сложный, -ая, -ое

qo‘shimcha ma’no – дополнительное значение
harakat nomi – имя действия
harf – буква
hisob so‘zlar – нумеративы
his-hayajon gap – восклицательное предложение
hozirgi adabiy til – современный литературный язык
hozirgi zamon davom shakli – настоящее вр.данного момента
hozirgi zamon – настоящее время
hozirgi-kelasi zamon – настоящее-будущее время
hokim so‘z – главное слово
hol – обстоятельство
holat ravishlari – наречия образа действия

ALIFBE

A a B b C c Çç D d

E e Ə ə F f G g O o

H h I i J j K k L l

M m N n N n O o P p

Q q R r S s Şş T t

U u V v X x Z z Z z

1-ilova. 1940-yilgacha qoʻllangan lotin yozuvi asosidagi alifbo.

A L I F B O

А а Б б В в Г г Д д

Е е Ё ё Ж ж З з И и

Й й К к Л л М м Н н

О о П п Р р С с Т т

У у Ф ф Х х Ц ц Ч ч

Ш ш Ъ ъ Ь ь Э э Ю ю

Я я іџ ао £¼ ²³

2-ilova. 1940-yil may oyida qabul qilingan kirill yozuvi asosidagi alifbo.

A L I F B O

Lotincha Harflar		Kirillcha harflar	Lotincha Harflar		Kirillcha harflar
Bosma	Talaffuzi		Bosma	Talaffuzi	
A a	A	А а	R r	re	Р р
B b	be	Б б	S s	es	С с
C c	se	Ц ц	T t	te	Т т
D d	de	Д д	U u	u	У у
E e	E	Э э	V v	ve	В в
F f	ef	Ф ф	X x	xa	Х х
G g	ge	Г г	Y y	ye	Й й
H h	he	² ³	Z z	ze	З з
I i	I	И и			
J j	je (Jōra)	Ж ж (Жѳра)	C c	ce	Ч ч
K k	ka	К к	Ĝ ĝ	ĝa	£ ¼
L l	el	Л л	J j	je	Ж ж (аждод)
M m	em	М м	Ñ ñ	ñe	Нг нг
N n	en	Н н	Ō ō	ō ōrdak	ı ğ ğрдak
O o	o (ota)	О о (ота)	Ş ş	şe	Ш ш
P p	pe	П п	(´) tutuq belgisi – apostrof		
Q q	qa	а о			

3-ilova. 1993-yil 2-sentabrda qabul qilingan lotin yozuvi asosidagi alifbo.

A L I F B O

A a B b D d E e F f

G g H h I i J j K k

L l M m N n O o P p

Q q R r S s T t U u

V v X x Y y Z z O` o`

G`g` SH sh CH ch Ng ng

4-ilova. 1995-yil 6-mayda o'zgartishlar bilan qabul qilingan lotin yozuviga asoslangan yangi o'zbek alifbosi.

M U N D A R I J A

Soʻz boshi. _____	3
1-mashgʻulot. Fonetika. Unli tovushlar va ularning yozuvdagi ifodasi. _____	6
2-mashgʻulot. Undosh tovushlar va ularning yozuvdagi ifodasi. Boʻgʻin. Urgʻu. _____	15
3-mashgʻulot. Oʻzbekiston. Grammatika. Kishilik olmoshlari. Hozirgi zamon feʻli . _____	27
4-mashgʻulot. Toshkent. Grammatika. Egallik qoʻshimchalari. Oʻtgan zamon feʻli. _____	34
5-mashgʻulot. Samarqand. Grammatika. Kelishik kategoriyasi. Kelasi zamon feʻli. _____	39
6-mashgʻulot. Tarjimai hol. Leksikologiya. Sinonimlar. Omonimlar. Grammatika. Darak gap. _____	48
7-mashgʻulot. Dam olish kuni. Leksikologiya. Antonimlar. Paronimlar. Grammatika. Soʻroq gap. _____	60
8-mashgʻulot. Mening ish kunim. Grammatika. Ot soʻz turkumi. Buyruq va undov gaplar. _____	72
9-mashgʻulot. Oʻzbekistonning nabotot dunyosi. Grammatika. Sifat. Son . _____	87
10-mashgʻulot. Kutubxona. Grammatika. Gapda soʻz tartibi. Feʻl, uning xoslangan shakli - sifatdosh. _____	103
11-mashgʻulot. Oʻzbekistonning hayvonot olami. Grammatika. Holat, payt, oʻrin ravishlari. Feʻl mayllari _____	118
12-mashgʻulot. Bozorda. Grammatika. Daraja-miqdor, maqsad ravishlari. Ravishdosh. _____	135
13-mashgʻulot. Salomatlik–tuman boylik. Grammatika. Oʻzlik, soʻroq va koʻrsatish olmoshlari. Harakat nomi. _____	149
14-mashgʻulot. Yil fasllari. Grammatika. Belgilash, boʻlishsizlik va gumon olmoshlari. Oʻzlik va majhul nisbatlari. _____	164
15-mashgʻulot. Milliy va zamonaviy bayramlar. Grammatika. Birgalik va orttirma nisbatlar. Gap boʻlamlari. _____	182

16-mashgʻulot. Sharafli kasb. Grammatika.

Soʻz tarkibi. Soʻzlarning tuzilishiga koʻra turlari. Yordamchi va alohida guruh soʻzlar turkumi. _____	198
--	-----

ILOVALAR

Tarjima qilish va mustaqil oʻqish uchun matnlar. _____	210
Nazariy materiallar: _____	239
Leksikologiya. _____	243
Morfologiya. _____	284
Sintaksis. _____	290
Oʻzbekcha-ruscha lingvistik atamalar lugʻati. _____	299
Alifbolar. _____	299

Kitobga imlo qoidalarini ham ilova qilgan holda, taalabalarning yozma savodxonliklarini oʻstiruvchi mashqlar, matnlar kiritish kerak...